



YANGI O'ZBEKISTONDA TARIX SOHASINING DOLZARB MASALALARI

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI



KONFERENSIYA TO'PLAMI

2026



URGANCH INNOVATIONS UNIVERSITETI

Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

Yangi O'zbekistonda tarix sohasining dolzarb masalalari [Matn]: to'plam. – Urganch: 2026. – 212 b.

Dunyo tamaddunida **tarix fani** alohida va muhim o'rin egallaydi. Tarix boshqa fanlardan farqli ravishda insoniyat jamiyati taraqqiyoti, davlat va sivilizatsiyalarning shakllanishi, jamiyat hayotida yuz bergan siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlarni izchil hamda tizimli ravishda o'rganadi. Tarix ilmi o'tmish voqealarini tahlil qilish orqali bugungi kunni anglash va kelajakni belgilashda ahamiyatli hisoblanadi.

“**Yangi O'zbekistonda tarix sohasining dolzarb masalalari**” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallar to'plamidagi ilmiy tezis va maqolalar tarix sohasida amalga oshirilgan so'nggi tadqiqot va yangiliklarni keng ilmiy jamoatchilikka yetkazishga xizmat qiladi.

Mas'ul muharrirlar:

t.f.n., professor v.b. R.Abdirimov

PhD., dots. U.Maxmudov

Tahrir hay'ati:

PhD., dots. R.Anyozov

PhD., dots. M.Egamberganova

PhD., dots. B.Satimov

PhD., dots. O.Rajabov

To'plamda keltirilgan tezis (maqola)larning mazmuni, undagi ma'lumotlar va me'yoriy hujjatlar hamda fikr-mulohazalar, takliflarning to'g'riligiga mualliflarning o'zlari mas'uldirlar.

KIRISH

Bugungi globallashuv sharoitida milliy manfaatlarni himoya qilish va tarixni soxtalashtirishga qarshi kurashish muhim hisoblanadi. Turli mafkuraviy ta'sirlar, noto'g'ri talqinlar va siyosiy yondashuvlar tarixiy haqiqatni buzishga urinishi mumkin. Shunday vaziyatda ilmiy asoslangan, manbalarga tayanilgan, xolis tadqiqotlar alohida ahamiyat kasb etadi. Yangi O'zbekiston taraqqiyot bosqichida jamiyat hayotining barcha sohalarida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, tarix fanini rivojlantirish, uni zamonaviy metodologiya asosida qayta ko'rib chiqish va yosh avlod ongida tarixiy xotira hamda milliy o'zlikni mustahkamlash masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Tarix – bu nafaqat o'tmish voqealarining bayoni, balki bugungi kun va kelajak taraqqiyotining mustahkam poydevoridir.

Bugungi kunda tarix fanini rivojlantirish borasida mamlakatimizda keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan Yangi O'zbekiston konsepsiyasida tarixiy merosni chuqur o'rganish, milliy davlatchilik an'alarini tiklash va haqqoniy tarixni yaratish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tizimidagi ilmiy muassasalar hamda oliy ta'lim tashkilotlari tomonidan qator fundamental va amaliy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, yosh tadqiqotchilarni ilmiy izlanishlarga keng jalb etish, arxiv hujjatlari asosida yangi manbalarni ilmiy muomalaga kiritish, tarixni zamonaviy ilmiy metodlar asosida o'rganish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Yangi O'zbekiston sharoitida tarix fanining oldida turgan muhim vazifalardan biri – tarixiy haqiqatni tiklash va uni yoshlar ongiga yetkazishdir. Zero, tarixni bilmagan jamiyat kelajagini to'g'ri belgilay olmaydi. Shu nuqtai nazardan, talaba-yoshlarning tarixiy tafakkurini shakllantirish, ularda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish, tarixiy manbalar bilan ishlash malakasini oshirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, Yangi O'zbekistonda tarixiy obidalarni asrash va ularni xalqaro miqyosda targ'ib qilish masalasi ham dolzarbdir. UNESCO bilan hamkorlikda ko'plab tarixiy-madaniy meros obyektlari Jahon merosi ro'yxatiga kiritildi. Bu esa nafaqat tarixiy merosni asrash, balki uni ilmiy jihatdan o'rganish va ommalashtirishga ham xizmat qilmoqda. Tarixiy obidalar, qadimiy shaharlar, me'moriy yodgorliklar – bularning barchasi xalqimizning boy va serqirra o'tmishidan dalolat beradi.

Xulosa qilib aytganda, Yangi O'zbekiston sharoitida tarix fanini rivojlantirish, uning dolzarb masalalarini ilmiy asosda hal etish, tarixiy xotirani mustahkamlash va yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash davlat va jamiyat oldida turgan muhim vazifalardan biridir. “Yangi O'zbekistonda tarix sohasining dolzarb masalalari” mavzusidagi talabalar konferensiyasi ana shu ezgu maqsadlarga xizmat qiluvchi muhim ilmiy maydon bo'lib, u nafaqat ilmiy izlanishlar natijalarini taqdim etish, balki kelgusidagi istiqbolli tadqiqot yo'nalishlarini belgilab olishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

ANTI-K DAVRDA XORAZMDA URBANIZATSION JARAYONLAR

Abdullayev Utkir Ismailovich

tarix fanlari doktori, professor

Abdiyazova Mexrinov Shuxratovna

Urganch innovatsion universiteti magistranti

Annotatsiya: Quyidagi maqolada Xorazmning Ahamoniylardan ajralib chiqish davri va undagi urbanizatsion jarayonlar tarixi yoritilgan.

Kalit so'zlar: Kaltaminor, Ahamoniylar, Beruniy tumani, Oqshaxonqal'a, Qirgizqal'a, Qo'rg'oshinqal'a, Jonbosqal'a, g'arbiy Xorazmda Oqchagelin, Govurqal'a, Kangaqirqal'a.

Аннотация: В следующей статье освещается период отделения Хорезма от Ахеменидов и история процессов урбанизации в этом регионе.

Ключевые слова: Калтаминор, Ахемениды, район Беруний, Окшахонкала, Киркизкала, Кургашинкала, Джонбоскала, западный Хорезм - Окчагелин, Гавуркала, Кангакыркала.

Abstract: This article discusses the period of Khwarezm's separation from the Achaemenids and the history of urbanization processes in the region.

Keywords: Kaltaminor, Achaemenids, Beruniy district, Okshakhonqala, Qirgizqala, Qo'rg'oshinqala, Jonbosqala, western Khwarezm - Okchagelin, Govurkala, Kangaqirqala.

Bizga ma'lumki Xorazm mil.avv. VI-IV asrlarda Ahamoniylar hukmronligi ostida bo'lgan. Mil. avv. IV asrda Xorazm mustaqillikka erishgandan so'ng vohada urbanizatsion jarayon tezlashgan. Bu davrda qadimgi Xorazm davlati siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan yuksaladi. Markaziy boshqaruv Oqchadaryo o'zanidan chiqqan Kaltaminor kanali bo'yidagi Oqshaxonqal'a shahrida bo'lgan. Markaziy shaharga bo'ysungan dehqonchilik vohalarining ham markaziy shahri bo'lib, ular markaziy shahar bilan bog'langan. Dehqonchilik vohalarida ham ma'lum bir vazifalar yuklangan shaharlar bunyod etilgan. Bularga diniy e'tiqod uchun mo'ljallangan, suv oqimini nazorat qiluvchi, hunarmandchilik va savdo aloqalari uchun, chegaralarni himoya qiluvchi shaharlar kiradi. Shu bilan birga bu vazifalarni o'zida mujassamlashtirgan shaharlar ham bunyod etilgan.

Mil.avv. IV-III asrlardan davlatda siyosiy vaziyat barqarorlashib, shaharlar yiriklashib borgan, aholi sonining oshib borishi va sun'iy sug'orish tizimining takomillashtirilib borishi yangi hududlarni o'zlashtirishga, mamlakat hududining kengayishiga olib kelgan.

Mil.avv. IV asrdan milodiy III asrgacha qadimgi Xorazm davlati eng qudratli davlatlardan biriga aylangan. Bu davrda yirik shaharlar bunyod qilingan, ularning maydoni 10 gektardan ortiq bo'lgan[5]. Abu Rayxon Beruniy asarida, bu davrda 300 dan ortiq shaharlar bo'lganligini yozib qoldirgan[2]. Bu ma'lumotlarni arxeologik tadqiqotlar ham asoslangan. XX asrning 70-yillarida

300 dan ortiq yodgorliklar topilgan bo'lsa[3], 90-yillarning oxirida 400 taga yaqin shahar xarobalari aniqlangan[7]. Bu esa, hududda urbanizatsion jarayonning taraqqiy etganligini ko'rsatadi.

Antik davrda qadimgi Xorazm davlatining markaziy hududi Oqchadaryo o'zani bo'ylariga ko'chadi. Bu yerda Oqchadaryodan yangi sug'orish kanali chiqarilib, davlatning yangi markaziy shahari Oqshaxonqal'a bunyod etilgan. Bu markaz sharqiy Xorazm hududining Toshxirmon dehqonchilik vohasining g'arbiy qismida qurilgan.

Mil. avv. IV asrda qadimgi Xorazm davlatining markaziy shahri Oqshaxonqal'a bunyod etilgan. Shahar Qoraqalpog'istonning Beruniy tumanidagi Ozod jamoa xo'jaligi, Sulton Uvays tog' tizmasidan 15 km janubda joylashgan. Oqshaxonqal'a ikki qismdan iborat bo'lib, ichki va tashqi qal'aga ajratilgan. Ular umumiy mudofaa devori bilan o'ralgan. Qal'aning tarxi to'rtburchak bo'lib, umumiy maydoni 56 gektarni tashkil qilgan[10]. Uning mudofaa tizimiga alohida e'tibor qaratilgan. Handaq va proteyxizma bilan o'ralgan. Mudofaa devori qo'shdevor qilib ishlangan bo'lib, 1,5-3,2 metr balandlikda saqlanib qolgan. Qal'aning tashqi devori to'g'rito'rtburchak shaklidagi burjlar bilan himoyalangan. Nayzasimon shinaklar qal'a devori va burjlariga shaxmat tartibida o'rnatilgan. Ichki qal'aning to'rtta darvozasi bo'lib, ularning har biri devor o'rtasida joylashgan. Darvozalar adashtirma yo'l va burjlar bilan himoyalangan.

Oqshaxonqal'aning ichki qal'a qismi yaxshi saqlangan. Tashqi qal'aning mudofaa devorlarining izlari tadqiqotchilar tomonidan distansion zondlash uslubi orqali aniqlangan[9]. Ichki qal'ada rasm va haykallar bilan bezatilgan saroy-ibodatxona, otashkada va ustunli zal topilgan. Bu Markaziy Osiyo tarixi bo'yicha eng qadimiy rangli devoriy surat hisoblanadi. Yodgorlikning to'liq o'rganilishi xalqimizni boy tarixi bilan yanada yaqindan tanishtirishga imkon beradi.

Qadimgi Xorazm davlatida davlat chegaralariga alohida e'tibor qaratilgan. Chegaralar bo'ylab mustahkam qal'alar qurilgan. Chegarada qurilgan qal'alarning atrofida qishloqlar topilgan. Qishloqlar shaharlar va savdo uchun qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirishgan. Shu bilan birga, savdo uchun sopol buyumlar, hunarmandchilik buyumlari ham tayyorlaydigan ishlab chiqarish markazlariga aylangan[11]. Sharqiy Xorazmda Burli qal'a, Ayozqal'a 1-3, kichik Qirqqizqal'a, Qo'rg'oshinqal'a, Jonbosqal'a, g'arbiy Xorazmda Oqchagelin, Govurqal'a, Kangaqirqal'a va boshqa qal'alar bunyod qilingan.

Qal'a-shaharlar daryo o'zanlari va kanallar bo'ylarida sug'orish tizimini nazorat qilish uchun yoki chegara hududlarning mustahkamligini ta'minlash maqsadida qurilgan. Jonbosqal'a qadimgi Kaltaminor kanalining quyi oqimidagi qadimgi sug'oriladigan yerlarni boshqarish va suv bilan ta'minotini nazorat qilish uchun qurilgan. Qal'a atrofida qishloqlar ham aniqlangan. Qishloq aholisi urush paytlarda shaharda panoh topishgan. Shu bilan birga shahar ichida qurilgan ibodatxonada diniy marosimlarni ado etgan bo'lishlari mumkin[8].

Bozorqal'a kanali bo'ylab Eresqal'a, Odamliqal'a, Anqoqal'a, Qo'yqirilganqal'a, Qo'ziqirilganqal'a, Qo'rg'oshinqal'a va boshqa qal'alar bunyod etilgan. Qadimgi Tozabog'yob kanalining havzasida Katta Guldursun, Qumbosganqal'a, Teshikqal'a, Burgutqal'a, Uyqal'a, Katta va Kichik Qirqqiz qal'alari qurilib, bu hududning eng yirik shaharlari Katta Qirqqiz, Katta Guldursun shaharlari hisoblangan[6]. Tozabog'yob kanalidan chiqarilgan Tuproqqal'a kanali bo'ylarida Dumanqal'a, Jildiqqal'a, Tuproqqal'a, Qizilqal'a, Burliqal'alar qurilgan. Qadimgi Tuproqqal'a kanalidan chiqarilgan Yakka Parson kanali bo'ylarida Norinjonqal'a, Bo'ronqal'a, Qumqal'a, Yakka Porson, Ayozaqal'a 1, Ayozaqal'a 3 qal'alari bunyod etilgan[4].

Qadimgi Xorazm davlatida mil. avv. IV asrda boshlangan urbanizatsion jarayonlar keyingi davrlarda ham shu qal'alarda davom qilgan, lekin mil.avv. II asrda ko'chmanchilarning hujumi natijasida qal'alar vayron qilingan. Mil.avv. I asrdan boshlab, hududda yana rivojlanish kuzatiladi. Shaharlarning qurilishi boshlanadi. Arxeologik tadqiqotlar natijasida bu davrda qadimgi Xorazm davlatida yangi sulola hukmronligi o'rnatilgan. Yangi sulola vakillari vayron bo'lgan qal'alarning aksariati qaytadan tiklab, mudofaa tizimini mustahkamlanganlar. Qizilqal'a, Ayozaqal'a 2, To'qqal'a, Toshqal'a 2, Jigarband, Sadvar, Olmaotishkan 1, Katqal'a, Voyangan, Zamahshar, Ko'hna Uaz, Yorbakrqal'a, Shohsanam, Mangirqal'a, Mizdahkon Govurqal'asida hayot izlari o'rta asrlarda ham kuzatilgan. Bu qal'alarda hayotning davom qilishi asosan, ularning suv bilan ta'minlanishi hisoblangan. Suv ta'minoti to'xtagach, aksariyat qal'alardan aholi ko'chib ketgan.

Qalajiq, Xiva Tuproqqal'asi, Shovot Tuproqqal'asi, Ko'narliqal'a, Qo'yqirilganqal'a, To'qqal'a, Quvisoyqal'a, Qandumqal'a, Devkeskanqal'a kabi qal'alarning suv bilan ta'minoti to'xtagach, qayta o'zlashtirilmagan.

Dovdon kanalining o'ng qirg'og'idan Yormish kanali bo'yida mil.avv. VI asrda mustahkamlanagan qishloq tarzida Katqal'a yodgorligi qurilgan. Bu davrga oid ikki qatorli devor va yo'lakdan iborat inshoot qoldig'i aniqlangan. U hozirgi kunda Xorazm viloyati Shovot tumani hududida, Urganch shahridan 25 km shimoli-g'arbda bunyod etilgan. Antik davrga kelib, Yormish kanali bo'ylarida Kat-qal'adan 15 km shimoli-g'arbda Voyangan, Shovot Tuproqqal'asi, janubi-sharqda 16 km masofada Tuzloq yodgorliklari bunyod etilgan. Bu qal'alar Xorazm vohasining o'rta asrlarda va keyingi davrlardagi intensiv hayot davom etganligi sababli saqlanib qolmagan. Katqal'ada olib borilgan keyingi tadqiqotlar natijasida uning 6 ta xronologik bosqichi aniqlangan[1]. Shaharda hayot XIX asrda ham davom etgan. Shahar tarxi trapesiya shaklida bo'lib, umumiy maydoni 9,5 gektarni tashkil qilgan. Arxeologik tadqiqotlar natijasida bu yerdan Xorazmshoh Artavning tetradraxmasi va mis tangalari, ostodonga yozilgan yozuvlar va yunon yozuvi namunasi ham topilgan.

Xulosa qilib shuni aytish lozimki Xorazm vohasidagi ilk urbanizatsion jarayonlar Ahamoniylar hukmronligidan oldin boshlangan. Ahamoniylar hukmronligi davrida aholi kengroq hududlarni o'zlashtirgan. Qadimgi Xorazmda

hududning suv bilan ta'minlanishi eng muhim omil hisoblangan. Hozirgi kunda suv ta'minoti mavjud hududlarda aholi ko'hna qal'alar atrofida yashab kelmoqda. Misol uchun Qoraqalpog'iston Respublikasining Ellikqal'a tumanini, Xorazm viloyatining Xazorasp, Xiva, Shovot tumanlarida aholi qadimgi davrdan to bugungi kungacha yashab kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Б.П.Садуллаев. Чап кирқоқ Кат-қалъа – Хоразмнинг қадимги ва ўрта асрлар шаҳри. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси. - Тошкент. 2022. -Б.144.
2. Беруний Абу Райхон. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. – Тошкент: Фан, 1968. – Б. 231.
3. Воробьева М.Г. Проблема “ Большого Хорезма” и археология. // Этнография и археология Средней Азии. – Москва: Наука, 1979. – С. 40.
4. Манылов Ю.П., Ходжаниязов Г. Аяз кала 1 и Бурлы кала (К изучению Хорезмской фортификации). // Археологические исследования в Каракалпакии. – Ташкент: 1981. – С. 33- 35; Болелов С.Б. Крепость Аяз – кала –3 в правобережном Хорезме. // Приаралье в древности и средневековье: Сб. К 60–летию Хорезмской археолого – этнографической экспедици. – Москва: Восточная литература, 1998. – С. 116 – 135.
5. Неразик Е.Е. Древние города Хорезма и пути их развития (IV в. до н.э. IV в. н.э.). / Центральная Азия. История, источники, культура. – Москва: Восточная литература, 2005. – С. 543 – 561.
6. Неразик Е.Е. К проблеме развития городов Хорезма. // Культура и искусство древнего Хорезма. – Москва: Наука, 1981. – С. 233; Ходжаниязов Г. Қадимги Хоразм мудофаа иншоотлари. – Б. 46.
7. Рапопорт Ю.А. Краткий очерк истории древнего Хорезма в древности. – С. 31 –32.
8. Толстов С.П. Древний Хорезм. – С. 88 – 98. Рис. 25, 29.
9. Ходжаниязов Г. Қадимги Хоразм мудофаа иншоотлари. -Б. 37.
10. Ходжаниязов Г.Х., Ягодин В.Н., Хелмс С.У., Макларен Б.П. Раскопки на Акшахан кале. //Ўзбекистонда археологик тадқиқотлар- 2000 йил. 1-сон. –Самарқанд. 2001. – С.175-181.
- 11.Хорезм в истории государственности Узбекистана. – С. 70.

O'ZBEK MILLIY KURASHI: SULOLAVIY POLVONLAR TARIXI

Maxmudov Umrbek Baxtiyorovich

Urganch innovatsion universiteti dotsenti

E-mail: umrbekmaxmudov91@gmail.com

Ruzimova Mahliyo Sayilxon qizi

Urganch innovatsion universiteti

2- bosqich magistranti

E-mail: ruzimovamahliyo96@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbek milliy kurashi tarixida sulolaviy polvonlarning roli, ularning ijtimoiy mavqei va sport madaniyati rivojiga qo'shgan hissasi, xalq orasidagi obro'si, kurash texnikasi va ma'naviy merosi ilmiy dalillar bilan ko'rsatiladi. Shu bilan birga, maqolada sulolaviy polvonlarning xalq hayotidagi o'rni va ularning milliy kurash an'alarini shakllantirishdagi ahamiyati yoritiladi.

Kalit so'z: O'zbek milliy kurashi, polvonlar, sulolaviy davr, ijtimoiy mavqe, sport madaniyati, an'ana, tarix.

Аннотация: В данной статье подробно анализируется роль султанских борцов в истории узбекской национальной борьбы их социальный статус и вклад в развитие спортивной культуры рассматриваются деятельность борцов в султанский период их авторитет среди народа а также техническое и духовное наследие борьбы. Кроме того, статья раскрывает место борцов в жизни народа и их роль в формировании традиций национальной борьбы.

Ключевые слова: Узбекская национальная борьба, борцы, династический период, социальный статус, спортивная культура, традиции, история.

Abstract: This article provides a detailed analysis of the role of dynastic wrestlers in the history of Uzbek national wrestling, their social status, and their contribution to the development of sports culture. The activities of wrestlers during the dynastic period, their reputation among the people, and the technical and spiritual heritage of wrestling are discussed. Additionally, the article contribution to forming the traditions of national wrestling.

Keywords: Uzbek national wrestling, wrestles, dynastic period, social status, sports culture, tradition, history.

O'zbek milliy kurashi Markaziy Osiyoda yuz yillar davomida shakllangan va rivojlangan sport turi bo'lib, u nafaqat jismoniy kuchni, balki ma'naviy qadriyatlarni ham o'zida mujassam etadi. Sulolaviy polvonlar esa ushbu kurashning rivojlanishida asosiy rol o'ynagan, ular qabilaviy va davlat darajasida obro'ga ega bo'lgan. Shu sababli sulolaviy polvonlarning faoliyati o'zbek milliy kurashining tarixini o'rganishda asosiy manba hisoblanadi. Milliy kurash tarixi bilan shug'ullanuvchi olimlar ta'kidlaganidek, sulolaviy polvonlar jamiyatda

nafaqat sportchi, balki diplomatik va madaniy rolni ham bajargan. Shu bois ular haqida batafsil ilmiy tahlil olib borish muhimdir.

O'zbek milliy kurashi asrlar davomida mavjud bo'lan va shu davr mobaynida shakllanib kelgan sport turlaridan biri. U xalqning ijtimoiy hayoti, harbiy tayyorgarligi va ma'naviy dunyosi bilan chambarchas bog'liq holda rivojlangan. Sulolaviy polvonlar faoliyatining eng muhim jihatlaridan biri – vorisiylik hisoblanadi. Polvonlik mahorati ko'pincha otadan og'ilga, ustozdan shogirdga o'tgan. Bu jarayon qat'iy an'analar asosida amalga oshirilgan bo'lib, yosh polvonlar jismoniy tayyorgarlik bilan birga axloqiy va ma'naviy tarbiya ham olgan. Kurash maktablarida halollik, raqibga hurmat, sabr-toqat va o'zini tuta bilish kabi fazilatlar muhim hisoblangan. Shu sababli sulolaviy polvonlar xalq orasida nafaqat kuchli sportchi, balki ibratli shaxs sifatida ham e'tirof etilgan.

Tadqiqotchilar fikricha, kurash dastlab jismoniy chiniqish va harbiy mashg'ulot sifatida paydo bo'lib, keyinchalik xalq bayramlari va marosimlarining ajralmas qismiga aylangan[1; B.12-18]. Xalq bayramlari, Navro'z sayillari va to'y marosimlarda polvonlar kurashi asosiy tomosha sifatida nomoyish etilgan. Bu esa kurashning ommalashuviga va uning milliy qadriyat sifatida mustahkamlanishiga xizmat qilgan. Aynan sulolaviy davrlarda, ya'ni hukmdorlar va zodagonlar atrofida shakllangan ijtimoiy tuzum sharoitida kurash alohida e'tibor qozona boshlagan. Chunki hukmdorlar jismonan baquvvat, jasur va xalq orasida obro'-e'tiborga ega polvonlarni o'z hokimiyatining ramzi sifatida qo'llab-quvvatlagan. Natijada, ularning faoliyati avloddan avlodga meros sifatida o'tgan [2; B.39-44].

Sulolaviy polvonlar ko'pincha hukmdor sulolalarga yaqin bo'lgan va davlat tomonidan moliyaviy va ijtimoiy qo'llab-quvvatlangan[4; B.21-24]. Ularning obro'si xalq orasida ham yuqori bo'lgan, ular bayramlar va kurash tadbirlarida namuna sifatida ko'rsatilgan.

Shayboniylar sulolasida mashhur polvonlar saroy va qishloq bayramlarida ishtirok etgan, ularning kurash texnikasi va jasoratlari xalq e'tiborini qozongan [5; B.34-36]. Shu bilan birga, polvonlar ko'pincha hududiy nizolarni hal qilishda vositachi sifatida ham faoliyat yuritgan. Polvonlarning kuchi va jasorati jamiyatda ijtimoiy adolat va hurmat timsoli sifatida qabul qilingan [6; B.57-58].

O'zbek milliy kurashi sulolaviy davrda nafaqat sport, balki diplomatik vosita sifatida ham ishlatilgan. Misol uchun, Mirzo Ulug'bek zamonidagi polvon Niyozxon kurash orqali hududiy nizolarni hal qilgan va xalq orasida adolat va kuch timsoli sifatida tanilgan [6; B.55-58].

Sulolaviy polvonlar tushunchasi faqatgina bir oiladan chiqqan kuchli sportchilarni emas, balki ma'lum hudud yoki saroy atrofida shakllangan professional kurash maktablarini ham anglatadi. Bu holat O'zbek milliy kurashining barqaror rivojlanishiga xizmat qilgan. Sulolaviy polvonlar o'z tajribalarini shogirdlarga yetkazish orqali kurash texnikasini rivojlantirgan. Ularning merosi nafaqat jismoniy tayyorgarlik, balki ma'naviy tarbiya bilan bog'langan [3; B.92-93].

Polvonlarning asriy meros namuna ishlari bugungi kungacha kurash maktablarida qo'llaniladi va o'zbek milliy kurashining asosi sifatida qadrlanadi. Polvonlar o'z texnik usullarini og'zaki va yozma shaklda saqlagan, bu esa eski kurashning davomiyligini ta'minlagan [2; B.47-48].

Shu tariqa sulolaviy polvonlar nafaqat sportchi, balki ma'naviy yetakchi sifatida ham faoliyat yuritgan. Sulolaviy polvonlar xalq hayotining ajralmas qismi bo'lgan. Bayramlar, dasturlar va xalq uchrashuvlarida ularning ishtiroki nafaqat sportni, balki madaniyatni ham rivojlantirgan [4; B.25-28].

Ular haqidagi rivoyatlar, dostonlar va maqollar xalq og'zaki ijodida keng tarqalgan. Polvonlar obrazi ko'pincha jasorat, adolat va vatanparvarlik timsoli sifatida tasvirlangan [4; B.29-32].

Temuriylar davrida jismoniy kuch va harbiy tayyorgarlik davlat siyosatining muhim tarkibiy qismi bo'lgan. Manbalarda qayd etilishicha, Amir Temur o'z lashkarini tanlashda jismonan baquvvat, kurash va jang san'atlarida chiniqqan kishilarga alohida e'tibor bergan. Kurash esa askarlarning jismoniy tayyorgarligini oshirishda muhim vosita sifatida qo'llanilgan [1; B.41-45].

Mirzo Ulug'bek davrida xalq sayillari va bayramlarida kurash musobaqalarining muntazam o'tkazilishi qayd etildi. Bu musobaqalarda bir sulolaga mansub polvonlarning ketma-ket ishtirok etishi vorisiylik an'anasining kuchli bo'lganini ko'rsatadi [3; B.100-101].

Shayboniylar sulolasi davrida polvonlarning ijtimoiy va siyosiy mavqei yanada mustahkaamlangan. Manbalarda keltirilishicha, ayrim hududiy nizolar kurash musobaqalari orqali hal qilingan. Bunday holatlarda ikki tomon o'z polvonlarini chiqarib, g'alaba qozongan tarafning talabi ustun qo'yilgan. Bu esa polvonlarning nafaqat sportchi, balki siyosiy vakil sifatida ham maaydonga olib chiqqan. Buxoro va Xiva xonliklari davrida ham sulolaviy polvonlarning ham siyosiy ham ijtimoiy mavqei baland bo'lgan [6; B.55-58].

Sulolaviy polvonlar o'zbek milliy kurashi tarixida muhim o'rin egallagan va ular nafaqat sportchi, balki jamiyatdagi muhim ijtimoiy timsol sifatida tanilgan. Ularning faoliyati bir necha jihatdan yuqori ahamiyatga ega bo'lgan. Sulolaviy polvonlar kurashning texnik va taktikasini rivojlantirib, o'quvchilarga va shogirdlarga yetkazgan. Shu tariqa ular o'zbek milliy kurashining asoslarini yaratishda muhim rol o'ynagan [7; B.66-68].

Sulolaviy polvonlar ko'pincha hukmdor sulolalar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, hududiy nizolarni hal qilishda vositachi sifatida faoliyat yuritgan. Ularning obro'si va kuchi xalq orasida adolat va ishonch timsoli bo'lgan [5.34-36].

Polvonlar xalq hayotining ajralmas qismi bo'lib, bayramlar va dasturlarda ishtirok etgan. Ular nafaqat jismoniy kuchni, balki ma'naviy meros va xalq an'analari tarqatib bergan [4; B.25-28; 2; B.48-50].

Polvonlar o'z tajribasini shogirdlarga yetkazgan, bu esa kurashning avloddan – avlodga o'tishini ta'minlagan. Sulolaviy polvonlarning og'zaki va yozma merosi bugungi kungacha milliy kurashni o'rganishda asosiy manba sifatida qadrlanadi.

Umuman olganda, sulolaviy polvonlar o'zbek milliy kurashining texnik, ijtimoiy, madaniy va ma'naviy asoslarini yaratishgan. Ularning faoliyati o'zbek xalqining tarixiy xotirasi va sport madaniyatining rivojlanishida muhim manba bo'lib qolgan. Shu bilan birga, polvonlar xalq orasida kuch, adolat va jasorat timsoli sifatida eslab qolingan. Ularning tarixi nafaqat sport tarixini, balki o'zbek jamiyatining madaniy va ijtimoiy hayotini chuqur tushunishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qodiriy A. O'zbek milliy kurashi tarixi – Toshkent: Fan, 1978. – 184 bet. – Iqtibos olingan betlar: 12-18, 41-45.
2. Mirzayev S. Sulolaviy davr polvonlari va ularning faoliyati – Samarqand: Ma'rifat, 1999. – 132 bet. – Iqtibos olingan betlar: 39-44, 52-34.
3. Toshpo'latov B. O'zbek sportining qadimiy ildizlari – Toshkent: Sharq, 2003. – 156 bet. – Iqtibos olingan betlar: 85-97, 101-112.
4. Abdullayev J. Polvonlar va xalq o'yinlari tarixi – Buxoro: Ilm, 2010. – 148 bet. – Iqtibos olingan betlar: 24-33.
5. Karimov T. Shayboniylar davrida ijtimoiy hayot – Toshkent: Akademiya, 2005. – 176 bet. – Iqtibos olingan betlar: 31-36.
6. Sodiqov A. Milliy kurash va xalq bayramlari – Qarshi: Ilm-fan, 2012. – 164 bet. – Iqtibos olingan betlar: 55-60.
7. Ergashev N. O'zbek kurashining metodik asoslari – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. – 210 bet. – Iqtibos olingan betlar: 63-74.

SHAPING A SUSTAINABLE FUTURE: ECOLOGICAL AWARENESS AND STATE POLICY IN UZBEKISTAN

Egamberganova Matluba Jobborgonovna

PhD, Associate Professor

Urganch Innovative University

E-mail: matluba93@urgiu.uz

Annotatsiya: So'nggi yillarda O'zbekistonda zamonaviy ekologik madaniyatni rivojlantirish davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biriga aylangan. Ushbu jarayon milliy an'analar, ma'naviy va madaniy qadriyatlar hamda ilmiy asoslangan islohotlarni integratsiyalash orqali amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-maydagi 434-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi" ekologik savodxonlikni oshirish, ekologik mas'uliyatni shakllantirish va aholi, ayniqsa, yoshlar orasida ekologik ongni yuksaltirish uchun mustahkam institutsional asos yaratdi.

Kalit so'zlar: ekologik madaniyat, ekologik ta'lim, barqaror rivojlanish, davlat siyosati, milliy qadriyatlar, O'zbekiston.

Аннотация: В последние годы формирование современной экологической культуры в Узбекистане стало одной из ключевых задач государственной политики. Этот процесс продвигается через интеграцию национальных традиций, духовных и культурных ценностей, а также научно-обоснованных реформ. Принятие «Концепции развития экологического образования», утвержденной Постановлением Кабинета Министров Республики Узбекистан № 434 от 27 мая 2019 года, создало прочную институциональную основу, направленную на повышение экологической грамотности, формирование экологической ответственности и повышение уровня осведомленности населения, особенно молодежи.

Ключевые слова: экологическая культура, экологическое образование, устойчивое развитие, государственная политика, национальные ценности, Узбекистан.

Abstract: In recent years, the cultivation of a modern ecological culture in Uzbekistan has become a central focus of state policy. This process is being advanced through the integration of national traditions, spiritual and cultural values, and evidence-based scientific reforms. The adoption of the "Concept for the Development of Environmental Education," endorsed by the Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan No. 434 dated May 27, 2019, has established a robust institutional framework aimed at enhancing environmental literacy, fostering ecological responsibility, and raising awareness among the population, particularly the younger generation.

Keywords: ecological culture, environmental education, sustainable development, state policy, national values, Uzbekistan

Introduction. The issue of forming a modern ecological culture in Uzbekistan has acquired strategic importance in the context of global environmental challenges

and sustainable development goals. Environmental degradation, climate change, depletion of natural resources, and the consequences of the Aral Sea crisis have made it necessary to reconsider the relationship between society and nature at both national and global levels. In this regard, Uzbekistan has identified the development of ecological culture as one of the key priorities of state policy.

The formation of ecological culture in the country is based on the integration of national traditions, moral values, and contemporary scientific approaches. The state recognizes that sustainable development cannot be achieved without raising environmental awareness and fostering responsible behavior among citizens. As noted in official policy documents, environmental education and upbringing play a decisive role in shaping a culture of careful and rational use of natural resources.

[1]

The legal and institutional foundations for the development of ecological culture in Uzbekistan were significantly strengthened with the adoption of the "Concept for the Development of Environmental Education." This document outlines a comprehensive system of measures aimed at forming ecological knowledge, consciousness, and culture at all levels of education.

The main objective of the Concept is to instill environmental responsibility in the younger generation by integrating environmental knowledge into the education system and promoting sustainable attitudes toward nature. According to the Concept, environmental education is considered not only a set of academic disciplines but also a continuous process of moral and cultural development that shapes an individual's worldview. [2]

The implementation of this policy contributes to strengthening ethical and cultural approaches to human–nature relations, which is essential for achieving sustainable development.

Environmental education begins at the preschool level through programs such as "Eco-friendly Child," which aim to develop initial perceptions of nature protection and environmental responsibility among children. At this stage, children acquire basic skills related to cleanliness, respect for living organisms, and care for the environment.

In general secondary education, environmental topics are integrated into various subjects. Issues such as water conservation, biodiversity protection, and the Aral Sea disaster are studied in accordance with students' age and cognitive abilities. This interdisciplinary approach contributes to the formation of environmental awareness and critical thinking skills. [3. P-126].

In secondary specialized and vocational education institutions, environmental knowledge is incorporated into professional training programs. Subjects related to rational use of natural resources, pollution prevention, and innovative eco-technologies are included in curricula for industrial, agricultural, and economic specialties.

Higher education institutions play a key role in training qualified environmental specialists. The academic program "Ecology and Environmental

Protection” (5630100) provides opportunities for scientific research at bachelor’s, master’s, and doctoral levels. The involvement of professors, researchers, and students in environmental research strengthens the scientific basis of national environmental policy and supports sustainable development strategies.

Ecological culture in Uzbek society has deep historical roots. The ancient source “Avesta” emphasizes harmony between humans, nature, and society, highlighting ideas of purity, balance, and respect for the environment. These principles remain relevant in the modern context and align with contemporary ecological concepts.

National traditions emphasize careful treatment of water, land, and plants, avoidance of wastefulness, and respect for nature as a sacred value. Such cultural norms form the moral foundation of ecological culture and contribute to the development of environmentally responsible behavior [4.].

The family plays a crucial role in shaping ecological culture. In the family environment, children learn attitudes of cleanliness, thriftiness, compassion toward living beings, and respect for natural resources. These early experiences significantly influence an individual’s ecological worldview.

At the societal level, environmental culture is promoted through public initiatives, competitions, and awareness campaigns. Programs such as “The Best Eco-friendly School” and “The Best Young Ecologist” encourage active participation of students and communities in environmental protection activities.

RESULTS AND DISCUSSION

The implementation of state environmental policies and educational reforms has led to a noticeable increase in environmental awareness among the population, particularly among young people. Citizens demonstrate greater responsibility toward nature, participate in environmental activities, and support initiatives aimed at protecting the environment.

Ecological culture in Uzbekistan is developing not only through legal and educational mechanisms but also through moral, aesthetic, and cultural education. Appreciation of natural beauty, participation in community improvement activities, and promotion of environmental ethics contribute to sustainable social development.

CONCLUSION

In conclusion, the formation of modern ecological culture in Uzbekistan is a complex and multifaceted process based on the integration of national values, historical experience, and state environmental policy. Ecological culture serves not only as a means of environmental protection but also as a key factor in moral development and sustainable societal progress.

The ecological culture of the population of Khorezm, in particular, reflects the harmony of historical traditions, national values, and modern environmental policy. It represents a socio-cultural phenomenon aimed at establishing a sustainable lifestyle and harmonious coexistence between humans and the natural environment.

REFERENCES

1. Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan. (2019, May 27). *Resolution No. 434 "On Approval of the Concept for the Development of Environmental Education in the Republic of Uzbekistan"*. Tashkent, Uzbekistan.
2. Adambaev, U., & Djoraev, D. (2022). *Ecological culture and its formation*. Academic Research in Educational Sciences, 3(2), 126–130. ISSN: 2181.
3. Yunusova, A. T. (2002). *Religion and society*. Huquq – Pravo – Law, 1, 10–12. Tashkent, Uzbekistan.
4. *Avesta: The sacred Zoroastrian texts*. (n.d.). Translated and edited by James Darmesteter (1880). London: Oxford University Press.

O'RTA OSIYO XONLIKLARINING O'ZARO ICHKI SAVDO ALOQALARIDAGI YO'LLAR

Anyozov Ruslan Botirovich

Urganch innovatsion universiteti dotsenti

Saidova Dilmira Maxsudovna

Urganch innovatsion universiteti magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada XIX asrda O'rta Osiyo xonliklari — Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklari o'rtasidagi o'zaro ichki savdo aloqalari va savdo yo'llarining shakllanishi, rivojlanishi hamda faoliyat yuritish xususiyatlari tahlil qilinadi. Savdo yo'llarining iqtisodiy hayotdagi o'rni, karvon va suv yo'llarining ahamiyati, transport vositalari, yuk tashish tartiblari, savdo markazlari va yo'lbo'yi inshootlarining vazifalari yoritib beriladi. Shuningdek, savdo aloqalarining xonliklar o'rtasidagi iqtisodiy integratsiya va madaniy aloqalarga ko'rsatgan ta'siri ochib berilgan.

Kalit so'zlar: O'rta Osiyo xonliklari, savdo yo'llari, karvon yo'llari, ichki savdo, Buxoro amirligi, Xiva xonligi, Qo'qon xonligi, karvonsaroy, sardoba, hunarmandchilik.

Аннотация: В статье рассматриваются внутренние торговые связи между среднеазиатскими ханствами — Бухарским эмиратом, Хивинским и Кокандским ханствами в XIX веке. Анализируются основные торговые пути, их структура и значение в социально-экономической жизни региона. Особое внимание уделяется караванным и водным путям, средствам транспорта, торговым центрам и дорожной инфраструктуре. Показана роль торговли в развитии экономической интеграции и культурных связей между ханствами.

Ключевые слова: Средняя Азия, ханства, торговые пути, караванная торговля, внутренний рынок, Бухарский эмират, Хивинское ханство, Кокандское ханство, караван-сарай, инфраструктура.

Abstract: This article examines the internal trade relations among the Central Asian khanates — the Bukhara Emirate, the Khiva Khanate, and the Kokand Khanate in the nineteenth century. It analyzes the formation and functioning of major trade routes, including caravan and river routes, as well as transportation methods, trade centers, and roadside infrastructure. The study highlights the role of trade routes in strengthening economic integration and cultural interactions within the region.

Keywords: Central Asia, khanates, trade routes, caravan trade, internal commerce, Bukhara Emirate, Khiva Khanate, Kokand Khanate, caravanserais, trade infrastructure.

O'rta Osiyo xonliklari o'rtasidagi savdo-sotiq aloqalari mintaqada qaror topgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyatdan kelib chiqqan holda rivojlanib borgan. XIX asrda mintaqadagi uchta davlat, ya'ni Qo'qon, Xiva va Buxoro xonliklari o'rtasida o'zaro ichki va tashqi savdo yo'lga qo'yilgan bo'lib,

shuningdek ularni Afg'oniston, Hindiston, Xitoy, Eron, Rossiya davlatlari bilan bog'lovchi savdo yo'llari ko'p asrlik savdo aloqalari jarayonida rivojlangan bo'lib, ularning eng muhimlari Buyuk ipak yo'li davridayoq shakllanib, qadimdan faoliyat ko'rsatardi. Qo'shni davlatlar bilan savdo-sotiq aloqalarida avvalo ichki savdo yo'llari orqali tashqi yo'llarga chiqilardi. Xonliklarda ko'pgina yirik shaharlar, xususan, Qo'qon xonligida Qo'qon, Andijon, Namangan, Marg'ilon, Toshkent shaharlari, Buxoro amirligida Buxoro, Qarshi, Samarqand, Chorjo'y, Shahrisabz, Termiz shaharlari, Xiva xonligida, Xiva, Qo'ng'iro't shaharlari o'sha davrning asosiy savdo markazlari bo'lib, ular bilan bog'langan savdo yo'llari har bir mamlakat iqtisodiy hayotida muhim rol o'ynagan.

E'tirof etish lozimki, O'rta Osiyo xonliklari o'rtasidagi o'zaro ziddiyatlar, hududiy kelishmovchiliklar, harbiy to'qnashuvlar yuz berib tursada, moddiy ehtiyojlar tufayli o'zaro savdo-sotiq olib borish, o'zaro xo'jalik aloqalari o'rnatish uzluksiz davom etgan. Shu sababli xonliklar o'rtasida savdo-sotiq yo'lga qo'yilib, hech qachon butunlay to'xtamagan va bunda savdo yo'llari muhim ahamiyat kasb etgan.

Savdo aloqalarining yuksalib borishida qadimiy karvon yo'llarining o'ziga xos ta'siri bo'lib, bu yo'llar XIX asrning o'rtalarigacha savdo-sotiq rivojida muhim rol o'ynab kelgan [1,43].

O'rta Osiyo xonliklari o'rtasidagi o'zaro savdo yo'llari tekisliklar, taqirliklar, baland-pastliklar, qumliklar, tog'lik joylar, qir-adirlar, jarliklar, dovonlar orqali o'tganligi uchun ularni qat'iy nazorat qilish ishi qiyinchilik tug'dirardi. Ayniqsa, mavsumiy muammolar, ba'zi yo'nalishlarning faqat mavsumiy amal qilishiga sabab bo'lgan. Hamma vaqt ham yo'llar xavfsizligi to'liq ta'minlanmagan. Odatda savdo yo'llari davlat xazinasini hisobidan ta'mirlanmasdi, ko'p hollarda hashar yo'li bilan ular qurilar, ta'mirlanib turilardi.

O'rta Osiyo xonliklari o'rtasidagi o'zaro savdo yo'llari o'zining tuzilishi, xususiyatiga ko'ra karvon yo'llari va suv yo'llariga bo'lingan. Ichki savdoda ot arava yuradigan yo'llardan ham foydalanilgan, ammo ular juda kam edi. Ichki savdo-sotiq asosan yuk orilgan hayvonlar yuradigan yo'llar orqali olib borilib, savdo yo'llarida asosan, ot, tuya, xachir, ba'zan esa eshaklardan ham foydalanilgan[2.254].

Karvon yo'llari ham yo'lining tuzilishi va xususiyatiga qarab bir-biridan farqlangan. Chunonchi, tekisliklar orqali yuriladigan yo'l, baland-pastliklar (qir-adir) orqali yuriladigan yo'l, tog'liklar (dovon) orqali yuriladigan yo'l. Suv yo'llari ham yuklarni tashuvchi transport vositasiga qarab farqlangan: an'anaviy qayiqchilik yo'li va kemachilik (motor, dvigateli bor) yo'li va hokazo.

Xiva xonligi bilan Buxoro amirligi o'rtasidagi savdo-sotiq aloqalarida karvon yo'li bilan birga Amudaryo suv yo'lidan ham foydalanilgan bo'lsa,

Buxoro amirligi bilan Qo'qon xonligi o'rtasida esa quruqlik va tog'liklardan o'tadigan karvon yo'llari asosiy savdo yo'llari hisoblangan.

Buxoro amirligining yirik markazlarini bog'lab turadigan yo'llarning aksariyati qadimdan amal qilib kelgan karvon yo'llaridan iborat bo'lib, ular: Jomboy-Kitob, Qarshi-Kelif, Darbent-Garm, Shahrisabz-Regar, Kelif-Sherobod, Tobi Dara-Kallavanch, Garm-Chubek yo'nalishlarida faoliyat ko'rsatgan.

Buxoro va Qo'qon xonliklaridagi tog'lik rayonlarda, tog' dovonlari orqali o'tgan yo'llardan yilning noyabr oyidan to mart oyigacha bo'lgan davrda foydalanib bo'lmagan. Ularga quyidagilarni kiritish mumkin: 1) Garm bilan Marg'ilon o'rtasidagi yo'l; 2) Kallai Xum bilan Langar o'rtasidagi yo'l; 3) Qoratog' bilan Samarqand (Mur dovoni orqali) o'rtasidagi yo'l; 4) Samarqand-Termiz yo'lining ayrim shahobchalari (Hisor va Boysun).

Ushbu yo'llardan yilning qish faslida foydalanish imkoni yo'q edi. Faqat mahalliy aholi tomonidan eshak bilan yuk tashish mumkin bo'lib, ot va tuyalardan tashkil topgan karvonlar harakati mavsumiy edi.

Xivadan Buxoroga boradigan karvon yo'lining eng qisqa masofasi 335 verst bo'lib, bu yo'lining asosiy yo'nalishi Azaris, Kukertli, Ucho'choq, Sho'rbuloq, Agrabod, Chorgo'shi, Buxoro yo'nalishlari bo'ylab o'tgan. Buxorodan Xivaga boradigan karvon yo'lining asosiy yo'nalish Kukertliga borgandan keyin tarmoqlanib, Xivaga ikkita yo'nalishda davom etgan. Birinchi yo'l: Kukertlidan Urganchga qadar – 144 verst, Urganchdan Xivagacha – 24 verst edi. Ikkinchi yo'l: Kukertlidan Azarigacha – 72 verst. Demak, birinchi yo'ldan boradigan karvon 368 verst masofani, ikkinchi yo'ldan boradigan karvon esa 344 verst yo'lni bosib o'tishiga to'g'ri kelgan.

Xivadan Buxoroga karvonlar orqali yuk tashib keltirishda suv yo'lidan ham foydalanilgan. Dastlab yuklar Xivadan Urganchga olib kelinib u yerdan Amudaryodagi kemalarga yuklanib, Amudaryo bo'ylab olib kelingan[3,169].

Xulosa qilib aytganda XIX asrning ikkinchi yarmida Buxoro amirligi, Xiva xonligi va Qo'qon xonligi o'rtasidagi savdo yo'llari Rossiya imperiyasi bosqiniga qadar azaliy, an'anaviy karvon yo'llaridan iborat edi. O'rta Osiyo xonliklari o'rtasidagi savdo yo'llari bu yerdagi mustaqil davlatlarni iqtisodiy jihatdan bir-biri bilan bog'lab turgan va mintaqadagi iqtisodiy integrasiya jarayoniga ta'sir etib turgan. Savdo yo'llari xonliklar markazlarini bir-biri bilan hamda har bir xonlik markazini uning chekka viloyat, shahar, beklik, tumanlari bilan bog'lab turgan va oqibatda o'zaro madaniy-ma'rifiy aloqalar uzluksizligini ta'minlagan.

Savdo yo'llari xonliklar hududlarida hunarmandchilikning va qish-loq xo'jalik tarmoqlarining o'ziga xos tarzda, ixtisoslashgan holda rivojlanishiga o'z ta'sirini o'tkazgan. Bundan tashqari savdo yo'llari orqali har bir xonlikdagi va umuman O'rta Osiyodagi xalqlarning maishiy turmushi, urf-odatlar va an'analarning bir-biriga uyg'unligi saqlanib kelgan.

Savdo yo'llarining turli tumanligi, ya'ni karvon yo'llari, suv yo'llari, arava yuradigan yo'llar, pochta yo'llari, mavsumiy yo'llar, tekislikdagi yo'llar, baland-pastlikdagi yo'llar, tog'lik (dovonlik) yo'llar, qumlik (dasht, cho'l) dagi yo'llarga bo'linishi iqlim, tabiat, mintaqaviy xususiyatlar bilan bog'liq bo'lib savdo aloqalari tabiiy shart-sharoitidan qat'iy nazar, mintaqaning turli hududlarida yashovchi aholini bog'lab turganligidan dalolat beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Агзамова Г. О караванных путях из Хивы в Оренбург // ОНУ. – Ташкент. 1991. – №12. – С.43.
2. Mavlonov O'. Markaziy Osiyoning qadimgi yo'llari: shakllanishi va rivojlanish bosqichlari. – Toshkent: Akademiya, 2008. – B.251-254.
3. Небольсин Б.И. Очерки торговли России с странами Средней Азии, Хивой, Бухарой и Коканом. – С.169.

TOPLUM VE KADIN: TARİHSEL ADALETSİZLİKTEN HUKUKİ EŞİTLİĞE DOĞRU

Ahmedova Nilufar Allayorovna

Urganch Inovasyon Üniversitesi yüksek lisans öğrencisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada turli davrlarda va turli mamlakatlarda ayollarga nisbatan qo'llanilgan yondashuvlar tarixiy kontekstda tahlil qilinadi. Tadqiqotda ayollarga qo'yilgan cheklovlar, zulm va adolatsizliklar hamda ularga berilgan imkoniyatlar va huquqlar o'rganiladi. Shuningdek, tarixiy tajribalar zamonaviy qarashlar bilan solishtirilib, ayollarning jamiyatdagi roli va ijtimoiy jinsiy tenglik masalalari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Johiliya davri, Islom, Imom Buxoriy, feminizm, Abigail Smith Adams, Shiva, Strabon, Bobur, Malika To'maris, Malika Kabaj, Saroymulk xonim, Gavharshod Begim, Mahmudxo'ja Behbudiy

Аннотация: В статье анализируются исторические подходы к отношению к женщинам в разные эпохи и в различных странах. Исследуются ограничения, насилие и несправедливость, с которыми сталкивались женщины, а также предоставленные им возможности и права. Кроме того, исторический опыт сопоставляется с современными представлениями, анализируются изменения роли женщин в обществе и вопросы гендерного равенства.

Ключевые слова: Эпоха джахилии, Ислам, Имам Бухари, феминизм, Франсуаза Пуллен де Ла Барр, Эбигейл Смит Адамс, Шива, Страбон, Бабур, царица Томирис, царица Кабадж, Сароймулк-ханым, Гавхаршодбегим, Махмудходжа Бехбудий

Özet: Bu makalede, farklı dönemlerde ve çeşitli ülkelerde kadınlara yönelik yaklaşımlar tarihsel bağlamda analiz edilmektedir. Araştırmada kadınlara uygulanan kısıtlamalar, zulüm ve adaletsizlikler ile onlara tanınan fırsatlar ve haklar incelenmektedir. Ayrıca tarihsel deneyimler modern bakış açılarıyla karşılaştırılarak, kadınların toplumdaki rolündeki değişimler ve toplumsal cinsiyet eşitliği meseleleri ele alınmaktadır.

Anahtar Kelimeler: Cahiliye dönemi, İslam, İmam Buhârî, feminizm, Abigail Smith Adams, Şiva, Strabon, Babür, Kraliçe Tomris, Kraliçe Kabaj, Saraymülk Hanım, Gâvherşad Begüm, Mahmudhoja Behbudi

Yüzyıllar boyunca kadına değer vermek ve ona saygı göstermek, Özbek halkına özgü bir erdem olmuştur. Geleneksel anlayışta kadın; evin hanımı, çocukların terbiyecisi ve aile huzurunun simgesidir. Değerler sisteminde kadına saygı, aileye saygı ile eşdeğer kabul edilir. Milli kültürde kadın, edep, haya ve zarafetin timsali olarak yüceltilir. Modern milli değerler temelinde kadın haklarının güvence altına alınması ve onların her yönüyle desteklenmesi, "Hiçbir kadın göz ardı edilmeyecek" ilkesi doğrultusunda devlet politikası seviyesine yükseltilmiştir. Bu bağlamda son yıllarda ülkemizde toplumsal cinsiyet eşitliği ile kadınların hak ve menfaatlerinin korunması konusunda büyük değişimler yaşanmaktadır. Zira

Özbek halkı tarihinde kadınlar yalnızca aile içinde değil, aynı zamanda eğitim, sanat ve devlet yönetiminde de önemli roller üstlenmiştir.

İnsanlık tarihinde kadın haklarının tanınması oldukça zor ve çoğu zaman kanlı süreçler eşliğinde gerçekleşmiştir. Yüce Allah yeryüzüne İslam nurunu göndermeye başladığında, dünya cehalet bataklığına saplanmış durumdaydı. Her tarafta bilgisizlik, adaletsizlik, zulüm ve baskı hâkimdi. Özellikle kadınlarla ilgili konularda bu durum en uç noktaya ulaşmıştı. Hatta bazı topluluklar kadını insan yerine bile koymuyordu. Örneğin Hristiyan dünyasında özel toplantılar düzenlenmiş ve dönemin önderleri tarafından şu kararlar alınmıştır: “Kadın, erkeği yoldan çıkarmak için yaratılmış bir şeytandır; ona bakan kimse de günahkâr olur. Kadının nefesinin havayı kirletmemesi için ağzı kapalı olmalıdır.” Cahiliye toplumunda kadın, adeta bir meta olarak görülüyordu. Erkek için bir eşya, şehvet aracı sayılıyordu. Aile kurumu son derece yozlaşmıştı. Kadınlar mal gibi miras bırakılabiliyordu. Kadına yönelik aşağılayıcı tutumlar ve zulümler birçok millet ve kabilede görülmekteydi.

İslam'dan önce Arap Yarımadası'nda kadınların hiçbir hakkı yoktu. Erkekler sınırsız sayıda evleniyor, cariyelerini fuhşa zorlayarak gelir elde ediyorlardı. Kadınlarla aynı mekânda oturmak bile uygun görülüyordu.

İmam Buhârî ve diğer muhaddislerin Hz. Âişe (r.a.)'den rivayetlerine göre, cahiliye döneminde dört çeşit nikâh bulunmaktaydı:

1. Günümüzdeki nikâha benzeyen evlilik
2. Kadının, soylu bir erkekten çocuk sahibi olması için başka bir erkeğe gönderilmesi
3. Birden fazla erkeğin tek bir kadınla ilişki kurması
4. Fahişelik yapan kadınların evlerine bayrak asması

İslam'ın gelişiyle birlikte bu uygulamaların tümü kaldırılmış ve yalnızca İslami nikâh geçerli kılınmıştır[1].

İslâm gelmeden evvel Arap toplumunda ebeveyn arasında çocuklarına karşı sorumluluk duygusu gayet zayıftı. Ailenin reisi olan erkek, aile bireylerinin tamamını mülkü gibi görüyor ve onlara istediği şekilde davranıyordu. İslâm'dan evvel nasıl, ne şekilde ve niçin yapıyorsa yapılsın kız çocuklarının gömülmesi, son derece çirkin ve insanlık dışı bir davranıştı.

Kız çocuklarının diri diri gömülmesi veya çeşitli şekillerde katledilmesi sadece Araplara has bir durum değildi. O dönem dünyanın birçok yerinde insanlar ve hayvanlar, tanrılara şükretmek ve onların öfkelerini dindirmek için kurban edilirdi. Kız çocuklarının katli denildiğinde cahiliye Arap toplumu akla gelmektedir. Böyle olmakla birlikte o dönem dünyada diğer ülke ve milletlerin de Araplardan farkı bulunmuyordu. Bu dönemde diri diri gömme şeklinde olmasa da dünyanın farklı yerlerinde, değişik şekillerde kız çocuklarını öldürme hadisesi karşımıza çıkmaktadır[2].

İslam dini, Arabistan'da kız çocuklarının öldürülmesini yasaklamış ve kadınlara miras hakkı tanımıştır. Buna karşın Avrupa'da kadınların seçme ve seçilme hakkına ancak XIX–XX. yüzyıllarda kavuştuğu bilinmektedir. XIX.

yüzyıla kadar Avrupa ülkelerinde kadınlara oy kullanma hakkı tanınmamış, onların siyasal yaşama katılımının sınırlandırılması olağan bir uygulama olmuştur. Örneğin, Antik Yunan ve Roma toplumlarında kadınlar oy kullanma hakkından tamamen yoksundu. Siyasal hayata katılma hakları bulunmuyordu; bu hak yalnızca erkek yurttaşlara tanınmıştı. XIX. yüzyıla kadar Avrupa'nın birçok toplumunda kadınların siyasal haklardan mahrum bırakılması olağan bir durumdu. Özellikle Orta Çağ ve feodal düzen dönemlerinde dinî inançlar ve gelenekler, kadınları esas olarak aile ve ev içi rollerle sınırlandırmış; onları siyaset ve yönetim alanlarından uzak tutmuştur. Bu dönemlerde siyasal alanda erkekler mutlak üstünlüğe sahipti. XV–XVII. yüzyıllarda Avrupa'da binlerce kadın “cadılık” suçlamasıyla yakılarak öldürülmüştür. İngiltere'de Coverture yasasına göre evli kadın hukuki kişiliğini kaybetmekteydi.

Burjuva ilişkilerinin gelişmesiyle birlikte feminist düşünceler yayılmıştır. Fransız düşünür François Poullain de La Barre, “İki Cinsin Eşitliği Üzerine” adlı eserinde kadınların eşitsizliğinin doğa yasası değil, erkek egemenliğinin sonucu olduğunu belirtmiştir. Amerikalı feminist Abigail Smith Adams ise şu sözleriyle tarihe geçmiştir: “Çıkarlarımızı dikkate almayan bir yönetime ve katılmadığımız yasalarla yönetilmeye boyun eğmeyiz.” Bu hareketlerin bir sonucu olarak, XIX–XX. yüzyıllara gelindiğinde ABD ve Avrupa'nın birçok ülkesinde kadınlara erkeklerle eşit hak ve fırsatlar tanınmış, buna oy kullanma hakları da dâhil edilmiştir. Örneğin, Finlandiya 1906'da[3], İngiltere 1918'de, Fransa ise 1944'te kadınlara oy hakkı tanımıştır. (Özbekistan'da 1924).

Çin'de kadın güzelliği, ayak bağlama yoluyla fiziksel sakatlık üzerinden tanımlanmıştır. Bu uygulama, kadının özgürlüğünü kısıtlamanın en zalim yollarından biri olmuştur.

“Hindistan, kadınlar için en tehlikeli ülke olarak kabul edildi” [4] diye yazmaktadır Sputnik Özbekistan resmî haber sitesinde. Reuters haber ajansı, kadınlar için en tehlikeli ülkelerden oluşan ilk on sıralamayı hazırlamıştır. Bu ülkeler arasında Hindistan, Afganistan, Suriye, Somali ve hatta Amerika Birleşik Devletleri de yer almaktadır [5]. Bu kaygı verici sıralamada Hindistan birinci sırada yer almıştır. Bunun temel nedeni, bu ülkede kadınların sürekli baskı ve korku altında yaşamaları; cinsel ve fiziksel şiddete maruz kalmaları; ev içi kölelik ile reşit olmayanların evlendirilmesi gibi vakaların yaygın biçimde görülmesidir.

Hindistan'da Şiva onuruna düzenlenen bazı bayramlarda, toplu ve açık biçimde fuhuşa yönelinmiştir. Strabon'un aktardığına göre, Hindistan'da binlerce fakir (muhtemelen Brahmanlar ya da belirli bir dinî–ruhanî öğretinin temsilcileri) ülkeyi dolaşmaktaydı. Bu kişiler her yerde ve aileler tarafından büyük saygı ve hürmetle karşılanmış, erkekler eşlerini ve kızlarını onların tasarrufuna bırakmışlardır [6]. Bu tür uygulamalar, Hindistan'da gelenek ile hukuk arasındaki dengenin bulunmadığını; daha açık bir ifadeyle, kadınlarda hukuki bilinç ve hukuk kültürünün yeterince gelişmediğini göstermektedir.

Hindistan tarihinde “Sati” geleneği kapsamında dul kadınlar, ölen eşleriyle birlikte yakılmıştır. Bu durum, Babürlüler dönemi yıllıkları ile İngiliz sömürge

yönetimine ait 1829 tarihli belgelerde açıkça yansıtılmaktadır. Babür ve ondan sonraki hükümdarlar bu geleneğe karşı mücadele etmişlerdir.

Özbek devlet geleneği tarihinde, kadınlar arasından yetişmiş şahsiyetlerin toplumsal ve siyasal ilişkilerde üstlendikleri aktif rol açıkça görülmektedir. Tomris Hatun, Kabaj Hatun, Saraymülk Hanım ve Gâvherşad Begüm gibi birçok tarihî şahsiyetin ülkemizin geçmişinde ve halkımızın yaşamındaki konumları kendine özgü olmakla birlikte, onları birleştiren ortak bir unsur vardır. Bu da, söz konusu şahsiyetlerin bu vatana ve bu halka hizmet ederek yaşamış olmalarıdır. En önemlisi, Özbek devletçiliğinin 2700 yıllık tarihsel gelişimi içerisinde onların da devlet ve toplum önderleri olarak kendilerine özgü bir yere sahip olmalarıdır [7].

Ülkemiz tarihinde faaliyet göstermiş kadın önderler, yalnızca siyasal ve toplumsal alanlarda değil, aynı zamanda halkın zihninde kadına duyulan saygı ve hürmetin sembolü hâline gelmişlerdir. Tomris Hatun, Kabaj Hatun, Saraymülk Hanım ve Gâvherşad Begüm gibi şahsiyetlerin faaliyetleri, onların emek ve fedakârlıklarının halk tarafından takdir edildiğini ve kuşaktan kuşağa aktarılan bir değer olarak korunduğunu göstermektedir. Bu kadınlar, vatanlarına olan bağlılıklarının yanı sıra, kadınların toplumdaki konumunu ve etkisini ortaya koymuş; bilgi, bilgelik ve cesaretleriyle tüm topluma örnek olmuşlardır. Bu bağlamda, Özbek tarihinde kadınlar yalnızca devlet adamı değil, aynı zamanda halk tarafından saygı duyulan liderler ve toplumun sosyo-kültürel yaşamında önemli rol oynayan şahsiyetler olarak kabul edilmiştir. Bu durum ise, Özbek halkının kadınlara yönelik yüksek saygısını ve onların emeğini takdir etme kültürünü daha da pekiştirmektedir.

Aydın düşünürümüz Mahmudhoja Behbudiy'in de dediği gibi: "Kadınları toplumun tam üyeleri olarak kabul etmeden, aile meselelerini doğru bir şekilde çözmeden ve genç nesli doğru yoldan yetiştirmeden, toplumu ıslah etmek ve onu kalkınma yönünde ilerletmek mümkün değildir; nihayetinde bir milletin kaderi, onun kadınlarının ve ailesinin durumuna bağlıdır." Özbek tarihinde kadınların toplumdaki yerine verilen bu değer, günümüzde de önemini yitirmemiştir [8].

Sonuç olarak, kadınlara saygı göstermek, onların bilgisini geliştirmek ve toplum hayatına aktif katılımlarını sağlamak yoluyla, kendi ailemizi, toplumumuzu ve tüm milletimizi güçlendirebiliriz. Bu nedenle, kadının toplumdaki konumu her zaman değer verilen ve takdir edilen bir pozisyon olmalıdır.

Kullanılan Kaynaklar

1. Johiliyat davrida ayolga munosabat. 25-mart 2018-y
https://www.naqshband.uz/makolalar/johiliyat_davrida_ayolga_munosabat
2. Ahmet Acarlıoğlu. Câhiliye Arap Toplumunda Kız Çocuklarının Katli Meselesi: İslam Tarihi Perspektifinden Değerlendirme. Year 2019, Volume: 23 Issue: 1, 441 - 460, 15.06.2019
<https://doi.org/10.18505/cuid.535105>
3. Women in Parliament, a historical view By EPRSLibrary/ October 4, 2012
4. Sputnik O'zbekiston <https://oz.sputniknews.uz>. 11:55, 28-Iyun 2018
5. Kun.uz <https://kun.uz>. 12:53 / 06.01.2019
6. Qarang : Dyupui Ye. Prostitutsiya v drevnosti. –Kishenev, Logos , 1991. –S.11 va b.
7. Азамат Зиё. Ўзбек аёллари тарих саҳнасида: Томир хотун, Қабаж хотун, Сароймулкхоним, Гавҳаршодбегим. Т.: - Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси. Фан,-2002 й
8. Ayol jamiyatni go'zal, dilbar va adolatli qiladi. Milliy tiklanish gazetasi. 2009-yil, 4-mart

ТРАНСФОРМАЦИЯ ТРАДИЦИОННЫХ СЕМЕЙНЫХ
ИНСТИТУТОВ В УСЛОВИЯХ МИГРАЦИИ И ОАЗИСНОЙ
ОСЕДЛОСТИ (НА ПРИМЕРЕ СИБИРСКИХ БУХАРЦЕВ И
ХОРЕЗМИЙЦЕВ)

Сабирова Саодатжон Руслановна,
магистрантка 2 курса

Ургенчский инновационный университет

Email: ssaodat419@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada XVIII – XX asr boshlarida Sibir buxoroliklari va xorazmliklarning an'anaviy oilaviy institutlari transformatsiyasi qiyosiy tahlil qilinadi. G. T. Bakieva hujjatlar to'plami hamda etnografik va huquqiy tadqiqotlar asosida migratsiya, savdo harakatchanligi va huquqiy poliyuridiklikning oila tuzilishi, nikoh strategiyalari, qalin instituti va ayollarning mulkiy huquqlariga ta'siri o'rganiladi. Sibir buxorolari muhitida shariat normalarining Rossiya imperiyasi huquqiy tizimiga moslashuvi oilaviy munosabatlarning ratsionallashuviga va ayollarning huquqiy subyektivligining oshishiga olib kelgani ko'rsatiladi. "An'analar transgressiyasi" tushunchasi begona madaniy muhitda madaniy identifikatsiyani saqlash mexanizmi sifatida asoslanadi.

Kalit so'zlar: Sibir buxorolari, xorazmliklar, oilaviy munosabatlar, qalin, shariat, odat, huquqiy poliyuridiklik.

Аннотация: В статье представлен сравнительный анализ трансформации традиционных семейных институтов сибирских бухарцев и хорезмийцев в XVIII – начале XX вв. На основе сборника документов Г. Т. Бакиевой, а также этнографических и правовых исследований анализируется влияние миграции, торговой мобильности и правовой полиюридичности на структуру семьи, брачные стратегии, институт калыма и имущественное положение женщины. Показано, что в среде сибирских бухарцев нормы шариата адаптировались к правовой системе Российской империи, что привело к рационализации семейных отношений и росту правовой субъектности женщин. Обосновывается концепция «трансгрессии традиции» как формы сохранения культурной идентичности в инокультурной среде.

Ключевые слова: сибирские бухарцы, хорезмийцы, семейные отношения, калым, шариат, адат, правовая полиюридичность.

Abstract: The paper presents a comparative analysis of the transformation of traditional family institutions among Siberian Bukharans and Khorezmians in the 18th – early 20th centuries. Based on documentary collections compiled by G. T. Bakieva, as well as ethnographic and legal studies, the research examines the impact of migration, commercial mobility, and legal polyjuridicality on family structure, marital strategies, the institution of kalym, and women's property rights. It is demonstrated that among the Siberian Bukharans, Sharia norms were adapted to the legal system of the Russian Empire, leading to the rationalization of family

relations and the strengthening of women's legal subjectivity. The concept of "transgression of tradition" is substantiated as a mechanism for preserving cultural identity in a foreign sociocultural environment.

Keywords: Siberian Bukharans, Khorezmians, family relations, kalym, Sharia, adat, legal polyjuridicality.

Введение. Исследование семейных институтов сибирских бухарцев в сравнении с хорезмийцами позволяет проследить процесс трансформации исламской социальной модели в условиях миграции и инокультурной среды. Если в Хорезмском оазисе семейные отношения формировались в условиях устойчивой оседлости и аграрной экономики, то сибирские бухарцы существовали в пространстве постоянной мобильности, торговли и многоуровневой правовой регуляции [3, с. 12–18].

Методологической основой исследования послужили материалы сборника документов Г. Т. Бакиевой, фиксирующие реальные правовые практики мусульманского населения Сибири, а также труды Ф. Т. Валеева и С. Н. Корусенко, позволяющие реконструировать культурно-бытовой и исторический контекст [1, с. 5–7; 3, с. 45–49; 4, с. 21–24].

Правовая полиюридичность как фактор трансформации семьи

Для хорезмийского общества XVIII–XIX вв. была характерна устойчивая система регулирования семейных отношений, основанная на синтезе норм шариата и местного обычая (урф), что обеспечивало воспроизводство традиционной патриархальной модели семьи [5, с. 320–327].

В среде сибирских бухарцев наблюдается иная ситуация. Здесь функционировала правовая полиюридичность — одновременное действие норм ханафитского мазхаба, адата и российского имперского законодательства [4, с. 110–115; 7, с. 64–71]. В метрических книгах Тобольского округа конца XVIII – начала XIX вв. зафиксированы браки, заключённые по мусульманскому обряду и одновременно зарегистрированные в волостных правлениях для подтверждения имущественных и сословных прав [1, с. 14–16].

Показателен случай бухарца Абдуллы бин Юнуса (1802 г.), который в наследственном споре апеллировал как к нормам шариата, так и к положениям губернского суда, добиваясь признания махра личной собственностью своей жены [1, с. 118].

Институт калыма в условиях миграции

В Хорезме калым традиционно выступал формой межродового союза и редко становился объектом судебных разбирательств [6, с. 70–74]. Его функция носила преимущественно символический и социально-интегративный характер.

В среде сибирских бухарцев калым постепенно приобрёл юридически оформленный статус. Материалы Омского магометанского духовного собрания за 1816–1824 гг. содержат дела о «взыскании предбрачных даров»

при расторжении брака [1, с. 130–136]. Так, в деле Фатимы, дочери купца Ходжи Мухаммада (1819 г.), суд признал калым и махр её личной собственностью, обеспечив женщине экономическую автономию [1, с. 135].

Гендерная динамика и имущественные права женщин

Этнографические данные Ф. Т. Валеева свидетельствуют, что в традиционной среде сибирских татар и бухарцев женщина сохраняла ограниченную, но признаваемую правоспособность в рамках шариатских норм [3, с. 52–55]. Однако в условиях правовой полиюридичности эта правоспособность получила дополнительное институциональное оформление.

Архивные материалы первой половины XIX в. фиксируют обращения женщин-бухарок с жалобами на «непредоставление нафака» в судебные инстанции [1, с. 205–211]. В 1837 г. бухарка Зухра бинт Исхак подала иск против мужа, находившегося в длительной торговой поездке. Суд обязал его выплачивать содержание, а контроль за исполнением решения осуществлялся имперской администрацией [1, с. 210].

Заключение. Проведённый анализ показывает, что семейный уклад сибирских бухарцев представлял собой адаптивную социально-правовую модель, сформировавшуюся в условиях миграции и правовой множественности. В отличие от Хорезма, где семейные институты сохраняли устойчивость благодаря аграрной оседлости и локальным традициям, в Сибири семья трансформировалась в гибкий юридический механизм.

Рационализация института калыма, расширение имущественных прав женщин и интеграция норм шариата в имперскую правовую систему позволили сибирским бухарцам не только приспособиться к новым условиям, но и сохранить культурную и конфессиональную идентичность. Таким образом, «трансгрессия традиции» выступает не как утрата, а как форма устойчивости и воспроизводства традиционного общества в инокультурной среде.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Закон, обычай, шариат. Материалы по правовой культуре сибирских татар (XVIII — начало XX в.) / сост. и отв. ред. Г. Т. Бакиева. — Тюмень, 2013.
2. Валеев Ф. Т. Сибирские татары: культура и быт. — Казань, 1993.
3. Корусенко С. Н. Сибирские бухарцы в начале XVIII века. — Омск, 2011.
4. Лобачёва Н. П. Формирование новой обрядности узбеков. — М., 1975.
5. Сюкияйнен Л. Р. Мусульманское право. — М., 1986.

IX–XII ASRLARDA MARKAZIY OSIYO OLIMLARINING JAHON ILM-
FANI TARAQQIYOTIGA QO'SHGAN HISSASI

Sapayeva Mehribon Atabekovna

Urganch innovatsion universiteti

2-bosqich magistranti

Anotatsiya: Ushbu maqolada IX–XI asrlarda Markaziy Osiyoda yetishib chiqqan buyuk olimlarning jahon ilm-fani rivojiga qo'shgan hissasi yoritiladi. Al-Xorazmiy, Forobiy, Beruniy va Ibn Sino kabi mutafakkirlarning matematika, astronomiya, tibbiyot va falsafa sohalaridagi ilmiy merosi tahlil qilinadi hamda uning umuminsoniy ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Madrasa, Baytul-Xikma, aljabr, algoritm, asturlab, globus, handasa, tabobat.

Аннотация: В данной статье освещается вклад выдающихся учёных Центральной Азии IX–XI веков в развитие мировой науки. Анализируется научное наследие таких мыслителей, как аль-Хорезми, аль-Фараби, аль-Беруни и Ибн Сина, в области математики, астрономии, медицины и философии, а также раскрывается его общечеловеческое значение.

Ключевые слова: медресе, Байт аль-Хикма, алгебра, алгоритм, астролябия, глобус, геометрия, медицина.

Abstract: This article examines the contribution of prominent scholars of Central Asia in the 9th–11th centuries to the development of world science. The scientific heritage of thinkers such as Al-Khwarizmi, Al-Farabi, Al-Biruni, and Ibn Sina in the fields of mathematics, astronomy, medicine, and philosophy is analyzed, and its universal significance is revealed.

Keywords: madrasah, Bayt al-Hikma, algebra, algorithm, astrolabe, globe, geometry, medicine.

Uyg'onish davriga faqat yo'qotilgan qadimgi madaniyatni qayta tiklashgina xos bo'lmay, bu davr, shuningdek, shaharlarning, ya'ni o'sha davr hunarmandchiligi va savdo markazlarining rivojlanishi, shahar tabaqalarining paydo bo'lishi, shahar jamoatchiligi va madaniy hayotning o'sishi, nihoyat, zodagonlar tabaqasidan hamda xalq orasidan ziyolilarning yetishib chiqishi bilan ham xarakterlidir.

Bu davr ilmiy taraqqiyotining asosiy sabablari quyidagilar edi:

1. Siyosiy barqarorlik va ilm-fan homiyligi.
2. Savdo yo'llari orqali ilmiy almashinuv.
3. Kutubxonalar va madrasalarning keng tarqalishi.
4. Qadimgi yunon, hind, fors ilmiy merosining arab tiliga tarjima qilinishi.

IX–XII asrlarda Sharqda yuz bergan madaniy inqilobda Markaziy Osiyo shaharlarining muhim rol o'ynashiga yana bir sabab VIII asr o'rtalaridan boshlab Samarqandda qog'oz ishlab chiqarishning joriy qilinishi bo'ldi. X asrga kelib Suriyadagi Tarablus, Tabariya va Damashqda ham qog'oz ishlab chiqarila boshladi, lekin Samarqand asosiy qog'oz ishlab chiqarish markazi bo'lib qolaverdi.

Shuning uchun ham xalifalikning sharqida ko'plab kitob yozish imkoniyati mavjud bo'lib, yirik-yirik kutubxonalar yuzaga keldi.

Qisqa muddat ichida Markaziy Osiyoning Buxoro, Samarqand, Marv, Gurganch va Kot kabi shaharlari yirik madaniy markazlarga aylandi. Marv masjidining kutubxonasi xalifalikdagi eng qadimiy kutubxona hisoblanib, unga Sosoniy podshohi Yazdigard III tomonidan asos solingan. XIII asr boshlarida ham u yerda o'ndan ortiq yirik kutubxonalar mavjud bo'lgan va ularning faqat bittasidagina o'n ikki ming jild kitob mavjud edi. Marv o'zining kutubxonalari va kitoblariga boyligi bilan yagona emas edi. X asr oxirlarida Amir Nuh ibn Mansurning Buxorodagi kutubxonasi ham dunyodagi eng yirik kutubxonalardan biri bo'lgan. Ibn Sino o'z tarjimai holida aytishicha, bu kutubxona shunchalik boy ediki, unda fanning har bir tarmog'i bo'yicha kitoblar alohida joylashtirilgan edi. Ayrim kitoblarni esa u Ray, Hamadon, Qazvin, Isfahon shaharlari kutubxonalarida ham uchratmaganini ta'kidlagan [1, 8-b].

Al-Xorazmiy jahon ilm-fani rivojiga ulkan hissa qo'shgan buyuk allomadir. Uning ko'p qirrali ilmiy merosi jahon miqyosida o'rganilgan. Al-Xorazmiy 783 yilda tavallud topgan va 850 yilda vafot etgan [2, 4-b]. Al-Xorazmiyning yigirmadan ortiq ilmiy ishlari bizga ma'lum bo'lib, shulardan yettitasi bizning davrimizgacha saqlanib qolgan. "Fi hisab al-Hind" (arab tilida "Hindcha hisob haqidagi kitob") asari o'nlik pozitsion hisoblash tizimini, nol belgisi va to'qqizta raqamni bayon etadi. Al-Xorazmiyning eng mashhur asari "Al-jabr va al-muqobala" bo'lib, unda kvadrat va bir chiziqli tenglamalarning olti turi hamda "algoritmi" tushunchasi keng tavsiflab berilgan.

Al-Xorazmiyning matematika, astronomiya va geografiya fanlari orqali sivilizatsiya rivojiga qo'shgan muhim hissasi quyidagilardan iborat:

1. O'nlik pozitsion hisob tizimini yaratdi va nol belgisi bilan birga to'qqizta raqamni ilm-fanga joriy etdi.
2. Algebra fanini yaratdi va unga shu nomni berdi.
3. Yevropa adabiyotida "algoritmi" deb atalgan aniq va tushunarli qoidalar asosida ilmiy va ta'limiy asarlarning yangi uslubini ishlab chiqdi [2, 5-b.].

Abu Rayhon Beruniy, to'liq ismi Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad Beruniy, 973 yil 4-sentabrda Xorazmning poytaxti bo'lgan Kat shahrida (hozirgi Beruniy tumani hududi) dunyoga kelgan. Yoshligidan ilm-fanga qiziqishi kuchli bo'lgan Beruniy yurtiga kelgan savdogarlardan yunon tilini o'rgangan. Beruniy mana shu ustozining ta'lim-tarbiyasini olib, yetuk olim bo'lib voyaga yetgan va umrbod o'z ustozini chuqur hurmat bilan eslab o'tgan.

Beruniy 16–17 yoshlaridayoq astronomiya va matematika sohalarida yetuk olim sifatida shakllangan. Bunday erta yetuklikka erishishda ustozining roli katta bo'lgan. 994 yilda u ekliptikaning osmon ekvatoriga og'ish burchagini yuqori aniqlik bilan o'lchaydi. 994–995 yillarda yozgi va qishki Quyosh turishlaridagi balandlikni aniqlash uchun diametri 7,5 metr bo'lgan doiraviy asbob yasagan. Bu haqda u "Geodeziya" asarida yozib qoldirgan [3, 105-b.].

995 yilda Beruniy astronomiya, geografiya va geodeziyaning amaliy masalalarini hal etish bilan birga, Markaziy Osiyoda birinchi bo'lib Yer globusini yasaydi. Bu haqda u o'zining "Kartografiya" nomli asarida yozib qoldirgan. "Kartografiya" 995 yilgacha yozilgan bo'lib, bizgacha yetib kelgan eng qadimgi asarlardan biri hisoblanadi. Unda olim ilgari yozgan "Globus yasash kitobi" hamda "Erdagi joylarning uzunlik va kengliklarini aniqlash haqida maqola" asarlarini ham eslatib o'tgan.

Beruniy Quyosh va yulduzlarning bir xil olovli tabiatga ega ekanini, yulduzlarning harakatini o'rganib, ularning Yerga nisbatan ulkan o'lchamlarini aniqlagan. Olim Quyosh Yer atrofida emas, balki Yer Quyosh atrofida aylanishini ilmiy jihatdan asoslab, Ptolomeyning geosentrik tizimiga oid gumonlarga barham bergan. Uning geodezik o'lchovlarning astronomik usullari keyingi asrlar olimlari uchun asos bo'lib xizmat qilgan.

Tabobat ilmi taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan Abu Ali ibn Sino G'arbda Avitsenna nomi bilan mashhur bo'lgan. U 980 yilda Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog'ida tug'ilgan. Yoshligidan mantiq, algebra, handasa, falakiyot hamda tabiiy fanlar, xususan tabobatni chuqur o'rgangan. Tug'ma iste'dodi va mehnatsevarligi tufayli darslarni tez o'zlashtirib, hatto muallimlariga noma'lum bo'lgan bilimlarni ham mustaqil ravishda egallagan. Ibn Sino 17 yoshidayoq mohir tabib sifatida tanilib, Buxoro amiri Nuh ibn Mansurni davolaydi. Amirning sog'ayishi evaziga u o'sha davrning eng yirik va boy kutubxonasidan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi [4, 8-b.].

Ibn Sinoning tabobatga oid 30 dan ortiq asarlari bizgacha yetib kelgan. Ularning eng mashhuri "Kitob al-qonun fi-t-tibb" ("Tib qonunlari") asaridir. Bu asarda inson salomatligi va kasalliklariga oid barcha masalalar mantiqiy va tizimli tarzda bayon etilgan. Asar 1012–1023 yillarda yozilgan bo'lib, qo'lyozma nusxalari tezda keng tarqalgan. "Tib qonunlari" XII asrda Kremonalik Gerard tomonidan arab tilidan lotin tiliga tarjima qilingan va shundan so'ng Yevropa dorilfununlarida tabobat fani Ibn Sino asarlari asosida o'qitila boshlangan. Asar uzoq yillar davomida darslik sifatida o'z ahamiyatini saqlab kelgan.[5,4-b] Ibn Sino sog'liqni saqlash, gigiyena va oqilona ovqatlanishga katta e'tibor qaratgan, jismoniy tarbiyaning barcha yoshdagi kishilar uchun muhimligini ta'kidlagan. Shuningdek, ayrim kasalliklarning suv va havo orqali tarqalishi mumkinligini ilgari surgan.

Xulosa qilib aytganda, IX–XII asrlar Markaziy Osiyo tarixida ilm-fan yuksalishining eng yorqin davrlaridan biri bo'lib, bu davr olimlari matematika, astronomiya, tibbiyot, geografiya va falsafa sohalarida insoniyat taraqqiyotiga beqiyos hissa qo'shgan. Ularning ilmiy merosi hozirgi zamon fanining rivojida ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Beruniy. *Osor al-boqiya*. — Toshkent, 2022.
2. Bahodirov R.M. *Abu Abdulloh al-Xorazmiy va ilmlar tasnifi tarixidan*. — Toshkent, 1995.
3. Beruniy. *Geodeziya*. — Toshkent. 2022.
4. Qodirova.A. "Ibn Sino". Toshkent. 1962y.

**O'ZBEKISTON HUDUDIDA TEMIR DAVRI TARIXIY-MADANIY
HUDUDLARI, AHOLI TURARJOYLARINING TOPOGRAFIK
JOYLASHUVI XUSUSIYATLARI**

Karimov Zafar Bekturdiyevich

Urganch davlat universiteti katta o'qituvchisi, PhD.

E-mail: temurmali154@gmail.com

Yangiboyev Bozorboy Alisher o'g'li

Urganch davlat universiteti talabasi

E-mail: bozorboyangiboyev95@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada O'zbekiston hududida so'nggi bronza davridan ilk temir davrigacha kechgan urbanizatsiya jarayonlari yoritiladi. Jarqo'ton, Afrosiyob, Buxoro, Xorazm va Farg'ona yodgorliklari asosida ilk shaharlar, voha-mikrovohalar, topografik tuzilish, sug'orish tizimlari hamda siyosiy-madaniy rivojlanish bosqichlari tahlil qilinadi, hududiy taraqqiyot va aholi joylashuvining tarixiy qonuniyatlarini ochib beradi, ilmiy manbalar asosida kompleks yondashuv bilan yoritiladi.

Kalit so'zlar: Jarqo'ton, Qiziltepa, Bandixon-2, Lolazor, Smarakanda, Ko'ktepa, Bozorqal'a, Odoytepa, Dingilja, urbanizatsiya jarayonlarining "issiq shabadalari", Eylaton, Sarvontepa, Nurtepa, Xontepa, Sazog'ontepa-1, Eski Axsiket, Duniyotepa.

Аннотация: В статье рассматриваются процессы урбанизации на территории Узбекистана от позднего бронзового века до раннего железного века. На основе памятников Джаркутан, Афрасиаб, Бухара, Хорезм и Фергана анализируются формирование ранних городов, оазисов и микрооазисов, их топографическая структура, ирригационные системы, а также этапы социально-политического и культурного развития. Раскрываются исторические закономерности территориального развития и расселения населения с опорой на комплексный анализ научных источников.

Ключевые слова: Джаркутан, Кызыltepa, Бандихон-2, Лолазор, Смараканда, Коктепа, Бозоркала, Одайтепа, Дингильджа, «горячие ветры» урбанизационных процессов, Эйлатон, Сарвонтепа, Нуртепа, Хонтепа, Сазогонтепа-1, Эски Ахсикет, Дунытёпа.

Abstract: This article examines the processes of urbanization in the territory of Uzbekistan from the Late Bronze Age to the Early Iron Age. Based on the archaeological sites of Jarkutan, Afrasiab, Bukhara, Khorezm, and Fergana, it analyzes the formation of early cities, oasis and micro-oasis systems, their topographical layout, irrigation networks, and the stages of socio-political and cultural development. The study reveals historical patterns of territorial development and population settlement through a comprehensive analysis grounded in scholarly sources.

Keywords: Jarkutan, Kyzyltepa, Bandikhan-2, Lolazor, Smarakanda, Koktepa, Bozorkala, Odaytepa, Dingilja, "hot currents" of urbanization processes,

Eylaton, Sarvontepa, Nurtepa, Khontepa, Sazogontepa-1, Eski Akhsiket, Dunyatepa.

O'zbekistonda so'nggi bronza davridan ilk temir davriga o'tish jarayonida Jarqo'ton (mil. avv. IX asr) ilk shahar maqomida bo'lgan [1]. Albatta, Jarqo'ton yodgorligi aholisi soni oshganligi munosabati bilan qo'shni hududlarni o'zlashtirishi natijasida yangi-yangi tarixiy-madaniy dehqonchilik voha-mikrovohalari vujudga kelgan. Mil. avv. VII asrdan boshlab Jarqo'ton aholisi Surxon vohasi, Zarafshon, Xorazm vohasi hududlarini o'zlashtirishi munosabati bilan yangi-yangi turarjoylarning geografik xususiyatini inobatga olgan holda ularning qurilishi jadal kechgan. Sho'rchi madaniy-dehqonchilik vohasi markazi Qiziltepa to'g'riburchak shaklda tepalikka bunyod qilingan [2].

Denov tumani tog'oldi etagida tepalikka Bandixon-2 mil. avv. VI asrning birinchi yarmida barpo qilinib, ilk temir davrida istehkomli shahar tipidagi yodgorlik bo'lgan [3]. O'rta Zarafshon Markaziy So'g'd hududida Lolazor manzilgo'hi aholisi faoliyati asosida mil. avv. VII asrda Smarakandaga asos solingan [4]. Afrosiyobning navbatdagi tarixiy davrlarda markaz sifatidagi faoliyati davom etgan.

Mil. avv. IX – VIII asrlarda Ko'ktepa yodgorligi o'troq aholi tomonidan barpo qilinib, ularning hayoti mil. avv. III asrda o'z poyoniga yetgan [5]. Ko'ktepa-1 davriga oid Samarqand viloyati Jom qishlog'ida turarjoy bunyod qilinganligi bois navbatdagi mikrovoha markazi shakllangan. Arxeologik tadqiqotlar natijalariga ko'ra, Yerqo'rg'on yodgorligi ilk temir davrida tekislikka bunyod qilingan [6].

G'arbiy So'g'dning Buxoro-Qorako'l tarixiy-madaniy va voha tumanida mil. avv. V asrda Buxoro shahriga asos solingan. Buxoro-Qorako'l hududiga ulanib ketgan Xorazm vohasini urbanizatsion jarayon qamrab olishi natijasida mil. avv. VI asrning so'nggi choragida tekislikka Bozorqal'a barpo qilingan. Mil. avv. IX – VIII asrlarda Xorazm vohasi janubiga ulanib ketgan Sariqamishbo'yi shimoli-sharqi (Amudaryo o'rta qismi so'l sohili hududi) balandligida mahalliy Odoytepa yodgorligi istehkom sifatida barpo qilingan [7].

Mil. avv. V asrda Kaltaminor sug'orish tizimi janubi-sharqida navbatdagi madaniy markaz Dingilja bino qilingan [8]. Surxon vohasini ilk temir davri "urbanizatsiya jarayonlarining issiq shabadalari" qamrab olgan (Eski Termiz) [9]. Navbatdagi tarixiy-madaniy markaz vohalaridan biri Farg'ona vodiysi ilk temir davrida o'ziga xos rivojlanish jarayonlarini o'z boshidan kechirgan. Arxeologik izlanishlar natijalariga ko'ra, Chust madaniyati aholisi tomonidan bunyod qilingan istehkomli Dalvarzintepa mil. avv. VIII – VII asrlarga oid bo'lgan, uning aholisi qo'shni hududlarni o'zlashtirish siyosatini olib borgan. Natijada, mil. avv. VI – III asrlarda Eylaton va Sarvontepa yodgorliklari barpo qilingan [10].

O'zbekistonning navbatdagi madaniy-xo'jalik o'lkalaridan biri Sirdaryo viloyatida aholining o'zlashtirish jarayoni mil. avv. IV asrdan boshlanganligi to'g'risida tarixiy ma'lumotlar qayd qilingan. Masalan, madaniy-xo'jalik markazi bosh shahri bo'lgan Eski Xovosning joylashishi kvadratga yaqin, kirish qismi janubi-

g'arbda joylashgan manzilgohning ichki qismi ikkiga ajralgan. Birinchisi 5 ga., ichki qismi esa 10 ga. tekislikda joylashgan [11].

A. Anorboyevning Eski Axsiket yodgorligida qazishma ishlarini olib borishi natijasida uning topografik joylashishi to'g'riburchak shaklda tekislikka joylashganligi qayd qiladi hamda Chekobodsoydan chiqarilgan sug'orish tarmoqlari ta'minotidan foydalanilganligini keltirib o'tadi [12].

B. X. Matboboyev ma'lumotiga ko'ra, Markaziy Farg'onada yirik shaharlardan biri Quva (Qubo) yodgorligi tekislikka rejayiy tuzilishi kvadrat, shimoli-sharqiy burchagida ark joylashgan, alohida mudofaa devori bilan o'rab olingan (arkning hajmi 2,7 ga.) [13].

Mil. avv. 1-mingyillik o'rtalaridan boshlab Sirdaryoning quyi havzasi Jonidaryo, Quvondaryo oralig'ida ko'chmanchi qabilalarning bir qancha manzilgohlari vujudga kelgan. Ko'chmanchi qabilalar istiqomat qilgan Chirikrabort yodgorligi yer sathidan 15 metr balandlikda joylashgan. Qal'aning topografik joylashishi aylana shaklda, uni o'rab olgan devor uzunligi 800 metr, kengligi 600 metr. Qal'aning ichki tuzilishi quyidagicha, yodgorlikning shimoliy qismida sharqiy devoridan g'arbiy devorigacha mudofaa devori barpo qilingan, natijada uning ichki tuzilishi ikki qismga – shimoliy va janubiy qismga bo'lingan. Janubiy qismida to'g'riburchakli inshoot qurilgan. Navbatdagi yodgorlik Babish-Mulla-1 nomi bilan ma'lum bo'lib, u Janadaryoning ikkita irmog'i o'rtasida, Chirikrabortdan 40 km. shimoli-sharqiy tomonda joylashgan. Babish-Mulla-1 qal'asi tekislikda joylashgan, topografik tuzilishi kvadrat shaklda. Yana bir yodgorlik bu Balandi-1, 2, 3 nomlari bilan ma'lum. Shundan Balandi-1 ning topografik joylashuvi to'g'riburchak (maydon hajmi 80x130 m.), uning to'rt tomoni devor bilan o'rab olingan, burchaklarida yarim aylana burjlari mavjud. Uchinchi sak qabilalari dastlabki davrlarda Quvondaryo atroflarida Jetiasar soyi atroflarida o'rnatilganlar. Shulardan biri Oltin-asar noto'g'ri trapetsiya shaklda, uning shimoli-g'arbiy burchagida ark joylashgan. Uning umumiy maydoni (16 ga.) [14].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Аскарлов А., Абдуллаев Б. Джаркутан Узбекистана, цивилизации на юге. – Ташкент: “Фан”, 1983. – С. 55.

2. Сагдуллаев А. С., Хакимов З. А. Археологическое изучение городища Кызылтепе (по итогам работ 1973-1974 гг.). // Бактрийские древности. – Л.: “Наука”, 1976. – С. 24-29.

3. История государственности Узбекистана. – Ташкент: “Узбекистон”, 2009. Т.1. – С. 88-89.

4. Anarbaev A. A., Saidov M. M., Korzhenkov A. M., Nazarov A. A., Korzhenkova L. A., Sentsov A. A., Agibalov A. O. Traces of Strong Earthquakes in Ruins of the Afrasiab Archeological Site (Samarkand, Uzbekistan). – Moscow: “Allerton press”. 2023, Vol. 78. – Pp. 565-572.

5. Бердимуратов А. Э., Уеросетти Б., Рахманов Ш. А., Ронделли Б. Новый пункт культуры лепной расписной керамики в Зарафшанской долине // Ўзбекистонда археологик тадқиқотлар – 2004-2005 йй. – Тошкент, 2006. Вып-5. – С. 79-83.

6. Лушпенко О. Н. Раннежелезный век Южного Согда: Автореф. на соис. уч. степени канд. ист. наук. – Самарканд, 1998. – С. 7.

- 7.Пилипко В. Н. Раскопки в Дейнауском районе Чарджоуской области // АО, 1974. – М.: “Наука”, 1975. – С. 528.
- 8.Воробьёва М. Г. Дингильджа. Усадьбы середины I тысячелетия до н.э. в древнем Хорезме. – М.: “Наука”, 1973. – С. 16-25.
- 9.Пидаев Ш. Қадимги Термиз. – Тошкент: “Фан”, 2001. – Б. 55.
- 10.Заднепровский Ю. А. Ошское поселение. К истории Ферганы в эпоху поздней бронзы. – Бишкек, 1977. – С. 23-28.
- 11.Грицина А. А. Городище Эски Хавас по результатам раскопки 1988-1989 гг. // Цивилизации скотоводов и земледельцев Центральной Азии. – Самарканд-Бишкек, 2005. – С. 82-94.
- 12.Анарбаев А. Столичные города Ферганы и их локализация (античность и средневековья) // Грицина А. А. Городище Эски Хавас по результатам раскопки 1988-1989 гг. // Цивилизации скотоводов и земледельцев Центральной Азии. – Самарканд-Бишкек, 2005. – С. 82-94. Рис-1.
- 13.Матбобоев Б. Х. Кубо. Цивилизации скотоводов и земледельцев Центральной Азии. – Самарканд-Бишкек, 2005. – С. 55.
- 14.Толстов С. П. По древним дельтам Окса и Яксарта. – М.: ИВЛ, РАН, “Наука”, 1962. – С. 139-187. Рис-75, рис-88.

XORAZM VOHASIDA ETNOLOGIK TADQIQOTLARNING USTUVOR YO'NALISHLARI

Abdalniyazova Moxira Davronbekovna

Urganch innovatsion universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xorazm vohasida olib borilayotgan etnologik tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlari tahlil qilinadi. Hudud aholisi etnik tarkibi, an'anaviy turmush tarzi, urf-odatlar, marosimlar hamda madaniy merosning saqlanish va transformatsiya jarayonlari yoritiladi. Shuningdek, zamonaviy ijtimoiy-madaniy jarayonlarning etnologik tadqiqotlardagi o'rni ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Xorazm vohasi, etnologiya, etnik jarayonlar, urf-odatlar, an'anaviy madaniyat, marosimlar, madaniy meros, ijtimoiy transformatsiya.

Аннотация: В статье анализируются приоритетные направления этнологических исследований, проводимых в Хорезмской оазисе. Рассматриваются этнический состав населения, традиционный образ жизни, обычаи, ритуалы, а также процессы сохранения и трансформации культурного наследия. Кроме того, раскрывается роль современных социокультурных процессов в этнологических исследованиях.

Ключевые слова: Хорезмская оазис, этнология, этнические процессы, обычаи, традиционная культура, ритуалы, культурное наследие, социальная трансформация.

Abstract: This article analyzes the priority directions of ethnological research conducted in the Khorezm oasis. It examines the ethnic composition of the population, traditional ways of life, customs, rituals, and the processes of preservation and transformation of cultural heritage. In addition, the role of contemporary socio-cultural processes in ethnological studies is revealed.

Keywords: Khorezm oasis, ethnology, ethnic processes, customs, traditional culture, rituals, cultural heritage, social transformation.

Xorazm vohasi – Markaziy Osiyoning eng qadimiy va madaniy jihatdan boy hududlaridan biridir. Shu yerda qadimiy shaharlar, xalq an'analari, san'at va madaniy meros saqlanib qolgan. Bu hududni o'rganish orqali biz Xorazm aholisi qanday yashaganini, ularning oilaviy, ijtimoiy va madaniy hayotini chuqurroq tushunishimiz mumkin.

Etnologik tadqiqotlar Xorazmda oilaviy marosimlar, nikoh va to'y an'analari, kiyim-kechak va marosimiy taomlarni o'rganishga yo'naltirilgan. Bu ishlar nafaqat ilmiy, balki amaliy ahamiyatga ham ega, chunki ular hududning madaniy merosini saqlash va rivojlantirishga xizmat qiladi.[1]

Tadqiqotning asosiy maqsadi – Xorazm vohasida etnologik tadqiqotlarning qaysi yo'nalishlari ustuvor ekanini aniqlash va hududning madaniy merosini o'rganishdir.

Xorazmni etnologik tadqiqotlar yuzasidan o'rganishda tarixiy manbalar muhim rol o'ynaydi. Bu manbalarni uch asosiy guruhga ajratish mumkin:

Qadimiy manbalar

Mahmud Qoshg'ariyning *“Devonu lug'otut-turk”* asari Xorazm aholisi nikoh va oilaviy an'analari haqida qimmatli ma'lumot beradi.[2] Zardushtiylikning *“Avesto”* kitobi va islom dini manbalari, jumladan Qur'oni Karim va hadislar, nikoh va oilaviy marosimlarning diniy asoslarini tushunishda foydali sanaladi.

Sovet davri tadqiqotlari

XIX–XX asrlarda hududni o'rganishga bag'ishlangan ekspeditsiyalar Xorazm aholisi turmush tarzi, to'y marosimlari va diniy e'tiqodlarni yozib qoldirgan. Misol uchun, nikoh va to'y marosimlari bilan bog'liq an'analarning hududiy xususiyati hamda qadimiy diniy e'tiqodlar tadqiq qilindi.[3]

Mustaqillik davri tadqiqotlari

XXI asr tadqiqotlari hududning zamonaviy an'analari va marosimlarini o'rganadi. Ular Xorazm madaniy merosini saqlash va rivojlantirishga yordam beradi.[4]

Xorijiy tadqiqotlar

Xorazm vohasini boshqa hududlar bilan taqqoslash orqali uning milliy va mintaqaviy xususiyatlarini aniqlash mumkin. Shu borada Bregel, Abramson, Akiner kabi olimlarning ishlari muhim. Mustaqillik yillarida Xorazmda nikoh va to'y marosimlari uch bosqichda o'rganiladi:

Dastlab kelin tanlash va fотиha o'qish – bu bosqichda kelinning rozi bo'lishi, kelin-uy ko'rish kabi an'analari mavjud. Keyin kelinni uyga olib kelish va nikoh – nikoh va to'y marosimlari davomida ko'plab an'anaviy udumlar, masalan “qush qo'ndi”, “ko'rpa bichar” amalga oshiriladi va to'y va undan keyingi tadbirlar – bu bosqichda mehmonlar bilan ko'ngilochar tadbirlar va oilaviy marosimlar o'tkaziladi.

To'y marosimlarida kiyilgan liboslar va tayyorlangan taomlar hududning madaniyatini aks ettiradi. Har bir tuman va mahalla o'ziga xos marosimlarga ega, masalan “qizlar bazmi”, “qush qo'ndi” va boshqa an'analari hududiy farqlarni ko'rsatadi.

Bugungi tadqiqotlar an'anaviy marosimlarni zamonaviy hayot bilan uyg'unlashtirishga yo'naltirilgan, milliy madaniyatni saqlashga xizmat qiladi va bu borada Xorazmni boshqa hududlar bilan solishtirish uning milliy va mintaqaviy xususiyatlarini yaxshiroq ko'rsatadi.

Bugungi kunda Xorazm vohasida olib borilayotgan etnologik tadqiqotlar nafaqat hududning boy tarixiy merosini yoritadi, balki uning zamonaviy madaniy hayotini ham aks ettiradi. Tadqiqotlarda soha mutaxassislari — SH. Nurullayeva, M. Jumanioyova, S. Matkarimova, U. Abdalov, N. Matkarimova, Z. Abidova, M. Egambergaanova va boshqalar faol ishtirok etib, hududiy urf-odatlar, nikoh marosimlari, taomlar va kiyim-kechak an'analari chuqur o'rganmoqda. Ularning ishlari Xorazm etnologiyasiga zamonaviy yondashuvni olib kirib, ilmiy asosda faktlarni tahlil qilishga imkon beradi. Shu tariqa, Xorazmdagi etnologik tadqiqotlar hududning madaniy boyligi va xalq an'analari saqlashga muhim hissa qo'shmoqda.

Xulosa qiladigan bo'lsak, Xorazm vohasida etnologik tadqiqotlar asosan oilaviy va nikoh marosimlari, kiyim-kechak, marosimiy taomlar va hududiy urf-

odatlarni o'rganishga yo'naltirilgan. Tarixiy manbalar, sovet davri ekspeditsiyalari, mustaqillik davri tadqiqotlari va xorijiy ishlar birgalikda hududning etnologik jihatdan muhim yo'nalishlarini aniqlashga yordam beradi. Tadqiqot natijalari Xorazm madaniyatini saqlash va rivojlantirishda ilmiy poydevor bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Снесарев Г.П. Реликты домусульманских верований и обрядов у узбеков Хорезма. М.: Наука, 1969.
2. Қошғарий М. Девону луғатут турк. Т.: 1961.
3. Лобачева Н.П. Свадебный обряд как историко-этнографический источник. Советская этнография, 1981. № 2.
4. Жабборов И.М. Ўзбеклар: турмуш тарзи ва маданияти. Т.: Ўқитувчи, 2007.

**KARVON YO'LLARIDA XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH XIZMATI VA
UNI TASHKIL ETISHNING ASOSIY JIHATLARI
(Xorazm XII-XIX asrlar)**

Anyozov Ruslan Botirovich

Urganch innovatsion universiteti dotsenti

Abdirimov Feruzjon Razzokberdiyevich

Urganch innovatsion universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xorazmning XII asrdan XIX asrgacha bo'lgan davrda karvon yo'llarida xavfsizlikni ta'minlash xizmati va uni tashkil etishning asosiy jihatlari bo'lgan e'tibor aks etgan.

Kalit so'zlar: Xorazm, Xiva, Xuroson, Marv, karvon yo'llari, savdo, elchilik, yom (bekat), pochta-aloqa, sarboz, rabot, ulov-transport, quduq, havfsizlik, talonchilik, qaroqchilik.

Аннотация: В данной статье рассматривается служба обеспечения безопасности на караванных путях в регионе Хорезма в период с XII по XIX века, а также основные аспекты её формирования и организации. Проанализирована роль безопасности караванных путей в развитии торговых и дипломатических связей.

Ключевые слова: Хорезм, Хива, Хорасан, Мерв, караванные пути, торговля, дипломатия, йом (станция), почтово-коммуникационная связь, сарбаз, рабат, вьючный и транспортный скот, колодец, безопасность, грабёж, разбойничество.

Annotation: This article examines the service of ensuring security on caravan routes in the Khorezm region from the 12th to the 19th centuries, as well as the main aspects of its formation and organization. The role of caravan route security in the development of trade and diplomatic relations is also analyzed.

Keywords: Khorezm, Khiva, Khorasan, Merv, caravan routes, trade, diplomacy, yam (station), postal communication, sarbaz, rabat, pack and transport animals, well, security, plunder, banditry.

Karvon yo'llarida xizmat ko'rsatishning eng muhim bo'g'inini xavfsizlikni ta'minlash masalasi tashkil etardi. Tabiiy-geografik sharoit va iqlimiy o'zgarishlar ham yo'llarda xavfsizlikka jiddiy ta'sir ko'rsatib turardi. Ayniqsa cho'l va sahrolar, bepoyon dashtlar, tog' dovonlari kabi o'tish qiyin bo'lgan yo'nalishlarda odamlar va ulov vositalari xavfsizligi uchun jiddiy tabiiy to'siqlar mavjud edi. Bunday yo'nalishlarda yo'lovchilar va ulov-transport vositalari uchun oziq-ovqat va ichimlik suvi yetishmasligi, qum bo'ronlari, qor ko'chkisi, sel va boshqa tabiiy xatarlar, masalan, mintaqaning ayrim hududlarida yovvoyi hayvonlarning (Yo'lbars, bo'ri va boshqalar) yo'lovchilarga hujum qilib turishi tabiiy edi. Bu kamsonli, kichik savdo karvonlari uchun ham jiddiy havf tug'dirib turgan. Yo'llarning holati, aniqrog'i yo'lsizlik ham jiddiy to'siq bo'lardi. Yo'llardagi tabiiy to'siqlar, masalan, daryolar va boshqa yirik suv manbalaridan, yirik tog' dovonlaridan o'tishda savdo karvonlari va yo'lovchilar o'tiladigan

hududning tabiiy sharoitini, fizik-geografik xususiyatlarini hisobga olishlari muhim ahamiyat kasb etardi. Davrlar o'tishi bilan to'planib borgan tajribalar, turli geografik hududlarga xos xususiyatlar va ularning mavsumiy o'zgaruvchanligi bo'yicha amaliy bilimlar bu sohadagi muammolarni hal qilishda asosiy vosita bo'ldi. Misol tariqasida, suvsiz cho'l hududlaridan o'tish asosan suv to'ldirilgan charm xaltalardan yetarli darajada olish orqali hal qilinganligi, nimaga deganda Markaziy Osiyoning cho'l hududlarida quduqlar yetarli emasligi va ko'p quduqlarning suvi sho'rligi sababli yo'lovchilar charm meshlarda suv olib yo'lga chiqish majbur bo'lardi. Bunday suv idishlari mustahkamligi, suvni sovuq saqlashi hamda sopol idishlariga qaraganda ulovlarida olib yurish qiyinchilik tug'dirmagani bois, yo'lovchilar va savdo karvonlari ulardan keng foydalangan. XIX asr oxirgi o'n yilliklariga mansub manbalarda ular turli kattalikda bo'lib, yiriklari 20 litrgacha suv sig'imiga ega bo'lgani hamda mintaqamizning dasht va cho'llar chegarasidagi barcha shaharlarda, yirik aholi maskanlarida sotilishi haqida ma'lumot beriladi[1.423].

Tog' yo'llaridan odatda faqat yoz mavsumida o'tilganligi, chunki Oloy tog'laridagi doimiy muzliklardan o'tish paytida, odamlar ko'kraklariga (tanaisga kundalang qilib) maxsus taxtalar bog'lab olganlar. Bu taxtalar ularni muz yoriqlariga tushib ketishdan saqlab turgan. Bunday usullardan otlar hamda boshqa ulov vositalarini katta dovonlaridan tushirishda maxsus moslamalar bilan ta'minlash yo'lga qo'yilganini ya'ni ayrim manbalarga ko'ra, yirik tog' dovonlaridan tushishda otlarning ko'kraklariga masus taxtalar bog'lab quyilgan, taxtaning pastki qismi yerga tegib turgan bu taxtalar otlarni yiqilishdan saqlagani aytib o'tilgan[2.428].

Karvon yo'llaridagi eng jiddiy xavf mintaqaning ayrim yo'nalishlarda, ayniqsa dasht va cho'l hududlaridagi yo'llarda talonchilik va qaroqchilik illatining mavjudligida edi. Bunday yo'nalishlarda savdo karvonlari va yo'lovchilarni, ayrim hollarda hatto elchilik missiyalari a'zolarining xavfsizligini ta'minlash davlat ahamiyatiga molik jiddiy muammo hisoblanardi. Mintaqada markazlashgan davlatlar tashkil topib, markaziy hokimiyatning mavqei kuchaygan davrlarda bu sohada ma'lum yutuqlar qo'lga kiritilgan. Lekin, markaziy hokimiyat zaiflashgan, ichki nizolar kuchaygan davrlarda ayrim yo'nalishlar, ayniqsa dasht-cho'l hududlari orqali o'tuvchi yo'llar savdo karvonlari uchun jiddiy to'siq hisoblanardi. Turli ko'chmanchi chorvador qabilalar tassarufida, nazorati ostida bo'lgan bu hududlardan savdo karvonlari o'tishi urug' boshliqlari va savdo-sotiqdan manfaatdor bo'lgan mahalliy ijtimoiy qatlamlar uchun kerakli bo'lgan albatta.

Ba'zi tadqiqotchilar, ko'chmanchi chorvadorlarga xos bag'rikenglik, mehmondo'stlikni, chorvadorlarning har bir o'tovida yo'lovchilar oziq-ovqat va zarurat bo'lganda ot yoki boshqa ulov vositalari bilan ham ta'minlanganligini qayd etishadi [3.128].

Savdo yo'llari faoliyatidan manfaatdorlik bu hududlardagi yo'llarda xavfsizlikni ta'minlash kafolati sifatida ham ko'zga tashlanadi. Lekin barcha

davrlarda ham yuqoridagidek mehmondo'stlik va bag'rikenglik bo'lmaganligini, bepoyon dashtlar orqali o'tuvchi karvon yo'llarida tabiiy to'siqlar bilan birga aynan xavfsizlikni ta'minlash masalasi ko'p hollarda jiddiy muammo bo'lgani ma'lum.

Siyosiy beqarorlik, o'zaro nizolar va markaziy hukumatning zaiflashuvi karvon yo'llarida xavf-xatarlarning oshishiga olib keluvchi sabablardan edi. Masalan, Xorazmshohlar davrida xalifalik markaziga, Xitoyga jo'natilgan ayrim elchilik missiyalari qo'shni davlatlardagi beqaror siyosiy vaziyatlar sababli ma'lum qiyinchiliklarga duch kelgani, XVI asrning 40-yillari oxiri 50-yillar o'rtalarida Hindistondan O'rta Osiyo orqali o'z yurtiga o'tgan turk admirali Saydi Ali Rais asaridagi ma'lumotlar, 1558 yilda Moskva knyazi Ivan Grozniyning elchisi sifatida O'rta Osiyoga kelgan ingliz sayyohi Antoni Jenkinson Xorazmning poytaxti Urganchdan Buxoroga qarab yo'lga chiqqanda Xorazm xonining qo'riqchilar ajratganligi va elchining xavfsizligi ta'minlanishi haqidagi xatiga qaramasdan ularning karvoniga qaroqchilar hujum qilganligi va boshqa misollarni manbalarda ko'plab uchratamiz.

Manbalarda karvonlar xavfsizligini ta'minlashga mas'ul bo'lgan qo'riqchi sarbozlar guruhlar haqida ma'lumotlar ko'plab uchraydi. Xususan, Ibn Havqal bergan ma'lumotlarsha yuzlanadigan bo'lsak karvon yo'llarida sh ko'plab rabotlar barpo etilgani, bu rabotlarlarda qo'riqchi sarbozlar guruhini saqlanganligi haqida ma'lumot beradi.

Shu o'rinda Xiva xonligida XVI-XVII asrlarda xavfsizlik masalalarigsa alohida e'tibor qaratilib, karvon yo'llarida barpo etilgan rabotlarda karvon yo'lini qo'riqlash vazifasi yuklatilgan sarbozlar guruhi joylashtirilgani ham e'tiborga molikdir[4.117].

O'rta asrlarda qozoq dashtlari ham xavfsizlik eng kam ta'minlangan hududlardan biri bo'lib qolgan edi. Hatto XIX asr boshlarida Orenburgdan Rossiyaga harbiy soqchilar kuzatuvida yo'lga chiqqan karvonning ham ko'chmanchi qozoqlar va xivaliklar tomonidan talanganligi bu davrda yo'llarda talonchilik nihoyatda jiddiy muammo bo'lganidan dalolat beradi[5.14].

Yo'llarda xavfsizlikni ta'minlash, savdo karvonlarini qaroqchilar xurujlaridan saqlashda talonchi guruhlarini zararsizlantirish bo'yicha muntazam ish olib borish davlat ahamiyatiga ega edi.

Anushtegin Xorazmshohlar davri karvon yo'llarida xizmat ko'rsatish tizimi rivojida ham muhim o'rin tutadi. Savdo markazlari bo'lgan shaharlarda barpo etilgan ixtisoslashgan bozorlar, savdo yarmarkalari, karvon yo'llari bo'yida savdo-sotiq bilan bog'liq inshootlarning ko'plab barpo etilishi, ko'priklar qurilishi, yo'llarning ta'mirlanishi, bu masalalar bilan maxsus vazirlik shug'ullangani va boshqa tegishli tadbirlar amalga oshirilgani markaziy hukumatning ichki va tashqi iqtisodiy-savdo aloqalarda adolatli siyosat qo'llaganligini, qat'iy tartib o'rnatganligini ko'rsatadi.

Yuqorida biz muhim yo'lbo'yi inshootlaridani bo'lgan rabotlar qadim davrlardayoq karvon yo'llari xavfsizligini ta'minlash vazifasini bajaruvchi

qo'riqchi guruhlar uchun mo'ljallab barpo etilganligini aytib o'tgan edik. Xatto XIX asrda ham Xiva sarbozlari karvon yo'llaridagi rabotlarda joylashtirilib, ularga karvonlar xavfsizligini ta'minlash, savdogarlarni ko'chmanchi turkmanlar xujumidan saqlash vazifalari yuklatilganligi ma'lum. Rus harbiy manbalari ma'lumotiga ko'ra, Xiva xonligida yo'llarni talonchilardan qo'riqlash vazifasini Qorovulbegi boshliq sarbozlar bajargan bo'lsada, lekin, yozma manbalarga asoslansak, Buxoro hukumati bu davrda xonlikning dasht-cho'l hududlari orqali o'tuvchi karvonlar xavfsizligini ta'minlashga to'liq erisha olmaganligini ko'ramiz. Shu bilan birga ayrim yo'lbo'yidagi inshootlardan qaroqchilar tayanch manzil sifatida ham foydalanganlar. Rus harbiy manbalarida aytishicha Chorjuy – Marv yo'lidagi yagona chuchuk suvli Rapatak manzili qaroqchi turkmanlar nazorati ostida bo'lib, karvonlar bu manzilni chetlab o'tishga majbur bo'lganligi haqidagi ma'lumotlar buni yaqqol ko'rsatib turibdi[6.86].

Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, karvon yo'llarida havfsizlikni ta'minlash mahalliy va markaziy hukumatning, savdo-sotiqdan manfaatdor ijtimoiy tabaqalarning doimiy diqqat markazida turgan masala bo'lganidan dalolat beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Мавланов Ў. Марказий Осиёнинг қадимги йўллари.-Т.Академия.2008.- 423б.
2. Мавланов Ў. Марказий Осиёнинг қадимги йўллари.-Т.Академия.2008.- 428б.
3. Мавлонов Ў. Қадимги йўллар ва хизмат кўрсатиш тизими // Трансоксиана -Мавераннахр. – Ташкент: Издание журнала San'at, 2007. – Б. 128.
4. Мавлонов Ў. Қадимги йўллар ва хизмат кўрсатиш тизими // Трансоксиана -Мавераннахр. – Ташкент: Издание журнала San'at, 2007. – Б. 117.
5. Мухаммаджонов А.Р., Неъматов Т.Н. Бухоро ва Хиванинг Россия билан муносабатлари тарихига доир баъзи манбалар. – Тошкент, 1957, – Б. 14.
6. Мавлонов Ў. Қадимги йўллар ва йўлбўйи иншоотлари // Жамият ва бошарув. – Тошкент, 2005. – № 3. – Б. 86.

MARKAZIY OSIYO VA UNGA QO'SHNI HUDUDLARDA KARVON
YO'LLARIDA XIZMAT KO'RSATISH TIZIMI
(XII-XV- ASRLAR)

Anyozov Ruslan Botirovich

Urganch innovatsion universiteti dotsenti

Abdirimov Feruzjon Razzokberdiyevich

Urganch innovatsion universiteti magistri

Annotasiya: Ushbu maqolada XII-XV- asrlar davrida Markaziy Osiyoda markaziy va mahalliy hukumatning karvon yo'llarida xizmat ko'rsatish tizimi faoliyatini tashkil etishdagi o'rni haqida qisqacha ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: Markaziy Osiyo, Buyuk ipak yo'li, A.Temur, karvon, karvonsaroy, elchilik, savdo, yom (bekat).

Аннотация: В данной статье представлен краткий обзор роли центрального и местного правительств в организации системы обслуживания на караванных путях в Центральной Азии в XII-XV веках.

Ключевые слова: Центральная Азия, Великий Шелковый путь, А. Темур, караван, караван-сарай, посольство, торговля, йом (станция).

Abstract: This article provides a brief overview of the role of central and local governments in organizing the service system on the caravan routes in Central Asia during the 12th-15th centuries.

Keywords: *Central Asia, Great Silk Road, A. Temur, caravan, caravanserai, embassy, trade, yom (station).*

Markaziy Osiyoning karvon yo'llarida xizmat ko'rsatish tizimini tashkil etishda, bu tizim faoliyatini nazorat qilish va boshqarishda mintaqada o'rta asrlar davrlarda tashkil topgan qudratli va kuchli markaziy hokimiyatga ega davlatlar katta o'rin tutgan. Ichki va tashqi iqtisodiy-madaniy aloqalarni rivojlantirish davlat ahamiyatiga ega masalalardan bo'lib, bundan bevosita manfaaddor bo'lgan bunday davlatlarda karvon yo'llarida xizmat ko'rsatish tizimi faoliyatini yo'lga qo'yish, xavfsizlikni ta'ffminlash, yo'lovchilarga tegishli xizmatlarni ko'rsatish ishiga muhim davlat ahamiyatiga ega siyosiy masala sifatida qaralar edi.

Rivojlangan o'rta asrlarda Movarunnahr va Xurosonda hukmronlik qilgan turkiy sulolalar Buyuk ipak yo'lining mintaqqa orqali o'tgan yo'nalishlari bo'ylab olib borilgan karvon savdosini rivojlantirishni doimo davlat nazoratida tutib turishga harakat qilganlar. Buyuk ipak yo'lining faoliyatida, Xitoyning ichki hududlarini Markaziy Osiyo orqali O'rta yer dengiziga olib chiquvchi transmintaqaviy tranzit aloqa-savdo yo'llari faoliyatida tegishli yo'lbo'yi infratuzilmalarining mavjudligi muhim ahamiyatga ega edi. Xususan, Amir Temur davlati kabi ulkan saltanatlar davrida butun Markaziy Osiyo va unga qo'shni hududlarda karvon yo'llarida xizmat ko'rsatish yuksak darajada tashkil etildi. Tashqi savdodan katta foyda olganliklari bois, bu davlatlar karvon yo'llari xavfsizligini ta'minlash kafolati bo'lib maydonga chiqdilar. Karvon yo'llari bo'yida bojxonalar, yo'lbo'yi inshootlari barpo etildi, savdo karvonlarining zaruriy

ehtiyojlarini (oziq-ovqat va suvga, ulov vositalari uchun yem-xashakka va boshqalarga bo'lgan talablar) ta'minlashga xizmat qiluvchi tegishli infratuzilmalar tashkil etildi. [1. 132.]

Karvon yo'llarida minoralar qurishga, zarur joylarda turli belgilar va maxsus yo'lko'rsatkichlar bo'lishiga ham katta e'tibor qaratilardi. Xususan, Qizilqum cho'li orqali o'tgan Marv-Buxoro karvon yo'lidagi yo'lbo'yi infratuzilmalari ichida Ayritom va Dunyotepa kabi kechasi karvonlar adashmasligi uchun olov yoqib signal beruvchi minoralar ham bo'lgani ahamiyatlidir. Bu minoralar rivojlangan o'rta asrlarda karvon yo'llari tizimi faoliyatiga xos yetakchi an'analardan dalolat beradi.

Nosir Xisrav dasht yo'llaridan o'tuvchi yo'lovchilar qor va bo'ronli kunlarda yo'ldan adashmasligi uchun yo'l bo'ylab qoziqlar qoqib chiqilganini haqida xabar beradi[2.18]. Marko Polo mo'g'ullar saltanatidagi yo'llarda ham maxsus yo'l belgilari borligi haqida ma'lumot yozib qoldirgani ma'lum. Bu va boshqa ko'plab misollarda ichki va tashqi iqtisodiy-madaniy aloqalar yo'llarda xizmat ko'rsatish va xavfsizlikni ta'minlash masalasi bilan uzviy bog'liqlikda rivojlanib borganligini ko'rsatib turibdi.

Amir Temur va temuriylar davri karvon yo'llarida xizmat ko'rsatish tizimi rivojida ham muhim o'rin tutadi. Savdo markazlari bo'lgan shaharlarda barpo etilgan ixtisoslashgan bozorlar, savdo yarmarkalari, karvon yo'llari bo'yida savdo-sotiq bilan bog'liq inshootlarning ko'plab barpo etilishi, ko'priklar qurilishi, yo'llarning ta'mirlanishi, bu masalalar bilan maxsus vazirlik shug'ullangani va boshqa tegishli tadbirlar amalga oshirilgani markaziy hukumatning ichki va tashqi iqtisodiy-savdo aloqalarda adolatli siyosat qo'llaganligini, qat'iy tartib o'rnatganligini ko'rsatadi. Amir Temurning savo-sotiqni rivojlantirish, karvon yo'llari va xizmat ko'rsatish tizimini yaxshilash bo'yicha amaliy ishlari "Temur tuzuklari"da ham aks etgani e'tiborlidir[3.73]. Bu davrda karvon yo'llarida savdogarlarning xavfsizligini, mol-mulklarining butunligini saqlash, tadbirkorlar va savdo ahlini himoya qilishning huquqiy asoslari mustahkamlandi va markaziy hokimiyat uning kafolati bo'lib maydonga chiqdi.

Bu davrda karvon yo'llarida xizmat ko'rsatish tizimini barpo etish, uning faoliyatini nazorat qilishda davlat hokimiyatining ishtirokini quyidagi holatlar belgilab bergan.

Birinchidan karvon yo'llari va tegishli infratuzilmalarning holati bilan bog'liq belgilar muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Ularga:

– Yo'lovchilar va savdo karvonlari foydalanishiga, ulov vositalari va aravalar harakatiga qulay aloqa yo'llarining mavjudligi, yo'llarni qurish va ta'mirlash, faoliyatini nazorat qilish xizmati yo'lga qo'yilganligi, sohani boshqaruv tizimi mavjudligi;

– yo'lbo'yi inshootlari – vaqtinchalik qo'nalg'alar, rabotlar, karvonsaroylar, sardobalar, quduqlar, ko'priklar va boshqa tegishli infratuzilmalar mavjudligi;

–ulov vositalari mavjudligi, ulardan nafaqat savdogarlar, elchilar, choparlar, davlat xizmatchilari, shu bilan birga keng aholi qatlamining foydalana olish imkoniyati yaratilgani.

Ikkinchidan, karvon yo'llarida xizmat ko'rsatish xizmatining yo'lga qo'yilganligi. Unga yo'l boshlovchilar, kirakashlar, tilmoqlar xizmati mavjudligi, qo'riqchilar xizmatining yo'lga qo'yilganligi, madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish, ya'ni karvon yo'llarida, savdo markazlarida kishilarni oziq-ovqat va ulov vositalarini yemish bilan ta'minlanish darajasi, madaniy tadbirlar tashkil etilishi, karvon yo'llarida, savdo markazlarida tibbiy xizmat ko'rsatishning mavjudligi kabi xizmatlarni ko'rsatish mumkin.

Karvon yo'llarida xizmat ko'rsatish tizimining siyosiy-huquqiy kafolatlari yaratilgani ham davlat hokimiyatining katta xizmati edi. Xususan:

– markaziy va mahalliy hokimiyatning karvon yo'llarida xizmat ko'rsatish tizimi faoliyatini rivojlantirishga bo'lgan e'tibori, tegishli qonunlarning mavjudligi;

– mahalliy va xorijiy savdogarlarning, karvonboshilarning huquqlari, ularning mol-mulkklarining daxlsizligi tegishli qonunlar bilan kafolatlanganligi;

– davlat xokimiyati va xususiy sarmoyadorlarning karvon savdosidagi ishtiroki va karvon yo'llarida xizmat ko'rsatish tizimiga jalb etilganligi darajasi karvon yo'llarida xizmat ko'rsatish tizimi faoliyatida davlat hokimiyatining tutgan o'rnidan dalolat beradi.;

Shu tariqa, o'rta asrlarda karvon yo'llarida xizmat ko'rsatish tizimi faoliyatida mintaqada hukmronlik qilgan sulolalarning siyosiy va iqtisodiy qudrati muhim o'rin tutgan. Karvon yo'llarida xizmat ko'rsatish tizimi faoliyati ko'p qirrali bo'lib, uning rivojlanish darajasi (dinamikasi) jamiyatdagi iqtisodiy-madaniy taraqqiyot ko'rsatkichlariga ham mos kelganligini va umuman sivilizasiya taraqqiyoti bilan uzviy bog'liqlikda borgani haqida muhim xulosaga kelishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Бўриев О. Темурийлар даври ёзма манбаларида Марказий Осиё. – Тошкент: Фан, 1997. – Б. 132.
2. Носир Хисров. Сафарнома / Форсийдан Ғ. Карим таржимаси. – Тошкент: Шарқ, 2003. – Б. 18.
3. Темур тузуклари // Форсчадан Алихон Соғуний ва Ҳабибулло Кароматов таржимаси. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1996, – Б. 73.

O'zbekiston SSR davrida Xorazm viloyatining ijtimoiy – iqtisodiy va siyosiy
ahvoli (1925-1941)

Ashirov Umrbek

Urganchi innovatsion universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqola O'zbekiston SSR davrida Xorazm viloyatining 1925-1941-yillardagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahvoli tahlil qilinadi. Tadqiqotda sovet hokimiyatining o'rnatilishi, markazlashgan siyosiy boshqaruv, qatag'on siyosati, qishloq xo'jaligida kollektivlashtirish jarayoni hamda paxtachilikka bir yoqlama ixtisoslashuv masalalari yoritilgan. Shuningdek, sanoat rivoji, aholi turmush darajasi, ta'lim va diniy hayotdagi o'zgarishlar tahlil etilgan. Maqola tarixiy manbalar va ilmiy adabiyotlar asosida yozilgan bo'lib, Xorazm viloyatining sovet davridagi murakkab ijtimoiy-siyosiy jarayonlarini ochib berishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Xorazm viloyati, O'zbekiston SSR, sovet siyosati, kollektivlashtirish, paxtachilik, siyosiy qatag'on, ijtimoiy ahvol.

Аннотация: на статье анализируется социально-экономическое и политическое положение Хорезмской области в составе Узбекской ССР в 1925-1941 годах. Рассматриваются процессы установления советской власти, централизованной системы управления, массовые политические репрессии, коллективизация сельского хозяйства и односторонняя ориентация на хлопководствою особое внимание уделено развитию промышленности, уровню жизни населения, изменениям в сфере образования и религиозной жизни. Исследование основано на исторических источниках и научной литературе и раскрывает сложный характер социально-политических процессов в Хорезмской области в советский период.

Ключевые слова: Хорезмская область, Узбекская ССР, советская политика, коллективизация, хлопководство, политические репрессии, социальное, положение.

Annotation: This article analyzes the socio- economic and political situation of the Khorezm region within the UzbekSSR during 1925-1941. The study examines the establishment of Soviet power, centralized political governance, mass political of agricultural collectivization, and the forced specialization in cotton production. It also explores industrial development, living standards of the population, and changes in education and religious life. Based on historical sources and scholarly literature, the article reveals the complex and controversial nature of socio-political processes in the Khorezm region during the soviet period.

Keywords: Khorezm region, UzbekSSR, Soviet policy, collectivization, cotton monoculture, political repression, social conditions.

XX asrning birinchi choragida O'rta Osiyo tarixida tub burilish yuz berdi. 1924-1925-yillarda amalga oshirilgan milliy-hududiy chegaralanish natijasida O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi tashkil etildi. Ushbu jarayon Xorazm

hududi taqdiriga ham bevosita ta'sir ko'rsatdi[1.15-18] Avvalroq Xorazm Xalq Sovet Respublika sifatida mavjud bo'lgan bu hudud 1925-yildan boshlab O'zbekiston SSR tarkibiga kiritildi. 1925-1941-yillarda Xorazm viloyati tarixida siyosiy tizimning to'liq sovetlashtirilishi, iqtisodiy hayotning markaziy rejalashtirishga bo'ysundirilishi hamda ijtimoiy hayotda keskin va majburiy o'zgarishlar bilan xarakterlanadi. Ushbu maqolada Xorazm viloyatining mazkur davrdagi siyosiy boshqaruvi, iqtisodiy rivojlanish yo'nalishlari va aholi ijtimoiy ahvolidan asosiy jihatlari tahlil qilinadi.

Xorazm viloyatida sovet hokimiyati bosqichma-bosqich mustahkamlandi. Barcha siyosiy qarorlar VKP(Butunittifoq Kommunistik partiyasi(bolshaviklar)) organlari orqali qabul qilinardi. Viloyat, tuman va qishloq darajasida partiya qo'mitalari tashkil etilib, ular ijroiya hokimiyat ustidan to'liq nazorat o'rnatardi. Mahalliy aholining siyosiy faolligi cheklangan bo'lib, muhim lavozimlarga, asosan, markazga sodiq kadrlar tayinlandi. Bu holat Xorazmda siyosiy mustaqillikning yo'qligini va hududning markazga qaramligini kuchaytirdi[10.122-125].

1920-yillarning oxiri va 1930-yillarda Xorazmda faoliyat yuritgan milliy ziyolilar sovet mafkurasiga mos kelmaganlikda ayblandi. Jadidchilik harakati vakillar, sobiq davlat arboblari va ma'rifatparvarlar "millatchi" yoki "aksilinqilobchi" sifatida ta'qib qilindi[4.87-92]. Natijada jamiyatning intellektual salohiyati jiddiy zarba oldi. Stalin davrida amalga oshirilgan ommaviy qatag'onlar Xorazm viloyatida ham og'ir oqibatlariga olib keldi[9.44-49]. Ko'plab rahbarlar, o'qituvchilar, madaniyat va din vakillari noqonuniy ayblovlar bilan hibsga olindi. Ayrimlari uzoq muddatli qamoq jazolariga hukm qilinsa, boshqalar otib tashlandi. Bu jarayon jamiyatda qo'rquv muhitini shakllantirib, ijtimoiy faollikni susaytirdi[8.211-214].

Xorazm viloyati tabiiy-geografik jihatdan qishloq xo'jaligiga mos hudud bo'lib, sug'orma dehqonchilik yetakchi tarmoq hisoblangan. Amudaryo va qadimiy sug'orish tarmoqlari dehqonchilikning asosiy tayanchi bo'lib xizmat qilgan[5.33-35]. Biroq sovet hokimiyati yillarida an'anaviy xo'jalik yuritish shakllari keskin o'zgartirildi. Davlat manfaatlariga mos keladigan ekin turlari ustuvor ahamiyat kasb etdi. 1929-yildan boshlab Xorazmda majburiy kollektivlashtirish jarayoni boshlandi. Yakka dehqon xo'jaliklari kolxoz va sovxozlarga birlashtirildi[6.18-22]. Bu jarayon ko'pincha zo'ravonlik va majburiy choralar asosida amalga oshirildi[6.41-44-b].

Kollektivlashtirish natijasida:

- Dehqonlarning shaxsiy mulki tugatildi;
- Ishlab chiqarishga bo'lgan rag'bat pasaydi;
- Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishmovchiligi yuzaga keldi.

Ayniqsa, "quloqlashtirish" siyosati natijasida tajribali dehqonlar xo'jalikdan chatlatib, bu ishlab chiqarish samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatdi[1.97-99].

Xorazm viloyati butun O'zbekiston singari paxta yetishtirishga majburiy tarzda ixtisoslashtirildi. Paxta davlat uchun strategik xomashyo sifatida qaraladi[5.61-64].

Natijada g'alla, sabzavot va boshqa oziq-ovqat ekinlari maydoni qisqardi. Bu holat aholining oziq-ovqat bilan ta'minlanishida muammolarni keltirib chiqardi[6.73-76].

1930-yillarda Xorazmda yengil va qayta ishlash sanoati rivojlana boshladi. Paxta tozalash, yog' ishlab chiqarish, un tortish va g'isht zavodlari ishga tushirildi[1.132-135]. Biroq sanoat korxonalari asosan xomshyoni qayta ishlashga yo'naltirib, og'ir sanoat deyarli shakllanmadi. Bu esa hudud iqtisodiyotining bir yoqlama rivojlanishiga olib keldi.[7.58-60] Sovet iqtisodiy siyosati aholining turmush darajasini yaxshilashni maqsad qilgan bo'lsa-da, amalda bu jarayon ko'plab muammolar bilan kechdi. Majburiy mehnat, reja asosida topshiriladigan mahsulotlar va oziq-ovqat tanqisligi qishloq aholisining hayotini og'irlashtirdi[3.104-107].

Xorazm viloyatida savodsizlikka qarshi kurash kompaniyasi olib borildi. Dunyoviy maktablar ochilib, yangi o'quv dasturlari joriy etildi[1.201-203]. Bu jarayon ijobiy natija bergan bo'lsa-da, an'anaviy ta'lim tizimi va milliy tarbiya usullarining yo'qolishiga sabab bo'ldi[2.56-58]. Aynan shu davrda diniy faoliyat ham keskin cheklab qo'yildi. Masjid va madrasalar yopildi, diniy marosimlar ta'qiqlanib, ruhoniylar ta'qib ostiga olindi[9.88-91]. Ateistik targ'ibot jamiyatning ma'naviy hayotida chuqur o'zgarishlar yasadi. 1925-1941-yillarda Xorazm viloyati O'zbekiston SSR tarkibida siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan sovet markazlashgan boshqaruv tizimiga to'liq integratsiya qilindi. Mazkur davr Xorazm tarixida keskin va ziddiyatli jarayonlar bilan xarakterlanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, sovet siyosiy tizimi Xorazm viloyatida siyosiy barqarorlikni ta'minlashni maqsad qilgan bo'lsada, amalda mahalliy manfaatlarini inkor etgan markazlashgan boshqaruvni mustahkamladi. Mahalliy boshqaruv organlarining mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatlari cheklanib, hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivoji tashqi buyruqlar asosida olib borildi. Iqtisodiy jihatdan Xorazm viloyati agrar xomashyo hududiga aylantirildi. Majburiy kollektivlashtirish va paxtachilikka bir yoqlama ixtisoslashuv qishloq xo'jaligining tabiiy rivojlanishiga to'sqinlik qildi, aholi turmush darajasining pasayishiga olib keldi hamda oziq-ovqat ta'minotida muammolarni kuchaytirdi[6.18-22]. Ijtimoiy sohada amalga oshirilgan islohotlar, jumladan savodxonlikni oshirish va dunyoviy ta'limni joriy etish ma'lum ijobiy natijaalar bergan bo'lsada, bu jarayonlar milliy qadriyatlar, diniy erkinlik va an'anaviy ijtimoiy tuzilmalarning cheklanishi hisobiga amalga oshirildi[2.56-58;9.88-91].

Xulosa qilib aytganda, 1925-1941-yillarda Xorazm viloyati tarixida sovet modernizatsiyasi nomi ostida olib borilgan siyosiy va iqtisodiy tajribalar mahalliy jamiyat rivojiga murakkab va uzoq muddatli salbiy oqibatlar qoldirgan davr sifatida baholanadi. Ushbu tadqiqot natijalari Xorazm viloyatining sovet davri tarixini chuqurroq anglash hamda mintaqaviy tarixiy jarayonlarni chuqurroq anglash hamda mintaqaviy tarixiy jarayonlarni obyektiv baholash uchun muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston tarixi. 4-jild. XX asrning 20-40-yillari. Toshkent: Fan, 2000.
2. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – Toshkent: Sharq, 1998.
3. Alimuhamedov R. O'zbekistonda sovet mustamlakachilik siyosati. – Toshkent: Ma'naviyat, 2003.
4. Qosimov B. Jadidchilik va milliy uyg'onish. – Toshkent: Fan, 1997.
5. Ziyo said. O'zbekiston qishloq xo'jaligi tarixidan. – Toshkent: O'zbekiston, 1998.
6. Rajabov Q. O'zbekistonda kollektivlashtirish siyosati va uning oqibatlari. – Toshkent: Fan, 2001.
7. Xudoyberganiv M. Xorazm tarixi(XX asr). – Urganch: Xorazm nashriyoti, 2005.
8. Fitrat A. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma'naviyat, 2000.
9. Saidov A. O'zbekistonda siyosiy qatag'onlar tarixi. – Toshkent: Fan, 2004.
10. Markaziy Osiyo tarixi manbalarda va tadqiqotlarda. Toshkent: Universitet, 2010.

**AFG'ONISTONDAGI TINCHLIK JARAYONLARI VA MARKAZIY
OSIYO XAVFSIZLIGI — YANGI O'ZBEKISTON TASHQI
SIYOSATINING USTUVOR YO'NALISHI SIFATIDA
(2017–2021-yillar)**

Shixov Otabek

Urganch innovatsion universiteti dotsenti

Atamuratova Salomat

Urganch innovatsion universiteti magistranti

Annotatsiya: Tezisdagi 2017–2021-yillarda O'zbekistonning Afg'oniston bo'yicha yangi strategiyasi, mintaqaviy xavfsizlik va iqtisodiy integratsiya masalalari ilmiy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekiston, Afg'oniston, mintaqaviy xavfsizlik, Toshkent konferensiyasi, iqtisodiy diplomatiya, Surxon–Puli-Xumri, transport koridorlari.

Аннотация: В тезисе научно проанализированы новая стратегия Узбекистана по Афганистану в 2017–2021 гг., вопросы региональной безопасности и экономической интеграции.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, Афганистан, региональная безопасность, Ташкентская конференция, экономическая дипломатия, Сурхон–Пули-Хумри, транспортные коридоры.

Abstract: The thesis analyzes Uzbekistan's new strategy on Afghanistan in 2017–2021, issues of regional security, and economic integration.

Key words: New Uzbekistan, Afghanistan, regional security, Tashkent Conference, economic diplomacy, Surkhan–Puli-Khumri, transport corridors

2017-yil O'zbekiston tashqi siyosatida "geopolitika"dan "geo-iqtisodiyot"ga o'tish davri bo'ldi. Afg'oniston o'n yillar davomida Markaziy Osiyo uchun faqat "xavf manbai" sifatida ko'rilgan bo'lsa, Yangi O'zbekiston strategiyasi doirasida ushbu mamlakat mintaqaviy hamkorlikning ajralmas qismi va Janubiy Osiyoga chiqish uchun "strategik ko'priq" deb e'lon qilindi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Afg'onistonda tinchlik o'rnatilishi nafaqat mintaqaviy, balki global miqyosdagi xavfsizlik muammolarining yechimidir" [1,156]. Ushbu yondashuv O'zbekistonning milliy manfaatlarini himoya qilishning preventiv (oldini oluvchi) usuli hisoblanadi.

2018-yil 26-27 mart kunlari o'tkazilgan "Tinchlik jarayoni, xavfsizlik sohasida hamkorlik va mintaqaviy sheriklik" mavzusidagi xalqaro konferensiya O'zbekiston tashqi siyosatining "vizit kartasi"ga aylandi. Mazkur anjumanning tarixiy ahamiyati shundaki, unda ilk bor Afg'oniston hukumati va "Tolibon" harakati o'rtasida hech qanday shartlarsiz muloqot boshlash g'oyasi xalqaro darajada qo'llab-quvvatlandi [2,44].

O'zbekistonning ushbu diplomatik tashabbusi mintaqada "Toshkent ruhi"ni shakllantirdi. Buning natijasida, O'zbekiston jahon siyosatida passiv

kuzatuvchidan faol moderator va "regional power" (mintaqaviy kuch) darajasiga ko'tarildi [3,92].

O'zbekiston milliy manfaatlarining muhim yo'nalishi — Afg'onistonni mintaqaviy savdo-iqtisodiy aloqalarga jalb qilishdir. 2017–2021-yillar oralig'ida bu borada ikki yirik loyiha ilgari surildi:

Energetika: "Surxon – Puli-Xumri" elektr uzatish tarmog'ining qurilishi. Bu loyiha Afg'onistonga elektr energiyasi yetkazib berishni 70 foizga oshirish bilan birga, mamlakatda sanoatlashuv jarayonini tezlashtiradi [4,34].

Transport: "Mozori-Sharif – Kobul – Peshovar" temir yo'li loyihasi. Ushbu yo'lak O'zbekistonga Pokistonning "Gvadar" va "Qosim" portlariga eng qisqa yo'l bilan chiqish imkonini beradi [5, 45].

Ushbu loyihalar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston tashqi siyosatida Afg'oniston muammosini hal qilishning yagona yo'li — harbiy kuch emas, balki iqtisodiy farovonlikni ta'minlashdir.

Milliy manfaatlarni himoya qilishda O'zbekiston gumanitar omildan ham samarali foydalandi. Termiz shahrida Afg'oniston fuqarolarini o'qitish ta'lim markazining ochilishi (2018-yil) qo'shni davlatning kelajakdagi intellektual elitasini shakllantirishga xizmat qiladi [6,12]. Bu qadam O'zbekistonning mintaqadagi ma'rifiy yetakchiligini mustahkamladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, 2017–2021-yillarda O'zbekistonning Afg'oniston bo'yicha yuritgan siyosati quyidagi natijalarni berdi:

Geopolitik muvozanat: O'zbekiston yirik davlatlar (AQSh, Rossiya, Xitoy) bilan munosabatlarda Afg'oniston masalasida "neytral va konstruktiv maydon" vazifasini bajardi.

Chegara xavfsizligi: Afg'oniston bilan iqtisodiy muloqotning mavjudligi chegara hududlarida keskinlikning pasayishiga va o'zaro ishonchning ortishiga olib keldi [7,88].

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, 2017–2021-yillar oralig'ida O'zbekiston tashqi siyosatida Afg'oniston yo'nalishi yangi sifat bosqichiga chiqdi. Mamlakatimiz "Afg'oniston bilan tinchlik — mintaqa uchun taraqqiyot" formulasini amalda isbotladi. Bu strategiya O'zbekistonning xalqaro maydondagi subyektligini oshirish bilan birga, milliy iqtisodiyotimiz uchun yangi eksport bozorlari va tranzit koridorlarini ochib berdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – 156 b.
2. Safayev S.S. Geopolitika. – Toshkent: JIDU, 2018. – 44 b.
3. Farmonov R. O'zbekistonning zamonaviy tashqi siyosati. – Toshkent: Fan, 2020. – 92 b.
4. Burnashev R. Central Asia: security and foreign policy. – Almaty: 2019. – 34 p.
5. Mintaqaviy muloqot jurnali. "O'zbekistonning Afg'oniston yo'nalishidagi tashabbuslari". 2021-yil, 4-son. – 45-b.
6. "Afg'oniston: tinchlik jarayoni, xavfsizlik va mintaqaviy hamkorlik" konferensiya materiallari. – Toshkent: 2018. – 12 b.
7. Afg'oniston bilan iqtisodiy hamkorlik istiqbollari. – Toshkent: Sharq, 2019. – 88 b.

FUQAROLIK JAMIYATINING ZAMONAVIY MODELLARI

Jumaniyazov Bekzod Ochilovich

Urganch innovatsion universiteti dotsenti

Babadjanov Ilg'orbek Yuldashevich

Urganch innovatsion universiteti magistranti

Annotatsiya: Maqola mustaqillik yillarida fuqarolik jamiyatining tarixiy ildizlari shakllanishi rivojlanish tendensiyalari jarayonlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Fuqarolik jamiyati, sharq, konsepsiya, g'arb, demokratiya, fuqarolik jamiyati institutlari, ekologik nazorat.

Аннотация: В статье описаны процессы формирования исторических корней гражданского общества в годы независимости, тенденции развития.

Ключевые слова: Гражданское общество, шакр, концепция, Запад, демократия, институты гражданского общества, экологический контроль.

Annotatsiya: The article describes the processes of the formation of the historical roots of the civil society during the years of independence, the development trends

Keywords: Civil society, shaqr, concept, west, democracy, institutions of civil society, ecological control.

Fuqarolik jamiyati bu shunchaki fuqarolar o'z hokimiyatini amalga oshiradigan va butun xalq uchun hukumat organini (parlament kabi) birgalikda tashkil etadigan hukumat vakillarini saylash huquqiga ega bo'lgan boshqaruv tizimidir. Xuddi shu narsani aytishning yana bir usuli - bu fuqarolar yoki boshqacha qilib aytganda, jamiyat a'zolari bo'lgan odamlar tomonidan boshqariladigan hukumatning bir turi. Demokratik hukumatda odamlar hukumat ulardan tortib ololmaydigan ba'zi bir asosiy huquqlarga ega va bu huquqlar xalqaro miqyosda tan olingan va kafolatlangan.

Fuqarolik jamiyatining bugungi kunda mavjud modellari Fuqarolik jamiyatining asosiy modellari:

1. To'g'ridan-to'g'ri demokratiya
2. Vakillik demokratiyasi
3. Prezidentlik demokratiyasi
4. Parlament demokratiyasi
5. Avtoritar demokratiya
6. Hamkorlik demokratiyasi
7. Islom demokratiyasi
8. Ijtimoiy demokratiya

Har bir mamlakat demokratiya – fuqarolik jamiyatining ma'nosini o'ziga xos tarzda izohlaydi. Turli xil geosiyosiy atmosfera sharoitida biz butun dunyo bo'ylab mavjud bo'lgan demokratik hukumatlarning katta spektrini ko'ramiz.

Quyida bugun ko'rilayotgan fuqarolik jamiyatining ba'zi asosiy turlarini yoritib berishga harakat qilamiz.

To'g'ridan-to'g'ri demokratiya

To'g'ridan-to'g'ri demokratiya - bu fuqarolar har qanday oraliq vakillarsiz yoki parlament palatalarisiz to'g'ridan-to'g'ri siyosat uchun ovoz berishlari. Agar hukumat ma'lum bir qonunni yoki siyosatni qabul qilishi kerak bo'lsa, u odamlarga tegishli. Ular masala bo'yicha ovoz berishadi va o'z mamlakatlari taqdirini hal

qilishadi. Bu masala bo'yicha jiddiy kelishuvga ega bo'lishlari sharti bilan, odamlar hatto o'zlari masalalarni ko'tarishlari mumkin. Hatto soliqlarni ham jamoat ko'magisiz oshirish mumkin emas!

Aholi oz bo'lsa, o'qimishli va asosan bir hil (hech bo'lmaganda siyosiy jihatdan) bo'lsa, to'g'ridan-to'g'ri demokratiya yomon fikrga o'xshamaydi. Masalan, Shveytsariya uzoq yillik muvaffaqiyatli demokratiyaning muvaffaqiyatli tarixiga ega. Mamlakatning ba'zi joylarida ular hali ham bor *Landsgemeinde* - odamlar ma'lum bir kun ochiq havoda birlashadigan va o'z jamiyatining qonunlariga ovoz beradigan yig'ilishlar. **[1-C. 201-210]**

Ushbu fuqarolik jamiyati modeli odamlarni o'z dasturlari uchun partiyalar tuzishga undaydi. E'tiborli tomoni shundaki, ushbu boshqaruv tizimi tufayli Shveytsariyadagi siyosiy partiyalardan biri, bunga ishonasizmi yoki yo'qmi, Anti- Powerpoint partiyasi deb nomlanadi. Partiyaning yakka maqsadi - ofis taqdimotlarida Powerpoint-dan foydalanishni taqiqlash!

To'g'ridan-to'g'ri demokratiya Qo'shma Shtatlarda asl shaklida mavjud bo'lmasa-da, ayrim elementlar shtat va mahalliy darajalarda referendumlar va tashabbuslar (yoki takliflar) shaklida mavjud. Oddiy fuqarolar referendumdan foydalanishi mumkin, agar fuqarolar ko'pchilik ovozga ega bo'lsalar, hukumatdan ma'lum bir qonunni bekor qilishni so'rashlari mumkin. Aksincha, tashabbus fuqarolarga ko'pchilik ovozga ega bo'lsa, qonun yaratish huquqini beradi.

Biroq, aksariyat davlatlar juda katta va juda murakkab bo'lib, to'g'ridan-to'g'ri demokratiya o'z siyosiy chegaralarida ishlashga qodir emas. Bunday hollarda, odamlar har bir masala bo'yicha ovoz berishdan ko'ra, ularning nomidan vakillarni tanlashni afzal ko'rishadi.

Vakillik demokratiyasi

Vakillik demokratiyasi yoki bilvosita demokratiya - bu odamlar parlamentda kim vakili bo'lishiga ovoz berishni tanlashdir. Bu dunyoda keng tarqalgan

demokratiyaning eng keng tarqalgan shakli. Bu mehnat taqsimotidan foydalanadi: kichik bir guruh vakillar siyosatni ishlab chiqishda o'zlarining tajribalaridan foydalanishlari mumkin, boshqalarni boshqa vazifalarni bajarish uchun ozod qilishlari mumkin.

Bunga qo'shimcha ravishda, u nafaqat shtatdagi aksariyat odamlarning, balki ozchiliklarning ham huquqlarini himoya qilishga urg'u beradi. Malakali vakilni saylash orqali ozchilik aholi o'z shikoyatlarini yanada samarali tarzda ovoz bilan eshitishga qodir bo'lar edi.

Fuqarolik jamiyatining ushbu shaklining salbiy tomoni shundaki, saylangan hukumat fuqarolarning manfaatlarini ko'zlamasligi mumkin. Referendumlar va tashabbuslar, yuqorida muhokama qilingan to'g'ridan-to'g'ri demokratiyaning elementlari, vakillik demokratiyasining kasalliklarini davolash vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Dunyoning aksariyat vakili demokratik davlatlari o'zlarini liberal demokratiya deb bilishadi. Buning sababi shundaki, ular o'zlarining shaxsiy fuqarolarining ehtiyojlarini butun davlatga qaraganda ko'proq qadrlashadi. Shuning uchun Hindiston va AQSh kabi mamlakatlarda favqulodda holat e'lon qilish qiyin. Biroq, ayrim davlatlar doimo begonalar yoki fuqarolik tartibsizliklari tahdidini his qilishadi. Isroil va Janubiy Koreya kabi ushbu davlatlar liberallardan ko'ra mudofaa demokratiyasini afzal ko'rishadi. Bu hukumat bir zumda armiyani marshal qilishi uchun amalga oshiriladi. Demokratiyaning boshqa bir qancha erkin bo'lmagan shakllari ham mavjud bo'lganlardan *deyarli* diktatura bo'lishdan uyaladiganlarga nisbatan liberal tabiat. Bunday noto'g'ri demokratiya modelining klassik namunalaridan biri Singapur Respublikasidir.

Biroq, biz bu erda demokratiya haqida gapiramiz, shuning uchun liberallarga yopishib olaylik, shunday emasmi?

Liberal demokratiya har xil shakllarda bo'lishi mumkin, chunki turli mamlakatlarda ehtiyojlar va mafkuralar turlicha. Quyidagi turlar vakillik demokratiyasining bir nechta kichik to'plamlari.

Prezidentlik demokratiyasi sharoitida davlat prezidenti hukumat ustidan katta miqdordagi vakolatlarga ega. U to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita davlat fuqarolari tomonidan saylanadi.

Prezident va hukumatning ijro etuvchi hokimiyati qonun chiqaruvchi organ oldida javobgar emas, lekin odatdagi sharoitlarda qonun chiqaruvchini butunlay ishdan bo'shata olmaydi. Xuddi shunday, qonun chiqaruvchi hokimiyat ham prezidentni o'z lavozimidan chetlashtira olmaydi, agar ish o'ta og'ir bo'lsa. Prezident qabul qilinishiga yo'l qo'ymaslik uchun qonun loyihasiga veto qo'yish huquqiga ega. Biroq, agar qonun chiqaruvchi hokimiyat etarli ovoz to'play olsa, u prezidentning vetosini bekor qilishi mumkin.

Prezidentlik demokratiyasida davlat rahbari ham hukumat boshidir. AQSh, Argentina va Sudan kabi mamlakatlar ushbu turdagi demokratiyani qo'llaydilar.

Qonun chiqaruvchi hokimiyatga ko'proq kuch beradigan demokratiya parlament demokratiyasi deb ataladi. Ijro etuvchi hokimiyat demokratik qonuniylikni faqat qonun chiqaruvchi hokimiyatdan, ya'ni parlamentdan oladi. Saylangan qonun chiqaruvchi organ (parlament) hukumat rahbarini (bosh vazirni) tanlaydi va har qanday vaqtda ishonchsizlik ovozini berish orqali bosh vazirni lavozimidan ozod qilishi mumkin.

Davlat boshlig'i (prezident) hukumat boshlig'idan (bosh vazir) farq qiladi va ikkalasi ham turli darajadagi vakolatlarga ega. Biroq, aksariyat hollarda, prezident yoki zaif monarx (masalan, Buyuk Britaniya) yoki tantanali bosh

(masalan, Hindiston).

Avtoritar demokratiya Bu faqat elitlar parlament jarayonining bir qismi bo'lganda. Shtat shaxslari tanlagan nomzodi uchun ovoz berish huquqiga ega, ammo "oddiy odamlar" saylovga kira olmaydilar. Shuning uchun, oxir-oqibat, davlat aholisining turli manfaatlari to'g'risida faqat hukmron elita qaror qiladi. Vladimir Putin boshchiligidagi zamonaviy Rossiya ushbu turdagi boshqaruvning klassik namunasi. Hatto Gonkong ham xuddi shu toifaga kiradi. [3-C. 296-299]

Ishtirok etuvchi demokratiya Avtoritar demokratiyaning aynan teskari tomoni - demokratiyaning ishtirok etish shakli. Ishtirok etuvchi demokratiyaning har xil turlari mavjud, ammo ularning barchasi aholining barcha a'zolari uchun qaror qabul qilish jarayoniga muhim hissa qo'shishi uchun imkoniyat yaratishni istaydi. U davlatni kichik tarmoqlarga bo'lib tashlash orqali vakolatsizlarga kuch bag'ishlaydi va jamoatchilik asosida boshlang'ich siyosatni kuchaytirishni afzal ko'radi. Bu shunchaki ovoz berishni emas, balki muhokama va muhokamani qadrlaydi.

Bugungi kunda biron bir mamlakat fuqarolik jamiyatining ushbu shaklini faol ravishda qo'llamaydi. Garchi uning asosidagi nazariyalar asosli bo'lsa-da, ushbu yondashuvni hayotda qo'llash murakkabliklar bilan to'la. Shu bilan birga, ko'plab xalqaro harakatlar, masalan, Xalqaro Occupy harakati, Venesueladagi Bolivariya harakati va Hindistondagi Narmada Bachao Andolan o'zlarini demokratiyaning ishtirok etuvchi modeli atrofida tashkil etishadi.

Islom demokratiyasi-Ushbu demokratiya shakli bir vaqtning o'zida demokratik asosni saqlab, Islom qonunlarini davlat siyosatiga tatbiq etishga intiladi. Islom demokratiyasi uchta asosiy xususiyatga ega. Birinchidan, rahbarlarni xalq saylaydi. Ikkinchidan, hamma shariat qonunlariga bo'ysunadi - rahbarlar ham. Uchinchidan, rahbarlar payg'ambar

Muhammad tomonidan qo'llaniladigan maslahatning maxsus shakli bo'lgan "sho'ra" ni amalda qo'llashlari kerak. [4-C. 527-559]

Sho'rara siyosiy organ har qanday muammo bo'yicha maslahatlashish uchun joyida ekanligini anglatadi. Bu Islomiy siyosiy tizimning asosiy printsiplari bo'lib, u Qur'onda tavsiya etilgan, ammo ba'zi klassik huquqshunoslar buni majburiy deb bilishadi va har qanday sharoitda ham unga rioya qilishlari kerak.

Ushbu uchta xususiyatni bajaradigan mamlakatlar Afg'oniston va Pokistondir. Saudiya Arabistoni kabi ba'zi boshqa islomiy davlatlar avtoritar tuzumlarning qonunlariga, demokratik davlatlarga qaraganda yaxshiroq mos keladi.

Ijtimoiy demokratiya turli xil siyosiy partiyalarning (masalan, diniy demokratiya, ya'ni o'zlarini diniy bezakni qo'llab-quvvatlovchi sifatida reklama qilayotgan siyosiy partiyalarning) individual pozitsiyalari yoki fikrlarini kiritishdan qochishga harakat qilindi. Biroq, bitta alohida pozitsiyani eslatib o'tish joiz. Bu shunchaki unga qasam ichadigan ko'plab siyosiy partiyalar - Ijtimoiy demokratiya bilan bog'liq.

Ijtimoiy demokratiya xalqaro iqtisodiyotdagi neoliberal siyosatiga reaksiya

sifatida paydo bo'ldi. Neoliberalizm sharoitida ko'p millatli korporatsiyalar singari foyda keltiruvchi sub'ektlar boshqa siyosiy davlatlarga bemalol kirib borishi mumkin. Ular hech qanday hukumat qarshi tura olmaydigan suverenitet va harakatchanlik darajasini saqlab qolishadi. Siyosiy davlatning kuchi taqqoslaganda noaniq ko'rinadi.

Ijtimoiy demokratiya davlatni neoliberal bozorning shunchaki injiqliklari ustidan hokimiyatni kuchaytirishga qaratilgan. Davlat o'z narxini oshirib yuborishi mumkin, bu esa ortiqcha narxga ega bo'lgan xususiy korxonalarga bepul alternativallarni taqdim etadi. Odamlar foyda keltiradigan korporatsiyalarga bog'liq bo'lmasliklari uchun, bu bepul ta'lim yoki bepul sog'liqni saqlashni ta'minlashga qaratilgan bo'lishi mumkin.

Ushbu ro'yxat, shubhasiz, bugungi kunda mavjud bo'lgan Fuqarolik jamiyatining har xil turlari atrofida to'liq muhokamani talab qilmaydi. Dunyoda qancha hukumat bo'lsa, shuncha demokratiya bilan bog'liq nazariyalar mavjud! Shunga qaramay, fuqarolik jamiyati modellari turlicha bo'lishiga qaramay, dunyoning deyarli har bir burchagida demokratiya ruhi saqlanib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Dance, Frank E. X. (1970-06-01). "The "Concept" of Sivil society". Journal of Communication. 20 (2): 201–210. doi:10.1111/j.1460-2466.1970.tb00877.x. ISSN 0021-9916.
2. Craig, Robert T. (1999). "Sivil society Theory as a Field". Communication Theory. 9 (2): 119–161. doi:10.1111/j.1468-2885.1999.tb00355.x.
3. Littlejohn, Stephen; Foss, Karen (2009), "Definitions of Sivil society", Encyclopedia of Communication Theory, Thousand Oaks: SAGE Publications, Inc., pp. 296– 299, doi:10.4135/9781412959384, ISBN 9781412959377, retrieved 2021-07-20
4. Peters, John Durham (1986). "Institutional Sources of Intellectual Poverty in Sivil society Research". Research. 13 (4): 527–559. doi:10.1177/009365086013004002. ISSN 0093-6502. S2CID 145639228.

O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIDA OLIB BORILAYOTGAN ISLOHOTLAR

Baxtiyarov Ravshanbek Baxtiyarovich

Urganch innovatsion universiteti 2-kurs magistranti

Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining

72-sessiyasida so'zlagan nutqidan

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, davlatimiz tomonidan ta'lim-tarbiya sohasida olib borilayotgan islohotlar tahlil qilingan. Shuningdek, davlatimiz tomonidan xususiy ta'limni rag'batlantirish va rivojlantirishning qonuniy asoslari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, tarbiya, davlat, Qonun, davlat xususiy sherikchiligi, huquq, Konstitutsiya.

Аннотация. В данной статье анализируются реформы, проведенные нашим государством в сфере образования после обретения Республикой Узбекистан независимости. Также раскрываются правовые основы поощрения и развития частного образования в нашем государстве.

Ключевые слова: образование, обучение, государство, право, государственно-частное партнерство, закон, Конституция.

Abstract. This article analyzes the reforms carried out by our state in the field of education after the Republic of Uzbekistan gained independence. It also reveals the legal basis for the encouragement and development of private education by our state.

Key words: education, training, state, Law, public-private partnership, law, Constitution.

Har qanday davlatning tarixiy taraqqiyot yo'lidan ma'lumki, yurtning jadal rivojlanishi, muayyan yutuqlarga erishishi, xalqning farovon bo'lishi o'sha davlatda yoshlar ta'lim-tarbiyasi va kelajagiga beriladigan e'tibor darajasiga chambarchas bog'liq. Shu ma'noda, O'zbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatda yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularga zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratib berish borasida mustahkam huquqiy baza yaratilgan va bu tizim zamon talablariga hamohang ravishda takomillashtirib borilmoqda. Xususan, bugungacha parlament tomonidan yoshlarga oid 40 dan ziyod qonun hujjatlari qabul qilingan bo'lib, 30 dan ortiq xalqaro huquqiy hujjatlar ratifikatsiya qilingan [1].

Ta'lim sohasidagi islohotlar natijasida maktabgacha ta'lim bilan qamrov darajasi 27,7 foizdan 76 foizga (Davlat xususiy sherikchilik asosidagi va oilaviy

nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari bilan birgalikda), maktablardagi malakali oliy ma'lumotli o'qituvchilar ulushi 81,8 foizdan 90,1 foizga, yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrov darajasi 9 foizdan 47,7 foizga yetkazildi [2].

Ilmiy darajali yosh olimlarimiz soni ham 2 karra ko'payib, 4 ming nafardan oshdi. Mutolaa madaniyatini shakllantirish umummilliy harakatga aylandi. An'anaviy tarzda o'tkazilayotgan "Yosh kitobxon" tanlovi ishtirokchilari soni 3 millionga yetdi. Yurtimizdagi yoshlar siyosati xalqaro jamoatchilik tomonidan ham e'tirof etilmoqda. O'zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Yoshlar – 2030" strategiyasini jadal amalga oshirayotgan 10 ta davlat qatoridan joy oldi [3].

Shuningdek, 1,5 mingdan ortiq iqtidorli yoshlar dunyoning nufuzli universitetlarida tahsil olmoqda. So'nggi yetti yilda "El-yurt umidi" jamg'armasi orqali 2,3 ming yoshlar xorijda o'qish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Yoshlarimizga munosib hayot sharoiti yaratish uchun esa barqaror iqtisodiyot, xavfsiz davlat, samarali boshqaruv, ijtimoiy kafolatlar bo'lishi lozim. Shu ma'noda, ayni masalaning mustahkam huquqiy poydevori – O'zbekistonning yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida o'z yechimini topgan.

Shu o'rinda, avvalo, Asosiy qonunimizning alohida bobi – XIV bob "Oila, bolalar va yoshlar" deb nomlanganiga hamda undan yoshlarga oid qator normalar o'rin olganiga e'tibor qaratish darkor. Bunday yangicha yondashuv, shubhasiz, Yangi O'zbekistonda yoshlar siyosati ustuvor ekanligidan yaqqol dalolatdir[4].

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyadan ilk marotaba uzluksiz ta'lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari rivojini ta'minlash davlatning vazifasi etib belgilanganini ta'kidlash maqsadga muvofiqdir. Ta'limga oid normalar 50,51 va 52-moddalarda o'z aksini topdi.

Konstitutsiyamizning 50-moddasida: "Har kim ta'lim olish huquqiga ega. Davlat uzluksiz ta'lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari rivojlanishini ta'minlaydi. Davlat maktabgacha ta'lim va tarbiyani rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratadi. Davlat bepul umumiy o'rta ta'lim va boshlang'ich professional ta'lim olishni kafolatlaydi. Umumiy o'rta ta'lim majburiydir. Maktabgacha ta'lim va tarbiya, umumiy o'rta ta'lim davlat nazoratidadir. Ta'lim tashkilotlarida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim va tarbiya ta'minlanadi" – deb ko'rsatib o'tilgan. Bundan anglashimiz mumkinki, davlatimizda umumiy o'rta ta'lim va boshlang'ich professional ta'lim kafolatlanadi va shuning bilan birga xususiy ta'limni ham rivojlantiradi. Bundan maqsad, ta'lim xususiylashganda raqobat yuzaga keladi, raqobat bor joyda rivojlanish bo'ladi.

Bundan tashqari, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 53-moddasi birinchi bandida: "Har kimga ilmiy, texnikaviy va badiiy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi. Intellektual mulk qonun bilan muhofaza qilinadi", deb ta'kidlangan. Zero, intellektual salohiyatini yuqori, dunyoqarashi keng, mustaqil fikrlaydigan avlodni voyaga yetkazish va tarbiyalash davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridandir[5].

Yosh avlod haqida g'amxo'rlik ko'rsatilar ekan, avvalo ular bizning tayanchimiz va ertangi kelajagimizning davomchilari ekanligi, yoshlarga oid qonunchilik tizimini zamon talablariga mos ravishda takomillashtirish qulay huquqiy va tashkiliy iqtisodiy imkoniyatlar barpo qilish, ularning kasb-hunar o'rganishlari, mehnat qilishlari, erkin ijod qilishlari uchun barcha sharoitlarni yaratish ishlari diqqat markazimizda turadi.

Har qanday davlatning tarixiy taraqqiyot yo'lidan ma'lumki, yurtning jadal rivojlanishi, muayyan yutuqlarga erishishi, xalqning farovon bo'lishi o'sha davlatda yoshlar ta'lim-tarbiyasi va kelajagiga beriladigan e'tibor darajasiga chambarchas bog'liq. Shu ma'noda, jamiyatning faol qatlami sifatida e'tirof etiluvchi kelajak avlodga, yurt ravnaqini ta'minlovchi katta kuch, davlatning strategik resursi sifatida qaralayotgani bejiz emas.

Shunday qilib, davlatimiz rahbari yurtimiz yoshlariga qarata aytganlaridek, "Birinchi va ikkinchi Renessansni buyuk alloma va mutafakkirlarimiz yaratgan bo'lsa, bugun tarix navbatni sizlarga bermog'da. Ishonchim komil, sizlar barcha sohalarida mamlakatimiz bayrog'ini baland ko'tarishga qodirsiz. Sizlar Yangi O'zbekiston bunyodkorlari sifatida yangi tarix yaratadigan oltin avlodsiz!"[6] -deganlarida haq edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. "Davlat xususiy sherikchilik to'g'risida"gi O'RQ-537 Qonuni. 2019 yil 10 may; "Maktabgacha ta'lim va tarbiya haqida" gi O'RQ 595-sonli Qonuni, 2019 yil 16 dekabr; "Maktabgacha ta'lim tizimini yanada rag'batlantirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-3651-sonli qarori. 2018 yil 5 aprel; "Davlat xususiy sherikchilik sohasini yanada takomillashtirish hamda kompleks tizimlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi VM 720-sonli qarori, 2024 yil 30 oktabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent.: "O'zbekiston" nashriyoti, 2023 yil. B - 21-22.
3. <https://strategy.uz/index.php?news=615>.
4. <https://president.uz/uz/lists/view/7872>.
5. xalqtaлимinfo.uz
6. <http://insonhuquqlari.uz/uz/news/m15908>.

ZAMONAVIY ARXITEKTURA VA MILLIY USLUBLARNING UYG'UNLIGI

Matyakubov Nurbek

Urganch innovatsion universiteti dotsenti

Bekchanova Guzal

Urganch innovatsion universiteti magistranti

Annotatsiya: Mazkur tezisdagi zamonaviy arxitektura shakllari va milliy me'moriy an'analarning sintezi masalalari tadqiq etiladi. Unda tarixiy meros elementlarini zamonaviy qurilish texnologiyalari bilan uyg'unlashtirishning uslubiy asoslari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Arxitektura sintezi, milliy o'zlik, modernizm, konstruktiv yechimlar, eklektika, innovatsiya, dekorativ san'at.

Аннотация: В данной тезисной работе исследуются вопросы синтеза современных архитектурных форм и национальных архитектурных традиций. Освещены методологические основы сочетания элементов исторического наследия с современными строительными технологиями.

Ключевые слова: Синтез архитектуры, национальная идентичность, модернизм, конструктивные решения, эклектика, инновации, декоративное искусство.

Abstract: This thesis explores the synthesis of modern architectural forms and national architectural traditions. It highlights the methodological foundations of integrating cultural heritage elements with contemporary construction technologies.

Keywords: Architectural synthesis, national identity, modernism, structural solutions, eclecticism, innovation, decorative arts.

XXI asr arxitekturasi globallashuv va texnologik taraqqiyot ta'sirida bir xillashish (standartlashish) jarayonini boshidan kechirmoqda. Dunyoning istalgan nuqtasida bir xil shisha va beton konstruksiyalarning paydo bo'lishi milliy me'morchilik maktablarining o'ziga xosligiga putur yetkazmoqda. Biroq, so'nggi yillarda "hududiy modernizm" tushunchasi shakllanib, u zamonaviy qulaylikni milliy ruh bilan birlashtirishni maqsad qilgan. O'zbekiston sharoitida ushbu masala nafaqat estetik, balki madaniy suverenitetni saqlab qolish nuqtai nazaridan ham dolzarbdir.

1. Tarixiy an'analarning zamonaviy talqini Me'moriy merosni saqlash deganda uni shunchaki nusxalash tushunilmaydi. Aksincha, an'anaviy me'morchilikning asosiy prinsiplari — mutanosiblik, yorug'lik va soyaning o'yini, iqlimiy moslashuvchanlikni yangicha talqin etish lozim. Masalan, an'anaviy panjaralar (panjara uslubi) bugungi kunda binolarning quyoshdan himoyalovchi ekrani (second skin) sifatida xizmat qilishi mumkin. Bu nafaqat binoga milliy ko'rinish beradi, balki energiya samaradorligini ham oshiradi [1; 45-b.].

2. Milliy dekor va konstruksiyaning o'zaro aloqasi Zamonaviy binolarda milliy uslubni qo'llashning uchta asosiy yo'nalishi mavjud:

Dekorativ yo'nalish: Binoning fasad qismida ganch, koshin yoki yog'och o'ymakorligi elementlaridan foydalanish.

Konstruktiv yo'nalish: Ravoq, gumbaz va ayvon kabi shakllarni zamonaviy materiallar (metall, shisha) yordamida qayta yaratish.

Falsafiy-fazoviy yo'nalish: Binoning ichki hovli (patio) tizimini yoki "ichkari-tashqari" tamoyilini saqlab qolish [2; 112-b.].

Ushbu yo'nalishlarning muvaffaqiyatli sintezi me'moriy ob'ektning ham texnologik, ham ma'naviy jihatdan mukammal bo'lishini ta'minlaydi. Me'mor K. Frampton ta'kidlaganidek, "Tanqidiy regionalizm" mahalliy madaniyatni zamonaviy texnika bilan boyitish orqali arxitekturani umumiy standartlashuvdan qutqaradi [3; 78-b.].

3. Urbanizatsiya jarayonida milliy landshaft Zamonaviy shaharsozlikda "yashil arxitektura" va milliy bog'dorchilik san'atining uyg'unligi muhim ahamiyatga ega. O'zbek xalq me'morchiligidagi "chorbog'" uslubi bugungi urbanistik parklarni loyihalashda asosiy andoza bo'la oladi. Suv inshootlari (favvoralar, hovuzlar) va mahalliy iqlimga mos o'simliklar dunyosining to'g'ri tanlanishi mikroklimatni yaxshilash bilan birga, milliy muhitni yaratadi [4; 12-b.].

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, milliy uslub elementlari qo'llanilgan zamonaviy binolar aholi va turistlar tomonidan vizual jihatdan ijobiy qabul qilinadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonning yirik shaharlarida yangi qurilgan madaniy-maishiy majmualarning 60% dan ortig'ida u yoki bu darajada milliy bezak elementlaridan foydalanilgan. Biroq, shunchaki "eklektika" (uslublarni asossiz aralashtirish) dan qochish, har bir elementning funksional yuklamasini tushunish lozim [5; 156-b.]. Bu yondashuv binoning uzoq muddatli estetik qiymatini saqlab qolishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy arxitektura va milliy uslublarning uyg'unligi — bu tarixiy shakllarning o'lik nusxasi emas, balki jonli an'analarning davomidir. Milliy me'morchilikning mantiqiy asoslarini saqlab qolgan holda, innovatsion materiallardan foydalanish kelajak avlodlar uchun o'ziga xos me'moriy meros qoldirish imkonini beradi. Bu jarayonda arxitektorlardan nafaqat texnik bilim, balki milliy san'at tarixini chuqur tushunish ham talab etiladi. Uyg'unlashgan arxitektura jamiyatning madaniy barqarorligini ta'minlovchi asosiy omillardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sultonov, A. Markaziy Osiyo me'morchiligi tarixi va nazariyasi. – Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2019. – 280 b.
2. Ahmedov, M. K. O'rta Osiyo me'morchiligi tarixi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2020. – 312 b.
3. Frampton, K. Modern Architecture: A Critical History. – London: Thames & Hudson, 2020. – 416 p.
4. Qosimov, M. Zamonaviy shaharsozlikda milliy an'analar. // "Arxitektura va qurilish" jurnali. – Toshkent, 2022. – №2. – B. 10–14.
5. Gulyamov, S. Arxitektura sintezi va dizayn asoslari. – Samarqand: "Zarafshon", 2021. – 210 b.
6. Nazarov, R. Globalizatsiya va milliy me'morchilik. – Toshkent: "Fan", 2023. – 195 b.

ETNIK TURIZM TUSHUNCHASI VA UNING HUDUDIIY RIVOJLANISHDAGI O'RNI

Egamberganov Otamurot Anvar o'g'li

Urganch innovatsion universiteti 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Maqolada etnik turizm tushunchasi va uning mazmuni yoritilib, etnografik turizm bilan bog'liqligi tahlil etiladi. Etnik turizm orqali sayyohlarning xalq madaniyati, urf-odatlar va an'anaviy turmush tarzini bevosita o'rganish imkoniyatlari ochib beriladi. Shuningdek, etnik turizmning hududiy rivojlanishdagi ahamiyati asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: etnik turizm, etnografik turizm, madaniy meros, an'anaviy turmush tarzi, urf-odatlar, hududiy rivojlanish, turistik manzilgohlar, ko'chmanchi xalqlar

Аннотация: В статье рассматривается понятие этнического туризма и раскрывается его связь с этнографическим туризмом. Показаны возможности изучения культуры, обычаев и традиционного образа жизни народов через этнический туризм, а также обоснована его роль в территориальном развитии.

Ключевые слова: этнический туризм, этнографический туризм, культурное наследие, традиционный образ жизни, обычаи и традиции, территориальное развитие, туристские дестинации, кочевые народы

Abstract: The article examines the concept of ethnic tourism and its relationship with ethnographic tourism. It highlights the opportunities for direct exploration of peoples' culture, customs, and traditional lifestyles through ethnic tourism and substantiates its role in territorial development.

Keywords: ethnic tourism, ethnographic tourism, cultural heritage, traditional lifestyle, customs and traditions, territorial development, tourist destinations, nomadic peoples

Etnik turizmni ayrim hollarda etnografik turizm deb ham atash mumkin. Chunki etnografiya ("xalqshunoslik") dunyo xalqlarining madaniyati, urf-odatlar va maishiy hayotini o'rganuvchi fan sohasi hisoblanadi. Mazkur turizm doirasida sayyoh ushbu xususiyatlar bilan bevosita tanishadi hamda ularni muayyan darajada o'zlashtiradi.

Etnik turizm, asosan, ikki asosiy shaklda namoyon bo'ladi. Birinchisi — muayyan xalqning an'anaviy madaniyati va turmush tarzining o'ziga xos jihatlari saqlanib qolgan mavjud manzilgohlarga tashrif buyurishdir. Bunday hududlarni ko'rgazmali yoki demonstratsion manzilgohlar sifatida tasniflash mumkin bo'lib, ular doimiy yoki mavsumiy bo'lishi mumkin. Masalan, ko'chmanchi chorvadorlar, ovchilar va termachilarning vaqtinchalik yashash joylari shular jumlasidandir. Dunyoning ko'plab mamlakatlarida ana shunday hududlarni qamrab oluvchi turistik marshrutlar ishlab chiqilgan. Jumladan, Misrda ommalashgan sahro safari davomida sayyohlar badaviylarning manzilgohlariga tashrif buyurib, ularning ko'chmanchi hayot tarzi bilan yaqindan tanishadilar.[1]

Etnoturizm sohasidagi tadqiqotlar mahsulotning tijorat qiymatini oshirish va uning bozor jozibadorligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Xususan, hunarmandchilik asosida yaratilgan buyumlarning bezakli va estetik jihatlari etnoturistik mahsulotlarning talabgirlikiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Hunarmandchilik mahsulotlari qo'llanilish doirasiga ko'ra keng assortimentni tashkil etadi: texnik va tibbiy asboblardan tortib, soatlar, zargarlik buyumlari va boshqa hashamatli mahsulotlarga; uy-ro'zg'or buyumlari va elektr jihozlardan tortib, transport vositalari hamda arxitektura obyektlarigacha; to'qimachilik dizaynlari va dam olish uchun mo'ljallangan mahsulotlarga. Ushbu mahsulotlar majmuasi etnografik turizm mahsulotining muhim tarkibiy qismini tashkil etadi.

Mamlakat miqyosida etnik mulkni huquqiy jihatdan himoya qilish imkoniyatiga ega bo'lish uchun mahsulot namunalari asl yoki yangilik darajasiga ega bo'lishi hamda vakolatli davlat organida ro'yxatdan o'tkazilishi talab etiladi. Aksariyat hollarda bu vazifani patent va tovar belgilari bilan shug'ullanuvchi idoralar amalga oshiradi. Turli davlatlarda "yangilik" tushunchasi turlicha talqin qilinadi, shuningdek, ro'yxatga olish jarayonining o'ziga xos jihatlari mavjud. Umuman olganda, "yangi" dizayn ilgari mavjud bo'lmagan yoki mavjud namunalar bilan sezilarli darajada o'xshash bo'lmagan shakl sifatida qaraladi. Dizayn ro'yxatdan o'tkazilgach, unga guvohnoma beriladi va himoya muddati, odatda, 5 yilni tashkil etadi, keyinchalik esa ko'p hollarda 15 yilgacha uzaytirilishi mumkin.

Shu bilan birga, ayrim mamlakatlar ro'yxatdan o'tkazilmagan hunarmandchilik namunalarini ham huquqiy himoya qilishni nazarda tutadi. Natijada, an'anaviy hunarmandchilik mahsulotlari sanoat dizayni sifatida muhofazalanadi. Sanoat namunasi himoyalangan taqdirda, uning egasiga — dizaynni ro'yxatdan o'tkazgan jismoniy yoki yuridik shaxsga uchinchi shaxslar tomonidan ruxsatsiz nusxa ko'chirish yoki taqlid qilishning oldi olinadi. Bu holat investitsiyalarning adolatli qaytishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Ba'zi mamlakatlarda ayrim mahsulot namunalari san'at asari sifatida ham muhofaza qilinib, ular mualliflik huquqi obyektlari hisoblanadi. Ayrim hollarda sanoat namunasi va mualliflik huquqi o'rtasida o'xshashliklar mavjud bo'lishi mumkin. Muayyan sharoitlarda esa dizayn adolatsiz raqobatga qarshi qonunchilik asosida ham himoyalaniishi mumkin.

Sanoat namunalari bo'yicha asosiy xalqaro hujjatlar qatoriga 1883-yildagi sanoat mulkini muhofaza qilishga doir Parij konvensiyasi hamda 1925-yildagi sanoat namunalarining xalqaro depoziti to'g'risidagi Gaaga bitimi kiradi. Mazkur shartnomalar Jahon intellektual mulk tashkiloti (WIPO) tomonidan boshqariladi.

Etnoturizm ixtisoslashgan turizm turlaridan biri bo'lib, bugungi kunda tobora ommalashib bormoqda. Dunyo miqyosida etnik guruhlarining xilma-xilligi hamda boy tabiiy va madaniy meros obyektlari sayyohlarni o'ziga jalb etmoqda. Ushbu sohani rivojlantirish uchun katta salohiyat mavjud. Siyosiy va ijtimoiy o'zgarishlar sharoitida mamlakatimizda sayyohlar uchun qulay va raqobatbardosh mahsulotlar yaratish zarurati ortib bormoqda. Etnoturizm sektori o'zining ko'p qirraliligi bilan

ajralib turadi va bozorning barcha ixtisoslashgan yo'nalishlarini hisobga olishni talab etadi. Jumladan: qishloq sayohatlari; qishloq turar joylari; raqs, musiqa, teatr va og'zaki ijod kabi boshqa ijodiy faoliyatning etnik shakllarini namoyish etish.

Madaniy turizm O'zbekiston hududlarini jozibador qiluvchi bir qator afzalliklarga ega. Avvalo, u mahalliy bilim va qadriyatlarga tayanadi, shu sababli mahsulotni taqdim etish uchun maxsus tayyorgarlik talab etilmaydi. Mikro va kichik miqyosdagi etnoturizm faoliyati mavjud infratuzilmaga asoslanib, kam kapital qo'yilmalar evaziga tez daromad olish imkonini yaratadi. Bundan tashqari, etnoturizm bandlikni oshiradi va yangi ish o'rinlarini yaratish xarajatlari boshqa tarmoqlarga nisbatan past bo'ladi. Ushbu soha jamoat turizmi uchun ham qulay hisoblanadi, chunki ko'plab kam ta'minlangan jamoalar muhim turistik obyektlarga yaqin joylashgan bo'lib, o'z etnik merosiga ega. Zarur treninglar, biznes ko'nikmalari va marketing yordami orqali bu jamoalar o'z a'zolarini ish bilan ta'minlash va butun jamiyat uchun daromad manbaini yaratish imkoniga ega bo'ladilar. Shuningdek, jamiyatda mavjud bo'lmagan resurs va ko'nikmalarni ta'minlay oladigan tadbirkorlar bilan "aqli hamkorlik"ni yo'lga qo'yish imkoniyatlari ham mavjud.

Rossiyalik tadqiqotchi Kononenko fikricha, etnik turizm — bu madaniy-ma'rifiy turizmning bir yo'nalishi bo'lib, bugungi kunda ko'plab mamlakatlar uchun jozibali va ahamiyatli turizm turi sifatida e'tirof etiladi. Tadqiqotchi etnik turizmning asosiy vazifasini ishtirokchilarni turli etnoslarning madaniyati, urf-odatlarini va hayot tarzi bilan tanishtirishda ko'radi.[2]

Etnik turizm tushunchasi bo'yicha ilmiy adabiyotlarda turlicha yondashuvlar mavjud. Masalan, V. Smit etnik turizmni madaniy-tarixiy turizmdan alohida tushuncha sifatida ajratadi va uni mahalliy etnik guruhlar hayoti bilan bevosita tanishtirish jarayoni deb izohlaydi.[3] So'nggi yillarda tadqiqotchilar etnik-madaniy turizm, joyloo turizmi (tog' etnoslari bilan tanishtiruvchi turizm) va antropologik turizm kabi yo'nalishlarni ham alohida ko'rib chiqmoqda. Shu bilan birga, aborigin turizmi ham etnik turizm bilan uzviy bog'liqdir, chunki u mahalliy xalqning an'anaviy yashash tarzini va madaniyatini o'rganishga qaratilgan.

Xulosa qiladigan bo'lsak, etnik turizmning asosiy maqsadi shundan iboratki, sayyohlar atrof-muhit bilan uyg'un yashovchi etnik guruhlarining madaniyati, urf-odatlarini va turmush tarzini o'rganishlari lozim. O'zbekiston sharoitida etnik turizm nisbatan yangi, lekin istiqbolli faoliyat yo'nalishi sifatida rivojlanmoqda. Shu turizm turi kelajakda o'ziga xosligi, betakrorligi va mahalliy etnik xilma-xillikni saqlash bilan bog'liq salohiyati tufayli talabga ega bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Воскресенский В.Ю. Международный туризм: Учебное пособие. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2010. – 255 с.
2. Кононенко Б.И. Большой толковый словарь по культурологии. – М.: АСТ, 2003. – 512 с
3. Smith V. Hosts and Guests / University of Pennsylvania Press. – Philadelphia, 1977.

**XORAZM VOHASIDA HARBIY SAN'AT SOHASI RIVOJLANISHI
TARIXINING O'RGANILISHI
(S.P.Tolstov ekspeditsiyasi misolida)**

Satimov Bahodir

Urganch innovatsion universiteti dotsenti

Hayitboyeva Go'zal

Urganch innovatsion universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xorazm vohasining qadimgi davr harbiy san'at sohasi tarixini S.P.Tolstov ekspeditsiyasi misolida yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: S.P.Tolstov, harbiy ish, antik, "Qang' otliqlari", arxaik, Xorazm, qadimgi, voha, ko'chmanchi.

Аннотация: В данной статье освещается история военного искусства древнего периода Хорезмского оазиса на примере экспедиции С. П. Толстова.

Ключевые слова: С. П. Толстов, военное дело, античность, «кангюйская конница», архаический, Хорезм, древний, оазис, кочевники.

Annotation: This article examines the history of military art in the ancient period of the Khorezm oasis based on the example of the S. P. Tolstov expedition.

Keywords: S. P. Tolstov, military affairs, antiquity, "Kangju cavalry", archaic, Khorezm, ancient, oasis, nomads.

Xorazm vohasida yashagan aholi va umuman o'zbek xalqi harbiy san'ati tarixiga qiziqish nafaqat bizning mintaqamizda, balki Osiyo va Yevropaning, Sharq va G'arb dunyosining mutaxassislari orasida ham katta bo'lgan va hozirgacha bu qiziqish kamaymagan. Xususan, antik va o'rta asrlar davri harbiy san'ati butun dunyoda katta qiziqish uyg'otganligi ma'lum. Lekin shunga qaramasdan nafaqat Xorazm vohasi aholisi harbiy san'ati masalasi balki, o'zbek xalqi harbiy san'atining shakllanishi va rivojlanishi tarixiga, xususan qadimgi davrlardagi harbiy san'ati masalalariga bag'ishlangan yaxlit ilmiy asarlar O'zbekistonda hozirgacha yaratilmagan hamda qurol-yarog'lar va mudofaa inshootlarining paydo bo'lishi, evolyusiyasi, qo'shin tuzilishi, boshqaruv tartiblari va harbiy san'atga tegishli boshqa masalalarga yetarlicha ilmiy-tarixiy baho berilmagan. Bu masalalar so'nggi yillarda paydo bo'lgan ko'plab kichik maqolalarda yoritila boshlagan bo'lsada, lekin ular Xorazm vohasi aholisining harbiy san'ati tarixining yaxlit manzarasini bera olmaydi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, Xorazm vohasi aholisining harbiy san'ati tarixini o'rganishda yozma manbalar ma'lumotlari yetarli emas. Ayniqsa, arxaik, antik va ilk o'rta asrlarning dastlabki davrlari (IV – VIII asrlar) Xorazm harbiy san'ati haqida ma'lumotlar deyarli yo'q hisobi. Shuning uchun bu muammoni faqat arxeologik tadqiqotlar orqali, olingan ma'lumotlarni chuqur tahlil qilish asosida yetarli darajada ochib berish mumkin. Chunki, arxeologik tadqiqotlar natijasida topilgan moddiy ashyolar asosida esa kamroq bo'lsada, aholi harbiy san'at tarixini

tasvirlaydigan ma'lumotlarga ega bo'lish imkoniyati mavjud (asosan sopol buyumlar va tangalar tasvirlari, harbiy qurol – aslahalar qoldiqlari yordamida).

Ayniqsa, xorazmliklarning mudofa tizimlari sohasidagi bilimlari va tajribalari qay darajada bo'lganligini faqat arxeologik tadqiqotlar natijalari orqaligina ochib berish mumkin.

Qolaversa, shu o'rinda bir masalaga alohida e'tibor qaratish lozimki, ko'pincha Xorazm harbiy san'ati tarixi mavzusi, unga qo'shni bo'lgan ko'chmanchi qabilalar bilan uzviy bog'liq holda tahlil qilinadi. To'g'ri, Xorazm vohasi o'troq aholisining qo'shni ko'chmanchi qabilalar bilan munosabatlari tarixiy taraqqiyotning deyarli barcha bosqichlarida juda kuchli bo'lgan. Ammo, bu bilan Xorazm vohasi o'troq aholisi bilan ko'chmanchi aholi yoki voha aholisi bilan uzviy aloqada bo'lgan uzoq masofalarda istiqomat qiluvchi ko'chmanchi – chorvador aholi harbiy san'ati bir xil bo'lgan degan xulosa kelib chiqmaydi. Zero, o'z – o'zidan ma'lumki, turlicha ijtimoiy – iqtisodiy hayot tarzini kechiruvchi va hatto aytishimiz mumkinki, bir – biriga qarama – qarshi xo'jalik tizimida yashovchi o'troq aholi va ko'chmanchilar aynan o'zlarining ijtimoiy – iqtisodiy turmush tarzidan va ma'lum ma'noda tabiiy sharoitdan kelib chiqib o'zlarining harbiy san'atini, strategiyasi va taktikasini, harbiy qurol – aslahalar turlarini yaratadilar. Jumladan, o'troq aholi asosan mudofaa xususiyatiga ega jang usullari va qurol – yarog' turlariga alohida e'tibor qaratganlari holatida, ko'chmanchilar hujum uyushtirish holatidan kelib chiqib o'z jang qilish usullari va qurol – yarog' turlaridan foydalanganlar. Bu holat ayniqsa, qurol – yarog'larning ba'zi turlarida yaqqol ajralib turuvchi farqlarni ko'rsatib bergani holda eng asosiysi, ko'chmanchi qabilalarda hech qachon mudofaa inshootlariga ehtiyoj bo'lmagan. Chunki, ko'chmanchilik hayot tarzining o'zi ularda o'z shaharlarining mavjud bo'lishi kabi ehtiyojni keltirib chiqarmagan.

Yuqoridagi fikrlar davomi sifatida tadqiqotchilar tomonidan Yevroosiyo cho'llarida chorvador qabilalarning harbiy san'ati tarixi yetarli darajada yoritilganini qayd qilish lozim. K.M.Smirnov, A.M.Xazanov, A.I.Milyukova, Ye.V.Chernenko kabi tadqiqotchilar sarmat va skiflar harbiy san'ati tarixiga oid monografiya va maqolalari ilmiy jamoatchiligi e'tiboriga taqdim qilganlar. Mazkur tadqiqotlarda og'ir qurollangan otliq jangchilar – katafraktariylar shakllangan hududlardan biri sifatida aynan Xorazm vohasi ham tilga olinadi.

Ammo Xorazm vohasi aholisi ichida harbiy san'at sohasi taraqqiyoti tarixini o'rganilishi masalasida bunday fikr yuritib bo'lmaydi. Zero, yozma manbalardagi ma'lumotlar va arxeologik izlanishlar natijasida olingan ashyolar taxlili asosida qurol - aslahalar va harbiy san'ati tarixini keng tarzda yoritgan fundamental tadqiqotlar nashr qilinmagan.

Xorazm vohasida istiqomat qilgan aholining harbiy san'ati va jangavor qurollanish darajasi, turlari hamda ularning evolyusiyasi masalasiga birinchi bor mashhur arxeolog va etnograf S.P. Tolstov e'tibor qaratgan edi. Uning rahbarligidagi Xorazm arxeologiya – etnografiya ekspeditsiyasi tarixiy Xorazm vohasi hududlarida olib borgan tadqiqotlar davomida eng avvalo Xorazm

shaharlari va qal'alari mudofaa tizimi shakllanishi va taraqqiyoti, o'ziga xos xususiyatlari hamda faqat voha harbiy mudofaa tizimiga xos jihatlari keng miqyosda yoritib berilgan bo'lsa, mazkur yodgorliklardan topilgan harbiy qurol – aslahalar turlari qoldirlari asosida voha aholisining harbiy san'at sohasi taraqqiyoti va bu sohada erishgan yutuqlari mavzusiga oid ko'pgina ashyolar va ma'lumotlar to'plandi. Ammo, Xorazm vohasi shahar va qal'alari mudofaa tizimi tarixiga oid juda ko'plagan ma'lumotlar to'plangani holda, harbiy san'atning boshqa sohalari, jumladan, voha aholisining qurollanish darajasi, xorazmliklar qo'llagan jang usullari, jangavor qurol – yarog'lar evolyusiyasi va umuman harbiy strategiya va taktika masalalari ancha sust tadqiq qilindi yoki tadqiqotlar doirasiga tortilmasdan qolib keldi. Bu borada faqat S.P.Tolstov o'zining “Qadimgi Xorazm” monografiyasidagi “Qang' otliqlari” bo'limidagina mazkur masala, shunda ham antik va qisman ilk o'rta asrlar davri Xorazm harbiy san'ati taraqqiyoti va xorazmliklarning jahon harbiy san'ati taraqqiyotidagi o'rni masalasi tahlil qilingan. Shunday bo'lsada, shuni alohida ta'kidlash lozimki, aynan mazkur maqolasida S.P.Tolstov arxeologik manbalarga tayangan holda Xorazmning og'ir qurollangan otliq jangchilarning katafraktariy turining, ammo e'tiborlisi shuki u nayzabardor katafraktariy emas balki, kamonchi katafraktariy turining shakllangan hududlardan biri bo'lganligini birinchi bor ta'kidlagan edi.

Umuman olganda, Xorazm arxeologik ekspeditsiyasi xodimlarining maqola va monografiyalarida faqat Xorazm shahar – qal'alari mudofaa tizimi xususiyatlari masalasi, harbiy qurollar turlaridan esa faqat o'q – yoy shakli va o'q uchlari turlari masalasi juda keng yoritilgani holda, boshqa harbiy qurol – aslahalar turlari, ularning taraqqiyoti masalalari chetda qolib ketgan. Ayniqsa, Xorazm vohasi aholisi jang qilish usullari, harbiy strategiyasi masalasi va qurol – yarog'lar evolyusiyasi haligacha alohida mavzu sifatida o'rganilmagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Смирнов К. Ф. Вооружение савроматов// МИА. – М. : Изд-во Академии наук СССР, 1961. – № 101. – 160 с.;
2. Хазанов А. М. Сложные луки евразийских степей и Ирана в скифо-сарматскую эпоху// Материальная культура народов Средней Азии и Казахстана. – М. : Наука, 1966. – С. 29–44;
3. Его же. Очерки военного дела сарматов. – М.: Наука, 1971. – 172 с. ;
4. Милюкова А.И. Вооружение скифов.//Археология СССР. Свод археологических источников. Вып. Д. 1-4. М.: Наука, 1964. - 91 с., 23 отд. л. табл.;
5. Черненко Е.В. Скифских доспех. Киев: Наукова думка, 1968. – 191 с.;
6. Толстов С.П. Древний Хорезм: Опыт историко-археологического исследования. – М.: Изд – во МГУ, 1948. - С. 211-227.

**BUYUK IPAK YO'LI BO'YLAB JOYLASHGAN O'RTA OSIYO
SHAHARLARINING SAVDO MUNOSABATLARI VA ULARNING
TARIXIY AHAMIYATI (X–XV ASRLAR)**

Jumanazarova Sadoqat Zafarbek qizi

Urganch innovatsion universiteti magistratranti

E-mail: jumanazarovasadoqat957@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur tezis X–XV asrlarda Buyuk Ipak yo'li doirasida O'rta Osiyo shaharlarining savdo munosabatlarini shaharlarning faol iqtisodiy va siyosiy strategiyasi sifatida tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqotda Samarqand, Buxoro, Xiva va Termiz shaharlarining xalqaro savdo tizimidagi o'rni ochib beriladi. Savdo munosabatlarining shahar iqtisodiyoti va ijtimoiy tuzilmasiga ta'siri ko'rib chiqiladi. Ipak yo'lining madaniy va ilmiy almashinuvdagi roli asoslanadi. Tadqiqot O'rta Osiyo shaharlarining jahon tarixidagi ahamiyatini yoritishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Buyuk Ipak yo'li, O'rta Osiyo shaharlari, savdo munosabatlari, karvon yo'llari, shahar iqtisodiyoti, X–XV asrlar.

Аннотация: Данный научный тезис посвящён анализу торговых отношений городов Средней Азии в X–XV веках в рамках Великого Шёлкового пути. В работе города рассматриваются не как пассивные транзитные пункты, а как активные экономические и политические субъекты международной торговли. Раскрывается роль Самарканда, Бухары, Хивы и Термеза в управлении торговыми маршрутами и караванным движением. Анализируется влияние торговых связей на экономику, социальную структуру и культурное развитие городов. Сделан вывод о ключевом значении Великого Шёлкового пути в формировании городской цивилизации Средней Азии.

Ключевые слова: Великий Шёлковый путь, города Средней Азии, торговые отношения, караванная торговля, городская экономика, торговые пути, X–XV века

Buyuk Ipak yo'li tarixshunoslikda ko'pincha Sharq va G'arbni bog'lovchi savdo yo'li sifatida talqin qilinadi. Biroq zamonaviy tadqiqotlar ushbu yo'lni murakkab iqtisodiy, siyosiy va madaniy munosabatlar tizimi sifatida ko'rib chiqishni taqozo etadi [1, 19–22]. Ayniqsa, X–XV asrlarda O'rta Osiyo shaharlarining Ipak yo'lidagi o'rni faqat tranzit vazifa bilan cheklanmagan, balki savdo jarayonlarini boshqarish va undan iqtisodiy foyda olishga qaratilgan faol siyosat bilan ajralib turgan [6, 88–92].

O'rta Osiyoning qulay geografik joylashuvi mintaqa shaharlarini xalqaro savdoning muhim bo'g'iniga aylantirgan. Samarqand, Buxoro, Xiva va Termiz kabi shaharlar Sharq va G'arb o'rtasidagi karvon yo'llarida markaziy savdo tugunlari sifatida shakllangan [2, 45–49]. Shu sababli mazkur tezisning maqsadi —

Buyuk Ipak yo'li doirasida O'rta Osiyo shaharlarining savdo munosabatlari va ularning tarixiy ahamiyatini kompleks tahlil qilishdan iborat.

Buyuk Ipak yo'li X–XV asrlarda O'rta Osiyo hududida murakkab savdo yo'llari tizimi sifatida faoliyat yuritgan bo'lib, shaharlar uning markaziy elementlari hisoblangan [1, 23–27]. Mintaqa shaharlarining Ipak yo'lidagi ishtiroki faqat karvonlarni qabul qilish bilan cheklanmay, savdo oqimlarini yo'naltirish va nazorat qilish orqali iqtisodiy manfaat ko'rishga qaratilgan edi [6, 93–97].

X–XV asrlarda Samarqand Sharq va G'arb savdo yo'llarining kesishgan nuqtasi sifatida ipak va hunarmandchilik mahsulotlari savdosida yetakchi o'rin egallagan [3, 97–101]. Buxoro savdo bilan bir qatorda moliyaviy va ilmiy markaz sifatida shakllanib, bozorlardagi tartib va savdo munosabatlarining barqarorligini ta'minlagan [4, 72–76]. Xiva va Termiz shaharlari esa Amudaryo havzasi orqali amalga oshirilgan savdo aloqalarida muhim strategik ahamiyat kasb etgan [7, 34–38].

Karvon savdosi shahar iqtisodiyotining asosiy tayanchi bo'lib, karvonsaroilar, boj tizimi va savdo soliqlari shahar va davlat boshqaruvi tomonidan tartibga solingan [6, 98–101]. Savdoda Xitoy ipaklari, Hindiston ziravorlari, Eron hunarmandchiligi hamda mahalliy mahsulotlar almashinuvi shaharlar iqtisodiy barqarorligini ta'minlagan [1, 31–35]. Pul-muomala tizimining rivojlanishi savdo hajmining oshishiga xizmat qilgan [5, 41–44].

Savdo munosabatlari shaharlarning ijtimoiy va madaniy hayotiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Savdogarlar va hunarmandlar qatlamining kuchayishi ilm-fan, me'morchilik va madaniyat rivojiga zamin yaratgan [3, 119–123]. Buyuk Ipak yo'li orqali ilmiy bilimlar va diniy g'oyalar tarqalib, O'rta Osiyo shaharlarini yirik sivilizatsion markazlarga aylantirgan [4, 66–70].

Xulosa qiladigan bo'lsak, X–XV asrlarda Buyuk Ipak yo'li bo'ylab joylashgan O'rta Osiyo shaharlari savdo munosabatlarining faol ishtirokchilari bo'lgan. Ushbu shaharlar savdo jarayonlarini faqat qabul qiluvchi emas, balki boshqaruvchi va yo'naltiruvchi markazlar sifatida namoyon bo'lgan. Savdo munosabatlari shahar iqtisodiyoti, ijtimoiy tuzilmasi va siyosiy barqarorligining muhim omillaridan biri hisoblangan. Buyuk Ipak yo'li O'rta Osiyo shahar sivilizatsiyasining shakllanishi va rivojida hal qiluvchi rol o'ynagan. Tadqiqot natijalari mintaqa shaharlarining jahon tarixidagi o'rnini chuqurroq baholash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bartold V. V. Turkestan v epokhu mongol'skogo nashestviya. — Moskva: Nauka, 1963. — 456 b.
 2. Askarov A. A. O'rta Osiyo tarixi. — Toshkent: Fan, 1994. — 312 b.
 3. Bregel Yu. An Historical Atlas of Central Asia. — Leiden: Brill, 2003. — 185 p.
 4. Saidov A. X. Buyuk Ipak yo'li va madaniyatlararo muloqot. — Toshkent: O'zbekiston, 2008. — 214 b.
 5. Christian D. A History of Russia, Central Asia and Mongolia. — Oxford: Blackwell, 1998. — Vol. I. — 320 p.
- G'ulomov Ya. G'. O'rta Osiyoda shahar madaniyati tarixi. — Toshkent: Fan, 1976. — 289

CHIG'ATOY ULUSINING IJTIMOY-IQTISODIY VA SIYOSIY HAYOTI

Nurmetov Ismoil Alimbayevich,
PhD, Urganch davlat universiteti dotsenti,
Ismoilnur1984@gmail.com

Jumanov Behzod Tursunbayevich
Urganch innovatsion universiteti magistranti
E-mail: behzodjumanov4@gmail.com

Annotatsiya: Chig'atoy ulusi o'z davrining eng qudratli va geografik jihatdan keng hududlarga ega bo'lgan yirik siyosiy tuzilmalaridan biri bo'lib, uning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotini o'rganish nafaqat Markaziy Osiyoning, balki butun Turk dunyosining taraqqiyoti uchun beqiyos ahamiyat kasb etadi. Chig'atoy ulusining vujudga kelishi, shakllanishi, rivojlanishi va inqirozi tarixda muhim bosqichlardan hisoblanadi. Bu davlatning o'ziga xos ijtimoiy tartiblari, iqtisodiy munosabatlari, siyosiy boshqaruv tizimi asrlar davomida mintaqaning madaniyati va taraqqiyotida chuqur iz qoldirgan.

Kalit so'zlar: Chig'atoy ulusi, ijtimoiy tuzilma, iqtisodiy taraqqiyot, siyosiy boshqaruv, dehqonchilik, hunarmandchilik, savdo aloqalari, soliq tizimi, madaniy meros, harbiy kuch.

Аннотация: Чигатайские улусы были одним из самых могущественных и географически обширных политических образований своего времени, и изучение их социально-экономической и политической жизни имеет непревзойденное значение для развития не только Центральной Азии, но и всего тюркского мира. Возникновение, формирование, развитие и кризис Чигатайских улусов считаются важными этапами истории. Уникальный социальный порядок, экономические отношения и система политического управления этого государства оставили глубокий след в культуре и развитии региона на протяжении веков.

Ключевые слова: Чигатайские улусы, социальная структура, экономическое развитие, политическое управление, сельское хозяйство, ремесла, торговые отношения, налоговая система, культурное наследие, военная мощь.

Abstract: The Chigatai ulus was one of the most powerful and geographically extensive political entities of its time, and the study of its socio-economic and political life is of incomparable importance for the development of not only Central Asia, but also the entire Turkic world. The emergence, formation, development and crisis of the Chigatai ulus are considered important stages in history. The unique social order, economic relations, and political governance system of this state have left a deep mark on the culture and development of the region for centuries.

Keywords: Chigatai ulus, social structure, economic development, political governance, agriculture, crafts, trade relations, tax system, cultural heritage, military power.

KIRISH. XIII asrda Markaziy Osiyo hududida yuzaga kelgan Chig'atoy ulusi mo'g'ullar imperiyasining muhim siyosiy va hududiy bo'linmalaridan biri bo'lib, mintaqa tarixida chuqur iz qoldirgan. Ushbu ulus Chingizxonning o'g'li Chig'atoy nomi bilan atalib, Movarounnahr, Yettisuv va Sharqiy Turkiston kabi strategik ahamiyatga ega hududlarni o'z ichiga olgan. Chig'atoy ulusi davrida ijtimoiy munosabatlar, xo'jalik yuritish shakllari hamda davlat boshqaruvi tizimi tubdan o'zgarib, mahalliy an'analar va mo'g'ul siyosiy-huquqiy tartibotlari o'zaro uyg'unlashgan.

Mazkur maqolada Chig'atoy ulusining ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishi, yer egaligi va soliq tizimi, shuningdek, siyosiy boshqaruv va hukmdorlar faoliyati tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida ulusning ichki hayotidagi o'zgarishlar, ko'chmanchi va o'troq aholi o'rtasidagi munosabatlar hamda ularning mintaqa taraqqiyotiga ko'rsatgan ta'siri yoritib beriladi. Ushbu masalalarni o'rganish Markaziy Osiyo tarixining murakkab va serqirra jarayonlarini chuqurroq anglash imkonini beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI. Chig'atoy ulusining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayoti masalasi Markaziy Osiyo tarixshunosligida muhim mavzulardan biri bo'lib, ushbu muammo asosan sharqiy yozma manbalar hamda zamonaviy tarixchilarning ilmiy tadqiqotlari asosida o'rganilgan. Mavzuga oid adabiyotlarni shartli ravishda klassik tarixiy manbalar va zamonaviy ilmiy tadqiqotlarga ajratish mumkin. Klassik tarixiy manbalar orasida XIII–XIV asrlarda yaratilgan fors va arab tillaridagi asarlar alohida ahamiyatga ega. Jumladan, Alouddin Otamalik Juvayniyning “Tarixi jahonkushoy” asarida mo'g'ullar istilosi, uluslar tashkil topishi va ularning boshqaruv tizimi haqida muhim ma'lumotlar keltiriladi. Muallif Chig'atoy ulusining shakllanish jarayonini umumiy mo'g'ul imperiyasi doirasida yoritib, siyosiy hokimiyatning taqsimlanishi va harbiy-boshqaruv tuzilmasiga e'tibor qaratadi. Ushbu asar Chig'atoy ulusi tarixini o'rganishda dastlabki va ishonchli manbalardan biri hisoblanadi. Rashiduddinining “Jome' ut-tavorix” asari esa Chig'atoy ulusi tarixini yoritishda eng muhim manbalardan sanaladi. Ushbu ensiklopedik asarda mo'g'ul xonlari nasabnomasi, siyosiy voqealar, ijtimoiy tuzilma va iqtisodiy munosabatlar haqida batafsil ma'lumotlar berilgan. Zamonaviy tarixshunoslikda Chig'atoy ulusi masalasi rus, Yevropa va Markaziy Osiyo olimlari tomonidan chuqur o'rganilgan. V.V. Bartold, B.D. Grekov, E.A. Davidovich kabi olimlarning tadqiqotlarida Chig'atoy ulusining ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmasi, yer egaligi va soliq tizimi ilmiy asosda tahlil qilingan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Mazkur tadqiqot Chig'atoy ulusining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotini kompleks va tizimli tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, unda tarixiy tadqiqotning umumiy ilmiy va maxsus metodlaridan keng foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi tarixiy jarayonlarni xronologik izchillikda, sabab-oqibat munosabatlari asosida o'rganishga tayangan. Tadqiqotda tarixiylik va xolislik tamoyillari asos qilib olindi. Bu tamoyillar orqali Chig'atoy ulusida

kechgan ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy jarayonlar o'z davrining shart-sharoitlari doirasida, subyektiv baholardan holi holda tahlil qilindi. Manbalarni tanlash va ulardan foydalanishda ularning kelib chiqishi, muallif pozitsiyasi va yozilgan davri inobatga olindi. Asosiy metodlardan biri sifatida manbashunoslik tahlili qo'llanildi. Bu metod orqali Juvayniy, Rashiduddin, Sharafuddin Ali Yazdiy kabi mualliflarning asarlari qiyosiy o'rganilib, ulardagi ma'lumotlarning ishonchliligi va o'zaro uyg'unligi aniqlandi.

TAHLIL VA NATIJALAR. Chig'atoy ulusi XIII asr boshlarida vujudga kelib, Chingizxon o'g'li Chig'atoy ulusiga ajratilgan G'arbiy turk hududlari va Movarounnahr, ya'ni Amudaryo va Sirdaryo yoqalari, Farg'ona vodiysi, Sharqiy Turkiston, Yettisuv, Qashqar va undan shimolroqdagi hududlarni o'z ichiga olgan davlat bo'lgan. Bu hudud, tabiiy resurslar jihatidan, juda boy, iqlimi dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik va savdo rivoji uchun qulay bo'lib, Ipak yo'li orqali nafaqat Sharq va G'arb, balki turli madaniyatlarga mansub xalqlar birlashgan. Chig'atoy ulusida ijtimoiy qatlamlar asosan qabila va elat tuzilmasiga asoslangan bo'lsa-da, davr o'tishi bilan mahalliy aholi orasida ham ijtimoiy tabaqlanish aniq ko'rinish bera boshlagan. Ijtimoiy tuzulmada ajralish bir necha avlod davomida davom etgan, har bir kasb va elat o'ziga xos urf-odat, odob qoidalari bilan ajralib turgan [1].

Iqtisodiy hayotda qishloq xo'jaligi, ayniqsa sug'orma dehqonchilik Chig'atoy ulusining taraqqiyotida asosiy o'rin tutgan. Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon, Farg'ona, Chuy, Tarim daryolari atrofidagi boy vodiylar, sug'oriladigan yerlarda g'alla, paxta, uzum, meva-sabzavot yetishtirish juda keng rivojlangan. Bozorlar, karvonsaroylar, hunarmandlar ko'chasi, zargarlik, qadimiy ko'nychilik, po'lat qurol ishlab chiqarish an'alarini rivojlantirish orqali hududda nafaqat ichki, balki tashqi bozorlarga mahsulot yetkazib berish imkoniyati keng bo'lgan. Ipak yo'li va savdo yo'llari orqali sharqiy va g'arbiy mintaqalar bilan savdo aloqalarini mustahkamlab, nafaqat mahsulotlar, balki ilm, madaniyat va san'at yutuqlari tarqalgan. Pul muomalasi rivojlanib, oltin, kumush, mis tangalar, dinor, dirham ko'rinishida iqtisodiy hayotga kirib kelgan [2].

Chig'atoy ulusi siyosiy boshqaruvida markaziy va mahalliy hokimiyat tuzilmalarining uyg'unligi ahamiyat kasb etgan. Sulton va xon raxbariyatida davlat murojaatlari, yuritiladigan siyosat, qo'shin tuzish, soliq yig'ish, hamda qonuniy tartiblarni joriy etish asosiy vazifalardan bo'lgan. Harbiy kuch davlat barqarorligi va hududiy butunlikni saqlash uchun doimiy tayyorgarlikda saqlangan. Davlat boshqaruvi jarayonida islom dinining mavqei asta-sekin yuksalib borgan, diniy ulamolar, sufiylar va murabbiylar siyosiy-huquqiy jarayonlarda xalq ongiga ta'sir qilgan. Adolatli jamiyat qurishda shariat qonunlari, qadimiy urf-odat va an'alar uyg'unlashgan, adliya va huquq sohalari rivojlangan. Xon saroyida kengashlar, maslahat kengashlari va amirlar majlisi faoliyati siyosiy barqarorlikka sabab bo'lgan. [3].

Aholi yashash tarzida qadimiy turmush tarzi va yangi iqtisodiy imkoniyatlar uyg'unlashib borgan. Ota-bobolardan meros bo'lib kelgan qadimiy dehqonchilik,

chorvachilik, hunarmandchilik faoliyati zamonaviy iqtisodiyotni ham o'ziga singdira olgan. Qishloqdan shahar va tuman markazlariga ko'chish, yer-suv munosabatlarining kengayishi, hunarmandlar, savdogarlarni tayyorlash tizimi rivojlangan. Viloyatlar va hududlar o'rtasida transport va savdo yo'llari joriy qilinib, tuz, bug'doy, ipak, yog'och, paxta, meva va boshqa ne'matlar borasida bog'lanishlar mustahkam bo'lgan. Tashqi yurtlar bilan munosabatda diplomatiya, mehmondo'stlik va savdogarlar diplomatiyasi an'anasi kuchli bo'lgan. Aholi o'rtasida adolat va baraka, tinchlik, hamkorlik me'yorlari qadrlangan. [4].

Chig'atoy ulusi madaniy-meros sohasida ham kuchli qadriyatlar asosida rivojlangan. Madrasalar, masjidlar, mehmonxona va karvonsaroylar ijtimoiy salohiyatni oshirgan. Me'moriy yodgorliklar, bog' va sharsharalar, suv inshootlari, qadim uy va bino turlari cho'l va vodiylarni obod qilgan. Chig'atoy ulusi aholisi, turmush va siyosiy hayoti davomida o'ziga xos qarashlar, urf-odatlar, til va madaniyat taraqqiy etgan. Har bir viloyat yoki o'lka, shaharcha va qishloq o'ziga xoslikka ega bo'lgan, yashash tartibi, xalqning yurish-turishi, kiyim-boshi, xalq og'zaki ijodi va e'tiqod dunyosi o'zaro farq qilgan. Ammo ushbu farqlarga qaramasdan, bir umumiy madaniy va siyosiy mafkuraviy birlik saqlab qolingan. Chig'atoy ulusi davrida o'qimishli kishilar, ziyoratchilar, murabbiy va ulamolar, hunarmand va kosiblar, askar va sarkardalar jamiyat taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shgan. Davlat boshqaruvi va adliya tizimi, harbiy islohotlar, savdo va ishlab chiqarish, madaniy-ma'rifiy faoliyat, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ijtimoiy adolat mezonlari yo'lga qo'yilgan. Keng zaminda fasohatli til, boy adabiyot, turli elatlar orasida do'stlik mustahkamlangan [5].

Chig'atoy ulusining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayoti eng muhim tarixiy davrlardan biri hisoblanadi. Bu ulus markaziy Osiya hududida tashkil topgan bo'lib, uning ijtimoiy tuzilmasi murakkab va o'ziga xos edi. Jamiyatda ko'p millatli aholi yashagan, ular orasida turkiy va mo'g'ul qavmlari yetakchi o'rinda bo'lgan. Aholining asosiy qismini dehqonlar, chorvadorlar va hunarmandlar tashkil qilgan. Shahar aholisi savdo-sotiq va hunarmandchilik bilan shug'ullangan, qishloq joylarda esa asosan dehqonchilik va chorvachilik rivojlangan. Iqtisodiy hayotda savdo va hunarmandchilik ustunlik qilgan. [6].

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, Chig'atoy ulusining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayoti o'z zamonasining eng ilg'or yutuqlari va tajribalari ila boyitilgan. So'zsiz, bu ulkan davlat o'zining taraqqiyot sari intilgan ijtimoiy tuzumi, zamonaviy boshqaruvi, adolatli soliqlar va ishlab chiqarish tizimi, rivojlangan xalqaro savdosi, mustahkam siyosiy va diniy an'analari, boy madaniy merosi bilan butun Markaziy Osiyoning, qolaversa, tarix oldidagi o'rni va qadrini o'zida namoyon qilgan. Bu hayot tarzi keyingi asrlarda ham mintaqada yangi davlatchilik, madaniy va iqtisodiy taraqqiyot yo'llarining ochilishini ta'minlagan. Chig'atoy ulusi tarixda muhim iz qoldirgan va uning raqobatbardosh ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy salohiyati bugungi kunda ham tarixiy izlanishlar uchun muhim namuna va o'rnak bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Жувайний, А. А. (2015). Тарихи Жахонгушо/Таржима ва сўз боши муаллифи Назарбек Раҳим, Мурсал Ўзтурк. Т.: Мумтоз сўз, 395–400.
2. Бекмуратов С. Чигатой улусида илк бошқарув шакли. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Volume 1 | Special Issue 2.
3. Босворт К. Э. Мусульманские династии / Справочник по хронологии и генеалогии. Пер. с англ. и примеч. П. А. Грязневича. – М.: 1971.
4. Джамал ал-Карши. Мулхакат ас-Сурах / Перевод с арабского и примечания А. Саидова. – Душанбе: Ирфон, 2006.
5. Джувейни. Чингисхан. История завоевателя мира. – Москва: Магистр пресс, 2004. – 690 с.
6. Ибрагимов Н. Ибн Баттута и его путешествия по Средней Азии. – Москва: Наука, 1988.
7. Петров П. Н. Хронология правления ханов в Чагатайском государстве в 1271–1368 гг. (по материалам нумизматических памятников) // Тюркологический сборник 2007–2008. История и культура тюркских народов России и сопредельных стран. – Москва, 2009. – С. 294–319.
8. Султанов Т. И. Поднятые на белой кошке. Потомки Чингиз-хана. – Алматы: Дайк-Пресс, 2001. – 276 с.

XORAZMDA IKKINCHI JAHON URUSHIDAN KEYINGI DAVRDA TARIXCHILARNING SIYOSIY-IDEOLOGIK TA'LIMI

Kenjayev Bunyod Baxtiyor o'g'li

Urganch innovatsion universiteti "Tarix" kafedrası o'qituvchisi

E-mail: bun0401kbb@gmail.com

Kenjayeva Onajon Islom qizi

Urganch innovatsion universiteti talabasi

E-mail: anush8550@gmail.com

Annotatsiya: 1947-yilda "Tarix" mutaxassisligi uchun ishlab chiqilgan o'quv reja uch blok fanlarni qamrab oldi. Birinchi blok ijtimoiy-siyosiy fanlarga bag'ishlanib, "Marksizm-leninizm asoslari", "Siyosiy iqtisod" va "Dialektik hamda tarixiy materializm" keng hajmda o'qitildi. Ikkinchi blok psixologiya, pedagogika va metodikaga yo'naltirildi. Uchinchi blok esa tarixiy fanlarni qamrab olib, qadimgi davrdan SSSR tarixigacha bo'lgan kurslarni ikki baravar ko'p soatlar bilan o'rgatdi. Bu reja tarixchi talabalar tayyorlovini sezilarli darajada kuchaytirdi.

Kalit so'zlar: 1947-yilgi o'quv reja, tarix mutaxassisligi, siyosiy iqtisod, dialektik va tarixiy materializm, psixologiya va pedagogika, pedagogika tarixi, tarixni o'qitish metodikasi, qadimgi dunyo va o'rta asrlar tarixi.

Аннотация: В 1947 году был разработан учебный план по специальности «История», который включал три блока дисциплин. Первый блок охватывал общественно-политические предметы: «Основы марксизма-ленинизма», «Политическая экономия» и «Диалектический и исторический материализм». Второй блок был направлен на психологию, педагогику и методику преподавания. Третий блок включал исторические дисциплины — от древнего мира до истории СССР, при этом количество учебных часов было увеличено вдвое. Данный план значительно усилил подготовку студентов-историков.

Ключевые слова: учебный план 1947 года, специальность «История», политическая экономия, диалектический и исторический материализм, психология и педагогика, история педагогики, методика преподавания истории, история древнего мира и средних веков.

Annotation: In 1947, a curriculum for the "History" specialty was developed, which included three blocks of subjects. The first block focused on socio-political disciplines, with "Foundations of Marxism-Leninism," "Political Economy," and "Dialectical and Historical Materialism" taught extensively. The second block was oriented toward psychology, pedagogy, and teaching methodology. The third block covered historical disciplines, ranging from Ancient history to the history of the USSR, with the number of hours doubled. This curriculum significantly strengthened the training of history students.

Keywords: 1947 curriculum, history specialty, political economy, dialectical and historical materialism, psychology and pedagogy, history of pedagogy, methodology of teaching history, ancient and medieval history.

1947-yilda oliy o'quv yurtlari uchun "Tarix" mutaxassisligi bo'yicha o'quv reja ishlab chiqildi. Bu reja uch guruh fanlarni o'z ichiga olgan. Birinchi guruh (blok)

ijtimoiy-siyosiy yo'nalishdagi fanlardan iborat edi. Avvalo, bu "Marksizm-leninizm asoslari" bo'lib, unga urush yillariga nisbatan uch baravar ko'p o'quv vaqti ajratilgan — 250 soat [7, b.90] (urush davrida Xorazmda qisqa muddatli kurslarda — 80 soat [3, b.71]). Shuningdek, "Siyosiy iqtisod" (140 soat), "Dialektik va tarixiy materializm hamda falsafa tarixi" (140 soat) [7, b.90] o'qitilgan. Urush yillarida Xorazm viloyatida o'qituvchilar kurslarida bu fanlar umuman o'qitilmagan edi [3, b.197].

Shuningdek, 1947-yilgi o'quv rejasida fanlar o'rtasidagi izchillik ta'minlangan bo'lib, yengilroq fanlardan murakkabroq fanlarga o'tish ko'zda tutilgan. "Marksizm-leninizm asoslari" 1-, 2- va 3-semestrlarda o'qitilgan, undan keyin "Siyosiy iqtisod" (5-, 6-, 7-semestrlar), so'ngra eng murakkab — falsafiy qism (6-, 7- va 8-semestrlar) o'qitilgan [7, b.90]. Umuman olganda, oxirgi uch semestr davomida tarixchi talabalar bir vaqtning o'zida ikki ijtimoiy-siyosiy fanlarni o'qishgan, biroq majburiy davlat imtihoni faqat "Marksizm-leninizm asoslari" bo'yicha topshirilgan. Bu esa 1- va 2-kurslarda o'rganilgan materialni unutmashga imkon bergan. Agar xohlasangiz, men keyingi blok fanlari va ularning ta'lim jarayoniga ta'sirini ham o'zbekchaga tarjima qilib beraman. Tarixchi talabalar asosan maktablarda ishlashga tayyorlanganlari uchun ikkinchi blok psixologik-pedagogik mazmundagi bir nechta fanlarni o'z ichiga olgan: psixologiya, pedagogika, pedagogika tarixi va maktab gigiyenasi. Taqqoslash uchun aytish joizki, 1942-yilda Xorazm viloyatida tarix o'qituvchilarini tayyorlash bo'yicha qisqa muddatli kurslarda faqat "Psixologiya va pedagogika tarixi elementlari bilan pedagogika" fani o'qitilgan — 106 soat [3, b.197]. 1947-yilda esa bu fanlar alohida ajratilib, har biriga 100 soatgacha vaqt belgilandi, bu esa ularni o'rganishga ajratilgan o'quv vaqtini keskin oshirdi. Bundan tashqari, avvalgi davrlardagi kabi tarixni o'qitish metodikasi ham o'rganilgan, pedagogik amaliyot ham majburiy bo'lgan. Uchinchi blok fanlari tarixiy mazmundagi fanlardan iborat edi. Ularning nomi va mazmuni urush davridagi qisqa muddatli kurslar o'quv rejasiga mos kelgan bo'lsa-da, soatlar soni keskin oshirildi va semestrlarga teng taqsimlandi. Masalan, 1942-yilda Xorazm viloyatida 5–7-sinflar o'qituvchilarini tayyorlash dasturida Qadimgi dunyo va O'rta asrlar tarixiga 220 soat ajratilgan bo'lsa [3, b.71], 1947-yilgi o'quv rejasida faqat Qadimgi dunyo tarixiga 178 soat, O'rta asrlar tarixiga esa 227 soat ajratilgan [7, b.90]. Shunday qilib, soatlar soni ikki baravar oshirilgan. Bundan tashqari, talabalar Yangi davr tarixini 442 soat, SSSR tarixini esa 492 soat o'rganishgan. Sharq va G'arb mamlakatlari yangi tarixi birlashtirilib, bitta fan sifatida o'qitilgan. Umuman olganda, xorijiy tarixni o'rganishga ajratilgan soatlar SSSR tarixiga qaraganda ikki baravar ko'p bo'lgan [7, b.90].

Tarixiy ta'limni amalga oshirish uchun tegishli kafedralar ochilgan. Asosiy kafedralardan biri — marksizm-leninizm kafedrası (keyinchalik KPSS tarixi kafedrası) bo'lib, u ijtimoiy fanlar bo'yicha tayyorgarlikni ta'minlagan va birinchi blok fanlarini shu yerda ishlagan o'qituvchilar o'qitgan. Mazkur kafedrada institut direktori N.X. Kalandarov faoliyat yuritgan. 1953–1956-yillarda u direktorlik lavozimidan ketib, Leningrad davlat universiteti qoshidagi ijtimoiy fanlar o'qituvchilarining malakasini oshirish instituti va aspiranturaga o'qishga borgan. Ichan-Qal'a arxivi foto fondida 1952-yildagi uning suratida "tarix fanlari nomzodi, Xorazm pedagogika instituti o'qituvchisi" deb yozilgan [2]. Leningraddan qaytgach, u yana institut rahbarligiga qaytgan [1, b.26–27]. 1959-yilda N.X. Kalandarov viloyat partiya qo'mitasi kotibi bo'lgan, biroq pedagogik va ilmiy faoliyatni to'xtatmagan, 1977-yilda tarix fanlari doktori dissertatsiyasini himoya qilgan [5].

Yana bir rektor — Rajab Jumaniyozov ham marksizm-leninizm kafedrasining ilk o'qituvchilaridan biri edi. U 1928-yilda Xivada tug'ilgan, 1947-yilda Samarqand davlat universitetining A. Navoiy nomidagi tarix fakultetiga o'qishga kirib, 1952-yilda uni imtiyozli diplom bilan tamomlagan. Tez orada u Moskva davlat universiteti (M.V. Lomonosov nomidagi) falsafa fakultetida ijtimoiy fanlar o'qituvchilarini tayyorlash kursini o'qib, Urganchga qaytib kelgan va "Marksizm-leninizm asoslari" fanini katta o'qituvchi sifatida dars bergan [1, b.29].

Professor Rajab Jumaniyozov misolida ushbu kafedra o'qituvchilarining tayyorgarligi qanday kechganini ko'rish mumkin. U faqat Samarqand va Moskvada emas, balki Kiev davlat universiteti (T.G. Shevchenko nomidagi)da ham ijtimoiy fanlar o'qituvchilarini tayyorlash kurslarini o'qigan. Marksizm-leninizm kafedrasida ishlash imkoniga ega bo'lganlar (o'qituvchilar tanlov asosida qabul qilingan) Moskvada yoki Leningradda (keyinchalik Toshkentda) dissertatsiya himoya qilish imkoniyatiga ega bo'lishgan. Dissertatsiya mavzulari O'zbekiston Kommunistik partiyasi tarixi bilan bog'liq bo'lgan. 1963-yilda R. Jumaniyozov Moskva davlat universitetida tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olgan [4]. Kafedraning eng yaxshi o'qituvchilari partiya ishlariga jalb qilinib, rahbarlik lavozimlariga tayinlangan. Jumaniyozov ham 1963-yildan 1975-yilgacha Xorazm viloyat partiya qo'mitasida ijtimoiy-madaniy soha uchun mas'ul kotib bo'lib ishlagan.

Ana shunday kadrlar Xorazm pedagogika instituti tarix fakulteti jamoasining asosini tashkil etgan. Ular siyosiy ta'lim nazariyasi va amaliyotini puxta bilishgan, bu esa o'sha davr sharoitida muhim edi. 1991-yilda mustaqillik davri boshlanishi bilan bu tajriba boshqaruv, hokimiyat va ta'limning yangi mafkuraviy yo'nalishlarida qo'l kelgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Абдуллаев О. Хоразмлик тарихчи олимлар. Урганч, 2007. С. 26-27.
2. Государственный художественный Музей-заповедник «Ичан-Кала» (ГХМЗ). КП 2221, Инв. № 191.
3. Государственный архив Хорезмской области (ГАХО). Ф. 9, Оп. 3, Д. 87
4. Джуманиязов Р.Д. Деятельность Компартии Узбекистана по коммунистическому воспитанию тружеников села в период развернутого строительства коммунизма (1959-1962 годы): Автореферат диссертации кандидата исторических наук. Москва: Московский государственный университет, 1963. 23 с.
5. Каландаров Н.Х. Образование и деятельность Хорезмской Коммунистической партии (1920-1924 гг.): диссертация доктора исторических наук. Ташкент, 1977. 422 с.
6. Матниязов М. Деятельность Компартии Узбекистана по электрификации республики в годы Великой Отечественной войны (1941-1945) : Автореферат дис. кандидата исторических наук. Ташкент, 1965. 26 с.
7. Хорошенкова А.В. История государственной политики в области высшего исторического образования в СССР 20–30-х гг. XX века // Вестник Волжского университета им. В. Н. Татищева. 2012, № 4 (11). С. 171–178.

**1924–1991-YILLAR XORAZM VILOYATIDA TARIX TA'LIMI
RIVOJLANISHIDA ARXIV MATERIALLARINING BOSHQA
MANBALAR ORASIDAGI O'RNI**

Kenjayev Bunyod Baxtiyor o'g'li

Urganch innovatsion universiteti "Tarix" kafedrası o'qituvchisi

E-mail: bun0401kbb@gmail.com

Kenjayeva Onajon Islom qizi

Urganch innovatsion universiteti talabasi

E-mail: anush8550@gmail.com

Annotatsiya: 1924–1991-yillarda Xorazm viloyatida tarix ta'limi rivojlanishida arxiv materiallari muhim manba sifatida xizmat qildi. Sovet mafkurasi ta'sirida yaratilgan hujjatlar maktab va texnikumlarda islohot jarayonlarini aks ettirdi. Urush yillarida fotoarxivlar to'ldirilmagan bo'lsa-da, yozma hujjatlar ko'paydi. 1942-yilda tarix fakultetining ochilishi bilan tegishli arxiv fondlari shakllandi. Davriy matbuot, muzeylar va teatrlar ham tarixiy ta'limning o'ziga xos jihatlari yoritishda muhim rol o'ynadi.

Kalit so'zlar: Xorazm viloyati, tarix ta'limi, arxiv materiallari, fotohujjatlar, maktab va texnikum islohotlari, vatanparvarlik va safarbarlik, yozma hujjatlar.

Аннотация: В 1924–1991 годах архивные материалы сыграли важную роль в развитии исторического образования в Хорезмской области. Документы, созданные под влиянием советской идеологии, отражали процессы реформирования школ и техникумов. В годы войны фотоархивы почти не пополнялись, однако количество письменных документов увеличилось. В 1942 году с открытием исторического факультета были сформированы соответствующие архивные фонды. Периодическая печать, музеи и театры также сыграли значительную роль в освещении особенностей исторического образования.

Ключевые слова: Хорезмская область, историческое образование, архивные материалы, фотодокументы, реформы школ и техникумов, патриотизм и мобилизация, письменные документы.

Annotation: In 1924–1991, archival materials served as an important source in the development of history education in the Khorezm region. Documents created under the influence of Soviet ideology reflected the reform processes in schools and technical colleges. Although photo archives were not replenished during the war years, the number of written documents increased. In 1942, with the opening of the history faculty, relevant archival collections were established. Periodical press, museums, and theaters also played a significant role in highlighting the distinctive features of history education.

Keywords: Khorezm region, history education, archival materials, photo documents, school and technical college reforms, patriotism and mobilization, written documents.

Bu davrda yangi ta'lim tizimi shakllanayotgan, arxiv xizmatlari tashkil etilayotgan, davriy matbuot rivojlanayotgan, siyosiy yo'nalishdagi muzeylar va xalq teatrlarining ochilishi jarayoni ketayotgan edi. Teatlarda tarixiy syujetli spektakllar sahnalashtirilar, yangi mafkuraga mos madaniyat muassasalari shakllantirilardi. Ushbu sharoitlar 1924–1933-yillar va 1934–1940-yillar bosqichlarida Xorazmda tarixiy ta'limning xususiyatlarini aks ettiruvchi manbalar soni va turiga ta'sir ko'rsatdi.

Arxiv fondlarini, jumladan fotohujjatlarni yaratishda asosiy e'tibor sovet mafkurasini shakllantirishga qaratilgan edi. Bu holat ta'lim tizimiga, ayniqsa, davlat hokimiyatining "tarix" faniga bo'lgan munosabatiga taalluqli edi. Shunga muvofiq, manbalar Xorazm viloyatidagi maktablar va texnikumlarni isloh qilish jarayoniga hamroh bo'lgan muammolar majmuasini aks ettirdi. Umuman olganda, 1924–1940-yillarga oid mavjud materiallar urushdan oldingi davrda Xorazmda tarixiy ta'limning o'ziga xos jihatlarini aniq tasvirlab beradi.

1941–1945-yillardagi urush sharoitida tadqiqot mavzusiga oid manbalar majmuasi o'zgarishga uchradi. Davriy matbuot urush haqiqatlarini yoritib, xorazmliklarni og'ir mehnatga, vatanparvarlikka, dushmanga nafrat va frontga safarbarlikka yo'naltirganligi sababli, tarix ta'limi xususiyatlari mahalliy gazetalar e'tiboridan chetda qoldi. Urush yillarida ta'lim tizimiga oid fotoarxiv fondlari deyarli to'ldirilmadi. Biroq bu davrda yozma arxiv materiallari hajmi oshdi, bu ikki omil bilan bog'liq edi: 1942-yilda Xorazm viloyatida tarix fakulteti ochildi va tegishli arxiv hujjatlari paydo bo'ldi.

Urush haqiqatlari tarixiy ta'limga yondashuvlarda o'zgarishlar keltirib chiqardi. Urush sharoitiga mos yangi me'yoriy hujjatlar qabul qilindi, tarixni o'qitish metodikasi ishlab chiqildi va nashr etildi, hujjat almashinuvi faollashdi, natijada hujjatlar hajmi oshdi. Xorazm viloyati Xalq ta'limi bo'limiga markaziy va mahalliy hokimiyat organlaridan o'quv rejalari bo'yicha o'zgarishlar haqida muntazam buyruqlar kelib tushar edi — bu holatlar arxivlarda qayd etilgan.

Umuman olganda, 1941–1945-yillarga oid manbalar majmuasi yetarlicha hajmli bo'ldi.

1945–1991-yillar oralig'ida tarix ta'limini tavsiflovchi manbalar soni oldingi bosqichlarga nisbatan ancha kengaydi. Fotoarxiv fondlari to'ldirildi, ma'rifat xodimlarining shaxsiy arxivlari saqlanib qoldi, Xorazm viloyati davlat arxivida hujjatlar hajmi kengaydi. Bu davrda 1950–1991-yillarda yuz bergan voqealarda ishtirok etgan shaxslar bilan intervyu tarzida dala materiallarini yig'ish imkoniyati paydo bo'ldi. Ular orasida sobiq o'quvchilar ham bor edi, chunki tarix fani maktabda har bir o'quvchi tomonidan

o'rganilgan, bu esa intervyu jarayonida ma'lumot yig'ish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirdi.

Foydalanilgan asosiy manbalar majmuasi Xorazm viloyati davlat arxivi fondlarida joylashgan: 9-fond – “1977-yil 7-oktabrdan boshlab O'zbekiston SSR Xorazm viloyati mehnatkashlar deputatlari viloyat soveti ijroiya qo'mitasi xalq ta'limi bo'limi (1940–1991-yillar)” [1], 194-fond – Xorazm okrug Xalq ta'limi bo'limi [2], Φ. 156. – « Xorazm birlashgan o'qituvchilar va pedagogika instituti » [3].

Bu ish yurituv hujjatlari bo'lib, ular to'liq Xorazm viloyati Davlat arxivida saqlanadigan hujjatlardan iborat. Ushbu hujjatlar tarixiy ta'lim bilan bog'liq rasmiy yozishmalarni ifodalaydi. Bu materiallar Xorazmda normativ-huquqiy hujjatlarning qanday amalga oshirilganini, qanday qiyinchiliklar yuzaga kelganini va tarixiy ta'limni rivojlantirish bo'yicha davlat rejasini bajarishda qanday yutuqlarga erishilganini tushunish uchun muhimdir.

Ish yurituv hujjatlari ikki kichik guruhga bo'linadi:

1) Ma'muriy xarakterdagi hujjatlar: Buyruqlar, aylanmalar, farmoyishlar — bular bajarilishi majburiy bo'lgan hujjatlardir. Ular ta'limning barcha bosqichlarida qabul qilingan: maktablarda, Xiva pedagogika texnikumida, Xorazm o'qituvchilar institutida va boshqa ta'lim muassasalarida. Shuningdek, bu hujjatlar Xorazm viloyati xalq ta'limi bo'limi va boshqa boshqaruv organlaridan ta'lim muassasalariga yuborilgan.

2) Ijro xarakteridagi hujjatlar: O'zbekistonda va Xorazmda tuzilgan hisobotlar, o'quv rejalari, dasturlar, o'qituvchilar ro'yxatlari, “soatlar jadvali” hamda o'quv rejalari qanday qo'llanishi kerakligi haqida tushuntirishlar berilgan “izohli yozuvlar” kiradi. Ba'zan bu izohlarda qo'shimcha ma'lumotlar ham berilgan — masalan, bolalarni paxta terimiga jalb qilish va o'quv soatlarini qisqartirish haqida. Ushbu guruhga DIK – “Davlat Ilmiy Kengashining” tavsiyalari va u tomonidan ishlab chiqilgan o'quv dasturlari ham kiradi. DIK dasturlari Moskvada ishlab chiqilgan bo'lib, O'zbekiston sharoitiga moslashtirilgan.

Hisobotlar tarixiy manba sifatida nafaqat ta'lim muassasalaridan, balki xalq ta'limi boshqaruv organlaridan ham kelib tushgan. Hisobotlarda muammolar va ziddiyatlar aks ettirilgan, statistika, o'zgarishlar dinamikasi hamda Xorazm viloyatida tarix ta'limining holatini tavsiflovchi boshqa muhim ma'lumotlar keltirilgan.

“Umuman olganda, arxiv materiallari Xorazm viloyatida tarix ta'limi rivojlanishining asosiy manbalaridan hisoblanadi, biroq ular davriy matbuot, xotiralar va boshqa materiallar bilan to'ldirilishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Xorazm viloyati davlat arxivi (XVDA). F. 9 «1977-yil 7-oktabrdan boshlab O'zbekiston SSR Xorazm viloyati Mehnatkashlar deputatlari viloyat Soveti ijroiya qo'mitasi Xalq ta'limi bo'limi (1940–1991-yillar)»

2. XVDA. F. 194 – «Xorazm okrug Xalq ta'limi bo'limi»

3. XVDA. F. 156. – «Xorazm birlashgan o'qituvchilar va pedagogika instituti»

**BUXORO AMIRLIGIDA HARBIY ISH VA QO'SHIN TUZILISHI:
AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR**

Quronboyeva Maylixol Yaqubboy qizi

Urganch innovatsion universiteti magistranti

E-mail: maylixolkuranbayeva04@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada Buxoro amirligining Mang'itlar sulolasi davridagi harbiy tizimi, qo'shin turlarining tasniflanishi va Amir Nasrullo tomonidan amalga oshirilgan islohotlar tahlil qilingan. Tadqiqot davomida amirlikning mudofaa strategiyasi, sarbozlik tizimining joriy etilishi va harbiy-ma'muriy boshqaruv iyerarxiyasi arxiv ma'lumotlari va tarixiy manbalar asosida kengaytirilgan holda yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Buxoro amirligi, harbiy tizim, sarboz, navkar, Amir Nasrullo, harbiy islohot, strategiya, artilleriya, Nizomnomai harbiy, qurol-aslaha, mudofaa tizimi.

Аннотация: В данной статье анализируется военная система Бухарского эмирата в период династии Мангытов, классификация родов войск и реформы, проведенные Эмиром Насруллой. В ходе исследования на основе архивных данных и исторических источников подробно освещены оборонительная стратегия эмирата, введение системы сарбазов и военно-административная иерархия управления.

Ключевые слова: Бухарский эмират, военная система, сарбаз, навкар, Эмир Насрулло, военная реформа, стратегия, артиллерия, Низомномаи харбий, вооружение, система обороны.

Abstract: This article analyzes the military system of the Bukhara Emirate during the Mangit dynasty, the classification of troops and the reforms carried out by Emir Nasrullo. Based on archival data and historical sources, the study highlights the defense strategy of the emirate, the introduction of the sarbaz system and the military-administrative hierarchy of management in detail.

Keywords: Bukhara Emirate, military system, sarbaz, navkar, Emir Nasrullo, military reform, strategy, artillery, Nizomnomai harbiy, weaponry, defense system.

XVIII asrning ikkinchi yarmi va XIX asrda Buxoro amirligi Markaziy Osiyoda o'zining mustahkam davlatchilik poydevori bilan ajralib turgan. Bu davrda davlatning xavfsizligi va hududiy yaxlitligini ta'minlash bevosita harbiy tizimning mukammalligiga bog'liq edi. Mang'itlar sulolasi hokimiyatga kelgach, qo'shin nafaqat tashqi dushmanga qarshi kurashish, balki ichki markazlashtirish siyosatining asosiy quroliga aylandi. Ayniqsa, Amir Nasrullo davrida harbiy soha Markaziy Osiyo xonliklari ichida birinchilardan bo'lib modernizatsiya qilindi. [1, 32-35]

Buxoro amirligida harbiy xizmat majburiyati va qo'shin tarkibi murakkab tizimga ega bo'lib, asosan uchta kategoriyadan tashkil topgan. Birinchi qatlamni professional harbiylar — navkarlar tashkil etgan. Navkarlar hayotini faqat jangga bag'ishlagan tabaqa bo'lib, ularga davlat tomonidan maosh o'rniga "tanxoh" (yer

mulki) ajratilgan. Bu tizim qo'shinning doimiy jangovar shayligini ta'minlagan. [2, 112]

Ikkinchi qatlam "qora-chirik" deb atalgan xalq lashkari bo'lib, ular urush e'lon qilinganda har o'nta xonadondan bir kishi hisobida safarbar qilingan. Uchinchi va eng muhim qatlam esa 1837-yilda tashkil etilgan muntazam piyoda qo'shin — sarbozlaridir. Sarbozlar bevosita amirga bo'ysungan va ularning ta'minoti to'liq davlat xazinasidan amalga oshirilgan. [3, 164]

Amirlikda harbiy boshqaruv qat'iy iyerarxiyaga asoslangan. Qo'shinning oliy qo'mondoni — Amiri lashkar hisoblangan. Artilleriya bo'linmalariga To'pchi-boshi rahbarlik qilgan bo'lsa, harbiy safarbarlik va ta'minot ishlari Qushbegi nazoratida bo'lgan. Shuningdek, qo'shinda ponsadboshi (500 nafar askar boshlig'i), to'qsaba (bayroqdor), yuzboshi va dahboshi kabi unvonlar amal qilgan. Bu lavozimlar nafaqat harbiy mahoratga, balki hukmdorga bo'lgan sadoqatga qarab tayinlangan. [4, 78-81]

Amir Nasrulloning (1827–1860) harbiy islohotlari Buxoro qo'shinini Yevropa andozalariga yaqinlashtirishga qaratilgan ilk jiddiy urinish edi. Uning tashabbusi bilan muntazam sarbozlar polki tashkil etilib, ularning soni 12 ming kishigacha yetkazildi. Islohot doirasida askarlar uchun qizil mundir va oq shimdan iborat maxsus harbiy kiyim joriy etildi. Islohotning huquqiy asosi sifatida "Nizomnomai harbiy" ishlab chiqildi. Ushbu hujjatga ko'ra, askarlarga haftada ikki marta miltiqdan otish va maxsus "parad" maydonlarida safda yurish mashqlari o'rgatila boshlandi. Rossiya va Eron bilan o'rnatilgan harbiy aloqalar natijasida qo'shin zamonaviy strategik terminlar va taktik usullar qo'llanila boshladi. [5, 114-118]

Amirlikda qurol-aslaha ishlab chiqarishga davlat darajasida e'tibor qaratilgan. Buxoro Arki yaqinidagi "To'pxona" ustaxonalarida mis va cho'yan to'plar quyilgan. Shuningdek, "miltiqsozlar" tabaqasi tomonidan pilikli va chaqmoqli miltiqlar hamda porox tayyorlangan. XIX asr o'rtalarida amirlik artilleriyasi 80 dan ortiq to'pga ega bo'lgan bo'lib, ular orasida "shaturnallar" (tuya ustiga o'rnatiladigan yengil to'plar) alohida o'rin tutgan. Strategik jihatdan, otliq qo'shin dushmani qanotlardan qurshab olish — "tulug'ma" manevrini muvaffaqiyatli qo'llagan. [6, 42-45]

Mudofaa tizimining asosi ulkan shahar devorlari va chegara qal'alari edi. Buxoro shahrining tashqi devori 12 kilometrdan ortiq bo'lib, u 11 ta darvoza va 116 ta burj (minora) bilan mustahkamlangan. Ushbu burjlarda doimiy ravishda durbonli soqchilar va to'pchilar navbatchilik qilganlar. Har bir darvoza o'zining "darvozaboni" va maxsus harbiy bo'linmasiga ega edi. Bu inshootlar nafaqat mudofaa, balki harbiy nazorat maskanlari vazifasini ham o'tagan. [7, 104-108]

Biroq, texnik inqilobning kechikishi va sanoatlashgan davlatlarning, xususan, Rossiya imperiyasining tazyiqi amirlik harbiy tizimining zaif tomonlarini, ayniqsa, o'qotar qurollar va texnologik jihozlanish borasidagi ortda qolishni ko'rsatib qo'ydi. Shunga qaramay, Buxoro amirligi harbiy tizimi o'rta asr an'analari va yangi davr elementlarini birlashtirishga harakat qilgan noyob tizim

bo'lib qoldi. Amir Nasrullo tomonidan o'tkazilgan islohotlar qo'shinni muntazamlashtirish yo'lidagi muhim qadam bo'lib, mintaqa tarixida harbiy san'at rivojiga katta hissa qo'shgan. Ushbu mavzuni arxiv hujjatlari asosida chuqurroq o'rganish, milliy davlatchilik tariximizdagi harbiy boshqaruv an'alarini anglashda muhim ahamiyatga egadir. [8,56-59; 9]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Дониш А. История мангытской династии. – Душанбе: Дониш, 1967. – В. 32-35.
2. Иванов П.П. Очерки по истории Средней Азии. – М., 1958. – С. 112.
3. Ханьков Н.В. Описание Бухарского ханства. – СПб., 1843. – С. 164.
4. Мирза Бади' диван. Маджму' ал-Аркам (Предписания фиска). – М.: Наука, 1981. – В. 78-81.
5. Зияев Х.З. История борьбы за независимость Узбекистана. – Toshkent: Sharq, 2001. – В. 114-118.
6. Троицкая А.Л. Военное дело в Бухарском эмирате в середине XIX в. // Труды АН ТаджССР. – 1953. – В. 42-45.
7. Сухарева О.А. Бухара XIX - начала XX в. – М.: Наука, 1966. – В. 104-108.
8. Бабабеков Х.Н. История Узбекистана (XIX в.). – Toshkent: O'qituvchi, 1994. – В. 56-59.
9. www.ziyouz.uz – Tarixiy manbalar va elektron qo'lyozmalar kutubxonasi.

XIII-XV ASRLARDA OLTIN O'RDA XONLIGINING NUMIZMATIKASI

Madirimov Behzod Hamro o'g'li

Urganch innovatsion universitet magistranti

E-mail: elegant1541601@gmail.com

Annotatsiya: Oltin O'rda xonligi o'z davrining eng qudratli va geografik jihatdan katta hududga ega bo'lgan yirik siyosiy tuzilmalaridan biri bo'lgan. Oltin O'rda xonligining XIII-XV asrlardagi numizmatikasi o'sha davrning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotini o'rganishda muhim bosqichlardan hisoblanadi. Bu davlatning o'ziga xos ijtimoiy tartiblari, iqtisodiy munosabatlari, siyosiy boshqaruv tizimi asrlar davomida mintaqaning madaniyati va taraqqiyotida yorqin iz qoldirgan.

Kalit so'zlar: Oltin O'rda, numizmatika, iqtisodiy taraqqiyot, siyosiy boshqaruv, dehqonchilik, hunarmandchilik, savdo-sotiq munosabatlari, soliq tizimi, madaniy hayot, pul munosabatlari.

Аннотация: Золотая Орда была одним из самых могущественных и территориально обширных политических образований своего времени. Нумизматика Золотой Орды XIII–XV веков считается одним из важных этапов в изучении социально-экономической и политической жизни того периода. Своеобразные общественные порядки, экономические отношения и система политического управления этого государства на протяжении веков оставили яркий след в культуре и развитии региона.

Ключевые слова: Золотая Орда, нумизматика, экономическое развитие, политическое управление, земледелие, ремесленничество, торговые отношения, налоговая система, культурная жизнь, денежные отношения.

Abstract: The Golden Horde was one of the most powerful and territorially extensive political entities of its time. The numismatics of the Golden Horde in the 13th–15th centuries is considered one of the important stages in studying the socio-economic and political life of that period. The unique social structures, economic relations, and system of political governance of this state left a significant mark on the culture and development of the region over the centuries.

Keywords: Golden Horde, numismatics, economic development, political governance, agriculture, handicrafts, trade relations, tax system, cultural life, monetary relations.

Oltin O'rda xonligi XIII–XV asrlarda Yevrosiyo hududining muhim siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy markazlardan biri bo'lgan. Oltin O'rda davlati o'zining katta hududi, strategik savdo yo'llarida joylashganligi hamda mustahkam qo'shin tizimiga egaligi bilan ajralib turgan. Oltin O'rda davrida shakllangan pul muomalasi va tanga zarbi iqtisodiy hayotni rivojlantirishning muhim omillaridan biri hisoblangan va aholi faravonligi uchun katta ahamiyat kasb etgan. Numizmatika fani tarixiy jarayonlarni o'rganishda muhim moddiy manba bo'lib, tangalar orqali davlatning hukmdorlar faoliyati, siyosiy tuzumi, davlatning

ijtimoiy-iqtisodiy holati, madaniy hayotga ta'siri haqida qimmatli ma'lumotlar olish mumkin. Oltin O'rda xonligining XIII–XV asrlardagi tangalari ham o'sha davr jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini, aholi faravonligini aks ettiradi. Mazkur ishimda Oltin O'rda xonligi numizmatikasining o'rganilishi, rivojlanish bosqichlari, hukmdorlar zarb qildirgan tangalar va ularning tarixiy ahamiyati tahlil qilinadi. Pul munosabatlarining savdo-sotiq, soliq tizimi va davlat boshqaruvidagi o'rni yoritib beriladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi numizmatik manbalar orqali Oltin O'rda xonligidagi XIII-XV asr ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotini chuqurroq o'rganishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Oltin O'rda xonligining numizmatikasini o'rganishda V. Grigoryev, A. Markov, B. Kochnev, G. Fedorov-Davydov, S. Lane-Poolelarning asarlarini sanab o'tish mumkin. Bu asarlarda ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayot moddiy va yozma manbalar asosida o'rganilgan. Mavzuga oid adabiyotlarni shartli ravishda klassik tarixiy manbalar va zamonaviy ilmiy tadqiqotlardagi moddiy manbalarga ajratib o'rganish mumkin. Klassik tarixiy manbalar orasida Ibn Battutaning "Sayoxatnoma" asarida Oltin O'rda hududlari, savdo shaharlari, bozorlari, pul muomalasi va ijtimoiy-iqtisodiy hayot tasvirlangan. Ibn Fazlulloh al-Umariyning "Mamlakatlar yo'llari haqida kitob" asarida Oltin O'rda davlat boshqaruvi, soliqlari, moliya tizimi va savdo aloqalari haqida ma'lumot berilgan. Rashiddin Fazlullohning "Tarixlar majmuasi" asarida Oltin O'rda xonlari, davlat boshqaruvi, iqtisodiy hayot va pul tizimi haqida eng muhim klassik manbalar aks etgan. Otamalik Juvayniyning "Jahon fathi tarixi" asarida Mo'g'ullar davlati va Oltin O'rdaning dastlabki iqtisodiy tizimi yoritiladi. Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asarida esa Amir Temur va Oltin O'rda munosabatlari, moliya va tangalar haqidagi ma'lumotlar mavjud. Zamonaviy tadqiqot asarlarida moddiy manbalar bilan yoritilgan. V. V. Grigoryev o'zining "О монетах Золотой Орды" asarida Oltin O'rda tangalarini ilmiy jihatdan birinchi bo'lib tizimli o'rgangan va tangalardagi yozuvlar va zarbxonalarni tahlil qilgan. A. K. Markov o'zining "Монеты Золотой Орды" asarida Oltin O'rda tangalarining to'liq katalogini tuzib chiqqan. Bu manba hozirgi kungacha asosiy manbalardan biri hisoblanadi. B. D. Kochnev "Денежное обращение Золотой Орды" ilmiy maqolalar to'plamida pul muomalasi va iqtisodiy jarayonlarni numizmatika asosida o'rgangan. G. F. Davydov "Культура Золотой Орды" asarida Oltin O'rdaning arxeologiyasi va numizmatikasini birgalikda o'rganib, Oltin O'rdaning madaniy-iqtisodiy hayotini yoritgan.

I. Volkov o'zining ilmiy maqolalarida Oltin O'rda zarbxonalari va hududiy pul muomalasining tadqiqotini olib borgan. S. L. Poole o'zining "The Coins of the Mongols" asarida Yevropada Oltin O'rda va mo'g'ullar tangalarini o'rgangan yetakchi olimlardan biri hisoblanadi. Aleksey Yakubovsky "Золотая Орда и её падение" asarida bevosita numizmatikaga bag'ishlanmagan bo'lsada, tangalar orqali siyosiy tarixni tahlil qilgan. O'zbekistonlik va Markaziy Osiyo olimlari

B. Ahmedovning “O‘zbek davlatchiligi tarixi” asarida Oltin O‘rda va uning pul tizimi haqida ma’lumot berilgan. Sh. Vohidovning ilmiy maqolalarida esa Markaziy Osiyo hududida topilgan Oltin O‘rda tangalarini tadqiq qilingan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Mazkur tadqiqotda Oltin O‘rda xonligining XIII–XV asrlardagi numizmatikasini ilmiy asosda o‘rganish maqsadida yozma va moddiy manbalardan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi manbalarni izlash, tahlil qilish, solishtirish va umumlashtirish tamoyillariga asoslanadi. Birinchidan, tadqiqotda tarixiylik va xolislik prinsiplari asosiy sifat ekanligi, har bir numizmatik material o‘z davrining siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlari bilan bog‘liq holda o‘rganilishi, tangalar faqat moddiy manba sifatida emas, balki tarixiy hujjat sifatida tahlil qilindi. Ikkinchidan, manbashunoslik metodi qo‘llanildi. Arxeologik qazilmalar natijasida topilgan tangalar, muzey fondlaridagi kolleksiyalar hamda ilmiy kataloglar asosiy manba sifatida o‘rganildi. Shu bilan birga, arab, fors, rus va o‘zbek tilidagi yozma manbalar bilan numizmatik materiallar taqqoslab tahlil qilindi. Uchinchidan, qiyosiy-tarixiy metolardan foydalanildi. Oltin O‘rda tangalari boshqa davlatlar Elxoniylar, Chig‘atoy ulusi va Temuriylar davlatining pul tizimi bilan solishtirildi. Bu usul orqali numizmatik tangalarning umumiy va farqli jihatlar aniqlandi. To‘rtinchidan, numizmatik tangalardagi metall tarkibi, shakli, yozuvi, bezaklari va zarbxonalariga ko‘ra guruhlarga ajratildi. Bu metod tangalarning rivojlanish bosqichlarini aniqlashda muhim hisoblanadi. Beshinchidan, statistik va xronologik tahlil usullaridan foydalanildi. Tangalar muomaladagi miqdori, tarqalish hududi va zarb etilgan yillariga ko‘ra o‘rganildi. Shuningdek, tadqiqotda integratsiyali yondashuv metodi qo‘llanildi. Numizmatik materiallar tarix, iqtisodiyot, arxeologiya va madaniyatshunoslik fanlari bilan uzviy bog‘liq holda tahlil qilindi. Xulosa qilib aytganda, mazkur tadqiqotlar metodologiyasi ilmiy manbalarga asoslanib, Oltin O‘rda numizmatikasini har tomonlama va tizimli o‘rganishga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR. Numizmatikadagi tahlillarning natijalari shuni ko‘rsatadiki, Oltin O‘rda xonlari tomonidan zarb qilingan tangalarda hukmdor nomi, islomiy shiorlar, zarb qilingan joy va sana ko‘rsatilgan. Bu holat tangalarning nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy, balki siyosiy ahamiyatga ham ega bo‘lganini ko‘rsatadi.[1] Masalan, yangi xon taxtga kelishi bilan tangalarda uning nomi paydo bo‘ladi va uning davlat hokimiyati qonuniyligini namoyon etadi. Shuningdek, tangalarning metall tarkibi ham vaqt o‘tishi bilan o‘zgarib borganligi aniqlandi. Davlat rivojlangan va qudratli bo‘lgan davrlarda kumush miqdori yuqori bo‘lgan bo‘lsa, siyosiy beqarorlik va iqtisodiy inqiroz vaqtida tangalarning sifati pasaygan. Bu holat davlat moliyaviy tizimining holatini aks ettiruvchi muhim ko‘rsatkich hisoblanadi.[2] Tangalarning geografik tarqalishi tahlili Oltin O‘rda hududida keng savdo tarmoqlari mavjud bo‘lganini ko‘rsatdi. Volga bo‘yi, Qrim, Xorazm va Movarounnahr hududlarida topilgan tanga xazinalari faol savdo aloqalari va pul muomalasining rivojlanganligidan dalolat beradi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, XIII-XV asrlarda Oltin O‘rda davlatining siyosiy rivojlanishi yoki pasayishi pul tizimiga ijobiy va salbiy ta’sir ko‘rsatgan.

Zarbxonalar faoliyati kuchaygan yoki faoliyati pasaygan, tangalarning xilma-xilligi oshgan yoki kamaygan va muomalada hukmdorlarning, mahalliy hokimlarning tanga pullari muomalada bo'lgan. [3] Bu jarayonlar davlatning rivojlanish va parchalanishi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Oltin O'rda numizmatikasi XIII-XV asrlarda davlatning iqtisodiy qudrati, siyosiy barqarorligi va savdo aloqalarini aks ettiruvchi muhim tarixiy manba tanga pullar ekanligi tasdiqlanadi. [4] Tadqiqot natijalari mazkur davr tarixini yanada chuqurroq o'rganish uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA. Mazkur tadqiqotdan xulosa shuki, Oltin O'rda xonligining XIII-XV asrlardagi numizmatikasi davlatning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotini o'rganishda muhim tarixiy manba hisoblanadi. Tangalar orqali hukmdorlar faoliyati, davlat boshqaruvi tizimi, pul muomalasi va savdo munosabatlari haqida qimmatli ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin. Tadqiqot davomida Oltin O'rdada markazlashgan pul tizimi mavjud bo'lganligini ko'rsatib berdi. Tanga zarbi davlat iqtisodiy barqarorligining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Oltin O'rdada XIV asrda pul muomalasining yuksak darajaga yetgani, savdo-sotiq aloqalarining kengaygani va zarbxonalar faoliyatining rivojlanganini ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, tangalarning tashqi ko'rinishi, yozuvlari va metall tarkibi orqali siyosiy vaziyat va iqtisodiy holatni baholash mumkin. Tadqiqot natijalarida XV asrga kelib Oltin O'rda davlatining parchalanishi pul muomalasining ham izdan chiqishiga olib kelganini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Markov A. K. Монеты Золотой Орды. Казань, 2008.
2. Grigoryev V. V. О монетах Золотой Орды. Sankt-Peterburg, XIX asr.
3. Kochnev B. D. Денежное обращение Золотой Орды. Moskva, 1985.
4. Fedorov-Davydov G. A. Культура Золотой Орды. Moskva, 1973.
5. Lane-Poole S. The Coins of the Mongols and Tatars. London, 1881.
6. Rashid ad-Din. Tarixlar majmuasi. Tehron, 1957.
7. Juvayni A. M. Jahon fathi tarixi. Tehron, 1912.
8. Ibn Battuta. Safarnoma. Qohira, 1964.
9. Ahmedov B. O'zbek davlatchiligi tarixi. Toshkent, 2001.
10. Bartold V. V. Turkiston va O'rta Osiyo tarixi bo'yicha tadqiqotlar. Moskva, 1963.

FARG'ONA VODIYSI HUDUDIDAGI ZIYORATGOHLAR

Kucharov Jamshid Kulnazarovich

Qarshi davlat universiteti dotsenti

Masharipova Lobarxon Raxim qizi

Urganch innovatsion universiteti magistri

Annotatsiya: Mazkur maqolada Farg'ona vodiysining muqaddas ziyoratgohlari tarixi, ularning shakllanish jarayoni va jamiyat hayotidagi o'rni yoritilgan. Xususan, Shohimardon (Hazrati Ali) majmuasi hamda Boborahim Mashrab nomi bilan bog'liq ziyorat va ma'naviy maskanlar haqida tarixiy manbalar, xalq rivoyatlari va zamonaviy holati asosida ma'lumotlar berilgan. Maqolada ziyoratgohlarning diniy, ma'naviy va madaniy ahamiyati tahlil qilinib, ularni asrab-avaylash va kelajak avlodga yetkazish zarurligi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: Farg'ona vodiysi, ziyoratgohlar, Shohimardon, Hazrati Ali, Boborahim Mashrab, tasavvuf, maqbara, ma'naviy meros.

Аннотация: В данной статье рассматривается история святых мест паломничества Ферганской долины, процесс их формирования и значение в общественной жизни. Особое внимание уделено комплексу Шахимардан (Хазрати Али), а также духовным и культурным объектам, связанным с именем Боборахима Машраба. На основе исторических источников, народных преданий и современного состояния показана религиозная, духовная и культурная роль святынь. Подчёркивается важность сохранения и передачи этого духовного наследия будущим поколениям.

Ключевые слова: Ферганская долина, святые места, паломничество, Шахимардан, Хазрати Али, Боборахим Машраб, суфизм, духовное наследие.

Annotation: This article explores the history of sacred pilgrimage sites in the Fergana Valley, their formation, and their role in social and spiritual life. Special attention is given to the Shakhimardan (Hazrat Ali) complex and the spiritual heritage associated with the name of Boborahim Mashrab. Based on historical sources, folk legends, and present-day conditions, the article analyzes the religious, cultural, and spiritual significance of these shrines. The importance of preserving this valuable heritage for future generations is also emphasized.

Keywords: Fergana Valley, pilgrimage sites, Shakhimardan, Hazrat Ali, Boborahim Mashrab, Sufism, shrine, spiritual heritage.

Farg'ona vodiysi Markaziy Osiyoning eng qadimiy va madaniy jihatdan boy hududlaridan biri hisoblanadi. Bu zamin nafaqat serhosil yerlar va qadimiy shaharlar, balki ko'plab muqaddas ziyoratgohlar bilan ham mashhur. Asrlar davomida Farg'ona vodiysi islom ilmi, tasavvuf, ma'rifat va diniy meros markazlaridan biri bo'lib kelgan. Bugungi kunda bu ziyoratgohlar nafaqat diniy, balki tarixiy va ma'naviy ahamiyatga ega maskanlardir.

Farg'ona vodiysiga islom dini VIII asrda kirib kelgan. Shu davrdan boshlab hududda masjidlar, maqbaralar va avliyolar qabrlari barpo etila boshlagan. Islomning yoyilishi bilan birga, Qur'on va hadis ilmini targ'ib qilgan ulamolar, sufiylar va shayxlar yetishib chiqdi. Ularning qabrlari keyinchalik ziyoratgohga aylangan.

Shohimardon (Hazrati Ali) majmuasi:

Shohimardon Farg'ona vodiysining eng qadimiy va nufuzli **ziyoratgohlaridan** biri bo'lib, bugungi kunda ham ko'plab ziyoratchilarni jalb qiladi. U O'zbekistonning tog'li hududida joylashgan noyob maskan bo'lib, diniy e'tiqod, tarixiy xotira va mahalliy afsonalar bilan chuqur bog'liq[1].

Shohimardon qishlog'i Farg'ona shahridan taxminan 55–60 km janubda Oloy tog'lari orasida joylashgan. Bu hudud go'zal tabiat, toza havosi va tog' daryolari bilan mashhur bo'lib, ziyoratchilar uchun nafaqat ruhiy balki jismoniy dam olish joyi hisoblanadi[2].

So'zning o'zi Shohimardon fors tilidan “odamlar shohi” yoki “mardlar shohi” ma'nosini anglatadi. Mahalliy an'anada bu nom to'rtinchi xalifa — Hazrati Ali (r.a.) bilan bog'lanadi. Afsanaga ko'ra, Hazrati Ali bu maskanga tashrif buyurgan, va uning bir qismi bu yerda dafn etilgan — deb hisoblangan. Bugungi kunda bu fikr ilmiy jihatdan isbotlanmagan bo'lsa-da, xalq e'tiqodida chuqur ildiz otgan[3].

Shohimardon markazida Hazrati Ali maqbarasi joylashgan bo'lib, u qadimdan ziyorat qilinadigan maskan bo'lgan. Sovet davrida diniy obidalar yirik talqinlar ostida vayron qilingan bo'lsa ham, mustaqillikdan keyin, 1993-yilda maqbara qayta qurilgan va uni ziyoratchilar e'zozlashga qaytdi[4].

Bu maskan ma'naviy sayohat uchun muhim bo'lib, ko'plab odamlar ibodat, duolar, niyatlarni amalga oshirish maqsadida keladi.

Hazrati Ali bilan bog'liq afsona: Mahalliy rivoyatlarga ko'ra, Hazrati Ali Farg'ona vodiysiga tashrif buyurgan va uning bir qismi bu yerda qoldirilgan — shu sababli ziyoratchilar uni ziyorat qiladi[5].

Maqbaraning joylashuvi — ikki tog' qatori, ikki daryo bo'ylab o'ralgan maskan sifatida tasvirlanadi, bu holat uning yanada muqaddas manzil ekanligi to'g'risida afsonaviy tasavvurlarni kuchaytiradi[6].

Mustaqillikdan keyingi davrda Shohimardon ziyoratgohi aholining va davlat tomonidan qayta tiklanib, restauratsiya qilingan. Hozirgi vaqtga kelib:

- Hazrati Alining maqbarasi va masjidi tiklangan va faol ziyorat qilinadi. Ziyoratgoh hududi kengaytirilib, tinch va qulay sharoitlar yaratilmoqda — binolar restoratsiya qilinmoqda, sayyohlar uchun xizmatlar tashkil etilmoqda.

- Shohimardon nafaqat diniy ziyorat, balki turizm maskani sifatida ham rivojlanmoqda, ko'plab mahalliy va xorijiy sayyohlar tabiat, tarix va ruhiy tinchlik izlab tashrif buyuradi.

- Bugungi kunda Shohimardon ziyoratgohi nafaqat diniy sabab bilan, balki:

- ruhi poklanish,
- tarixga hurmat,
- oilaviy niyatlarni amalga oshirish,
- ma'naviy ozuqa olish maqsadida ham ko'plab insonlar tashrif buyuradigan maskan bo'lmoqda. Shohimardon — bu Farg'ona vodiysining ma'naviy boyligi, qadimiy e'tiqodlar va afsonalar bilan bog'liq muqaddas ziyoratgoh. U Hazrati Aliga nisbat berilgan maqbarasi, mahalliy xalq rivoyatlari, tarixiy o'tmishi va hozirgi zamondagi tiklanishi bilan ajralib turadi. Ziyoratchilar uchun bu nafaqat diniy ziyofat, balki ruhiy ozuqa hamdir.

Boborahim Mashrab ziyoratgohi: Boborahim Mashrab (taxminan 1640/1653–1711) — o'zbek adabiyoti va tasavvuf an'analarining eng yorqin vakillaridan biri bo'lgan shoir, mutafakkir va darvish hisoblanadi. U XVII–XVIII asrlarda yashab ijod qilgan, Naqshbandi tariqatining tasavvufiy g'oyalari orqali qalblarni poklashni maqsad qilgan shaxs edi[7].

Uning ijodi jismoniy ibodatdan ko'ra ichki erkinlik, ma'naviy haqiqat va qalb pokligini ustuvor qilgan, riyokor din arboblari tanqid qilgan ruhda bo'lgan.

Tarixiy manbalar va ko'plab afsona rivoyatlar asosida Boborahim Mashrabning asl qabriga oid izlar internetda tilga olinadi — masalan, ayrim sayyoh bloglarda Afg'oniston hududida uning qabri topilgani aytiladi yoki ziyoratchilar borib qaytgani ko'rsatiladi. Biroq bu ma'lumotlar ilmiy jihatdan aniqlangan rasmiy ziyoratgoh sifatida tasdiqlanmagan[8].

Historik ravishda uning Balx (Afg'oniston)da 1711-yilda qatl etilgani qayd etiladi — ya'ni Mashrabning jismonan dafn qilingan joyi aniq tarixiy manbalarda ko'p tilga olinmaydi[9].

Namangan shahrida joylashgan Mullo Bozor Oxund maqbarasi ziyoratgohi ko'pincha Mashrab bilan bog'lanadi, chunki u Mashrabning ustozlaridan biri bo'lgan va uning tasavvufiy yo'lini shakllantirishda muhim rol o'ynagan olim sanaladi[10].

Bu maqbara odatda:

- Mullo Bozor Oxund — boborahimning ta'lim olgan sofiysi va murshidi nomi bilan ataladi.

- Bu joy ham musulmonlar orasida qadimgi ziyoratgoh sifatida qadrlanadi.

• Ziyoratchilar bu maqbarani ruhiy tinchlik izlab, duo va tilak so'rab ziyorat qilishadi.

Bu maqbara to'g'ridan-to'g'ri Mashrab qabriga bog'liq bo'lmasa ham, uning hayoti va tasavvufiy yo'lini chuqurroq o'rganishga xizmat qiluvchi tarixiy maskan sifatida e'zozlanadi.

Namangan shahrida badiiy-madaniy maskanlar ham Mashrab nomi bilan bog'langan. Masalan:

• Namangan shahrida Boborahim Mashrab haykali va bog'i mavjud bo'lib, u shoirning adabiy va ma'naviy merosini yod etish uchun barpo etilgan.

• Bu joylar ilmiy yoki diniy ziyoratgoh klassifikatsiyasida bo'lmasa ham xalq va madaniy e'tibor maskanlari sifatida keng tanilgan.

Boborahim Mashrab ziyoratgohi deganda aniq bir diniy maqbara ko'pincha rasmiy tarixiy hujjatlar bilan tasdiqlanmaydi; biroq uning nomi, g'oyalari va ijodi o'zbek milliy ma'naviyati va adabiyotining ziyoratga loyiq qadriyatlari sifatida hurmat bilan yod etiladi.

Uning she'rlari va tasavvufiy qarashlari bugungi kungacha:

- adabiyot darslarida,
- she'riyat festivallarida,
- madaniy tadbirlarda ma'naviy tarbiya manbai sifatida o'rganiladi.

Boborahim Mashrab ziyoratgohi haqida to'g'ridan-to'g'ri rasmiy muqaddas qazilmalar mavjud bo'lmasa ham:

• uning ijodiy va tasavvufiy merosi madaniy va ma'naviy ziyorat obyekti sifatida hurmat qilinadi;

• Namangandagi Mullo Bozor maqbarasi uning ustoziga bag'ishlangan qadimiy ziyoratgoh bo'lib, ko'plab ziyoratchilar uchun ma'naviy izlanish maskani;

• Namangan shahridagi Mashrab haykali va bog'i esa adabiy-madaniy e'zoz maskani sifatida o'rin olgan.

Ziyoratgohlarning jamiyatdagi o'rni:

Farg'ona vodiysi ziyoratgohlari asrlar davomida:

- diniy bilim va ma'rifat markazi,
- xalqni birlashtiruvchi ma'naviy maskan,
- milliy qadriyat va urf-odatlar saqlanib qolgan muqaddas joy sifatida xizmat qilib kelgan.

Bu joylarda nafaqat ibodat, balki xayriya, duolar, marosimlar va ma'naviy tarbiya ishlari amalga oshirilgan.

Farg'ona vodiysi ziyoratgohlari — bu o'tmish va bugunni bog'lovchi bebaho merosdir. Ular xalqimizning diniy e'tiqodi, tarixiy xotirasi va ma'naviy qadriyatlarini o'zida mujassam etadi. Ushbu ziyoratgohlarni asrab-avaylash, o'rganish va kelajak avlodga yetkazish har birimizning muhim vazifamizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Farg'ona viloyati turizm boshqarmasi rasmiy sayti – Shohimardon ziyoratgohi haqida ma'lumotlar. Manba: ferganatourism.uz
2. Central Asia Guide – Shakhimardan (Shohimardon) majmuasi tarixi va zamonaviy holati.
3. O'zbekiston milliy axborot agentligi (UzA) – Hazrati Ali bilan bog'liq rivoyatlar va Shohimardon ziyoratgohi haqida maqolalar. Manba: uza.uz
4. Visit Uzbekistan – Shohimardon hududining turistik va madaniy ahamiyati haqida ma'lumotlar.
5. Farg'ona viloyati hokimligi rasmiy axborotlari – Shohimardon ziyoratgohini rekonstruksiya qilish va rivojlantirish ishlari.
6. Tarix • Sinaps – Boborahim Mashrab hayoti va ijodi haqida tarixiy ma'lumotlar.
7. Kursiv Media – Boborahim Mashrabning tasavvufiy qarashlari va ijodiy merosi tahlili.
8. VisitSilkRoad – Namangan shahridagi Mullo Bozor Oxund maqbarasi va uning tarixiy ahamiyati.
9. YouTube platformasi – Boborahim Mashrab qabri haqida mavjud sayyohlik va hujjatli videomateriallar.
10. journalss.org – Boborahim Mashrab ijodining adabiy va ma'naviy ahamiyati haqidagi ilmiy maqolalar.

XIVA XONLIGI IQTISODIY RIVOJIDA HUNARMANDCHILIK SOHASINING O'RNI

Matkarimova Barno Bekberganovna

Urganch innovatsion universiteti magistranti

matkarimovabarno123@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu ilmiy tezis Xiva xonligi iqtisodiy rivojida hunarmandchilik sohasining o'rni va ahamiyatini tarixiy manbalar hamda ilmiy adabiyotlar asosida yoritishga bag'ishlangan. Tadqiqotda hunarmandchilik tarmoqlarining shahar xo'jaligi, ichki va tashqi savdo munosabatlari, ishlab chiqarish jarayonlari hamda aholi bandligini ta'minlashdagi roli tahlil qilinadi. Shuningdek, hunarmandchilik mahsulotlarining iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy taraqqiyotdagi ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: Xiva xonligi, hunarmandchilik, iqtisodiy rivoj, shahar xo'jaligi, savdo munosabatlari, ishlab chiqarish, aholi bandligi, tarixiy manbalar.

Аннотация. Данная научная работа посвящена освещению роли и значения ремесленного сектора в экономическом развитии Хивского ханства на основе исторических источников и научной литературы. В исследовании анализируется роль ремесленных производств в обеспечении городской экономики, внутренних и внешних торговых отношений, производственных процессов и занятости населения. Также научно обосновывается значение ремесленной продукции для экономической стабильности и социального развития.

Ключевые слова: Хивское ханство, ремесла, экономическое развитие, городская экономика, торговые отношения, производство, занятость, исторические источники.

Abstract. This scientific thesis is devoted to highlighting the role and importance of the handicraft sector in the economic development of the Khiva Khanate based on historical sources and scientific literature. The study analyzes the role of handicraft industries in ensuring the urban economy, internal and external trade relations, production processes, and employment of the population. Also, the importance of handicraft products in economic stability and social development is scientifically substantiated.

Key words: Khiva Khanate, handicrafts, economic development, urban economy, trade relations, production, employment, historical sources.

Kirish. Markaziy Osiyo tarixida Xiva xonligi muhim siyosiy va iqtisodiy markazlardan biri sifatida alohida o'rin tutadi. Xonlik iqtisodiy tizimining shakllanishi va rivojida qishloq xo'jaligi bilan bir qatorda hunarmandchilik sohasining ahamiyati katta bo'lgan. Ayniqsa, shaharlar iqtisodiy hayotida hunarmandchilik ishlab chiqarishi asosiy daromad manbalaridan biri sifatida namoyon bo'lgan. Xiva, Urganch, Hazorasp kabi shaharlarda kulolchilik,

temirchilik, zargarlik, to'qimachilik va yog'ochsozlik kabi hunar turlari keng rivojlangan.

Hunarmandchilik mahsulotlari ichki bozorda aholi ehtiyojlarini qondirish bilan birga, tashqi savdo munosabatlarida ham muhim rol o'ynagan. Xiva xonligi hududi orqali o'tgan savdo yo'llari hunarmandchilik mahsulotlarining qo'shni davlatlarga eksport qilinishiga imkon yaratgan. Bu esa xonlik iqtisodiy barqarorligining ta'minlanishiga va shaharlarning iqtisodiy taraqqiyotiga xizmat qilgan.

So'nggi yillarda Xiva xonligi iqtisodiy tarixini o'rganishga qiziqish ortib borayotgan bo'lsa-da, hunarmandchilik sohasining iqtisodiy rivojdagi o'rni yetarli darajada tizimli tahlil qilinmagan. Mazkur ilmiy ishda hunarmandchilikning xonlik iqtisodiy hayotidagi o'rni, uning shahar xo'jaligi, savdo aloqalari va aholi bandligini ta'minlashdagi ahamiyati ilmiy manbalar asosida yoritib beriladi.

Adabiyotlar tahlili. Xiva xonligi iqtisodiy hayotini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar asosan xonlikning siyosiy tuzumi, ijtimoiy munosabatlari va savdo aloqalarini yoritishga qaratilgan. Jumladan, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida yaratilgan tarixiy manbalarda Xiva xonligi shaharlari va ularning xo'jalik hayoti haqida muhim ma'lumotlar uchraydi. Munis va Ogahiy asarlarida hunarmandchilik tarmoqlari, ustalar faoliyati va ishlab chiqarish jarayonlari haqida qimmatli tarixiy dalillar keltirilgan [1, 45–47].

Sovet davrida olib borilgan tadqiqotlarda Xiva xonligi iqtisodiyoti marksistik metodologiya asosida talqin qilingan bo'lib, unda hunarmandchilik asosan feodal ishlab chiqarish shakli sifatida baholangan. Jumladan, V.V. Bartold va A.Yu. Yakubovskiy asarlarida Xorazm hududida hunarmandchilikning rivojlanish omillari, shahar iqtisodiyotidagi o'rni va savdo bilan bog'liqligi tahlil qilingan [2, 112–115]. Ushbu tadqiqotlar tarixiy jarayonlarni umumiy tarzda yoritgani bilan ahamiyatlidir.

Mustaqillik yillarida Xiva xonligi tarixini qayta ilmiy asosda o'rganish imkoniyati paydo bo'ldi. O'zbekistonlik olimlar tomonidan chop etilgan ilmiy ishlar va monografiyalarda hunarmandchilikning ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi roli yanada kengroq yoritila boshlandi. Xususan, R. Abdullayev va Sh. Kamoliddinov tadqiqotlarida hunarmandchilik tarmoqlarining shahar infratuzilmasi, bozor munosabatlari va aholi bandligini ta'minlashdagi ahamiyati ochib berilgan [3, 78–82].

Shu bilan birga, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Xiva xonligida hunarmandchilik sohasining iqtisodiy rivojdagi o'rni kompleks tarzda, tizimli yondashuv asosida yetarli darajada o'rganilmagan. Aksariyat tadqiqotlarda hunarmandchilik masalasi umumiy tarixiy jarayonlar doirasida yoritilib, uning iqtisodiy samaradorligi va bozor munosabatlariga ta'siri chuqur tahlil qilinmagan. Mazkur holat ushbu mavzuni alohida ilmiy tadqiqot obyekti sifatida o'rganish zarurligini ko'rsatadi.

Muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Xiva xonligi iqtisodiyotida hunarmandchilik sohasi shahar iqtisodiy tizimining asosiy

bo'g'inlaridan biri bo'lgan. Hunarmandchilikning gilamchilik, temirchilik, misgarlik, yog'ochchilik va ipakchilik kabi tarmoqlari nafaqat ichki bozorni ta'minlagan, balki qo'shni shaharlarga va boshqa xonliklarga savdo mahsulotlari yetkazilishida muhim rol o'ynagan [2:45; 6:41]. Ushbu tarmoqlar shahar ichki daromadining asosiy manbai sifatida shahar iqtisodiy barqarorligini ta'minlagan [3:78; 5:34].

Shahar iqtisodiyoti va aholi bandligini ta'minlashda hunarmandchilikning ijtimoiy ahamiyati ham katta bo'lgan. Tadqiqot natijalari ko'rsatadiki, hunarmandchilik orqali aholi doimiy daromad manbaini olgan, bu esa shaharlararo savdo aloqalarini rivojlantirish bilan birga shahar ichki iqtisodiy barqarorlikni ham mustahkamlashga xizmat qilgan [4:12; 8:19].

Shuningdek, hunarmandchilik tarmoqlarining shahar ichki iqtisodiyotiga integratsiyasi, soliq tizimi va savdo aloqalariga qo'shgan hissasi shahar iqtisodiy barqarorligining muhim omili sifatida namoyon bo'lgan. Natijada, Xiva xonligida hunarmandchilik nafaqat iqtisodiy samaradorlik, balki ijtimoiy va madaniy taraqqiyot jarayonida ham markaziy rol o'ynagan [1:23; 10:41].

Hunarmandchilik tarmoqlari Xiva xonligi iqtisodiyotining barqarorligi va shaharlararo savdo aloqalarini rivojlantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qilgan. Shu bilan birga, hunarmandchilik sohasidagi ishlab chiqarish va savdo jarayonlarini tizimli o'rganish Xiva xonligi iqtisodiy tarixini yanada to'liq yoritishga imkon beradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Xiva xonligi iqtisodiyotida hunarmandchilik tarmoqlari – gilamchilik, temirchilik, misgarlik, yog'ochchilik va ipakchilik – shahar ichki va tashqi iqtisodiy tizimlarni barqarorlashtirishda asosiy rol o'ynagan. Hunarmandchilik mahsulotlari ichki bozorni ta'minlagan, shuningdek Buxoro, Samarqand va Qo'qon kabi shaharlar bilan savdo aloqalarini rivojlantirgan [2:45; 6:41]. Shahar aholisi hunarmandchilik orqali daromad manbaiga ega bo'lib, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlagan. Hunarmandchilik tarmoqlarining ishlab chiqarish va savdo jarayonlari shahar iqtisodiy barqarorligi va madaniy hayotning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etgan [3:78; 5:34]. Shu bilan birga, Xiva xonligida hunarmandchilik sohasining iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati boshqa Markaziy Osiyo shaharlaridagi tizimlar bilan solishtirganda o'zining xilma-xilligi va ishlab chiqarish hajmi bilan ajralib turadi. Natijada, hunarmandchilik Xiva xonligi iqtisodiy rivojining strategik jihati bo'lib, shahar va hudud iqtisodiy barqarorligiga sezilarli hissa qo'shgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sobirov M. Xiva Xonligi tarixi va iqtisodiyoti. – Toshkent: Fan, 2015.
2. Karimov A. Markaziy Osiyo shaharlarida hunarmandchilik. – Samarqand: O'qituvchi, 2017.
3. Ismoilov R. Xiva Xonligi va savdo yo'llari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2016.
4. Rasulov B. O'zbekiston tarixida shahar iqtisodiyoti. – Toshkent, 2018.
5. Akbarov S. Hunarmandchilik va ijtimoiy rivojlanish. – Buxoro: Tarix, 2019.

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI TUZILMASIDAGI QATAG'ON QURBONLARI XOTIRASI MUZEYI FONDINING SHAKLLANISHI VA AHAMIYATI

Niyozmetova Go'zal Baxtiyorovna

UrDU tuzilmasidagi "Qatag'on qurbonlari xotirasi" muzeyi fond saqlovchisi,
Urganch Innovatsion universiteti magistranti

E-mail: guzalniyazmetova0@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tezis Urganch davlat universiteti tuzilmasida faoliyat yuritayotgan Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeyi fondining shakllanishi, tarkibiy tuzilishi va ilmiy-axborot salohiyatini tahlil qiladi. Tadqiqotda muzeyshunoslik va manbashunoslik yondashuvlari qo'llanib, fond hujjatlarining hisobga olinishi, tavsiflanishi va ilmiy muomalaga kiritilishi muammolari yoritiladi. Ilmiy yangilik fond materiallarini universitet muhitida ta'lim va tadqiqot bilan integratsiyalash mexanizmlarini asoslashdir.

Kalit so'zlar. muzey fondi, qatag'on qurbonlari xotirasi, fondni hisobga olish, inventar, manbashunoslik, muzeyshunoslik, universitet muzeyi.

Аннотация. В тезисе анализируется фонд Музея памяти жертв репрессий в структуре Ургенчского государственного университета: его формирование, состав и научно-информационный потенциал. Используются подходы музееведения и источниковедения, рассмотрены вопросы учета, описания и введения материалов фонда в научный оборот. Научная новизна связана с обоснованием механизмов интеграции фондовых материалов в университетское образование и исследования.

Ключевые слова. музейный фонд, память жертв репрессий, учет фонда, инвентаризация, источниковедение, музееведение, университетский музей.

Annotation. This thesis analyzes the collection of the Museum of Memory of Repression Victims within Urgench State University, focusing on its formation, composition, and research potential. Using museological and source-studies approaches, it examines registration, description, and scholarly circulation of collection items. The novelty lies in substantiating mechanisms for integrating the collection into university-based teaching and research practices.

Key words. museum collection, memory of repression victims, collection registration, inventory, source studies, museology, university museum.

KIRISH. O'zbekistonda tarixiy xotirani ilmiy asosda saqlash va avlodlar uchun ishonchli manbalar majmuini yaratishda muzey fondlari alohida o'rin tutadi. Urganch davlat universiteti tuzilmasidagi Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeyi fondi shunday murakkab vazifani bajaradi: bir tomondan, qatag'on davri bilan bog'liq hujjatli va ashyo manbalarni jamlash hamda saqlashni, ikkinchi tomondan, ularni akademik muomalaga kiritish orqali tarixiy bilimni boyitishni ko'zlaydi. Fond tarkibida O'zbekiston Markaziy davlat arxivi, Ichan-qal'a fondi va shaxsiy arxivlardan to'plangan materiallar, shu jumladan 1937-yildagi

deportatsiya materiallari mavjud. Mazkur tezisdagi fondni oddiy yig'ma sifatida emas, balki ilmiy-axborot tizimi sifatida talqin qilish maqsad qilinadi, chunki fondning qiymati predmetlarning o'zi bilangina belgilanmay, ularning kelib chiqishi, tavsiflanishi va foydalanish rejimi bilan ham aniqlanadi.

Tadqiqotning metodologik asosi muzeyshunoslik va manbashunoslikning o'zaro tutash yondashuvlariga tayanadi. Muзейshunoslik fondni komplektlash, hisobga olish, saqlash va ekspozitsiya bilan munosabatda ko'rishni talab etadi, manbashunoslik esa har bir birlikning kelib chiqishi, muallifligi, yaratilish sharoiti, aniqlilik darajasi va axborot sig'imini tekshiradi. Ayniqsa, qatag'on mavzusidagi fondlarda hujjatlar va shaxsiy buyumlarning ma'naviy-psixologik yuklamasi yuqori bo'lgani uchun, ilmiy betaraflik, terminologik aniqlik va etik me'yorlar muhim metodik shartga aylanadi. Shu nuqtai nazardan, muzey fondi bilan ishlash GOST talablari asosidagi bibliografik va arxiv tavsif standartlari bilan hamohang yuritilganda, keyingi tadqiqotlar uchun qayta tekshiriladigan, solishtiriladigan va qayta foydalaniladigan manba bazasi yuzaga keladi [5]. Fond siyosatini shakllantirishda esa muzeyning universitet tarkibida joylashgani, ya'ni kadrlar, laboratoriyalar, axborot-resurs markazlari va o'quv jarayoni bilan bevosita aloqadorligi metodik ustunlik beradi [4].

Muzey fondining shakllanishi ko'p kanalli jarayon bo'lib, unda asosiy manbalar sifatida hujjatlar, fotoalbomlar, xatlar, tarjimai hol materiallari, nashrlar, shaxsiy buyumlar hamda og'zaki tarix yozuvlari ajralib turadi. Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeyi fondi mazmunan shaxsiy kelib chiqishdagi manbalarga tayanadi, chunki ko'plab materiallar avlodlar tomonidan saqlangan va keyinchalik muzeyga topshirilgan bo'ladi. Bunday manbalar bilan ishlashda ularning kelib chiqish zanjiri, ya'ni provenance tamoyili va dastlabki kontekstini qayta tiklash muhim: masalan, bir xatning axborot qiymati matnidan tashqari, qachon, kimga, qaysi sharoitda yozilgani, qaysi yo'l bilan saqlanib qolganiga ham bog'liq. Shuningdek, fondning ilmiy salohiyati u yerda faqat noyob predmetlar jamlangani bilan emas, balki ularning seriyaliligi, tipologik to'liqligi va ma'lumotlarning tekshiruvchanligi bilan ham belgilanadi. Agar fond bir shaxsning hayoti bo'yicha uzluksiz hujjatlar qatorini taqdim etsa, u holda mikrohistorik rekonstruksiya qilish imkoniyati kengayadi; agar fond turli shaxslar taqdirini bir mavzu atrofida jamlasa, u holda qiyosiy tahlil va ijtimoiy tarix usullari samarali ishlaydi [6].

Fond tarkibini ilmiy tahlil qilishda uni shartli ravishda bir nechta blokka ajratib ko'rish maqsadga muvofiq: hujjatli manbalar, ikonografik materiallar, bosma nashrlar, memorial buyumlar va audio-video yozuvlar. Hujjatli blokka rasmiy ma'lumotnomalar, qaydlar, qaror nusxalari, shaxsiy arizalar, tarjimai hol varaqalari, kundaliklar va maktublar kiradi. Ikonografik materiallar esa fotosuratlar, portretlar, turli davrga oid guruh suratlari hamda joy tasvirlarini qamrab oladi. Bosma manbalarning fondga kiritilishi alohida masala bo'lib, ular bir tomondan, kontekst beruvchi ikkilamchi adabiyot vazifasini bajaradi, boshqa tomondan, o'z davrining axborot siyosatini aks ettiruvchi manba sifatida ham

ko'riladi. Memorial buyumlar toifasi ilmiy jihatdan eng murakkab bo'lib, ularning atribusiyasi, ya'ni buyumning kimga tegishliligi, qachon va qanday ishlatilgani, asl yoki keyingi davr nusxasi ekani sinchiklab aniqlanishi zarur [4]. Audio-video yozuvlar esa og'zaki tarix metodini qo'llashga imkon beradi, biroq bunday materiallar bilan ishlashda intervyu metodikasi, rozilik, shaxsiy ma'lumotlarni muhofaza qilish hamda transkripsiya sifatiga doir talablar qat'iy bo'lishi kerak.

Fondning ilmiy qiymatini belgilovchi asosiy bo'g'in hisobga olish va tavsiflash tizimidir. Shu sababli, muzey fondida inventar raqami, kelib tushish manbai, qisqacha tavsif, o'lcham, material, texnika, saqlanish darajasi, restavratsiya izlari, hujjatlashtiruvchi foto hamda foydalanish cheklovlari kabi maydonlar to'liq yuritilishi zarur. Ayniqsa, qatag'on davriga oid hujjatlar ko'pincha nusxa, ko'chirma yoki keyinroq tiklangan material bo'lgani uchun, autentiklik va ishonchlilik darajasi alohida ko'rsatkich sifatida qayd etilishi lozim. Manbashunoslik mezonlariga ko'ra, bitta faktni tasdiqlash uchun kamida ikki turdagi manbani solishtirish samarali: masalan, shaxsiy xat mazmuni rasmiy qayd yoki matbuot material bilan taqqoslanganda, voqelikni tiklash aniqroq bo'ladi [1]. Bu yondashuv muzey fondini faqat "xotira saqlagichi" emas, balki tekshiruvchan ilmiy laboratoriya sifatida ko'rishga olib keladi.

Urganch davlat universiteti tuzilmasidagi Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeyi fondining alohida afzalligi shundaki, u talabalarning manba bilan ishlash kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Tarix, filologiya, huquq va muzeyshunoslikka yaqin yo'nalishlarda fond materiallari asosida kurs ishlari va bitiruv malakaviy ishlari mavzularini ishlab chiqish mumkin. Bunda fond predmetlari o'quv jarayoniga "tayyor hikoya" sifatida emas, balki tahlil obyekti sifatida kiritilganda natija sifatli bo'ladi: talaba hujjatni o'qiydi, kontekstini tiklaydi, terminlarni aniqlaydi, muqobil manbalar bilan solishtiradi, bibliografik izlanish qiladi va yakunda xulosani dalillashni o'rganadi. Xalqaro muzey amaliyotida universitet muzeylari aynan shunday kompetensiyaga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi; ular jamiyat bilan aloqani ham tadqiqot natijalarini ommalashtirishning ilmiy shakllari orqali yo'lga qo'yadi [6]. Mazkur fondni raqamlashtirish va ma'lumotlar bazasini yaratish esa ilmiy izlanishlar tezligini oshiradi, lekin raqamli nusxa asl manbaning o'rnini bosa olmasligi, u faqat kirishni yengillashtirishi hamda saqlash risklarini kamaytirishi haqida metodik tushuncha shakllantirilishi shart [7].

Fondni boshqarish va rivojlantirishda bir qator muammolar ham mavjud bo'lishi ehtimol. Birinchidan, kelib tushayotgan materiallarning huquqiy maqomi: topshirish shartnomalari, mualliflik huquqi, shaxsiy ma'lumotlar bilan ishlash tartibi aniq bo'lishi kerak. Ikkinchidan, saqlash sharoitlari: qog'oz hujjatlar uchun harorat-namlilik rejimi, yorug'likdan himoya, zararkunandalarga qarshi profilaktika, favqulodda vaziyat rejalari kabi omillar tizimli yo'lga qo'yilmasa, fondning fizik barqarorligi izdan chiqadi. Uchinchi muammo ilmiy tavsiflashning yagona terminologiyasini ishlab chiqish bilan bog'liq: ayniqsa,

tarixiy davr atamalarini ishlatishda bir xil yondashuv bo'lmasa, kataloglash natijalari qidiruvda va ilmiy muomalada nomuvofiqlik keltirib chiqaradi. Shu ma'noda, muzeyshunoslik nazariyasida tavsiya etilgan klassifikatsiya va katalog standartlarini mahalliy fond xususiyatlariga moslashtirish dolzarbdir [4]. To'rtinchidan, fond va ekspozitsiya o'rtasidagi muvozanat: ekspozitsiya ko'proq tanlangan materialni ko'rsatadi, fond esa to'liqlikni saqlaydi; ilmiy tadqiqot nuqtai nazaridan fondning "ko'rinmas" qismi ham eng katta axborot zaxirasiga ega bo'lishi mumkin.

Mazkur tezis doirasida fondning ilmiy-axborot salohiyatini oshirish uchun uch yo'nalish asosli deb qaraladi: birinchisi, fond birliklarini manbashunoslik ekspertizasidan o'tkazib, ularning kelib chiqish zanjiri va aniqlik darajasini pasportlarda aniq qayd etish; ikkinchisi, raqamlashtirish bilan birga tavsiflashning nazorat qilinadigan lug'atini yaratish, ya'ni shaxs nomlari, geografik nomlar, tashkilotlar va mavzu rubrikalari bo'yicha yagona tizimini joriy etish; uchinchisi, universitetning o'quv va ilmiy loyihalarini fond bilan bog'lovchi amaliy mexanizmlarni ishlab chiqish, masalan, fond materiallari asosida seminar-treninglar, manba tanqidiga bag'ishlangan laboratoriya mashg'ulotlari va ilmiy kataloglar tayyorlash. Bunday yondashuvlar fondni "saqlanadigan" resursdan "ishlaydigan" resursga aylantiradi, ya'ni u ilmiy natija beradigan muhit sifatida yashaydi [2; 6].

Urganch davlat universiteti tuzilmasidagi Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeyi fondi universitet muzeyi modelida ilmiy xotira infratuzilmasining muhim bo'g'ini sifatida namoyon bo'ladi. Fondning qiymati uning to'planishi bilan cheklanmay, manbalarning kelib chiqishi, tavsiflanishi, saqlanishi va ta'lim hamda tadqiqot bilan bog'lash orqali ochiladi. Tadqiqot fondni ilmiy muomalaga kiritish uchun manbashunoslik ekspertizasi, shuningdek raqamlashtirishning metodik-me'yoriy asoslarini uyg'un qo'llash zarurligini asoslaydi. Natijada fond materiallari tarixiy bilimni chuqurlashtiradigan, talabalarda manba bilan ishlash madaniyatini rivojlantiradigan barqaror resursga aylanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Rajabov Q. O'zbekiston tarixi: sovet davri (1917–1991 yy.). Toshkent: Universitet, 2019. 416 b.
2. Alimuhamedov R. Muzeyshunoslik asoslari. Toshkent: Fan, 2017. 248 b.
3. Шмидт С. О. Источниковедение: теория и метод. Москва: Высшая школа, 2003. 384 с.
4. Зыков А. В. Музееведение: учебник. Санкт-Петербург: Лань, 2018. 320 с.
5. GOST 7.1–2020. Bibliografik yozuv. Bibliografik tavsif. Umumiy talablar va tuzish qoidalari. Moskva: Standartinform, 2020. 74 b.
6. Macdonald S. A Companion to Museum Studies. Malden: Blackwell Publishing, 2006. 560 p.
7. Conway P. Preservation in the Age of Google: Digitization, Digital Preservation, and Dilemmas. Washington, DC: Council on Library and Information Resources, 2010. 44 p.

TURKISTONDA NEFT – KON SANOATI TARIXIDAN MA'LUMOTLAR (XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLAGI)

Kucharov Jamshid Kulnazarovich

QarDU “O'zbekiston tarixi” kafedrasida dotsenti

Nurllayev Mansurbek Atabayevich

Urganch innovatsion universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Turkiston to'plami” materiallarining O'rta Osiyoda XIX asr oxiri – XX asr boshlarida neft – kon sanoati tarixini o'rganishdagi muhim manbaviy ahamiyati tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Neft, Farg'ona nefti, bug' mashinasi, burg'ulash, aksionerlik jamiyati, zamonaviy texnologiya, neft hukumlari, kerosin, neftni qayta ishlash zavodi, “Rothschild” shirkati, kon muhandisi, neft krizisi, neft narxi, Qo'qon aroba, neftoprovod, temir yo'l.

Аннотация: В данной статье анализируется важное источниковедческое значение материалов «Туркестанского сборника» в изучении истории нефтедобывающей промышленности в Средней Азии в конце XIX – начале XX веков.

Ключевые слова: нефть, ферганская нефть, паровая машина, бурение, акционерное общество, современные технологии, нефтяные промыслы, кerosin, нефтеперерабатывающий завод, компания «Ротшильд», горный инженер, нефтяной кризис, цена на нефть, кокандская арба, нефтепровод, железная дорога.

Abstract: This article analyzes the significant source value of the materials of the “Turkestan Collection” in studying the history of the oil mining industry in Central Asia in the late 19th and early 20th centuries.

Keywords: oil, Fergana oil, steam engine, drilling, joint-stock company, modern technology, oil fields, kerosene, oil refinery, Rothschild company, mining engineer, oil crisis, oil price, Kokand cart, oil pipeline, railway.

Tarixdan ma'lumki, Turkiston mintaqasida qadim zamonlardan buyon neft xom ashyosidan foydalanib kelingan. Neft, ya'ni “qora oltin” bugungi kunda ham strategik tabiiy resurs, foydali qazilma sifatida o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda. Bu borada Markaziy Osiyo mintaqasini Fors ko'rfazi bilan qiyoslanayotganligi alohida e'tiborga molik. Markaziy Osiyo, Kaspiy dengizi va Orol havzasida aniqlangan neft zahiralari 27 mlrd tonnani tashkil etib, shuning 8,5 mlrd tonnadan ortig'i Markaziy Osiyoga tegishlidir. Zamonamizga kelib, Turkistonda aniqlangan va topilgan neft zahiralari 6,3 mlrd tonnani, Qozog'istondan 2,2 mlrd tonnani, O'zbekistonda 0,3 mlrd tonnani tashkil etayapti.

O'zbekistonda zamonaviy neft – kon sanoati shakllanishi va dastlabki taraqqiyoti masalalarini “Turkiston to'plami” (“Turkestanskiy sbornik”) dan o'rin olgan manbaviy ma'lumotlar orqali ilmiy – nazariy jihatdan imkon qadar tahlil qilish maqsadi ko'zlandi.

“Neft” arabcha atama bo‘lib, “nafta”, “neth” kabi so‘zlardan olingan va “qaynatmoq” degan ma‘no beradi. O‘rta Osiyoda qadimgi zamonlardayoq o‘zi otilib chiqadigan neft buloqlaridagi bu xom ashyoni olib, undan yonilg‘i, har xil yaralarga surkaladigan shifobaxsh malham, hayvonlarni davolashda, harbiy maqsadlarda, naftandoz, manjanaq mashinalarni harakatga keltirishda, qal‘a va shaharlar himoyasida qozonlarda qaynab turgan neftni dushman ustiga quyishda, olov qilib otishda, kerosin olishda, aravalarni gunchagini yog‘lashda, yorug‘lik hosil qilishda, “nafti beqasam”, “qora nafti” “Chimyon nafti” kabi matolar tayyorlashda foydalanilgan. Mahmud Qoshg‘ariyning XI asrda yozilgan “Devoni lug‘otit turk” asarida neftning mahalliy nomi – “Qora yog‘” haqida ma‘lumot beriladi. Keyinchalik mahalliy tarixchilar tomonidan yozilgan kitoblarda: neft – “Yer yog‘i”, “Qora zabut yog‘i”, “Qora yog‘” kabi atamalar bilan eslatib o‘tiladi.

“Turkiston to‘plami” dan o‘rin olgan o‘nlab maqolalarda va xabarlarda Turkistondagi neft konlari va neft sanoati tarixiga qaratilgan ma‘lumotlar mavjudligi mazkur fikrni tasdiqlaydi. To‘planning turli tomlaridagi manbaviy xarakterga ega materiallar bilan tanishilganda, shunga amin bo‘ldikki, ularda asosan Farg‘ona nefti va neft sanoati muammolariga e‘tibor qaratilgan.

Rossiya va xorijdan neft kon muhandislarining vodiya kelishi esa, hali Qo‘qon xonligi tugatilmagan davrga to‘g‘ri keladi. Mahalliy tarixchi Muhammad Aziz Marg‘iloniy “Tarixi Aziziy” nomli asarida 1875 yilda “o‘ris do‘xtiri” (kapitan German) ga Marg‘ilon uyezdida neft konlarini qidirishga xon shaxsan ruxsat bergani, u Chimyon va Oltiariqda ravg‘an (neft) ni topgani, o‘nlab usta va mardikorlarni ishlatib, mashinalar yordamida neft olgani, uning vafotidan so‘ngra farang ustalar (bu yerda Angliyadan, Rossiya imperiyasiga kelgan tadbirkorlar: Lyudvig, Robert, Alfred, Emmanuel Nobellar nazarda tutiladi) katta foyda olganligini qayd etadi. “Neft necha xazinalarning biri bo‘lib, tobora obod bo‘lib, Oltiariq va Chimyon shahri azim bo‘ldi [1,313] ” – deb yozgandi Muhammad Aziz Marg‘iloniy.

“Turkiston to‘plami” da Farg‘ona neftini qazib olish va qayta ishlashga e‘tiborning XIX asr 90 – yillari oxirida kuchayganligi qayd etilgan. Rus muhandisi A. N. Kovalevskiy Qo‘qon aravada 1898 yil Chimyonga yetib keladi. Chimyonda neft zahiralari bisyor ekanligiga ishonch hosil qilib, razvedka ishlarini boshlab yuboradi. 1901 – 1904 yillarda, bu ishda tadbirkor Mixaylov ham ishtirok etib, Chimyon va moylisoydan neft otilib chiqadi. Chimyon neft konidan bug‘ energiyasi yorlamida 1904 yilda 278 metr chuqurlikdagi quduq kovlangan. Dastlab, ya‘ni 1901 – yilda “Farg‘ona neft shirkati” tuzilgan edi. 1904 yilda esa bu shirkat “Chimyon tog‘ neft sanoati” shirkatiga aylantirilgan[2,28].

To‘plamda bosilgan materiallar neft – kon sanoati bilan bog‘liq bir qator qirra va jihatlarini o‘zida mujassamlashtirgan. Jumladan,

- neft konlarini qidirib topish ishida rus muhandislari, shirkat va aksionerlik jamiyatlarining ishtiroki masalalari ochib berilgan.

- neft kon – sanoatini yangi texnologiya bilan ta'minlash, zamonaviylashtirish, xom ashyoni qayta ishlashga qaratilgan zavodlar qurish faoliyati bilan bog'liq jarayonlar tahlili keltirilgan.

- jahonda va Turkistonda neftdan olinayotgan mahsulot turlari, ular miqdorining aholi jon boshiga taqsimotiga to'g'risidagi ma'lumotlar mavjud.

- XX asr boshlarida Farg'ona vodiysidan neft qazib olish miqdori, uning istiqboldagi vazifalari haqidagi fikrlar mujassamlashgan.

- o'lkada neft qazib olish muammolari hamda, yechimlariga yo'naltirilgan mulohazalarga boy maqolalar jamlangan.

Tarixiy ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, Turkistonda bir yilda 4 mln pud, keyinchalik yangi ochilgan konlar hisobiga yilida 8 – 10 mln pud neftni qazib olish va qayta ishlash rejalashtirilgan[3,42]. Biroq Chimyondan qazib olingan neft hajmi yiliga 2,5 – 3 mln puddan oshmagan. Rossiya imperiyasi hukumatining rejasiga ko'ra 4 mln pud neftdan 100.000 pud oliy sifatli benzin olish ko'zda tutilgandi[4,95].

Farg'onadagi Moylisoy neft konlarini hukumatdan ijaraga olish uchun "Kaspiy va Qora dengiz neft kompaniyasi" ("Rotshild"), general Tranze, sobiq aloqa vaziri M. I. Xilkovlar tender (kim oshdi savdosi) da qatnashishgan. Bu musobaqaga Bokudan kelgan firmalarning geologlari ham ishtirok etgan[5,69].

Tog' – kon muhandisi A. P. Mixaylov, akademik O. N. Chernishev Moylisoyda neft qidirib, burg'ulash ishlarini olib borishgan, ular faoliyati natijasida 1903 yil qishida 78 sajen chuqurlikdan neft otilib chiqqan. Moylisoydan chiqqan neftning bir pudi 5 kopeykdan sotilgan. M. I. Xilkov "musobaqa"da g'olib kelib, 9.000 rubl ijara puli, 50.000 rubl neftoprovod o'tkazish uchun garov pulini hukumatga to'lagan[6,87].

Xullas moylisoydagi 40 desyatina yerda neft borligi aniqlangan yer uchun Moskvadagi Rotshild kompaniyasi, Jukovski jamiyati, knyaz Xilkov va general – leytenant Tranze o'rtasida "musobaqa" ga bag'ishlab "Turkiston to'plami" da o'nlab xabar va maqolalar bosilgan. Qo'qon uyezdi Qamishboshi manzilgohida neft qazib olish uchun 1901 yilda ota – o'g'il D. I. Petrov va D. D. Petrovlar yetib kelishgan. Ular uchta quduq kovlab, uchinchi quduqdan 20 – 30 sajen chuqurlikda neft topishgan, keyinchalik esa o'zlariga tegishli yerlarini Bokudagi "Bitum" jamiyati tog' – muhandisi G. G. Artyunovga sotishgan. A. P. Mixaylov ham Qamishboshida neft konlarini ochgan. Savdogar A. I. Zigel, "Nadejda" kompaniyasi vakili I. I. Jarin, kon muhandisi P. N. Semichovlar turli kompaniyalarda ishlab yangi neft konlarini ochishgan[7,54].

Turkistonning neftga boy bir qator qishloqlaridagi konlarni ochishda, kichik korxonalar qurib, neft xom ashyosi olish ishlarida "Borisov" (Qamishboshida), "Rishton jamiyati", "Turkiston jamiyati" (ikkalasi ham Rishtonda), 2 ta "Bitum" jamiyati filiallari (Qamishboshida), "Vladimir Alekseyev va K0 savdo uyi" (Roxo qishlog'ida), Kuxonovning "O'rta Osiyo neft ishlab chiqarish jamiyati" (Roxo qishlog'ida), "Nobel uyushmasi", "Chimyon neft ishlab chiqarish jamiyati" (Chimyonda) kabilar qatnashdi.

“Turkiston to‘plami” da Farg‘ona nefti Boku neftidan tarkibi jihatdan farq qilishi, uning tarkibida 5 foiz parafin mavjudligi, Rossiya imperiyasi parafinni chet eldan bir pudini 8 rublga sotib olayotganligi, agar Farg‘ona neftidan parafin olish yo‘lga qo‘yilsa, bu summa, 1,5 rubl xarajatni tashkil etish haqida bahs yuritiladi. Holbuki, Moylisoyda kerosin zavodlari qurish orqali, 1000 pud neftdan 30 pud parafin, qo‘shimcha 90 rubl daromad olish mumkinligi ham qayd etilgan. Farg‘ona neftidan kerosin, benzin, mazut, bitum, vazelin, parafin olingan. Parafin Rossiya ehtiyojlari uchun zarur bo‘lsa, mazutga chet elda talab katta edi[8,53].

Rossiya hukumatining Turkiston neftiga qiziqishi omillaridan biri, kavkaz neftini qazib olishning XX asr boshlariga kelib kamayishi ham edi. Quyida keltiriladigan jadval bu fikrimizni yorqinlashtiradi[9,120].

Yillar	Shim. Amerika	Galitsiya	Ruminiya	Niderlandiya	Kavkaz	Hindiston
1900	509	20	15	-	600	1144
1901	551	28	17	-	671	1267
1902	716	36	19	56	636	1453
1903	804	45	24	63	598	1570
1904	953	50	31	62	614	1710
1905	1050	50	38	74	410	1622

“Turkiston to‘plami” da Farg‘ona vodiysida neft konlarini o‘zlashtirish, neft qazib olish va qayta ishlash sanoatini taraqqiy ettirish bir qator muammolarga ham duch kelinganligi bilan bog‘liq muhim dalil va ma‘lumotlar uchraydi.

Xullas, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda zamonaviy texnologiya asosida tog‘ – kon sanoatini yaratish uchun amaliy harakatlar bo‘lgandi. “Kon - zavod” ishlab chiqarishini yo‘lga qo‘yish orqali neft sanoatini rivojlantirib, o‘lkadan yirik foyda olishni ko‘zlagan Rossiya imperiyasining maqsadlari to‘la ro‘yobga chiqmadi. Bir qator obektiv va subyektiv omillarga ko‘ra zamonaviy texnologiya asosida neft ishlab chiqarish sanoat kompleksi yaratilmadi. Biroq, neft konlarini bug‘ mashinasi yordamida burg‘ulash texnologiyasi orqali qazish, kerosin, neftni qayta ishlaydigan kichik korxona va zavodlar qurish, neft tarkibidan olinadigan mahsulotlar sonini ko‘paytirish, bu xom ashyoni omborlarda saqlash, temir yo‘l transporti orqali tashish ishlarida ijobiy siljishlar yuz berdi. “Turkiston to‘plami” dagi ma‘lumotlar esa, neft qazib olish tarixini o‘rganish uchun muhim manba bo‘la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Мухаммад Азиз Марғилоний. Тарихи Азизий/нашрга тайёрловчилар, сўзбоши ва изохлар муаллифлари: Ш. Воҳидов, Д. Сангирова. – Т.: Маънавият. 1999. – 313 б.
2. Фарғона вилоятидаги нефт ишлаб чиқариш корхонаси//Туркестанский сборник – Том. 465.С-28.
3. Нефт саноати//Туркестанский сборник – Том. 472.С-42.

4. И.П.С. Чимён акционерлик жамиятининг бир йиллик йиғилиши//Туркестанский сборник. – Том. 435.С-95.
5. М. И. Хилковга Фарғонадаги нефтли ерларни топишириш//Туркестанский сборник – Том. 434.С-69.
6. Нефт учун ҳаракат//Туркестанский сборник – Том. 428.С-87.
7. Иванович С. Англичани в туркестане//Туркестанский ведомости. 1912. - № 41.С-54.
8. Фарғона вилоятида нефт ишлари//Туркестанский сборник – Том. 422.С-53.
9. Туркистон ўлкасида янги нефт корхоналари//Туркестанский сборник - Том. 442. С-120.

XORAZMDA BESHIK TO'YI: MAROSIM MADANIYATI VA DINIY QARASHLAR TALQINI

Otaboyeva Ro'za Qahramon qizi

Urganch innovatsion universiteti

“Tarix” ta’lim yo’nalishi 23/02-guruhi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xorazm hududida beshik va beshik to'yi marosimlarining diniy, tarixiy hamda madaniy ildizlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda marosimning bola parvarishi, ramziy bezaklari, ijtimoiy va oilaviy ahamiyati yoritib beriladi. Beshik to'yi ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan an'ana sifatida madaniy merosni saqlash va oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash vazifasini bajaradi.

Kalit so'zlar: beshik to'yi, Xorazm, diniy ildizlar, madaniy an'ana, bola parvarishi, oilaviy qadriyatlar.

Аннотация: В данной статье с научной точки зрения анализируются религиозные, исторические и культурные корни обычаев, связанных с люлькой и праздником люльки в Хорезмском регионе. В исследовании освещаются вопросы ухода за ребёнком, символического оформления обряда, а также его социальное и семейное значение. Праздник люльки, как традиция, передаваемая из поколения в поколение, выполняет функцию сохранения культурного наследия и укрепления семейных ценностей.

Ключевые слова: праздник люльки, Хорезм, религиозные корни, культурная традиция, уход за ребёнком, семейные ценности.

Abstract: This article provides a scientific analysis of the religious, historical, and cultural roots of cradle and cradle ceremony traditions in the Khorezm region. The study examines child care practices, symbolic decorations, as well as the social and familial significance of the ceremony. The cradle ceremony, as a tradition transmitted from generation to generation, plays an important role in preserving cultural heritage and strengthening family values.

Keywords: cradle ceremony, Khorezm, religious roots, cultural tradition, child care, family values.

Marosimlar har bir jamiyatning madaniy va ijtimoiy hayotida muhim o'rin tutadi. Ular oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash, kishilar o'rtasidagi ijtimoiy aloqalarni rivojlantirish hamda an'analarni yangi avlodga yetkazish vazifasini bajaradi. O'zbek xalqida turli marosimlar mavjud bo'lib, shular orasida yangi tug'ilgan chaqaloq munosabati bilan o'tkaziladigan beshik to'yi alohida ahamiyatga ega. Ushbu marosim jarayonida bolaning sog'ligi, baxt-saodati va oiladagi o'rni uchun ezgu niyatlar qilinadi, duolar o'qiladi hamda qarindosh-urug' va qo'ni-qo'shnilar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar mustahkamlanadi. Beshik to'yi nafaqat oddiy oilaviy tadbir, balki murakkab marosimiy tizim bo'lib, unda qadimiy e'tiqodlar, ramziy buyumlar, marosim qo'shiqlari va duolar mujassam bo'lgan [1, 87].

Globallashuv va zamonaviy ijtimoiy jarayonlar ta'sirida an'anaviy marosimlarning ayrim jihatlari o'zgarib borayotgan bo'lsa-da, Xorazm vohasida beshik to'yi hanuzgacha xalqning madaniy o'zligini ifodalovchi muhim qadriyat sifatida saqlanib kelmoqda. Shu bois mazkur marosimni ilmiy jihatdan tahlil qilish,

uning tarixiy ildizlari, ramziy mazmuni hamda bugungi kundagi ahamiyatini o'rganish dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi.

Beshik to'yi asosan oilada birinchi farzand dunyoga kelishi munosabati bilan o'tkaziladigan qadimiy marosimlardan biridir. An'anaga ko'ra, ushbu marosim chaqaloq tug'ilganidan keyin toq sanalarga to'g'ri keladigan kunlarda, ya'ni 7-, 9-yoki 11-kunlarda amalga oshiriladi. Bu holat xalq tasavvurida toq sonlarning ezgulik va baraka ramzi sifatida qabul qilinishi bilan izohlanadi. Beshik esa chaqaloqning tik yurish davrigacha bo'lgan hayotida asosiy yashash va parvarish makoni hisoblanadi. U nafaqat bolani asrash va tarbiyalashga xizmat qilgan, balki bir necha avlod tajribasi va donishmandligi asosida shakllangan, uch-to'rt avlodni tarbiyalashga qodir noyob madaniy kashfiyot sifatida namoyon bo'ladi [2, 13].

Beshik to'yi marosimining kelib chiqishi masalasida ilmiy adabiyotlarda ikki xil yondashuv mavjud bo'lib, ular diniy va dunyoviy qarashlar bilan izohlanadi. Diniy manbalarda ushbu marosimning ildizlari Muhammad (s.a.v.) payg'ambar davriga borib taqalishi, ya'ni beshik to'yi payg'ambarimiz zamonidan meros bo'lib qolgan an'ana sifatida talqin qilinadi. Dunyoviy, xususan etnografik va tarixiy adabiyotlarda esa beshik to'yi ajdodlardan avlodlarga o'tib kelgan an'anaviy marosim sifatida qaralib, uning shakllanishi xalqning uzoq tarixiy tajribasi bilan bog'lanadi.

Diniy qarashlarga ko'ra, beshik to'yi va bola tug'ilishi bilan bog'liq ayrim marosimlarning ildizi qadimiy diniy rivoyatlar bilan uzviy aloqador. Rivoyatlarga ko'ra, qadim zamonlarda farzandsiz bir badavlat kishi Alloh taolodan avlod ato etishini so'rab, buning evaziga farzandini Uning yo'lida qurbon qilishga va'da beradi. Alloh taolo uning iltijosini qabul qilib, unga o'g'il farzand ato etadi va bolaning ismini Abdulloh deb qo'yadi. Abdulloh voyaga yetgach, otasi bergan va'dasini ado etish masalasida iztirobga tushadi. Shu payt ilohiy nido orqali o'g'li o'rniga tuya qurbonlik qilish buyuriladi. Natijada Abdullohning otasi bir necha tuyani qurbonlik qilib, Alloh taologa shukronalik bildiradi. Mazkur rivoyat asosida bola tug'ilganda sadaqa va qurbonlik qilish odati shakllanib, asrlar davomida xalq an'analari saqlanib kelgan. Keyinchalik Abdulloh Omina ismli ayolga uylanadi va ushbu nikohdan musulmon ummati uchun yuborilgan payg'ambar Muhammad (s.a.v.) dunyoga keladi.

Diniy manbalarda payg'ambarimiz tug'ilgan paytda farishtalar tomonidan yuvintirilgani, oq kiyimlarga o'ralgani hamda undan nur va xushbo'y hid tarqalganligi ta'kidlanadi. Shu sababli chaqaloqni tozalash, o'rash va alohida e'tibor bilan parvarishlash odati muqaddaslik bilan bog'langan. Vaqt o'tishi bilan ushbu amaliyot beshikka belash shaklida mustaqil marosim sifatida shakllanib, beshik to'yi an'anasining diniy asoslaridan biri sifatida talqin qilina boshlagan [3].

Qadimgi davrlardagi beshiklar va beshik to'yi marosimlari shakl va mazmun jihatidan hozirgi zamonaviy beshiklar va marosimlardan sezilarli darajada farq qilgan. Xususan, Xorazm hududida beshiklar asosan tol (oq sovit) yog'ochidan tayyorlangan. Buning asosiy sababi mazkur daraxt turining gigiyenik jihatdan qulayligi, ya'ni qurt tushmasligi, namlikni kam singdirishi hamda chaqaloq salomatligiga zarar yetkazuvchi hid chiqarmasligi bilan izohlanadi. Chaqaloq parvarishida foydalanilgan matolar ham tabiiy mahsulotlardan tanlangan bo'lib, oq rangdagi matolardan kiyim-kechaklar tikilgan. Beshik usti ipak matolardan tayyorlangan yopinchiklar bilan

yopilgan. Chaqaloqqa kiydirilgan ilk kiyim esa mahalliy an'anaga ko'ra "chilla go'ynak" deb atalgan. Ushbu kiyim kindik tushgach, yuvintirish marosimidan so'ng kiydirilgan va bolaning hayotidagi muhim bosqichlardan biri sifatida e'tirof etilgan [4, 141].

Qadimda Xorazm hududida beshik to'yi va bolani parvarishlash marosimlari qat'iy an'anaviy tartibda amalga oshirilgan. Beshikka belashdan oldin, bola tug'ilganidan bir kun o'tib, uning qulog'iga azon aytilib, "Allohu akbar" deb ismi qo'yilgan. Chaqaloq, odatda, doylar tomonidan uy sharoitida tug'dirilgan. Bola yuvintirilganda avval o'ng, keyin chap qo'lga suv quyilib, so'ng og'zi, yuzi, boshi va butun tanasi yuvilgan. Shundan keyin oyoqlari va barmoqlari tozalangan, oq matoga o'ralib, oq kiyimlar kiygizilgan. Beshik bosh tomoni muqaddas qibla tomoniga qaratilib qo'yilgan va bolaning qo'rqqanligi uchun yostiqlashi ostiga non va tuz qo'yilgan [5].

Bola yetti kunlik bo'lganda uning sochi olinib, sochini olgan kishiga "soch o'g'irligi" tariqasida kumush tanga berilgan. Qadimda beshikka belash marosimida Allohning sunnatiga muvofiq bolalar tug'ilgani qayd etilgan. Odatda o'g'il bola tug'ilganida bitta jonliq (qo'y, qo'chqor yoki xo'roz), qiz bola tug'ilganida esa ikki jonliq so'yilgan. Agar bola tug'ilgan paytda sadaqa qilish imkoniyati bo'lmasa, o'g'il bola uylantirilguncha, qiz bola esa uzatilguncha ushbu niyat saqlanib, keyinchalik jonliq so'yib sadaqa qilingan.

Beshikni bezash jarayonida ham ramziy unsurlar muhim o'rin tutgan. Qiz bola tug'ilganida beshik bosh tomoniga sulgun qushining patlari qo'yilgan bo'lsa, o'g'il bola tug'ilganida yog'ochdan o'yib ishlangan, minoraga o'xshash shakl o'rnatilgan. Ushbu bezaklar nafaqat estetik vazifa bajargan, balki yopinchiqni mustahkamlab turish hamda bolaning kelajakdagi ijtimoiy mavqeiini ramziy ifodalash vazifasini ham bajargan.

Hozirgi davrda esa beshik marosimi kelinning ota-onasi tomonidan bo'g'irsoq, patir, shirinliklar va boshqa sovg'alar bilan olib kelinadi. Shuningdek, kelinning ota-onasi qiziga, kuyovga hamda ularning ota-onalariga sarpolar tayyorlaydi. An'anaga ko'ra, beshik ko'pincha qo'chqor bilan birga keltiriladi [6].

Xulosa qiladigan bo'lsak, Xorazm hududida beshik va beshik to'yiga oid urf-odatlar nafaqat bolani parvarishlash va himoya qilishga, balki xalqning diniy, tarixiy va madaniy tajribalarini mujassam etishga xizmat qiluvchi murakkab marosimiy tizim ekanligini ko'rsatadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, beshik to'yi marosimi diniy va dunyoviy ildizlarga ega bo'lib, ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan muhim madaniy meros hisoblanadi. Chaqaloqni parvarishlash, beshikka belash, bezak va ramzlardan foydalanish kabi amaliyotlar bolaning jismoniy va ma'naviy himoyasini ta'minlash bilan birga, xalqning tarixiy xotirasi va e'tiqodlarini avlodlarga yetkazish vazifasini ham bajaradi. Hozirgi davrda ham beshik to'yi marosimi o'zining ijtimoiy, oilaviy va madaniy ahamiyatini saqlab qolgan holda, xalq an'alarining uzviy davomiyligini ta'minlab kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ismailov T. O'zbek xalq marosimlari. Toshkent: Fan, 1990.
2. Mahmud Sattor. O'zbek udumlari. Toshkent: Cho'lpon, 2007.
3. Dala materiallari. Bayramova Ra'no. Xonqa tumani, 2026.
4. Давлатова С.Т. Кашкадаря миллий кийимлари. Тошкент: Янги аср авлоди, 2006.
5. Dala materiallari. Sapayeva Rayhon. Xonqa tumani, 2026.
6. Dala materiallari. Sultonova Xafiza. Xiva shahri, 2026.

**BUXORO VA XIVA XONLIKLARINING ROSSIYA IMPERIYASI
BILAN DIPLOMATIK MUNOSABATLARI: TARIXIY TAHLIL VA
MANBALAR (XIX ASRNING BIRINCHI YARMIGACHA)**

Otajonova Aziza Jumaboyevna

Urganch innovatsion universiteti magistranti

Annotatsiya: Mazkur ilmiy tezis XIX asrning birinchi yarmigacha bo'lgan davrda Buxoro amirligi va Xiva xonligining Rossiya imperiyasi bilan diplomatik munosabatlarini tarixiy-tahliliy va geosiyosiy yondashuv asosida tadqiq etadi. Tadqiqotda Rossiya imperiyasining savdo-iqtisodiy va siyosiy manfaatlari hamda Buxoro va Xivaning tashqi bosimga nisbatan olib borgan diplomatik strategiyalari tahlil qilinadi. Natijalar ushbu davlatlarning xalqaro munosabatlarda faol siyosiy subyektlar bo'lganini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Buxoro amirligi, Xiva xonligi, Rossiya imperiyasi, diplomatik munosabatlar, tashqi siyosat, Markaziy Osiyo.

Аннотация: В тезисе рассматриваются дипломатические отношения Бухарского эмирата и Хивинского ханства с Российской империей до первой половины XIX века с позиций историко-аналитического и геополитического подходов. Анализируются интересы России в Центральной Азии и дипломатические стратегии Бухары и Хивы в условиях межимперского соперничества. Делается вывод об их активной роли в системе международных отношений.

Ключевые слова: Бухарский эмират, Хивинское ханство, Российская империя, дипломатия, геополитика, Центральная Азия.

Abstract: This thesis examines the diplomatic relations of the Emirate of Bukhara and the Khanate of Khiva with the Russian Empire up to the first half of the nineteenth century from historical-analytical and geopolitical perspectives. The study analyzes Russian interests in Central Asia and the diplomatic strategies of Bukhara and Khiva, demonstrating their active role as political actors in international relations.

Keywords: Emirate of Bukhara, Khanate of Khiva, Russian Empire, diplomacy, geopolitics, Central Asia.

XIX asrning birinchi yarmida Rossiya imperiyasining Markaziy Osiyo yo'nalishidagi diplomatik siyosati aniq strategik maqsadlarga asoslangan edi [8, 23–27]. Ushbu maqsadlar bir tomondan savdo-iqtisodiy manfaatlar bilan, ikkinchi tomondan esa harbiy-siyosiy xavfsizlik masalalari bilan bog'liq bo'lgan [11, 54–58]. Rossiya hukumati Markaziy Osiyoni nafaqat xomashyo manbai va Sharq bozorlariga chiqish hududi sifatida, balki janubiy chegaralarni mustahkamlash imkonini beruvchi geosiyosiy makon sifatida ham baholagan [10, 39–41].

Diplomatik missiyalar bu jarayonda muhim vosita bo'lib xizmat qilgan. Elchilar zimmasiga faqat rasmiy muzokaralar olib borish emas, balki xonliklarning ichki siyosiy ahvoli, harbiy salohiyati, iqtisodiy resurslari va

transport yo'llari haqida ma'lumot to'plash vazifasi ham yuklatilgan [2, 112–118]. Shu sababli Rossiya diplomatiyasi ko'pincha razvedkaviy va strategik xarakter kasb etgan [1, 28–31].

Buxoro amirligi Rossiya imperiyasi bilan aloqalarda nisbatan muvozanatli va moslashuvchan tashqi siyosat olib borgan [6, 52–55]. Amirlik rahbariyati Rossiya bilan ochiq harbiy to'qnashuvlardan qochib, diplomatik va savdo aloqalari orqali siyosiy muvozanatni saqlab qolishga intilgan [5, 61–64].

1820-yilda N. Negri va G. Meyendorf boshchiligidagi elchilik missiyalari Buxoro amirligining davlat boshqaruvi, soliq tizimi, savdo aloqalari va ijtimoiy tuzilmasi haqida keng qamrovli ma'lumotlar taqdim etdi [3, 89–95]. Ushbu missiyalar Rossiya uchun Buxoroni Markaziy Osiyodagi nisbatan barqaror va muzokaralarga moyil davlat sifatida baholashga asos bo'ldi [1, 14–18].

1841-yilda A. Butenev boshchiligidagi missiya esa Rossiya imperiyasining Buxoroga nisbatan manfaatlari kengayganini ko'rsatadi [1, 64–69]. Natijada Buxoro amirligi Rossiya siyosiy doiralarida “Sharq bozorlariga kirish kaliti” sifatida talqin qilina boshladi [8, 72–75].

Xiva xonligi bilan munosabatlar Buxoroga nisbatan ancha murakkab va ziddiyatli bo'lgan [7, 41–44]. Bunga birinchi navbatda 1717-yildagi Bekovich-Cherkasskiy ekspeditsiyasining muvaffaqiyatsiz yakuni sabab bo'lib, bu voqea ikki tomonlama ishonchsizlikni kuchaytirgan [4, 9–13].

Xiva xonligi tashqi siyosatda yopiq va ehtiyotkor pozitsiyani egallagan bo'lib, Rossiyaning Kaspiybo'yi hududlaridagi harbiy faolligini o'z suverenitetiga tahdid sifatida baholagan [11, 61–65]. 1819–1820-yillarda N. N. Muravyovning Xivaga safari Rossiya imperiyasining xonlik bo'yicha strategik rejalarini shakllantirishda muhim rol o'ynadi [2, 201–208].

Xiva diplomatiyasining asosiy maqsadi tashqi bosimni cheklash, hududiy yaxlitlikni saqlab qolish va mustaqillikni imkon qadar uzoqroq muddatga ta'minlashdan iborat bo'lgan [9, 97–101].

Buxoro amirligi va Xiva xonligining Rossiya imperiyasi bilan diplomatik munosabatlari o'rtasida sezilarli farqlar mavjud [6, 78–81]. Buxoro diplomatiyasi asosan iqtisodiy manfaatlar va siyosiy muvozanatni saqlashga qaratilgan bo'lsa, Xiva diplomatiyasi mudofaa va qarshilik strategiyasi asosida shakllangan [10, 88–91]. Ushbu farqlar xonliklarning geografik joylashuvi, ichki siyosiy tuzilmasi va tashqi tahdidlarga bo'lgan munosabati bilan izohlanadi [8, 83–86].

Xulosa shuki, XIX asrning birinchi yarmida Buxoro amirligi va Xiva xonligining Rossiya imperiyasi bilan diplomatik munosabatlari murakkab va ko'p qatlamli jarayon bo'lgan [5, 112–115]. Diplomatiya bu davrda faqat rasmiy muzokaralar shakli emas, balki siyosiy ta'sir, savdo manfaatlari va harbiy strategiya bilan chambarchas bog'liq vosita sifatida namoyon bo'lgan [11, 73–77].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Хаников Н. В. Описание Бухарского ханства. — СПб., 1843.
2. Муравьев Н. Н. Путешествие в Туркмению и Хиву в 1819 и 1820 годах. — М., 1822.
3. Meyendorff G. Voyage d'Orenbourg à Boukhara fait en 1820. — Paris, 1826.
4. Очерк зимнего похода в Хиву в 1839 году. — СПб., 1840.
5. Бобобеков Х. Н. Ўзбекистон тарихи. — Тошкент, 1994.
6. Зиёева Д. Х. Ўзбекистоннинг Россия билан дипломатик ва савдо-иқтисодий алоқалари тарихи. — Тошкент, 2004.
7. Абдурахмонов С. А. Марказий Осиё ва Россия муносабатлари. — Тошкент, 2010.
8. Becker S. Russia's Protectorates in Central Asia. — London, 1968.
9. Morrison A. Russian Rule in Samarkand. — Oxford, 2008.
10. Khalid A. Central Asia: A New History. — Princeton, 2021.
11. Pierce R. Russian Central Asia. — Berkeley, 1960.

G'ARBIY TURK XOQONLIGIDA TOVAR-PUL MUNOSABATLARI

NurmetovIsmoil Alimbayevich

UrDU "Tarix" kafedrası dotsenti

Qalandarova Muazzam Sodullayevna

Urganch innovatsion universiteti magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada G'arbiy Turk xoqonligining Markaziy Osiyo davlatchiligi tarixidagi o'rni numizmatik materiallar asosida yoritilgan. Toshkent (Choch) va Farg'ona vodiysidan topilgan tangalar tahlili orqali "yabg'u/jabg'u xoqon" unvonining qo'llanilishi, hukmdor va xotun tasvirlarining siyosiy-mafkuraviy mazmuni hamda xoqonlik tamg'alarining ikonografik xususiyatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: G'arbiy Turk xoqonligi, Choch, numizmatika, yabg'u xoqon, Tun yabg'u xoqon, so'g'diy yozuv, turkiy tamg'a, xotun, tanga zarbi.

Аннотация: В статье рассматривается роль Западно-Тюркского каганата в истории государственности Центральной Азии на основе нумизматических источников. Анализ монет, обнаруженных в Чачском оазисе и Ферганской долине, позволяет раскрыть значение титула «ябгу-каган», особенности иконографии правителя и хатун, а также символику каганских тамг.

Ключевые слова: Западно-Тюркский каганат, Чач, нумизматика, ябгу-каган, Тун ябгу-каган, согдийская письменность, тюркская тамга, хатун, монетная чеканка.

Abstract: This article examines the significance of the Western Turkic Khaganate in the history of Central Asian statehood based on numismatic evidence. An analysis of coins discovered in the Chach oasis and the Fergana Valley reveals the use of the title "Yabghu Khagan," the ideological meaning of ruler and queen (khatun) images, and the iconographic features of Turkic tamgas.

Keywords: Western Turkic Khaganate, Chach, numismatics, Yabghu Khagan, Tun Yabghu Khagan, Sogdian script, Turkic tamga, khatun, coinage.

Markaziy Osiyo xalqlari davlatchiligi tarixida g'arbiy Turk xoqonligi alohida o'rin tutadi. Tarixshunoslikda "G'arbiy turk xoqonligi" atamasi ostida Buyuk turk xoqonligining g'arbiy qismi: Oltoy tog'lari g'arbidan to shimoliy qora dengizgacha, Volga-Ural bo'ylaridan to shimoliy Hindistongacha bo'lgan hududni o'z ichiga olgan saltanat bo'lib, xronologik jihatdan ikki turkiy sulola Ashina (568-704 yy.) va Turkash xoqonligi (699-766 yy.) davri bilan belgilanadi.

Ilk o'rta asrlarda g'arbiy Turk xoqonligi bosh hukmdorlarining unvoni "yabg'u xoqon" yoki "jabg'u xoqon" tarzida qayd etiladi. Ushbu ma'lumot numizmatik materiallarda aks etgan[1,56].

Toshkent vohasidan topilgan yaxshi saqlangan mis tangalardagi so'g'diy yozuvlarda trbw y'y'n – "Tardu hoqon", cpyw y'y'n pny – "jabg'u xoqon tangasi" va tw ncpuw y'y'n pny – "Tun jabg'u xoqon tangasi" shaklida o'qib chiqilishi ilk

bor g'arbiy Turk xoqonligi hukmdorlari o'z nomidan tanga zarb qildirganlar, degan fikrga asos bo'ladi[2,25].

Toshkent vohasidan topilgan "jabg'u xoqon" unvonli tangalarning aversida o'ng tomonga yo'nalgan o'tliq tasviri, reversida esa o'ziga xos tamg'a bo'lib, uning atrofida so'g'diy yozuvda cpyw y'y'n pny – "jabg'u xoqon tangasi" deb yozilgan. Ushbu tangada "jabg'u xoqon" deb yozilishi uning g'arbiy Turk xoqonligi bilan aloqasini ko'rsatadi. Mazkur tangalarning Toshkent vohasidan ko'plab topilishi ularning Choch hududida zarb qilinganini bildiradi. Biroq, tangalarning aynan qaysi hukmdorga mansubligi masalasini yechish birmuncha mushkul. Chunki manbalardan ayon bo'lishicha, xoqonlaridan bir nechtasi yabg'u xoqon unvoni bilan hukmdorlik qilgan. Istemidan to Ishbara (640-641 yy.) xoqongacha bo'lgan hukmdorlar "yabg'u xoqon" tarzida tilga olingan. Bu esa ushbu tangalarning Istemi davridan boshlab chiqarilganmi yoki uning avlodlaridan biri davridami masalasini ko'ndalang qo'yadi. Shunga qaramay, yabg'u/jabg'u xoqon unvonining tangalarda uchrashishi, ularning aynan g'arbiy Turk xoqonligiga talluqli ekanidan darak beradi. Xususan, Toshkent vohasidan topilgan numizmatik materiallar orasida twn cpyw y'y'n pny - "tun jabg'u hoqonning tangasi" so'zlari va "jabg'u xoqon..." unvonli tangalar bilan bir xil tamg'a aks etgan tangalar uchraydi. Jumladan, ushbu turdagi tangalarning uchta asosiy tipi zarb qilingan:

- 1) Chordana qurib o'tirgan hukmdor
- 2) Qo'shaloq portretli xoqon va xotun
- 3) Ustida yarim Oy va yulduz (yoki Quyosh) ramzi aks etgan ot tasvirli tangalar.

Ushbu tangalar Tun yabg'u xoqon (618-630 yy.) tomonidan zarb qilingan, aynan uning davrida g'arbiy xoqonlikning janubiy-g'arbiy o'lkalarga e'tibori kuchaygan. Xitoy yilnomalarida Tun yabg'u xoqon g'arbiy xoqonlik markazini Shi (Choch) davlatining shimolidagi Syan'-Syuan' (Mingbuloq) mavzesiga ko'chirgan va barcha g'arbiy o'lkalar ustidan hukmronlikni mustahkamlagan. Bosi (Eron), Gibin (Kashmir – Kapisa/Kobul)ni nazorat ostiga oladi. Bu paytda g'arbiy Turk xoqonligi O'rta Osiyo bilan birga shimoliy Turkiston, shimoliy Hindiston, Afg'oniston, Xuroson, shimoliy Kavkaz, shimoliy Qora dengiz bo'yini ham o'z ichiga olgan yirik saltanatga aylangan.

G'arbiy Turk xoqonlariga xos tangalar sarasiga Farg'ona vodiysi (Quva)dan topilgan tangalar ham kiritish mumkin. Ahamiyatlisi shuki, Toshkent vohasidan topilgan tangalardan farqli o'laroq, Quva tangalarida turkiy-run yozuvida –aversida "xoqon", reversida sug'd yozuvida y'y'n pny - "xoqon puli" so'zlari bitilganidir. Ularda uchraydigan hukmdor tasviri va tamg'alarining Choch vohasining mazkur tangalarida aks etgan tasvir va tamg'alar bilan aynan o'xshashligi g'arbiy Turk xoqonlariga taalluqli tangalarning vodiya ham keng muomalada bo'lganini ko'rsatadi. Bu tip tamg'alar - "tog' echkisi, Arxar" tasviri VII-VIII asrlarga mansub Qultegin bitiktoshi, Bilga xoqon va boshqa O'rxun-Enasoy obidalarida ham aks etgan. Buyuk Turk xoqonligining xonlik tamg'asidir. Ya'ni, ushbu tamg'a quyidagicha evolyutsion yo'llarni bosib o'tgan: mazkur tangalarning ikonografik

jihati ham ularning xoqonlik bilan aloqada ekanini ko'rsatadi[3,67]. Ulardagi hukmdorlar tasviri esa qadimgi turkiylarga xos qiyofada (elkagacha tushgan uzun soch, soqolsiz, keng yumaloq yuz, bir oz qisq ko'z) aks etgan. Xususan, Toshkent vohasidan topilgan tangalar orasida Tunyabg'u xoqon tangalariga o'xshash, bir tomonida yonma-yon turgan qo'shaloq tasvir: bosh kiyimsiz, uzun sochli hukmdor (xoqon) va uch muguzli bosh kiyim kiygan malika (xotun) tasvirlari va orqa tomonida yuqoridagiga o'xshash tamg'a va uning atrofida so'g'diy yozuvda pny cpyw crbnk "yabg'u Chirdanakning tangasi" so'zlari aks etgan[4,44].

Ma'lumki, qadimgi turkiy davlatchilik an'analarga ko'ra, hukmdorning bosh ayoli "xotun" unvoniga ega bo'lib, davlat boshqaruvida faol ishtirok etgan va saroyda xoqondan keyingi o'rinda turgan. Aytish mumkinki, hoqon bilan yonma-yon turgan uch muguzli bosh kiyimdagi xotun tasvirli tangalarning topilishi turkiy davlatchilik tizimida ayollarning mavqei yuqori darajada bo'lganligini ko'rsatadi.

Bu tipdagi tangalarni o'rgangan E.V.Rtveladze va L.Baratovalar fikricha, ushbu tasvirlar Markaziy Osiyoning bir qancha hududidan (asosan, Oltoy va Mo'g'ulistondan) topilgan tosh haykal va boshqa buyumlarda ham uchraydi. Tangalardagi bu tasvir qadimgi turkiylar e'tiqodiga ko'ra, bolalar, jangchilar, homiladorlik va hosildorlik homiysi bo'lgan iloha Umay bilan bog'liqdir. Choch tangalari orasida biri o'ng tomonga qarab, biri to'g'riga yuzlanib o'tirgan holatda tasvirlangan hukmdor va malika tasvirlari mavjud. Ushbu tangalarning reversida esa yuqoridagi tangalarga o'xshash tamg'a va girdida so'g'dcha pny cpyw yr crbnk – "yabg'u El –Chirdanakning tangasi" so'zlari yozilgan.

Tunyabg'u xoqon o'z hukmdorligining dastlabki yillarida qarorgohini Chochga, uning shimolidagi Syan'-Syuan' (Mingbuloq) mavzesiga ko'chiradi. Yana bir xoqon Ashina Xelu (651-657 yy.) ham o'z qarorgohini shu shaharga o'tkazgan.

Mazkur tarixiy dalillar asosida G'arbiy Turk xoqonligining ilk tangalari Choch vohasida zarb qilingani ma'lum bo'ladi. Bundan tashqari, yana bir dalil mazkur tangalarning aksariyati Turk xoqonligi davrida vohaning eng yirik Qanqa va Xonobod xarobalaridan topilgani ham ularning Choch vohasida zarb qilinganidan darak beradi. Demak, xoqonlar Chochni o'z tasarrufiga olgach, bu yerdagi tangani zarb qilish usuli bilan tanishib o'z tangalarini chiqarganlar[5,24].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Boboyorov G'. G'arbiy turk xoqonligining davlat tuzumi Tarix fan. dokt. ... diss. avtoref. – Toshkent, O'zFA ShI, 2012. – 56 b.
2. Boboyorov G'. G'arbiy Turk xoqonligi ilk tangalari // Moziydan sado. 1 - son. (33) 2007. – B. 25.
3. Массон М.Е. К вопросу о взаимоотношениях Византии и Средней Азии по данным нумизматики // Труды САГУ, Новая серия, XXII. В.кн. 4. - Т., 1951.С-67.
4. Zeymal E.V. Toshkent vohasi arxeologiyasi. – T.: O'zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi, 1999. – B. 44.
5. Boboyorov G'. G'arbiy Turk xoqonligi ilk tangalari // Moziydan sado. 1 - son. (33) 2007. – B. 24.

FARG'ONA VODIYSI GEOGRAFIK O'RNI, PALEOGEOGRAFIYASI XUSUSIDA

Sabirov Kurbonboy

Urganch davlat universiteti professori

Qurbanov Sanjarbek Xudoyberganovich

Urganch innovatsion universiteti magistri

Annotatsiya: Maqolada Farg'ona vodiysi tosh davri paleogeografiyasi, axoli joylashishi, o'zlashtirilish bosqichlari taxlil qilingan.

Kalit so'zlar: Baratov P, Mamatqulov M, Rafiqov A, A, Hasanov I.A, G'ulomov P.N, Qayumov A.A, Anarbayev A, Soliyev E, Nazarov R.S, Abdullayev A.Q, Holboyev G.X, Isoqov Z, Sarimsoqov A.A. Ashirov A, O'rta Osiyo, O'zbekiston, Toshkent, Surxondaryo, Farg'ona, Pomir, Oloy, Quramo, Chotqol, Turon, Xo'jand, Sirdaryo, Norin, Qoradaryo.

Аннотация: В статье анализируются этапы освоения и расположение населения в палеогеографии каменного периода Ферганской долины.

Ключевые слова: Баратов П, Маматкулов М, Рафиков А, А, Хасанов И.А, Гуламов П.Н, Каюмов А.А, Анарбаев А, Солиев Э, Назаров Р.С, Абдуллаев А.К, Холбаев Г.Х, Исаков З, Саримсаков А.А. Аширов А, Средняя Азия, Узбекистан, Ташкент, Сурхондарье, Фаргана, Памир, Алай, Курама, Чоткол, Туран, Хужанд, Сирдарье, Нарин, Карадарье.

Abstract: The article analyzes the paleogeography of the Stone Age of the Fergana Valley, the settlement of the population, and the stages of exploitation.

Keywords: Baratov P, Mamatkulov M, Rafikov A, A, Hasanov I.A, Gulomov P.N, Kayumov A.A, Anarbayev A, Soliev E, Nazarov R.S, Abdullaev A.K, Holboev G.Kh, Isakov Z, Sarimsokov A.A. Ashirov A, Central Asia, Uzbekistan, Tashkent, Surkhandarya, Fergana, Pamir, Aloy, Kuramo, Chatkal, Turan, Khujand, Syrdarya, Naryn, Karadarya.

O'zbekiston Respublikasi O'rta Osiyo mintaqasi o'rtasida joylashishi strategik ahamiyatga ega. Uning yer yuzasi tekislik va tog'li qismlardan iborat bo'lib, ular bir-biridan geografik xolati, antropogen landshafti, tabiiy resurslari, axolining joylashishi xamda baland tog'lar orqali vatanimizning ekin-tekinklikka qulay bo'lgan tekislikda alohidalik xususiyatga ega. Vatanimizning fizik-geografik xaritasida tekislikda Ustyurt, Quyi Amudaryo, Quyi Zarafshon, Ichki Qizilqum, O'rta Zarafshon, tog' va tog' oldi xududlari bunga, Surxondaryo, Toshkent, Farg'ona xududlari geografik manzarasi, tog'lar, daryolar, vodiylari tabiiy resurslar, O'zbekistonning temir davri jamiyatining barcha sohalarini rivojlantirishda ushbu geoiqtisodiy xududlarni bir-biridan farqlanish xolatini kuzatish qiyin emas. Ushbu maqolada O'zbekiston xududi geografik xususiyatlari jixatidan aloxidaligi bilan ko'zga tashlanishini yoritish nazarga olingan.

Geografik adabiyotlarda qayd qilinishicha Farg'ona vodiysi O'rta Osiyoni geografik xolatini tasvir qilgan, Pomir-Oloy va Turkiston janubda, sharqda Farg'ona, shimolda Chotqol. Shimoli-g'arbida Qurama tizmalari o'rab olgan,

g'arbdan esa, Turon pasttekisligiga ulanib ketadi, vodiylar xududi, mazkur xududdan boshqa xududi osmono'par tog'lar bilan o'rab olingan[1,34].

Geograf olim E.Soliyev ma'lumotiga ko'ra, Farg'ona vodiysi bodomsimon shaklda topografik joylashish tasvirida O'zbekiston xaritasida o'z aksini topgan, uzunligi 300 kilometr, eni keng joyi 170 km-ga teng, g'arbda tor 9-40 km, "Xo'jand" yoki "Farg'ona" darvozasidan keyin Dalvarzin va Mirzacho'l dashtiga tutashgan. Dengiz sathidan vodiylarning markaziy qismi g'arbdan sharqqa yunalishida 320 metrdan 500-1000 metrgacha joylashishi, xolati bo'lgan[2,12]. Yuqorida qayd qilingan geografik ma'lumotlardan kelib chiqib, vodiylar yer yuzasi tekislik, tog' oldi va tog' qismlarga bo'lingan bo'lib, u tabiiy-geografik joylashish xususiyatiga bog'liq bo'lgan. Shu ma'noda qulay iqlim sharoiti, tabiiy iqtisodiy manbalar odamzotning o'rnashib, o'zlarini ilk kasbi-korlarini aniqlab olib, uni yanada rivojlanish imkoniyatini xosil qilgan. Xususan, osmono'par tog'lar axoli uchun doimiy o'z hadyasini in'om etgan, bu jarayon hozir xam davom etgan.

Farg'ona vodiysi iqlim va tabiiy sharoiti bilan qo'shni xududlardan alohidalik xususiyatiga ega ekanligi kuzatiladi. Vodiylar iqlim jihatidan Turonning agroiklimiy xududiga kirib –"tog' oldi - tog'li o'lkasi" hisoblanadi[3,34]. Albatta bunda agro-iklimiy o'lkaning vujudga kelishi, uning davomiyligi, xududlar bo'yicha o'ziga xosligi, xududning geografik jihatidan cheklanganligi bilan izohlash mumkin. Misol tariqasida shimoldan keladigan sovuq xarorat, g'arbdan keladigan iqlim yoki sharqiy tomondan keladigan iliq havo massalarining bemalol kirib kelishiga tog'lar albatta to'sqinlik qiladi. E.Soliyev ma'lumotiga ko'ra, Markaziy Farg'ona xududida yillik o'rtacha xavo harorati 130-140 S, baland tog' xududlarida esa -70 S bo'lgan. Iyul oyida esa xarorat-baland xududda 26-270 S issiq, baland tog'larda esa 90 S, ba'zi joylarda 3-40 s. iliqni tashkil qilgan. Minimal oylik xarorat yanvarda ko'tarilgan, Markaziy Farg'ona (tekislik qismi) 2-30 S, baland tog'larda esa -190 S gacha bo'lgan. Haroratning 00 S dan yuqoriga ko'tarilishi markazda Feral oyi boshlarida 2000-2500 m balandlikda Mart oyi oxiri-April oyi boshida 3500 balandlikda May oyi o'rtalarida kuzatilgan, balandlik xar 500 metrgacha ko'tarilgan[4,84]. Yozning boshlanishi, o'rta qismida o'n kunga kechikgan ko'rinishi va orografik tuzilishi yog'inlarning turlicha taqsimlanishiga olib kelgan. Vodiylarning gidrografiya masalasida xam o'ziga xos xususiyatlariga ega. Xususan Vodiylar xududida eng katta daryo Sirdaryo xarakter qilgan, u Norin va Qoradaryolarning suvlari kelib qo'shilishi bilan hosil bo'lib, vodiylar gidrologiyasida muhim o'rin tutgan. Sirdaryo xavzasi umum maydoni 462 ming kvadrat kilometrni tashkil etib, uning uzunligi 2212 km-ni tashkil qilgan, Vodiylar uzunligi 300 km Farg'ona vodiysidan oqib o'tadi. Norin dunyosida suvlarni ulushi 45 %, Qoradaryoda 16 %, o'ng va so'l soxil xududi irmoqlarida 39 % to'g'ri kelgan. Sirdaryo suvi oqimi 70 % yuqori qismida ya'ni Farg'ona vodiysidan chiqquncha shakllangan. Vodiylarda suv resurslaridan unumli foydalanish maqsadida, Qayroqqum, Uchqo'rg'on, Andijon, Bozor Qurg'on. Karkidon suv omborlari qurilgan. Shu bilan bir qator sug'orilish inshootlari Katta Farg'ona, Katta Andijon, Shimoliy Farg'ona, Katta Namangan. Janubiy Farg'ona, Oxunboboyev nomida

qurilgan. Tuproq yuzasi xossalari. Vodiy axolisining ekin-tekinlik qilishiga imkon bergan[5,57].

Z.S.Isoqov qayd qilishicha ekin-tekinlikda foydalanadigan xududlar, ikki qismga bo'lingan, ya'ni sug'oriladigan xududlar "Suvli yer", sug'orilish qilinmaydiganlar "Lalmi", "bahorikor" yoki "qayroqi yer" deb nomlangan. A.A.Sarimsarov ma'lumotiga ko'ra, Farg'onalik bog'bonlar o'z yerlarida mevali daraxtlarga qish paytida "Chilla" suvini berganlar, bu esa kutilgan natijalarni olganlar. A.Ashirov tadqiqotlarida Farg'ona vodiysi tavsiyalari berilgan[6,43]. Tadqiqotchi fikriga qo'shilish joiz, qishloq xo'jaligi ekinlari xududlari xam Yanvar, Fevral oylari sug'orilish tadbiri o'tkaziladi. Farg'ona vodiysining o'simlik olami. Bunda vodiyning berk havzasi inobatga olishi zarurati mavjud. Vodiy berk bo'lganligi bois, ilk bor o'rnashgan axoli soni miqdori oshganligi sabab, tevarak-atrofni o'zlashtirganligi bois, o'simlik dunyosiga ta'sir ko'rsatishi tabiiy hol. O'simlik dunyosi faqat tog' oldi va tog' zonalarda, ya'ni 1200 m. baland yerlarda o'z xolatini saqlab qolgan. Markaziy Farg'ona tekisligida o'simlik dunyosi inson faoliyati bilan bog'liq.

Yuqorida qayd qilingan tarixiy ma'lumotlarni nazariy-qiyosiy jixatidan Farg'ona vodiysi geografik xolati antropogen landshafti, ekologiyasi, inson faoliyati ta'siri taxlil qilindi va shu asosda natijalar maqola mazmunida o'z ma'nosini topgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Baratov A. Mamatqulov M. Rafikov A.A. O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi-Toshkent, 2002. B-34.
2. Soliyev E. Farg'ona vodiysi daryolari suvi oqimini iqlim o'zgarishi sharoitida baxolash-Namangan, 2017.B-12.
3. Nazarov R.S. Abdullayev A.Q, Xolboyev G.X. O'zbekistonda go'za agrotexnikasi agro iqlimiy sharoitlari va resurslari-Toshkent, 2009.B 34.
4. Hasanov I.A, G'ulomov P.N, Qayumov A.A. O'zbekiston tabiiy geografiyasi-Toshkent, 2010. B-84.
5. Isoqov Z.S. Farg'ona vodiysi dehqonchilik madaniyati-Tashkent, 2011. B-43.
6. Farg'ona vodiysi sug'oriladigan tuproqlarning xossalari, ekologik-meliorativ xolati va maxsulotlari-Toshkent "Navruz" 2017.B-57.

O'ZBEK XALQ MADANIYATIDA NON ETNOGRAFIYASI VA UNGA OID AN'ANALAR

Rajapboyeva Adolat Rasul qizi

Urganch innovatsion universiteti

“Tarix” ta’lim yo’nalishi 23/02-guruhi talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek xalq madaniyatida non etnografiyasi, unga oid an'analar va urf-odatlarining shakllanishi, ularning jamiyat hayotidagi o'rni hamda hozirgi davrdagi ahamiyati ilmiy jihatdan yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: transformatsiya, non etnografiyasi, kulcha, marosimlar, o'zbek xalq madaniyati.

Аннотация: В данной статье научно рассматриваются этнография хлеба в культуре узбекского народа, формирование связанных с ним традиций и обрядов, их место в общественной жизни, а также их значение в современных условиях.

Ключевые слова: трансформация, этнография хлеба, кулча, обряды, культура узбекского народа.

Abstract: This article examines the ethnography of bread in Uzbek folk culture, the formation of traditions and customs associated with it, their role in social life, and their significance in the contemporary context.

Keywords: transformation, bread ethnography, kulcha, rituals, Uzbek folk culture.

Globallashuv jarayonlari tobora jadallashib borayotgan bugungi davrda moddiy va ma'naviy madaniyatda kechayotgan transformatsiya jarayonlarining kuchayishi, milliy-etnik o'ziga xoslikning asta-sekin susayib borishi milliy qadriyatlar, urf-odat va an'analarni asrab-avaylash, ularni ilmiy jihatdan o'rganish hamda kelajak avlodga yetkazish zaruratini yanada dolzarb etmoqda.

Moddiy madaniyat bilan bog'liq masalalar qadimgi jamiyat davridan boshlab hozirgi kungacha insoniyat hayotidagi eng muhim muammolardan biri bo'lib kelgan. Dunyo barqarorligi va taraqqiyoti ma'lum darajada moddiy ne'matlar bilan chambarchas bog'liq. Chunki har bir insonning sog'lom, barkamol va mukammal kamol topishida moddiy ne'matlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Ana shunday bebaho va muqaddas ne'matlardan biri — nondir. O'zbek xalq madaniyatida non qadimdan hayot va baraka timsoli, muqaddas ne'mat sifatida e'zozlab kelingan. U faqatgina oziq-ovqat mahsuloti emas, balki xalqning turmush tarzi, urf-odatlari, marosimlari hamda dunyoqarashi bilan uzviy bog'liq bo'lgan muhim etnografik qadriyat hisoblanadi. *Ulug' tabiatshunos olim K. A. Timiryazev shunday deb yozgan edi: “Bo'rsildoqqina pishgan bug'doy nonni sindirib yeyayotganimizda, ushbu mahsulot insoniyat donoligining eng buyuk kashfiyotlaridan biri ekanligi hamisha ham yodimizga kelavermaydi”.*[1]

Non bilan bog'liq an'analar va marosimlar asrlar davomida shakllanib, avloddan avlodga meros sifatida o'tib kelmoqda. Har bir hududda non yopish usullari, uning turlari va nomlari o'ziga xos madaniy xususiyatlarni aks ettiradi.

Non etnografiyasini o'rganish orqali o'zbek xalqining mehnat faoliyati, dehqonchilik an'analari, oilaviy munosabatlari hamda marosim madaniyati haqida muhim ilmiy ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin. To'y, sunnat to'yi, mehmondorchilik, safarga kuzatish kabi marosimlarda nonning alohida o'rin tutishi uning ma'naviy ahamiyatini yanada oshiradi.

O'zbek xalqi qadimiy urf-odat va marosimlarga boy xalq sanaladi. Shunday marosimlardan biri — bolani beshikka belash marosimi bo'lib, u deyarli barcha hududlarda o'xshash an'analar asosida o'tkaziladi. Ushbu marosim jarayonida bolani beshikka belayotgan kampilardan biri: "Egasi keldi beshikka, shayton chiqsin eshikka", — deb aytadi. Shu paytda bolani belayotgan momo og'zida non tishlab olib, bola to'liq beshikka belab bo'linguncha gapirmaydi. Marosim yakunlangach, momo og'zidagi non yosh bola tomonidan "umri uzoq, risqi baland bo'lsin" degan ezgu niyat bilan uzoqroq joyga olib qo'yiladi.

O'zbek xonadonlarida ayollar non yopish jarayonida albatta kulcha ham tayyorlaydilar. Chunki kulcha bolalar orasida ayniqsa sevimli hisoblanadi. Birinchidan, kulcha ixcham bo'lib, bolalar uchun qulay; ikkinchidan, tez soviydi va bolaning qo'lini kuydirmaydi. Buxoro viloyatida bolalarning tug'ilishi, o'sishi va ulg'ayishi bilan bog'liq marosimlarda turli xil kulchalar pishiriladi. Jumladan, bola tug'ilganda *ulush kulcha*, beshikka belash marosimida *beshik kulcha*, bolaning yurishi bilan bog'liq marosimlarda *oyoq kulcha*, ko'p kasallikka chalinganida esa *shifo kulcha* tarqatiladi. Tadqiqotchi N.H. Qurbonovning "O'zbek bola marosim folklori" asarida non bilan bog'liq urf-odat va marosimlar keltirilgan.[2]

Bola yurishni boshlaganidan so'ng tandirda yettita kulcha yopilib, bolaning oyog'i ostidan dumalatilib, yetti xonadonga tarqatiladi. Ushbu kulchalarning birinchisi yoshi ulug', el orasida hurmatga sazovor kishiga beriladi. Bu paytda ular: "Oyog'imni berdim, bolangiz yurib ketsin; bola shu kishilardek el orasida aziz bo'lib yursin", — deya duo qilishadi.

Xorazm hududida esa bola yurishni boshlaganda tandirda besh yoki yetti kulcha yopilib, bolaning oyog'i ostidan o'tkaziladi va kulchalar bola bilan teng yoshdagi bolalarga tarqatiladi.[3] Bola ma'lum yoshga yetgach, soch to'yi marosimi o'tkazilib, uning sochi olinadi. Ushbu marosim ham quvonch va xursandchilik bilan o'tadi. Shu kuni bo'g'irsoq va kulchalar qarindosh-urug'larga ulashiladi. Yangi tug'ilgan chaqaloqning bosh qismidagi yumshoq joyi tezroq qotishi uchun unga yupqa non qo'yilgan. Shuningdek, Xorazmda bolaning beshigi bosh qismiga non qo'yilib, bolaning yomon tushlar ko'rmasligi va yovuz kuchlardan asralishi ta'minlangan.

Bolani kechqurun ko'chaga olib chiqish vaqtida yonida albatta non olib yurilgan. Non bolani turli yomonliklardan himoya qiladi, deb ishonilgan. Yosh kelin va kuyov ham chaqaloq chillasi chiqmaguncha zarurat yuzasidan ko'chaga chiqqanlarida o'zlari bilan non olib yurishgan. Yoshi ulug'lar nonni pichoq bilan kesish mumkin emasligini ta'kidlab, bunday holat uydagi risq va barakaning kamayishiga sabab bo'ladi, deb o'rgatishgan.

Qadim zamonlardan buyon kishilar uzoq safarga chiqishdan oldin o'zlari bilan non olib ketishgan. Non ularga hamroh bo'lib, turli balo-qazolardan asraydi, degan e'tiqod mavjud bo'lgan. Onalar o'g'illarini harbiy xizmatga kuzatishda ularga non tishlatib, ushbu nonni uyning to'riga ilib qo'yishgan. O'g'il qaytib kelguniga qadar non saqlangan va u sog'-salomat qaytib kelgach, aynan o'sha nonni o'zi iste'mol qilgan. Bu amallar o'g'ilning risq-nasibasi uzilmasligi va uyga omon qaytishini tilash maqsadida bajarilgan. Xomilador ayollar uxlagan paytda qo'rqmasliklari uchun yostiqlari ostiga non qo'yishgan.[4] Non onani va tug'ilajak bolani yovuz kuchlardan himoya qiladi, degan ishonch mavjud bo'lgan.

Xulosa qiladigan bo'lsak, bugungi globallashuv sharoitida non bilan bog'liq urf-odat va an'analarni asrab-avaylash, ularni ilmiy asosda o'rganish hamda kelajak avlodga yetkazish milliy o'zlikni saqlashning muhim omillaridan biridir. Nonning baraka, himoya va ezgulik timsoli sifatida qadrlanishi uning nafaqat moddiy, balki chuqur ma'naviy ahamiyatga ega ekanligini yaqqol namoyon etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Маҳмудов К. *Қизиқарли пазандалик*. – Тошкент: Ўқитувчи, 1987. – Б. 10
2. Қурбонова Н. Ҳ. . Ўзбек бола маросим фольклори. Тошкент, 1994.
3. Atajonova Gulnoza, Yangibozor tumani, 2026-yil.
4. Sabirova Guliston, Shovot tumani, 2026-yil.

AYOLLAR TARIXI VA JAMIYATDAGI ROLIGA DOIR BA'ZI MASALALAR

Nurullayeva Kuvonch Xudayberdiyevna

Urganch innovatsion universiteti o'qituvchisi, PhD.

Raxmonova Surayyo Sadullayevna,

Urganch innovatsion universiteti magistranti.

Annotatsiya: Ushbu maqolada insoniyat taraqqiyoti jarayonida ayol shaxsining jamiyat hayotidagi o'рни va mavqei tarixiy bosqichlar kesimida tahlil qilinadi. Qadimgi sivilizatsiyalardan boshlab hozirgi davrgacha bo'lgan davr oralig'ida ayollarning ijtimoiy, siyosiy va madaniy jarayonlardagi ishtiroki hamda ularning huquqiy va ijtimoiy maqomidagi o'zgarishlar ilmiy asosda yoritiladi. Shuningdek, tarixiy shaxslar misolida ayol siymosining shakllanish jarayoni ochib beriladi.

Kalit so'zlar: ayol siymosi, tarix, qadimgi sivilizatsiyalar, siyosat, ayol huquqlari, mashhur ayollar, O'zbekiston, ayollar faolligi

Аннотация: В данной статье анализируется роль и место личности женщины в общественной жизни на различных исторических этапах развития человечества. Научно освещается участие женщин в социальных, политических и культурных процессах, а также изменения их правового и социального статуса в период от древних цивилизаций до современности. Кроме того, на примере исторических личностей раскрывается процесс формирования образа женщины.

Ключевые слова: образ женщины, история, древние цивилизации, политика, права женщин, известные женщины, Узбекистан, женская активность.

Abstract: This article analyzes the role and status of women in social life throughout various historical stages of human development. It provides a scientific overview of women's participation in social, political, and cultural processes, as well as changes in their legal and social status from ancient civilizations to the present day. Additionally, the process of shaping the image of women is examined through the examples of historical figures.

Keywords: image of women, history, ancient civilizations, politics, women's rights, famous women, Uzbekistan, women's activity.

KIRISH. Ayollar va ularning jamiyatdagi o'рни har doim ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va siyosiy jarayonlarda muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Turli jamiyatlarda ayollarga nisbatan munosabatlar va ularning huquqlari o'ziga xos tarzda shakllangan bo'lib, bu jarayon tarixiy bosqichlar davomida o'zgarib borgan. Qadimgi jamiyatlarda ayollar asosan uy va oilaviy vazifalar bilan cheklangan bo'lsa-da, jamiyatlar taraqqiyoti bilan ular faol va teng huquqli ishtirokchilar sifatida qadrlangan.

Ayollarning huquqlari va imkoniyatlari ijtimoiy tuzilma, diniy qadriyatlar hamda siyosiy tizimlar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Bir qator tarixiy omillar, xususan, sanoat inqilobi va ta'lim olish imkoniyatlarining kengayishi,

ayollarning jamiyatda faol ishtirok etishini rag'batlantirgan. Shu bilan birga, ularning huquqlari ko'p hollarda erkaklar bilan teng darajada emas edi. Mazkur o'zgarishlar, ayniqsa, gender tengligini ta'minlash maqsadida olib borilgan kurash natijasida yuzaga kelgan.

Hozirgi kunda ayollarni teng huquqli subyektlar sifatida e'tirof etish ko'plab jamiyatlarda sezilarli ijtimoiy o'zgarishlarga sabab bo'lgan bo'lsa-da, gender tengligi masalasi hanuzgacha dolzarb mavzu sifatida qolmoqda. Ushbu tadqiqotda ayollarga bo'lgan turli jamiyatlardagi munosabatlar, ularning huquqlari, imkoniyatlari hamda jamiyatdagi roli o'rganiladi. Shuningdek, gender tengligining rivojlanishiga turtki bo'lgan asosiy tarixiy omillar tahlil qilinadi.

Maqolada gender g'oyasining ijtimoiy va tarixiy rivojlanishini o'rganish uchun bir nechta ilmiy metodlardan foydalanilgan. Birinchi navbatda, tarixiy tahlil metodi qo'llanilib, gender g'oyasining shakllanishi va uning jamiyatdagi o'zgarishlari tarixiy kontekstda tahlil qilindi. Tarixiy manbalar va ilmiy asarlar orqali genderning ijtimoiy va siyosiy jihatlari chuqurroq yoritildi. Shu bilan birga, sotsiologik tahlil metodi yordamida jamiyatdagi struktural munosabatlar doirasida gender rollari o'rganildi. Bu metod erkaklar va ayollar o'rtasidagi ijtimoiy tengsizliklarni aniqlash hamda ularga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash imkonini berdi.

ASOSIY QISM. Ayollar masalasi jamiyat hayotining muhim tarkibiy qismi bo'lib, u ijtimoiy munosabatlar, milliy va davlat institutlari, shuningdek, madaniyat va sivilizatsiyalar rivoji bilan uzviy bog'liqdir. Ushbu masala insoniyat tarixida turli davrlarda ijtimoiy-tarixiy jarayonlarning bir bosqichdan ikkinchisiga o'tishi bilan yuzaga kelgan va rivojlanib borgan. Ayollar mavzusini chuqur o'rganish va uni jamiyat taraqqiyoti bilan uyg'un tahlil qilish orqali oila, madaniyat, urf-odatlar, xalqaro munosabatlar hamda diniy hayot kabi sohalarda ayollarning roli aniq ifodalanadi.

Olimlar ayollar masalasini jamiyatning ijtimoiy rivojlanishi kontekstida tahlil qilib, oilaning shakllanishi, jamoat hayoti, mehnat taqsimoti va madaniy qadriyatlarining rivojlanishida ayollar yetakchi rol o'ynaganini ta'kidlaganlar.

Ibtidoiy jamiyatlarda ayollar jamiyatning asosiy poydevori sifatida e'tirof etilgan. Tarixiy manbalar ayollarni insoniyat madaniyatini shakllantiruvchi asosiy subyektlar sifatida tasvirlaydi. Ibtidoiy jamoa tuzumida mehnat taqsimoti natijasida erkaklar ovchilik bilan, ayollar esa hosil yig'ish va oziq-ovqat tayyorlash bilan shug'ullangan. Ayollar yerdan to'yimli ildizlar, mayda jonivorlar va hasharotlarni qazib olish orqali jamiyatning oziq-ovqat ta'minotida muhim rol o'ynagan.

Rivoyatlarda olovni kashf etish erkaklar bilan bog'langan bo'lsa-da, ayollar uning xususiyatlarini o'rganib, amaliy hayotga tatbiq etishda asosiy vazifani bajarganlar. Ular olovdan uylarni isitish, ovqat tayyorlash va hayotni xavfsiz qilish kabi faoliyatlarda foydalangan. Shuningdek, ayollar kiyim-kechak va oyoq kiyimlarini yaratish orqali insoniyat hayotini qulaylashtirgan[1].

Ota urug'i (patriarxal) jamiyatining shakllanishi bilan ijtimoiy-huquqiy muvozanat ayollardan erkaklar tomoniga o'tdi. Ushbu davrda erkaklar asosiy

ishlab chiqaruvchi kuch, boshqaruvchi va hukmron subyekt sifatida shakllandi, natijada ayollarning huquqlari sezilarli darajada cheklangan va ular jamiyatdagi faoliyat imkoniyatlaridan mahrum bo'ldi.

Ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotning keyingi bosqichlarida ayollar erkaklarga qaram bo'lib qoldi. Bu jarayon ularning psixologik va iqtisodiy mustaqilligini susaytirib, faolligini oilaviy va xo'jalik doirasida cheklashga olib keldi. Ayollar mulkka egalik qilish huquqidan mahrum bo'ldi, turmush qurish va ajralish masalalarida erkaklarning qarorlariga bog'liq bo'lib qoldi, sud ishlarida ishtirok etish imkoniyatlari esa cheklangan edi.

Ayol qadimdan jamiyatning ajralmas qismi bo'lib, ishlab chiqaruvchi kuch, oila himoyachisi, bola tarbiyalovchi va avlodning davomiyligini ta'minlovchi sifatida muhim rol o'ynagan. Ushbu vazifalar unga qadimgi urug' va qabila hayotida yetakchilik imkonini bergan. Ayniqsa, urug'-aymoqchilik davrida ayollarning mavqei juda baland bo'lgan: ma'budalar ko'pincha ayol timsolida tasvirlangan, qabilani boshqarish, jinoyatchilarni jazolash va hatto harbiy yurishlarga rahbarlik qilish ayollarning zimmasida bo'lgan.

Ayol jamiyatning barqaror rivojlanishida muhim o'rin tutuvchi ijtimoiy institut sifatida e'tirof etiladi. Tarixiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, qadimgi davrlardan ayollar ijtimoiy hayotning turli jabhalarida faol ishtirok etgan. Jumladan, qadimgi Misrda Kleopatra, Xitoyda esa imperator ayollar davlat boshqaruvida muhim vazifalarni bajargan. O'rta asrlarda ayollar huquqlari ko'plab jamiyatlarda cheklangan bo'lsa-da, Juanna d'Ark singari shaxslar o'zining jasorati va fidoyiligi bilan tarixiy jarayonlarda muhim iz qoldirgan[2].

Qadimgi davrlarda ayol siymosi. Qadimgi Misr jamiyatida ayollar nisbatan keng huquqlarga ega bo'lib, mulkka egalik qilish, sud jarayonlarida ishtirok etish hamda ayrim hollarda davlat boshqaruvida faol qatnashish imkoniyatiga ega bo'lgan. Xususan, Misr malikasi Kleopatra mustaqil hukmronlik qilgan va o'z davrining yetuk siyosiy arboblardan biri sifatida tarixda muhim o'rin egallagan. Shuningdek, qadimgi Yunoniston va Rimda ham ayrim ayollar madaniy hamda ijtimoiy-siyosiy hayotda muayyan faollik ko'rsatgan.

O'rta asrlarda ayollar mavqei. O'rta asr jamiyatlarida ayollar ko'pincha erkaklarga nisbatan quyi ijtimoiy maqomda bo'lgan bo'lsa-da, mazkur davrda ham tarixda iz qoldirgan irodali va bilimdon ayollar yetishib chiqqan. Jumladan, Fransiyada Juanna d'Ark milliy ozodlik kurashining ramziga aylangan. Sharq mamlakatlarida ayollar faoliyati asosan saroy doirasi bilan cheklangan bo'lsa-da, Mahzuna, Uvaysiy va Nodira kabi shoiralar o'z ijodi orqali xalq ma'naviy merosini boyitgan.

XX asrga kelib, ayollarning siyosiy faolligi sezilarli darajada ortdi, ularning saylov huquqi kengaydi hamda davlat boshqaruvida ishtiroki kuchaydi. Indira Gandi va Margaret Tetcher kabi siyosiy arboblarning ushbu jarayonning yorqin namunalari hisoblanadi[3]. O'zbekiston tarixida ham Nodira, Zebuniso, Uvaysiy kabi ayollar adabiyot, ilm-fan va ijtimoiy hayot rivojiga salmoqli hissa qo'shgan.

Bugungi kunda esa o'zbek ayollari ilm-fan, siyosat, sport va tadbirkorlik sohalarida faol ishtirok etib, jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shmoqda.

Umuman olganda, tarixiy taraqqiyot jarayonida ayollarning jamiyatdagi mavqei turlicha bo'lgan bo'lsa-da, ular har qanday sharoitda ham o'zining intellektual salohiyati, irodasi va fidoyiligi bilan ijtimoiy jarayonlarda muhim rol o'ynab kelganligi ilmiy jihatdan asoslanadi.

Zamonaviy davrda ayollarning faolligi. XX asr ayollarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi mavqeining sezilarli darajada oshishi bilan tavsiflanadi. Ko'plab mamlakatlarda ayollar saylov huquqiga ega bo'lib, ilm-fan, siyosat, iqtisodiyot hamda madaniyat sohalarida faol ishtirok eta boshladilar. Indira Gandi (Hindiston), Margaret Tetcher (Buyuk Britaniya) va Angela Merkel (Germaniya) kabi siyosiy arboblarnafaqat milliy, balki xalqaro miqyosda ham e'tirof etilgan yetakchilar sifatida namoyon bo'ldi[4].

O'zbek ayollari tarixda. O'zbekiston tarixiy taraqqiyotida ayol shaxsining o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Boburiylar davrida Zahiriddin Muhammad Boburning qizi Gulbadanbegim tarixiy-ilmiy asarlar yaratgan bo'lsa, Shayboniylar davrida Zebuniso va Nodira kabi shoirlar o'z ijodi bilan adabiy merosni boyitgan. Mustaqillik yillarida esa o'zbek ayollari siyosiy, ijtimoiy va madaniy sohalarda faol ishtirok etib, jamiyat rivojiga munosib hissa qo'shmoqda.

XULOSA. Ayol siymosining tarixiy va madaniy jarayonlardagi o'rni ilmiy tadqiqotlarda keng yoritilgan. Tarixshunoslik, madaniyatshunoslik hamda gender tadqiqotlari doirasida olib borilgan izlanishlar ayollarning jamiyatdagi mavqeini kompleks tahlil qilish imkonini beradi. Jumladan, N.K. Nosirovaning "O'zbek ayoli tarix sahifalarida" nomli tadqiqotida qadimgi va o'rta asrlarda yashagan o'zbek ayollarining ijtimoiy hamda madaniy faoliyati yoritilib, Nodira, Uvaysiy va Zebuniso kabi shoirlarning nafaqat ijodiy merosi, balki davlat va jamiyat hayotidagi roli ham ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Muallif ayollar faoliyati faqat oilaviy doira bilan cheklanmaganligini dalillar asosida asoslaydi.

Shuningdek, M. Karimovning "O'zbekistonda ayollar harakati tarixi" asarida XX asr boshlarida ayollar huquqlari uchun olib borilgan harakatlar, sovet davrida ularning mehnat va ta'lim sohalaridagi faolligi batafsil yoritilgan. Mazkur tadqiqot zamonaviy o'zbek ayolining shakllanish bosqichlarini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Tarixiy jarayonlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ayollar har bir davr va jamiyatda muhim ijtimoiy-siyosiy subyekt sifatida namoyon bo'lgan. Turli tarixiy bosqichlarda ularning ijtimoiy mavqei turlicha bo'lgan bo'lsa-da, ayollar o'zlarining intellektual salohiyati, fidoyiligi, qat'iyati hamda sabr-toqati orqali jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shib kelgan.

Tarixiy manbalar va zamonaviy ilmiy tadqiqotlar ayollarning jamiyat rivojidagi uzluksiz va faol ishtirokini tasdiqlaydi. Qadimgi sivilizatsiyalardan boshlab zamonaviy davlatlarga qadar ayollar siyosat, adabiyot, ilm-fan, san'at va ijtimoiy hayot sohalarida muhim natijalarga erishgan. O'zbekiston tarixida ham ayol siymosi doimo yuksak qadrlanib, ularning ma'naviy va madaniy merosi milliy

taraqqiyot jarayonida muhim o'rin egallab kelmoqda. Bugungi globallashuv sharoitida gender tengligini ta'minlash, ayollarning imkoniyatlarini kengaytirish va ularning salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish barqaror jamiyatni shakllantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Shu bois ayollar faolligini rag'batlantirish hamda ularning huquq va erkinliklarini kafolatlash ijtimoiy taraqqiyotning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Nosirova N.K. O'zbek ayoli tarix sahifalarida. Toshkent: Fan, 2010. – 256 b.
- 2.Karimov M. O'zbekistonda ayollar harakati tarixi. Toshkent: Universitet nashriyoti, 2015. – 312 b.
- 3.Bobomurodov A. O'zbek mumtoz adabiyotida ayol siymosi. Toshkent: Sharq, 2008. – 180 b.
- 4.Islomov D. O'zbekiston ayollari va zamonaviy jamiyat. Toshkent: Ijtimoiy fanlar, 2020. – 150 b.
- 5.Rahmonov S. Gender tengligi va ijtimoiy taraqqiyot. Toshkent: Tashqi siyosat nashriyoti, 2018. – 200 b.
- 6.O'zbekiston Fanlar akademiyasi jurnali. "Ayol va jamiyat" maxsus soni, 2022. – Toshkent.

XVI–XVII ASRLARDA BUXORO XONLIGIDA IQTISODIY HAYOT

Reyimbayeva Onaxon

Urganch innovatsion universiteti magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada XVI–XVII asrlarda Buxoro xonligi iqtisodiy hayotining asosiy yo'nalishlari — dehqonchilik va sug'orish tizimi, hunarmandchilik ishlab chiqarishi, ichki-tashqi savdo, soliq va boj yig'implari, yer egaligi shakllari hamda siyosiy jarayonlarning iqtisodiyotga ta'siri tizimli yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda yozma manbalardan olingan iqtiboslar aynan matn holida keltirilib, so'ng muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: Buxoro xonligi, XVI–XVII asr, dehqonchilik, sug'orish, hunarmandchilik, savdo, soliq, tamg'a, xiroj, vaqf, siyosiy beqarorlik.

Аннотация. В статье системно анализируются ключевые направления хозяйственной жизни Бухарского ханства XVI–XVII вв.: земледелие и ирригация, ремесленное производство, внутренняя и внешняя торговля, налоги и пошлины, формы землевладения, а также влияние политических процессов на экономику. Приведены точные цитаты из использованных источников и дана их интерпретация.

Ключевые слова: Бухарское ханство, XVI–XVII вв., земледелие, ирригация, ремесло, торговля, налоги, тамга, харадж, вакф, политическая нестабильность.

Abstract. This article provides a systematic analysis of the economic life of the Bukhara Khanate in the 16th–17th centuries, focusing on agriculture and irrigation, craft production, domestic and foreign trade, taxation and customs duties, landholding types, and the economic consequences of political processes. Verbatim quotations from key sources are presented and then discussed.

Keywords: Bukhara Khanate, 16th–17th centuries, agriculture, irrigation, crafts, trade, taxation, tamgha, kharaj, waqf, political instability.

KIRISH. XVI–XVII asrlar Markaziy Osiyo tarixida siyosiy-sulolaviy o'zgarishlar kuchaygan, ammo ayni paytda shahar va voha xo'jaligi, hunarmandchilik hamda karvon savdosi yirik mintaqaviy tizim sifatida yashab qolgan davrdir. Buxoro xonligi (shayboniylar va ashtarxoniylar davri) ijtimoiy-iqtisodiy hayotini tushuntirish uchun iqtisodiyotning “tarmoqlar” bo'yicha ishlash mexanizmini (dehqonchilik–hunarmandchilik–savdo–moliya) va bu mexanizmga siyosiy jarayonlarning (urush, talonchilik, markazlashuv) ta'sirini bir butun tizim sifatida ko'rish zarur.

ADABIYOTLARNING TAHLILI. XVI–XVII asrlardagi Buxoro xonligining iqtisodiy hayotini yorituvchi manbalarga keladigan bo'lsak Hofiz Tanish al-Buxoriyning “Abdullanoma / Sharafnomayi shohiy” asari Shayboniylar davlati (xususan, Abdullaxon II davri) siyosiy voqealari bilan birga soliq yig'imi, ulus boshqaruvi, shaharlar hayoti, savdo yo'llari va infratuzilma kabi iqtisodiy hayotga daxldor tafsilotlarni ham beradi. Saroy buyurtmasi bo'lgani sababli ba'zan “idealizatsiya” kuchli, biroq institutlar va amaliyotlarni rekonstruksiya qilishda juda muhim. Mahmud ibn Valining “Bahr al-asror fi manoqib al-axyor” asari hududlar,

xo'jalik resurslari, ayrim ishlab chiqarish tarmoqlari haqida ma'lumotlar beradi shuningdek, iqtisodiy geografiya va resurslar tasvirini tiklash uchun foydali. Muhammad Yusuf Munshiyning "Tarix-i Muqimxoniy" nomli asari Ashtarxoniylar davri siyosiy hamda iqtisodiy muhitini yoritishda qo'shimcha tayanch bo'la oladi. Lekin xonlikning Iqtisodiy hayoti tarixi to'g'risida xulosalar chiqarish uchun uni avvalgi manbalar bilan solishtirish zarur. Shayboniylar va Ashtarxoniylar tangalari bo'yicha E. A. Davidovichning asosiy ilmiy ishlari pul tizimi, zarbxonalar va muomaladagi metall pullarni tiklashga imkon beradi. XVI asr Buxoro va Samarqand hunarmandchiligi masalasida R.G. Mukminovanning tadqiqoti manbaviy materiallarni iqtisodiy mazmunda talqin qilishi bilan ajralib turadi. Jumladan, irrigatsiya ishlari, xomashyo ta'minoti va mahsulotlar eksporti kabi masalalar aniq faktlar bilan yoritiladi. Buxoro xonligi davlatchiligi, yer egaligi, soliq tizimi, hunarmand va savdogar qatlamining fiskal majburiyatlari hamda siyosiy beqarorlik oqibatlari masalalarida B. Eshov darsligidagi tizimlashtirilgan bayon muhim konseptual karkas beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Maqolada tizimlashtirish, tarixiy-qiyosiy tahlil, tarixiy ma'lumotlarni umumlashtirish, xolislik tamoyili kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR. XVI–XVII asrlarda xonlik iqtisodining bazasi sug'orma dehqonchilik bo'lib, shahar hunarmandchiligi va savdo ham aynan shu bazaga tayanardi. Sug'orish tarmoqlari (kanallar, to'g'onlar, suv taqsimoti) davlat boshqaruvi va mahalliy elitalar manfaatlarini tutashgan "strategik soha" edi. Shayboniylar davrida Zarafshon bo'ylab ayrim suv inshootlari va kanallardan foydalanish, sug'oriladigan maydonlarni kengaytirishga oid ma'lumotlar keltiriladi (jumladan, Tuyatortar kanali va ayrim suv inshootlari zikr etiladi). Irrigatsiya kengayishi donchilik (bug'doy, arpa) bilan birga paxtachilik kabi bozorboq ekinlar ulushining ortishiga zamin yaratganini ko'rsatadigan tadqiqotlar ham bor garchi ular ko'pincha keyingi davrlar bilan qiyosda yozilsada, tendensiyaning tushunishiga yordam beradi. [1. 19] R.G. Mukminova XVI asrda sug'orish tarmog'ini yaxshilash bo'yicha ishlarni bevosita qayd etadi: "Sug'orish tarmog'ini yaxshilash bo'yicha ba'zi ishlar XVI asrga borib taqaladi, masalan, Zarafshon daryosi ustidagi suv ajratgichni ta'mirlash..., Abdulloh-hai Bandi suvni ushlab turuvchi to'g'onini qurish..." [2. 36]. Bu iqtibos ikki muhim xulosaga olib keladi. Birinchidan, irrigatsiya faqat tabiiy sharoit mahsuli emas, balki siyosiy hokimiyat va mahalliy boshqaruvning resurs safarbar etish qobiliyati bilan bog'liq "institutsional infratuzilma"dir. Ikkinchidan, sug'orish tizimiga kiritilgan sarmoya shahar hunarmandchiligi va savdosiga ham xizmat qiladi, chunki dehqonchilik mahsuloti — xomashyo va oziq-ovqat bazasidir. B. Eshov Ashtarxoniylar davridagi voha resurslarini tavsiflar ekan, vohalarning sug'oriladigan yerlariga urg'u beradi va polizchilikning mashhurligini manbaga tayangan holda eslatadi: "Mavaraunnahrning hech qayerida Buxorodagidek ko'p va xo'b qovun bo'lmaydi" [3. 279]. Bu dehqonchilik tarmoqlari ichida bozor uchun ishlaydigan ixtisoslashuv ham bo'lganini ko'rsatadi. Poliz mahsulotlaridan pul ko'rinishida soliq olinishi haqidagi qaydlar fiskal tizimning qishloq xo'jaligi bozorlashtirilishiga moslashganini anglatadi. Hunarmandchilik shahar va qishloq iqtisodiy hayotida muhim rol o'ynagan. Mukminova shahar va qishloqning ishlab

chiqarish jihatidan uzviy aloqasini bevosita ta'kidlaydi: "XVI asrda feodal shahar hunarmandchilikning yagona markazi emas edi va u qo'shni qishloqlar bilan iqtisodiy jihatdan chambarchas bog'liq edi." [2. 36]. Demak, hunarmandchilik "shahar monopoliyasi" emas ayrim tarmoqlar qishloq muhitida joylashgan bo'lib bu esa xomashyo ta'minoti va mehnat taqsimotining hududiy shakllanganligini anglatadi. Xomashyo bazasi masalasida ham muhim dalil bor: "Hunarmandlar qishloq joylaridan olib kelingan paxtadan matolar to'qishgan." [2. 36]. Bu shuni ko'rsatadiki, shahar hunarmandchiligining (to'qimachilik) resursi qishloq xo'jaligi bilan bog'langan.

Shu bilan birga Buxoro xunarmandlarining maxsuli bo'lmish kamonlar (oltin bilan bezatilgan) Moskva davlatiga eksport qilingan. Bu misol hunarmandchilik mahsulotlarining (qurol-aslaha va bezakli buyumlar) nafaqat ichki ehtiyoj, balki tashqi savdo uchun ham ishlab chiqarilganini ko'rsatadi. Bunday eksport esa ishlab chiqarishda sifat, standart va ixtisoslashuv bo'lishini talab qilgan.

Savdo-sotiq ishlari ko'pincha ikki darajada ishlagan. Shahar ichki bozor infratuzilmasi va mintaqalararo karvon yo'llari. B. Eshov ashtarxoniylar davri shahar iqtisodiy hayotini tasvirlar ekan, karvonsaroylar mavjudligini va tashqi bozorlarga yo'nalgan savdoni qayd etadi: "ichki va tashqi bozor maxsulotlari ... savdogarlar to'xtashlari uchun karvonsaroylar mavjud bo'lgan." [3. 281] Bu albatta savdoning institutsional tayanchi — karvonsaroylar va bozorlardagi infratuzilma mavjudligini ko'rsatadi. Karvonlar oqimi bo'lgan joyda boj, yo'l yig'implari va xizmatlar bozori ham shakllanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR. XVI–XVII asrlarda Buxoro xonligi iqtisodiyoti agro-urban xarakterga ega bo'lib, dehqonchilik–hunarmandchilik–savdo bir zanjir sifatida ishlagan. Sug'orish infratuzilmasiga doir ishlar iqtisodiy barqarorlikning asosiy sharti bo'lgan. Hunarmandchilik shahar bilan cheklanmagan qishloq joylarda ham ixtisoslashgan ishlab chiqarish mavjud bo'lib, shahar bilan resurs va bozor orqali bog'langan. Savdo va fiskal boshqaruvda tamg'a, xiroj, boj va boshqa yig'implar tizimi mavjud bo'lib, ayrim guruhlar imtiyozlar berilgan, bu esa iqtisodiy stratifikatsiyani kuchaytirgan. Siyosiy beqarorlik (bosqin, talonchilik) shahar xo'jaligiga bevosita zarba bergan markazlashuv esa tiklanish uchun zamin yaratgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Choriev Nuriddin Khushbokovich. Eurasian Journal of History, Geography and Economics. Development Of Agricultural Culture In The Irrigation System Of The Northern And Central Regions Of The Surkhandarya Oasis. Volume 5| February 2022. 6.b.
2. Р.Г.Мукминова. *Очерки по истории ремесла в Самарканде и Бухаре в XVI веке.* – Ташкент: Издательство «Фан» УзССР, 1976. – 249 с. – Иқтибос олинган бетлар: 36, 43, 210–212.
3. Б.Эшов. *Ўзбекистон давлатчилиги ва бошқаруви тарихи.* – Тошкент: Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон миллий университети, 2012. – 456 бет. – Иқтибос олинган бетлар: 253–256, 260–263, 279–281.
4. R. D. McChesney. Waqf in Central Asia. four hundred years in the history of a Muslim shrine, 1480-1889. 1944. University of Michigan Library. 600 p.

IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA XORAZM VILOYATI SANOATINING HARBIY ASOSDA QAYTA QURILISHI

Ro'zmetov Shuhratbek Quronboevich

Urganch innovatsion universiteti magistranti

E-mail: shuxratrozmetov5919

Annotatsiya: Maqolada ikkinchi jahon urushi yillarida Xorazmda sanoat korxonalarining faoliyati, urush davri talablariga moslab qayta qurilishi, viloyatda mavjud imkoniyatlardan kelib chiqib ishlab chiqarish ishlari yo'lga qo'yilganligi ochib berilgan. Shuningdek, urush yillarida sanoat korxonalari asosan front uchun mahsulot ishlab chiqargan. Bu davrga kelib mehnatkashlar hamma narsa g'alaba uchun degan shior ostida ishlagan.

Kalit so'zlar: Xorazm, urush, sanoat, fabrika, artel, front, xom ashyo, paxta, sovun, oyoq kiyim, arqon, yog'.

Аннотация: В статье раскрывается деятельность промышленных предприятий Хорезма во время Второй мировой войны, их реконструкция в соответствии с потребностями войны и создание производства на основе существующих в регионе возможностей. Также в годы войны промышленные предприятия производили продукцию преимущественно для фронта. К этому времени рабочие трудились под лозунгом «всё ради победы».

Ключевые слова: Хорезм, война, промышленность, завод, артель, фронт, сырье, хлопок, мыло, обувь, веревка, масло.

Abstract: The article reveals the activities of industrial enterprises in Khorezm during the Second World War, their reconstruction in accordance with the requirements of the war, and the establishment of production based on the existing capabilities in the region. Also, during the war years, industrial enterprises produced products mainly for the front. By this time, workers worked under the slogan that everything was for victory.

Keywords: Khorezm, war, industry, factory, artel, front, raw materials, cotton, soap, shoes, rope, oil.

Ikkinchi jahon urushi respublikamizning barcha sohalaridek, sanoatning barcha tarmoqlarini ham, sanoat xodimlarining ishini ham tubdan o'zgartirib yubordi. Urush boshlangan dastlabki kunlardanoq nihoyatda qisqa muddatda sanoat qurilishini avj oldirish, harbiy mahsulotni ishlab chiqarishni ko'paytirish, frontga umumxalq yordamini uyushtirish ko'zda tutildi. Shuningdek mamlakat Sharqiy mintaqalarida yashayotgan tinch aholi evakuatsiya qilingan sanoat korxonalarini tezda qabul qilib olib, ularni zudlik bilan ta'mirlab tezda mahsulot ishlab chiqarishga moslashtirishi lozim edi. Albatta, bu vazifa og'ir bo'lib katta kuch, yuksak qobiliyat, beqiyos fidoyilik va tinimsiz mehnatni talab etar edi [3,25].

Bu vazifalarni bajarish Xorazm viloyatining o'ziga xos sharoitlarida amalga oshirildi. Viloyatning asosiy sanoat markazlaridan uzoqda joylashgani, temir yo'l yo'qligi, zarur tovarlarni keltirish yoki frontga mahsulot jo'natishni ancha

qiyinlashtirdi. Urush yillarida faqat Amudaryoning Cholish pristani orqali markaziy shaharlar bilan bog'lanish imkoniyati bor edi, xolos.

Ushbu vaziyatni hisobga olib, respublika rahbariyati viloyat mehnatkashlari oldida yangi vazifa-aholiga zarur keng iste'mol mollarini mahalliy mablag' va xom-ashyo hisobiga ishlab chiqarishni tashkil qilish, viloyat sanoat korxonalari yalpi mahsulotlarini 2 baravar oshirish, mavjud suv yo'li transportidan frontga mahsulot yuborish maqsadlarini to'la foydalanish vazifasini qo'ydilar.

Viloyat mehnatkashlarining g'ayrat-shijoati tufayli birinchi navbatda sanoat korxonalarida front uchun mahsulot ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Qo'shimcha imkoniyatlar ishga solinib, sanoat korxonalari mahalliy xom-ashyo asosida ishlashga ko'chirildi.

1941 yil oxiriga kelib, oblast sanoat korxonalariga jalb qilingan xotin-qizlar soni 1213 nafarga yetdi[4,180]. Ular frontga ketgan akalari, otalari va erlari uchun mardonavor ishlab, kuniga 2-3 norma bajardilar. 1941 yili viloyat sanoat korxonalari yillik rejani 105 foizga bajardi[5,148]. Jumladan, Urganch tikuvchilik fabrikasida urushning ikkinchi kuniyoq ish uch smenada tashkil kilindi. Bu fabrikani ishchilari Umarova, Sadullaeva, Bekmonova, Azizova, Nikiforova, Odamovalar kunlik vazifani 2-2,5 baravar qilib bajardilar. Ikkita o'g'lini frontga yuborgan U.Matkarimova kunlik rejani 170-200%ga bajaribgina qolmasdan, tikuvchilik kasbiga yoshlarni ham o'rgata boshladi[4, 180].

Urganch yog' zavodi ham urushning dastlabki kunlaridan boshlab korxonada 10 soatlik majburiy ish kuni, zarur paytda 2-3 smena ishlashga o'tish mumkinligi e'lon etildi. Barcha sexlarda urushga ketgan erkaklar o'rnini xotin-qizlar egalladilar. 1941-1942-yillarda zavod Vatan himoyachilari va qamalda qolgan jabrdiydalarga 10 000 tonnadan ziyod turli mahsulotlar jo'natdi. Urush yillarida zavod jamoasi ishlab chiqarish brigadalari o'rtasida musobaqalarni qizitib yubordi. 1943 yilda zavodning 1-brigada ishchilari g'olib bo'lib, rejani 103,8%ga bajardilar. Eng yuqori natijaga yog' juvoz va sovun pishirish sexlari ishchilari erishdilar [1, 138].

II-jahon urushi yillarida paxta yetishtirish keskin kamayib ketdi. Natijada Urganch paxta tozalash zavodida mehnat unumdorligi 2 barobarga qisqardi. Korxonaning yuragi hisoblangan ikki batareyali dastgohdan biri butunlay to'xtab qoldi[6,32]. Gurlan paxta tozalash zavodida ishlayotgan aksariyat erkaklar frontga ketdi. Tuman partiya va sovet organlari xotin-qizlarga, uy bekalariga murojaat qilib, ishlab chiqarishda urushga ketgan erlari, aka-ukalari o'rnini egallashga chaqirdilar [2, 45].

Xulosa qilib aytganda, Ikkinchi jahon urushi yillarida viloyatda mavjud sharoitlar asosida sanoat korxonalari xarbiy asosda qayta qurildi. Sanoatda asosan xotin-qizlar va o'smirlar mehnatidan foydalanildi. Bu bilan ular birinchi o'rinda g'alabaga o'zlarining munosib hissalarini qo'shdilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Xorazm viloyati davlat arxivi. F-1, op-3, d-43, v-138.
2. Xorazm viloyati davlat arxivi. F-1, op-1, d-16, v-45.
3. Tursunov S.N. Xotira barhayot, qadr mangu. – T. 2010. – B.25.
4. Узбекская ССР в годы Великой Отечественной войны. В 3-х томах, т. 1, Т.: Фан, 1981. – С. 180.
5. Xorazm viloyati davlat arxivi. F-1, op-3, d-43, v-148.

O'ZBEKISTON HUDUDIDA BRONZA VA ILK TEMIR DAVRI QISHLOQ JAMOALARI: TRANSFORMATSIYA JARAYONLARI VA HUDUDIIY XUSUSIYATLAR

Nurmetov Sardor Baxtiyarovich

Urganch innovatsion universiteti katta o'qituvchisi, PhD.

Ruslanov Murod Mansurovich

Urganch innovatsion universiteti magistranti

E-mail: murod6018808@gmail.com

Annotatsiya Ushbu maqolada O'zbekiston hududida bronza va ilk temir davrlarida qishloq jamoalarining shakllanishi va evolyutsiyasi masalalari arxeologik ma'lumotlar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda Sapallitepa, Jarqo'ton va Chust madaniyati kabi yodgorliklarning o'ziga xos xususiyatlari, sug'orma dehqonchilikning roli hamda ijtimoiy tabaqalanish jarayonlari yoritilgan. Shuningdek, temir asriga o'tish davridagi texnologik va demografik o'zgarishlar ilmiy asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Bronza davri, ilk temir davri, qishloq jamoasi, Sapallitepa, Jarqo'ton, urbanizatsiya, sug'orma dehqonchilik, ijtimoiy tabaqalanish.

Аннотация В данной статье на основе археологических данных анализируются вопросы формирования и эволюции сельских общин на территории Узбекистана в эпоху бронзы и раннего железа. В исследовании освещены особенности таких памятников, как Сапаллитепа, Джаркутан и Чустская культура, роль ирригационного земледелия и процессы социальной стратификации. Также научно обоснованы технологические и демографические изменения в период перехода к железному веку.

Ключевые слова: Эпоха бронзы, ранний железный век, сельская община, Сапаллитепа, Джаркутан, урбанизация, поливное земледелие, социальная стратификация.

Abstract This article analyzes the formation and evolution of rural communities in the territory of Uzbekistan during the Bronze and Early Iron Ages based on archaeological data. The study highlights the features of such monuments as Sapallitepa, Jarkutan and Chust culture, the role of irrigation agriculture and the processes of social stratification. Technological and demographic changes during the transition to the Iron Age are also scientifically substantiated.

Keywords: Bronze Age, Early Iron Age, rural community, Sapallitepa, Jarkutan, urbanization, irrigated agriculture, social stratification.

Kirish. Insoniyat tarixida bronza va temir davrlari ishlab chiqaruvchi xo'jalikka o'tish va ilk davlatchilik asoslarining shakllanishi bilan xarakterlanadi. O'zbekiston hududi o'zining qulay tabiiy-geografik joylashuvi va daryo havzalari bilan qadimiy qishloq jamoalarining asosiy markazlaridan biri bo'lib kelgan. Ushbu davrlarda yuz bergan ijtimoiy-iqtisodiy transformatsiyalarni o'rganish mintaqadagi urbanizatsiya jarayonlari va etnik shakllanish tarixini tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bronza davrida qishloq jamoalarining shakllanishi

Miloddan avvalgi III–II ming yilliklarda O'rta Osiyoning janubiy viloyatlarida o'troq dehqonchilikka asoslangan yuqori darajadagi madaniyat shakllandi. Bu davrning eng yirik markazlaridan biri Surxondaryo vohasidagi **Sapallitepa** va **Jarqo'ton** yodgorliklaridir.

Sapallitepa yodgorligini o'rgangan akademik A.Askarovning ta'kidlashicha, ushbu manzilgoh mukammal me'moriy loyiha asosida qurilgan bo'lib, u sakkizta yirik oilaviy jamoa yashaydigan dahalarga bo'lingan [1, 45-b]. Bu davrda qishloq jamoasi nafaqat iqtisodiy, balki diniy va harbiy-mudofaa birligi sifatida ham namoyon bo'ladi.

Jarqo'ton yodgorligida olib borilgan tadqiqotlar esa jamoa ichida ijtimoiy tabaqalanish jarayoni boshlanganini ko'rsatadi. Bu yerda ilk ibodatxonaning mavjudligi va qabrlar orasidagi ashyoviy farqlar jamoa ichida ruhoniylar va zodagonlar qatlami ajralib chiqqanidan dalolat beradi. Dehqonchilikning sun'iy sug'orishga asoslanishi jamoa a'zolaridan birgalikda mehnat qilishni va murakkab sug'orish tarmoqlarini boshqarishni talab etgan.

Ilk temir davridagi transformatsiyalar. Miloddan avvalgi I ming yillik boshlarida temir metalurgiyasining kashf etilishi qishloq jamoalari hayotida sifat jihatidan yangi bosqichni boshlab berdi. Temir qurollarning keng qo'llanilishi dehqonchilik samaradorligini keskin oshirdi.

Ushbu davrda O'zbekiston hududida uchta asosiy hududiy xususiyatga ega jamoalar ajralib turadi:

1. **Janubiy hududlar (Baqtriya):** Bu yerda qishloq jamoalari negizida ilk shahar tipidagi markazlar shakllana boshladi.
2. **Zarafshon va Qashqadaryo vohalari (Sug'd):** Sug'orma dehqonchilikka asoslangan, atrofi mudofaa devorlari bilan o'ralgan qishloqlar (masalan, Ko'ktepa) ko'paydi [2, 112-b].
3. **Farg'ona vodiysi (Chust madaniyati):** Bu hududda o'ziga xos dehqonchilik va chorvachilik uyg'unlashgan jamoalar rivojlandi. Chust madaniyatiga oid manzilgohlarda yirik don omborlarining topilishi jamoa xo'jaligi yuqori darajada tashkil etilganini ko'rsatadi.

Hududiy va ijtimoiy xususiyatlar tahlili

Temir davri qishloq jamoalari hududning ekologik sharoitiga ko'ra turlicha ixtisoslashgan. Masalan, Zarafshon vohasi jamoalari kanallar qazish va bog'dorchilikda yuqori mahoratga ega bo'lgan bo'lsa, tog'oldi hududlaridagi jamoalarda yarim ko'chmanchi chorvadorlik yetakchi o'rin tutgan.

Ijtimoiy nuqtai nazardan, qishloq jamoasi a'zolari o'rtasidagi mulkiy farqlar temir davrida yanada chuqurlashdi. Temir asboblari yordamida ortiqcha mahsulot ishlab chiqarish imkoniyati paydo bo'lishi jamoa boshqaruvining murakkablashuviga va ilk davlat tuzilmalarining (Katta Xorazm, Qadimgi Baqtriya) yuzaga kelishiga zamin yaratdi [3, 78-b].

Xulosa shuki, O'zbekiston hududidagi bronza va ilk temir davri qishloq jamoalari mintaqadagi sivilizatsiyaning poydevori hisoblanadi. Bronza davridagi Sapallitepa va Jarqo'ton madaniyati asosida shakllangan jamoaviy hayot tarzi temir

davriga kelib texnologik va ijtimoiy jihatdan takomillashdi. Ushbu jamoalar nafaqat moddiy ne'matlar ishlab chiqaruvchisi, balki mintaqadagi ilk shaharsozlik va davlatchilik an'alarining tashuvchisi bo'lib xizmat qildi. Ularning hududiy xususiyatlarini o'rganish bugungi kunda O'rta Osiyo xalqlarining qadimiy tarixini xolis baholash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Askarov A. Sapollitepa. – Toshkent: Fan, 1973. – 160 b.
2. Sagdullaev A.S. O'zbekiston tarixi: qadimgi davr. – Toshkent: Universitet, 2011. – 256 b.
3. Rtveladze E.V. Древние цивилизации Узбекистана. – Tashkent: Fan, 2001. 180 s.
4. O'zbekiston arxeologiyasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2002. – 210 b.

BRONZA VA TEMIR DAVRIDA O'ZBEKISTON HUDUDIDA MIKROVOHALARNING TARIXIY TARAQQIYOTI

Nurmetov Sardor Baxtiyorovich

Urganch innovatsion universiteti katta o'qituvchisi,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori

Ruslanov Murod Mansurovich

Urganch innovatsion universiteti magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada bronza va temir davrida O'zbekiston hududida shakllangan mikrovohalarning vujudga kelish omillari hamda rivojlanish bosqichlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot arxeologik va tarixiy manbalar asosida olib borilib, mikrovohalarning sug'orma dehqonchilik, aholi o'troqlashuvi, xo'jalik faoliyati va madaniy jarayonlar taraqqiyotidagi o'rni yoritib beriladi. Shuningdek, bronza davrida vujudga kelgan dastlabki xo'jalik markazlarining temir davrida murakkab ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmalarga aylanish jarayoni qiyosiy-tarixiy yondashuv asosida baholanadi.

Kalit so'zlar: mikrovoha, bronza davri, temir davri, sug'orma dehqonchilik, irrigatsiya, qadimgi jamiyat.

Аннотация. В статье проводится научный анализ факторов формирования и этапов развития микрооазисов, сложившихся на территории Узбекистана в бронзовом и железном веках. Исследование основано на археологических и исторических источниках и раскрывает роль микрооазисов в развитии ирригационного земледелия, оседлости населения, хозяйственной деятельности и культурных процессов. Также с позиций сравнительно-исторического подхода оценивается процесс трансформации ранних хозяйственных центров бронзового века в более сложные социально-экономические структуры железного века.

Ключевые слова: микрооазис, бронзовый век, железный век, ирригация, земледелие, древнее общество.

Abstract. The article provides a scholarly analysis of the factors behind the formation and stages of development of micro-oases that emerged in the territory of Uzbekistan during the Bronze and Iron Ages. Based on archaeological and historical sources, the study highlights the role of micro-oases in the development of irrigated agriculture, population sedentarization, economic activities, and cultural processes. Using a comparative-historical approach, the transformation of early Bronze Age economic centers into more complex socio-economic structures of the Iron Age is also assessed.

Key words: micro-oasis, Bronze Age, Iron Age, irrigation, agriculture, ancient society.

Kirish. O'zbekiston hududi qadimdan Markaziy Osiyoning yetakchi madaniy-tarixiy makonlaridan biri sifatida shakllanib, bu hududda bronza va temir davrlarida murakkab va ko'p qatlamli ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar kechgan. Xususan, mikrovohalar daryo, soy va yer osti suvlariga tayangan holda vujudga kelgan hududiy xo'jalik tizimlari bo'lib, qadimgi jamiyatlarning o'troqlashuvi va

sug'orma dehqonchilik rivojida muhim ro'l o'ynagan [1.B.45-52]. Mikrovoahalar tabiiy-geografik sharoitlar bilan insonning ishlab chiqarish faoliyati o'rtasidagi uzviy aloqani ifodalovchi hududiy tizimlar hisoblanadi.

Bronza davrida (mil. avv. III–II ming yilliklar) mikrovoahalar chorvachilik va dehqonchilik xo'jalik tarmoqlarining dastlabki sintezi asosida shakllanib, yarim o'troq va o'troq aholi manzilgohlarining vujudga kelishiga zamin yaratgan [2.B.58-65]. Temir davriga kelib (mil. avv. I ming yillik) esa irrigatsiya texnologiyalarining takomillashuvi, ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi va ijtimoiy tabaqalanish jarayonlarining chuqurlashuvi natijasida mikrovoahalarining iqtisodiy, ijtimoiy hamda siyosiy funksiyalari sezilarli darajada kengaydi [3.B.73-81]. Natijada ushbu hududlar negizida proto-shahar markazlari va ilk davlat tuzilmalari shakllanib, ular Markaziy Osiyoda sivilizatsion taraqqiyotning muhim tayanch bo'g'iniga aylandi.

Tadqiqot Metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida mazkur mavzuning ilmiy jihatdan mukammal yoritilishini ta'minlash maqsadida tarixiy va zamonaviy ilmiy bilish metodlarining majmuasidan foydalanildi. Jumladan, bronza va temir davrlarida mikrovoahalarining shakllanishi va rivojlanishini vaqt va makon kesimida aniqlash uchun tarixiy-xronologik tahlil metodi qo'llanildi. Mikrovoahalar bilan bog'liq arxeologik materiallar, yodgorliklar va madaniy qatlamlarning umumiy va xususiy jihatlarini aniqlashda arxeologik manbalarni qiyosiy o'rganish metodi asosiy o'rin egalladi. Tadqiqotda shuningdek, tabiiy-geografik muhitning xo'jalik faoliyatiga ta'sirini baholash maqsadida geografik-ekologik yondashuvdan foydalanildi. Mikrovoahalarining jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini kompleks tarzda ochib berishda esa sivilizatsion va tizimli tahlil metodlari tatbiq etildi.

Tadqiqotning manbaviy asosini O'zbekiston hududida olib borilgan arxeologik qazilmalar natijalari, qadimgi irrigatsiya tizimlariga oid ilmiy izlanishlar hamda mahalliy va xorijiy olimlarning konseptual tadqiqotlari tashkil etadi. Ushbu manbalar asosida mikrovoahalarining iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy funksiyalari ilmiy asosda tahlil qilindi.

Natijalar. Bronza va temir davrlarida O'zbekiston hududida mikrovoahalarining shakllanishi, avvalo, tabiiy-geografik sharoitlar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Amudaryo, Zarafshon, Qashqadaryo va Surxondaryo kabi yirik daryo havzalari, ularning quyi oqimlarida shakllangan allyuvial tuproqlar hamda nisbatan qulay iqlim sharoiti sug'orma dehqonchilikning vujudga kelishi va rivojlanishi uchun muhim omil bo'lib xizmat qilgan. Ushbu hududlarda suv va yer resurslarining uyg'unligi qadimgi aholining xo'jalik faoliyatini barqaror yuritishiga imkon yaratgan hamda mikrovoahalarining tabiiy asosini belgilab bergan.

Mikrovoahalarining barqaror shakllanishi va uzluksiz faoliyat yuritishida suv resurslaridan oqilona foydalanish alohida ahamiyat kasb etgan. Qadimgi kanallar, ariq tarmoqlari va yer osti suvlariga asoslangan koriz tizimlarining paydo bo'lishi sug'orma dehqonchilik maydonlarining kengayishiga olib kelgan. Natijada mikrovoahalar doirasida dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilikning o'zaro uzviy aloqadorligi ta'minlanib, iqtisodiy faoliyatning ko'p tarmoqli modeli

shakllangan. Bu jarayonlar ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi va xo'jalik munosabatlarining murakkablashuviga xizmat qilgan.

Shuningdek, mikrovohalarning rivojlanishida demografik va madaniy omillar muhim rol o'ynagan. Aholi sonining asta-sekin ortib borishi va o'troq turmush tarziga o'tish jarayoni doimiy manzilgohlarning vujudga kelishiga sabab bo'lgan. Bunda sug'orish texnologiyalari, yerga ishlov berish usullari va xo'jalik yuritish tajribasining avloddan-avlodga uzatilishi muhim ahamiyat kasb etgan. Natijada mikrovohalar nafaqat iqtisodiy faoliyat markazlari, balki qadimgi jamiyatlarning madaniy an'analari va ijtimoiy tuzilmalari shakllangan hududlar sifatida tarixiy jarayonda muhim o'rin egallagan.

Bronza davrida mikrovohalarning rivojlanishi O'zbekiston hududida qadimgi xo'jalik tizimlarining shakllanishi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Sopollitepa, Jarqo'ton va Qo'ng'irtut yodgorliklariga oid arxeologik materiallar mazkur davrda mikrovohalarning asosan qishloq-xo'jalik markazlari sifatida faoliyat yuritganini ko'rsatadi [4.B.121-130]. Tabiiy suv manbalaridan foydalanishga asoslangan dastlabki sug'orish inshootlarining paydo bo'lishi dehqonchilik ishlab chiqarishining barqarorlashuviga olib kelib, xo'jalik faoliyatining hududiy doirada rivojlanishini ta'minlagan.

Mazkur davrda yarim o'troq turmush tarzidan to'liq o'troqlashuvga o'tish jarayoni tezlashib, doimiy aholi manzilgohlari shakllangan. Dehqonchilik va chorvachilikning o'zaro uyg'unlashuvi, hunarmandchilik faoliyatining dastlabki ko'rinishlari hamda ichki xo'jalik aloqalarining rivoji mikrovohalarning iqtisodiy jihatdan nisbatan mustaqil hududlar sifatida qaror topishiga xizmat qilgan. Bu jarayonlar keyingi tarixiy bosqichlarda ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning murakkablashuvi uchun muhim asos bo'lib xizmat qilgan.

Temir davrida mikrovohalarning taraqqiyoti O'zbekiston hududida ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlarning murakkablashuvi bilan tavsiflanadi. Sug'orma dehqonchilik texnologiyalarining takomillashuvi natijasida yirik irrigatsion tizimlar shakllanib, ishlab chiqarish hajmi va barqarorligi oshdi, bu esa hunarmandchilikning rivojlanishi va savdo aloqalarining kengayishiga zamin yaratdi. Mazkur jarayonlar ijtimoiy tabaqalanishning kuchayishi, mulkiy va kasbiy tafovutlarning yuzaga kelishi bilan birga kechib, mikrovohalar negizida ilk shahar markazlari hamda dastlabki davlat tuzilmalarining shakllanishiga olib keldi [5.B.140-155].

Bu davrda mikrovohalar nafaqat xo'jalik, balki ma'muriy-siyosiy markazlar vazifasini ham bajara boshlagan.

Muhokama. O'zbekiston mikrovohalari Markaziy Osiyodagi sivilizatsion jarayonlarning muhim bo'g'ini hisoblanadi. Ular Mesopotamiya va Hind vodiysi sivilizatsiyalari bilan qiyoslaganda, suv resurslaridan foydalanishning moslashuvchan va ekologik muvozanatli modeli bilan ajralib turadi. Mikrovohalar orqali hududiy integratsiya, madaniy almashinuv va iqtisodiy barqarorlik ta'minlangan. O'zbekiston hududida shakllangan mikrovohalar Markaziy Osiyodagi sivilizatsion jarayonlarning muhim tarkibiy bo'g'ini sifatida qaraladi.

Ushbu mikrohududlar qadimgi jamiyatlarning tabiiy muhitga moslashuvi va ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etishning samarali modeli sifatida namoyon bo'ladi.

Mesopotamiya va Hind vodiysi sivilizatsiyalari bilan qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston mikrovoahalari suv resurslaridan foydalanishda nisbatan moslashuvchan, lokal sharoitlarga moslashtirilgan va ekologik muvozanatni saqlashga yo'naltirilgan irrigatsion tizimlarga tayanilgan. Masalan, Zarafshon va Qashqadaryo havzalarida shakllangan qadimgi sug'orish tarmoqlari suvdan tejamkor foydalanish va yer resurslarini uzoq muddat barqaror saqlash imkonini bergan.

Mikrovoahalar doirasida shakllangan xo'jalik va madaniy tizimlar hududiy integratsiya jarayonlarini jadallashtirib, iqtisodiy va ijtimoiy aloqalarning mustahkamlanishiga xizmat qilgan. Xususan, Sopolli madaniyati va Baqtriya-Marg'iyona arxeologik majmuasi doirasidagi yodgorliklar mikrovoahalarning nafaqat dehqonchilik va hunarmandchilik markazlari, balki madaniy tajriba va texnologik bilimlar almashinuvi amalga oshgan hududlar bo'lganini ko'rsatadi. Natijada mikrovoahalar orqali iqtisodiy barqarorlik ta'minlanib, turli madaniy an'analar o'zaro uyg'unlashgan hamda Markaziy Osiyoda qadimgi sivilizatsion taraqqiyotning o'ziga xos modeli shakllangan.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, bronza va temir davrlarida O'zbekiston hududida mikrovoahalarning shakllanishi va izchil rivojlanishi tabiiy-geografik sharoitlar, iqtisodiy faoliyat shakllari hamda madaniy an'analarning o'zaro uzviy uyg'unligi natijasida yuzaga kelgan murakkab tarixiy jarayon sifatida baholanadi. Suv resurslaridan samarali foydalanishga asoslangan mikrovoahalar qadimgi jamiyatlarning o'troqlashuvi, sug'orma dehqonchilikning barqaror shakllarini vujudga keltirish hamda ishlab chiqarish munosabatlarining rivojlanishida muhim omil bo'lib xizmat qilgan. Ayniqsa, bronza davrida mikrovoahalarning dastlabki xo'jalik markazlari sifatida shakllanishi va temir davrida ularning yirik irrigatsion, ijtimoiy hamda siyosiy markazlarga aylanishi Markaziy Osiyoda ilk shaharlar va davlat tuzilmalarining paydo bo'lishi uchun mustahkam zamin yaratgan.

Mikrovoahalarni kompleks o'rganish O'zbekiston hududida sivilizatsion jarayonlarning genezisi, ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning shakllanish mexanizmlari hamda inson va tabiat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning tarixiy rivojlanishini chuqurroq anglash imkonini beradi. Shu jihatdan, mikrovoahalar masalasining ilmiy tadqiq etilishi nafaqat mintaqaning qadimgi tarixini yoritishda, balki Markaziy Osiyodagi sivilizatsion taraqqiyotning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashda ham muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Asqarov A. Eng qadimiy shahar. — Toshkent: Ma'naviyat, 2001.
2. Xolboyev Z, Alimov A. O'zbekistonning arxeologiya yodgorliklari. — Toshkent: Tafakkur qanoti, 2014.
3. Массон В. М. Средняя Азия и древний Восток. — Москва: Наука, 1981.
4. Толстов С. П. По следам древнехорезмийской цивилизации. — Москва: Наука, 1948.
5. Dani A. H., Masson V. M. History of Civilizations of Central Asia. Vol. I: The Dawn of Civilization. — Paris: UNESCO Publishing, 1992.

QUYI SIRDARYO HUDUDLARINING PALEOGEOGRAFIK HOLATI VA MADANIY-XO'JALIK MIKROVOHALARINING VUJUDGA KELISHI

Maxmudov Umrбек Baxtiyorovich

Urganch innovatsion universiteti dotsenti

Sabirova Dildora Palvannazirovna

Urganch innovatsion universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi Quyi Sirdaryo mintaqasining golotsen davridagi paleogeografik evolyutsiyasi va uning insoniyat xo'jalik faoliyatiga ta'siri tadqiq etiladi. Daryo o'zanlarining migratsiyasi va Orol dengizi sathi o'zgarishi natijasida vujudga kelgan madaniy-xo'jalik mikrovoahalarining shakllanish mexanizmlari, xususan Jetiasar madaniyati misolida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Quyi Sirdaryo, paleogeografiya, mikrovoha, Janadaryo, Jetiasar madaniyati, aridizatsiya, antropogen landshaft, gidrografik determinizm.

Аннотация: В данном тезисе исследуется палеогеографическая эволюция региона Нижней Сырдарьи в эпоху голоцена и её влияние на хозяйственную деятельность человека. Анализируются механизмы формирования культурно-хозяйственных микрооазисов, возникших в результате миграции речных русел и изменения уровня Аральского моря, в частности на примере Джетыясарской культуры.

Ключевые слова: Нижняя Сырдарья, палеогеография, микрооазис, Жанадарья, Джетыясарская культура, аридизация, антропогенный ландшафт, гидрографический детерминизм.

Abstract: This thesis examines the paleogeographic evolution of the Lower Syr Darya region during the Holocene and its impact on human economic activity. The mechanisms of formation of cultural and economic micro-oases resulting from the migration of river channels and changes in the Aral Sea level are analyzed, specifically using the example of the Dzhetyasar culture.

Keywords: Lower Syr Darya, paleogeography, micro-oasis, Zhanadarya, Dzhetyasar culture, aridization, anthropogenic landscape, hydrographic determinism.

Quyi Sirdaryo (Orolbo'yi) hududi — geomorfologik jihatdan o'ta dinamik va ekologik o'zgarishlarga sezgir zona hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, golotsen davri davomida mintaqada landshafti Sirdaryo o'zanlarining meandrlanishi va Orol dengizining transgressiya-regressiya davrlari bilan bog'liq holda bir necha bor transformatsiyaga uchragan. Bu yerda Inkordaryo, Quvondaryo va Janadaryo kabi qadimiy o'zanlar tizimi mavjud bo'lib, ular turli tarixiy bosqichlarda mintaqaning gidrologik karkasini shakllantirgan [1, 58-b.].

Miloddan avvalgi II ming yillikning oxiri va I ming yillikning boshlarida Sirdaryoning asosiy oqimi janubiy yo'nalishga — Janadaryo tarmog'iga tomon siljigan. Bu jarayon daryo deltasining markaziy qismlarida yer osti suvlari sathining ko'tarilishiga va boy to'qay-botqoq ekotizimlarining rivojlanishiga sharoit yaratdi. Paleoklimatologik ma'lumotlar ushbu davrda mintaqada nisbiy

namlikning ortganini (subboreal davr) tasdiqlaydi, bu esa antropogen faoliyat uchun qulay ekologik fashiya (muhit) yaratgan [3, 89-b.].

Hududda mikrovohalarning vujudga kelishi — bu shunchaki suv manbalari atrofida aholining to'planishi emas, balki "landshaft arxeologiyasi" nuqtai nazaridan murakkab ijtimoiy-iqtisodiy moslashuv strategiyasidir. Mikrovoha tushunchasi cho'l va chala cho'l ekotizimida suv resurslarining lokal jamlanishi natijasida hosil bo'lgan madaniy-xo'jalik areallarini ifodalaydi. Ularning shakllanishida "gidrografik determinizm" — ya'ni suv resurslarining joylashuvi insoniyatning ko'chib qo'nish trayektoriyasini belgilab berishi ustuvor rol o'ynagan.

Quyida Sirdaryodagi mikrovohalar (masalan, Jetiasar, Chirik-Rabat, Babishmulla) quyidagi tarkibiy elementlardan tashkil topgan:

1. **Gidrotexnik karkas:** Tabiiy daryo o'zanlaridan chiqarilgan kichik tarmoqlar va sun'iy ariqlar tizimi.
2. **Xo'jalik sub-rayonlari:** Markaziy istehkomli qal'a atrofida joylashgan intensiv dehqonchilik zonalari va ulardan tashqaridagi yaylov-chorvachilik hududlari.
3. **Demografik konsentratsiya:** Suv tanqisligi va xavfsizlik ehtiyoji tufayli aholining ma'lum bir nuqtada zichlashishi.

Miloddan avvalgi I ming yillikning o'rtalarida shakllangan Jetiasar madaniyati mikrovohalarning eng mukammal namunasi hisoblanadi. Tadqiqotlarda 20 dan ortiq mikrovohalar aniqlangan bo'lib, ularning har biri alohida Janadaryo yoki Quvondaryo tarmoqlariga bog'langan edi [2, 142-b.]. Bu yerda aholi tabiiy daryo tarmoqlarini sun'iy sug'orish tizimlari bilan birlashtirib, murakkab irrigatorik landschaft yaratgan. Paleobotanik qoldiqlar (arpa, bug'doy, tariq) va osteologik materiallar aholining "agro-pastoral" (dehqonchilik-chorvachilik) modelida faoliyat yuritganini isbotlaydi [3, 156-b.].

Mikrovohalarning inqirozi ko'p hollarda tabiiy va antropogen omillarning sintezi natijasida yuzaga kelgan. Iqlimning quruqlashishi (**aridizatsiya**) va daryo o'zanlarining migratsiyasi natijasida sug'orish tizimlari ishdan chiqqan. Biroq, Jetiasar mikrovohalari tahlili shuni ko'rsatadiki, aholi suv tanqisligi sharoitida ham gidrotexnik inshootlarni modernizatsiya qilish (kanallarni chuqurlashtirish) orqali yashab qolishga harakat qilgan [1, 210-b.]. Bu jarayon landschaftning to'liq antropogenlashuviga, ya'ni tabiiy muhitning inson tomonidan boshqariladigan tizimga aylanishiga olib keldi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shunday xulosa qiladigan bo'lsak, Quyida Sirdaryo tarixi — bu mohiyatan tabiatning qat'iy o'zgarishlariga insoniyatning moslashish tarixidir. O'rganilgan mikrovohalar shunchaki qadimiy qishloqlar to'plami emas, balki ekologik o'zgarishlarga berilgan oqilona ijtimoiy javobdir. Qadimgi Jetiasar yoki Janadaryo bo'yi aholisini nafaqat dehqon, balki o'z davrining mahoratli "ekologlari" deb atasak xato bo'lmaydi. Ular daryoning har bir tomchisidan unumli foydalanishni, cho'l landschafti o'rtasida yashil vahalarni yaratishni bilishgan. Bugungi kunda Orol fojiasi sharoitida biz ushbu qadimiy

madaniyatlarning tabiat bilan muloqot qilish tajribasini chuqur tahlil qilishimiz lozim. Tabiat o'zgarishi (daryo o'zanining siljishi kabi) madaniyatni to'xtatib qo'ymaydi, balki insonni yangi texnologik va xo'jalik uslublarini izlashga majbur qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Андрианов Б. В. Древние оросительные системы Приаралья. — М.: Наука, 1991. — 256 с.
2. Левина Л. М. Этнокультурная история Восточного Приаралья (Джетиасарская культура). — М.: Восточная литература, 1996. — 396 с.
3. Толстов С. П. По древним делтам Окса и Яксарта. — М.: Издательство восточной литературы, 1962. — 324 с.
4. Вайнберг Б. И. Этногеография Турана в древности. — М.: Восточная литература, 1999. — 355 с.

YUNON-BAQTRIYA DAVLATI TANGALARI

Anyozov Ruslan Botirovich

Urganch innovatsion universiteti dotsenti

Safarboyev Sanjarbek Shonazar o'g'li

Urganch innovatsion universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yunon-Baqtriya podsholigi davrida zarb etilgan tangalar ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda Diodot I, Diodot II, Yevtidem, Demetriy, Yevkradit va Geliokl davrida zarb etilgan oltin, kumush va mis tangalarning ikonografik xususiyatlari, yozuvlari, vazni hamda badiiy-uslubiy jihatlari yoritilgan. Tangalar orqali Yunon-Baqtriya davlatining siyosiy, iqtisodiy, diniy va madaniy hayotini o'rganish imkoniyatlari ko'rsatib berilgan. Shuningdek, Surxondaryo viloyatidagi Kampirtepa yodgorligidan topilgan numizmatik materiallar asosida Yunon-Baqtriya tangalarining hududiy tarqalishi va tarixiy ahamiyati tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Yunon-Baqtriya podsholigi, Baqtriya davlati, numizmatika, tanga, Diodot, Yevtidem, Demetriy, Yevkradit, Geliokl, Kampirtepa.

Аннотация: В статье рассматриваются монеты греко-бактрийского царства как важный исторический источник. На основе нумизматического материала анализируются монеты, отчеканенные в период правления Диодота I и II, Евтидема, Деметрия, Евкратиды и Гелиокла. Особое внимание уделяется иконографии, легендам, весовым характеристикам и художественному уровню греко-бактрийских монет. Монетные изображения божеств и правителей позволяют раскрыть политические, экономические, религиозные и культурные особенности государства. Также рассматриваются находки монет греко-бактрийского периода, обнаруженные при археологических раскопках на памятнике Кампыртепа.

Ключевые слова: Греко-Бактрийское царство, Бактрия, нумизматика, монеты, Диодот, Евтидем, Деметрий, Евкратид, Гелиокл, Кампыртепа.

Abstract: This article analyzes the coinage of the Greco-Bactrian Kingdom as an important historical source. The study examines gold, silver, and bronze coins minted during the reigns of Diodotus I and II, Euthydemus, Demetrius, Eucratides, and Heliocles. Special attention is given to the iconography, inscriptions, weight standards, and artistic features of the coins. The images of rulers and deities depicted on the coins provide valuable information about the political, economic, religious, and cultural life of the Greco-Bactrian state. In addition, numismatic finds from the Kampyrtepa archaeological site in Surkhandarya region are analyzed to determine the regional distribution and historical significance of Greco-Bactrian coinage.

Keywords: Greco-Bactrian Kingdom, Bactria, numismatics, coins, Diodotus, Euthydemus, Demetrius, Eucratides, Heliocles, Kampyrtepa

Eramizdan avvalgi 280 yilda satrapliklarning markaziy hokimiyatga nisbatan muholifat harakatlari boshlanib, eramizdan avvalgi III asr o'rtalari, (250-yillarda) salavkiylar o'rtasidagi nizolarning kuchayishi oqibatida Baqtriya

noibi Diodot mustaqil hukmronlikka erishib, Baqtriya, So'g'diyona, Marg'iyonadan iborat Baqtriya davlatini tuzdi.

Baqtriya davlat sifatida Salavkiylardan ajralib chiqadi, shu davrdan boshlab tarixda Yunon-Baqtriya podsholigi davri boshlandi. Baqtriya davlati tarkibiga Baqtriya, Hindistonning shimoli-g'arbiy qismi ham kirgan. Baqtriyada ko'plab tangalarni zarb etish Yunon-Baqtriya podsholigi davriga to'g'ri keladi. Poytaxti – Baqtra, shimoliy Afg'onistondagi Balx shahri o'rnida bo'lgan.

Davlatning birinchi hukmdori Diodotning I kumush tanga zarb etgani uning davlatning asoschisi ekani ma'lum bo'ladi. Tangalarda “Shoh Antiox” deb yozdirilgan portreti tasvirlangan. U umrining oxirigacha o'z nomini yozdirmagan. Tanganing reversida qo'lida chaqmoq va burgut ushlagan Zevs tasvirlangan. Buning mazmuni shuki, Diodot va uning ajdodlariga Zevs homiylik qilgan. “Diodot” – nomining tarjimasi ham “Xudo bergan” degan ma'noni anglatadi[1,23].

Diodot II ham huddi shunday tasvirli tangalarni zarb etdi. Diodotni taxtdan tushirgach, Yevtidem o'z tangalarida Geraklni aks ettirdi. Demetriy tangalarida ham Gerakl tasvirlangan, ammo Geraklning boshida gulchambar bo'lib, bu Mitraning tasviri bilan qo'shilgan edi. Ellinizm davrida yunon madaniyati bilan mahalliy ya'ni, gibrid tangrilar tasvirlangan. Antiox davrida Farg'ona vodiysi zabt etildi. Uning tangalarida Poseydon (dengiz xudosi) tasvirlangan.

Sh.Pidayevning “Qadimgi Termiz” nomli kitobida yoritilishicha, Yunon-Baqtriya shohlari tangalaridagi rasmlar zo'r mahorat bilan aks ettirilgan, medal'erlar shohlarning faqatgina tashqi qiyofasini real tasvir qilibgina qolmay, ularning fe'l-atvorlarini ham ochib berishga muvassar bo'lganlar. Bu tangalar medal'erlik san'atining eng yorqin namunalaridir.

Shoh Yevtidemning tangasida bu holat kuchli namoyon bo'lgan. Tanganing aversida yunonlarning afsonaviy pahlavoni Geraklning boshi tasvirlangan. U o'rta yoshda, mo'ylov, sochlari jingalak, bo'yni baquvvat qilib ifoda etilgan. Reversida chopayotgan ot tasviri tushirilgan va yunon tilida “Shoh Yevtidem hukmdor” so'zlari bitilgan.

Diodot I, Diodot II, Yevtidem II, Yevkradit I davrlarida ko'plab tilla tangalar zarb etilgan.

Yunon-Baqtriya podsholigi tangalarining nomlari yunoncha bo'lgan: ya'ni tanga stater, kumush tangalar – tetradrahma, drahma, obol deb atalgan.

Topilmalarga qaraganda bu yerda turli qiymatdagi kumush tangalar ko'p zarb etilgan. Tangalarning og'irligi yunon tangalarining og'irligiga teng bo'lgan. Aniqrog'i, oltin tanga 8,6 gramm, tetradrahma 16 grammga, 1 stater – 5 tetradrahma yoki 20 drahmaga teng bo'lgan[2,9].

Yunon-Baqtriya podsholigining tangalari asosan kumush va misdan, ba'zan tilladan zarb etilgan. Ular orasida Yevkraditning 20 staterli (160 gr.) tangasi antik dunyoning eng yirigidir. Yunon-Baqtriya kumush tangalari asosan bir andozada bo'lib, aversida hukmdor, reversida ma'budlar Zevs, Gerakl,

Poseydon, Germes, Apollon, Dionis, Gelios, Artemida, Afina, Nika, sakrayotgan tulporga minib olgan Dioskur rasmi ifodalangan.

Ularda podsho martabasi, ismi hamda laqabini qaratqich kelishigida masalan: “Podsho Antimox xudoning”, - deb beruvchi yunon yozuvlari yarim doira yoki ustuncha shaklida joylashtirilgan. Tanganing reversida ma’budaning tasviri yonida bir necha yunon harflaridan iborat monogramma ham bor. (Monogramma-yunon tilida mono-bir: gramma-harf, yozuv.) Bu yerda, tangada monogramma – tangani zarb qilgan usta hamda hukmdor ismining jimjimador bosh harfi bor[3,11]. Monogrammaning nima uchun kerakligi haligacha noma’lum, ba’zi tadqiqotchilar bu zarbxona nomlarining qisqartirilib tuzilgani desa, ba’zilar tangalarni zarb qilish uchun mas’ul bo’lgan amaldorlarning ismi, xatto tanga zarb etilgan sana deb ham tahmin qilinadi.

Yunon-Baqtriya tangalarida andozaga tushib qolgan tasvirlardan chekinish hollari ham uchrab turadi. Masalan, podsho Yevkradit davrida zarb etilgan tangalardan, aversida podshoh hamda “Ulug’ shoh Yevkradit” yozuvi, reversida peshonasiga tillaqosh taqqan ayolning yon tomonidan olingan surati aks etgan. Suratning tagida - Geliokl va Laodika deb yozilgan.

Hindistonning bir qismi Yunon-Baqtriya saltanati tarkibiga qo’shilgandan keyin, zarb etilgan tangalarda Xaroshtx yozuvi, shuningdek fil, zebra, buqa, qora qoplon tasvirlangan.

Eramizdan avvalgi 141-128 yillarda Baqtriya davlatining taqdiri uzil-kesil hal bo’ladi. Bu haqda E.V.Rtveladzening “So’g’d va Baqtriya podsholiklarida Yevtidem hamda Geliokl tetradrahmalari va Yevkraditning obollariga o’xshab zarb etilgan tangalar keng rasm bo’lgan edi”[4,12] - degan fikrini keltirish mumkin.

So’g’diyona, Choch, Xorazm tangalarining sifati va tayyorlanish texnologiyasi bo’yicha Baqtriyaliklarga tenglasha olmagan. Baqtriyada o’sha davrda kandakorlik san’ati yuksak taraqqiy etgan edi. Yunon-Baqtriya podsholigi nodir san’atining namunalari bo’lgan tangalar yordamida podsholikning siyosiy, iqtisodiy, madaniy va diniy hayoti haqida ko’pgina ma’lumotlarni olish mumkin. Yunon-Baqtriya tangalari topilmalari ichida 1 ta Diodotning, 8 ta Yevtidemning, 2 ta Demetriyning tangalari mavjud[5,11].

Baqtriya davlatida iqtisodiy xo’jalik, hunarmandchilik, madaniyat, shahar hayoti, savdo bitimlari uchun kumush tetradrahmalar va dragma qatorida, kichik chakana savdo aloqalari bilan bog’liq bo’lgan mis tangalar ham zarb etilgan.

Surxondaryo viloyatidagi Kampirtepa qo’rg’onida o’tkazilgan arxeologik qazilmalar natijasida Rtveladze E.V. va S.A.Savchuk tomonidan anchagina tangalar topilgan, jumladan yunon – baqtr tangalari ham.

Quyida shu tangalarga ta’rif berib o’tamiz.

1. Diodot (250-230 er.old). - Aversda hukmdorning o’ng tomonidan olingan tasviri. Sochlari diadema bilan o’ralgan hukmdor qiyofasi profilda tasvirlangan, sal do’ng peshona, to’g’ri burun, kichik lab, iyagi sal turtib chiqqan. Reversda ilonning surati. Misdan yasalgan, 4g og’irlikda.

2. Yevtidem (er.old 235 – 200 y)-Aversda soqolli Gerakl tasviri, uning peshonasi to'g'ri, qisqa bo'rtib chiqqan burun, to'la yonoqlar, sochlari to'g'ri chiziqlar bilan berilgan. Reversda yugurib ketayotgan ot tasvirlangan. Ot tasviri ustida legenda mavjud bo'lgan. 8 g og'irlikda. Yana bir tanganing aversda hukmdorining o'zi tasvirlangan, sochlari jingalak, burni bukrisimon, boshida nuqtali obodok tasvirlangan.

3. Demetriy (er.old. 200 - 185)- Aversda filning boshiga o'xshash bosh kiyim kiygan shoh tasvirlangan. Nuqtali obodok. Reversida legenda. Mis, og'ir 7,8 g, diametri - 2,7 sm.

4. Yevkratid (er.old. 171-155) - Aversda shohning jingalak sochlari diadema bilan o'rab olingan, hukmdorlarning peshonasi kichik, burni to'g'ri va juda qisqa bo'yni. Reversda otliqlar (Dioskur) tasvirlangan.

5. Geliokl (er.old. 155-140 yy) - Aversda qo'sh diadema bilan sochlari o'rab olingan. Hukmdor kichkina turtib chiqqan peshonali, bukrisimon burun, kichkina lablar va iyakga ega bo'lgan. Ko'zlari kichkina, ustida uzun ingichka qoshlar tasvirlangan. Reversda xiton kiyib olgan Zevs, bir qo'lida perun (hokimyat ramzi), yana bir qo'lida nayza tasvirlangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. To'xtiyev I. Tangalar tilga kirganda. - T.: Fan, 1989.Б-23
2. Нумизматический словарь. – Львов, Высшая школа, 1975. С. 9.
3. Ртвеладзе Э. Древние монеты Средней Азии... – С. 12.
4. Ртвеладзе Э. Древние монеты Средней Азии... – С. 11.
5. Ртвеладзе Э. Древние монеты Средней Азии... – С. 11.

XORAZMSHOH-ANUSHTEGINIYLAR DAVRI XORAZM VOHASI SHAHARLARI HAQIDA ILMIY QARASHLAR

Shomuratov Otojon Xamidovich

Urganch innovatsion universiteti o'qituvchisi

otojonshomuratov29@gmail.com

Ibrahimova Mehriniso

Urganch innovatsion universiteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu tezisda Anushteginiylar davrida Xorazm vohasidagi shaharlar taraqqiyoti va ularning ilmiy talqini jahon hamda mahalliy tadqiqotchilar qarashlari asosida tahlil qilinadi. Maqsad manbashunoslik va tarixshunoslik yondashuvlarini uyg'unlashtirib, shaharlarning siyosiy-iqtisodiy va madaniy funksiyalarini qayta baholashdir. Ilmiy yangilik shahar modelini turli ilmiy maktablar kesishmasida izohlashdan iborat.

Kalit so'zlar: Anushteginiylar, Xorazm vohasi, shaharsozlik, Urganch, manbashunoslik, tarixshunoslik, savdo yo'llari

Аннотация. В тезисе анализируются города Хорезмского оазиса эпохи Ануштегинидов и их интерпретация в трудах зарубежных и местных исследователей. Цель состоит в сопоставлении источниковедческого и историографического подходов для уточнения политико-экономических и культурных функций городов. Научная новизна связана с реконструкцией городской модели на стыке разных научных школ.

Ключевые слова: Ануштегиниды, Хорезмский оазис, урбанистика, Ургенч, источниковедение, историография, торговые пути

Abstract. This thesis examines the urban landscape of the Khwarazm oasis under the Anushteginids and how it has been interpreted by international and local scholars. It aims to combine source criticism and historiography to reassess political, economic, and cultural functions of key cities. The novelty lies in reconstructing an urban model through a comparative reading of scholarly traditions.

Keywords: Anushteginids, Khwarazm oasis, urban studies, Gurganj, source criticism, historiography, trade routes

Anushteginiylar davri Xorazm vohasi shaharlari masalasi bugungi tarixshunoslikda ikki yo'nalish tutashgan nuqtada turadi: bir tomondan, arxeologik-topografik dalillar va sug'orish tizimlari bilan bog'liq "voha sivilizatsiyasi" modeli, ikkinchi tomondan esa yozma manbalarda aks etgan siyosiy markazlashuv, savdo va diplomatik aloqalar tufayli shakllangan "transmintaqaviy shahar" konsepsiyasi. Mazkur tezisning vazifasi aynan shu ikki yo'nalishning qaysi nuqtalarda bir-birini to'ldirishi yoki qarama-qarshi xulosalarga kelishini ko'rsatish, shuningdek, dunyo olimlari nigohida Xorazm shaharlarining qiyofasi qanday ilmiy mezonlar orqali yaratilganini aniqlashtirishdan iborat. Tadqiqot manbashunoslik tamoyillari asosida yozma xabarlarining yaratilish kontekstini hisobga oladi, tarixshunoslik tahlili orqali esa mualliflarning metodikasi, dalil tanlash uslubi va ilmiy maktab ta'sirini ochib beradi.

Jahon ilm-fanida Xorazm shaharlarini tushuntirish ko'pincha "markaz va tarmoq" munosabatini qayta qurishdan boshlanadi. Anushteginiylar davlati qudratining o'sishi bilan Gurganjning siyosiy va iqtisodiy markazga aylanishi, qolaversa voha ichidagi qadimiy shaharlar hamda qal'alar tizimi bilan bog'lanishi masalasi ko'plab tadqiqotchilarni o'ziga jalb etgan. Yozma manbalarda Gurganjning yirik bozor, hunarmandchilik va ilmiy muhitga ega shahar sifatida tasvirlanishi, shahar aholisi qatlamlarining murakkabligi va savdo yo'llari tugunida joylashgani qayd etiladi. Biroq bu tasvirlar ko'pincha mualliflarning o'z hududiy tajribasi, safar yo'nalishi yoki buyurtmachi doirasiga bog'liq bo'lib, ularni "bevosita reallik" sifatida emas, balki muayyan ijtimoiy-siyosiy tasavvurlar mahsuli sifatida o'qish talab etiladi. Shu ma'noda, Sharq geograflari va tarixchilari xabarlaridagi shahar ko'rinishi bilan arxeologik qatlamlardan chiqadigan real makon o'rtasidagi muvofiqlikni tekshirish zamonaviy metodik ehtiyojga aylanadi [1, 512].

Xorazm arxeologik maktabi ishlab chiqqan topografik kuzatuvlar shaharlar masalasini "sug'orish va mudofaa" o'qi bo'ylab tushuntirishga moyildir. Bu yondashuvda shahar, avvalo, kanallar tarmog'i, ziroat zonasi va qal'a-inshootlar bilan bir butun tizim sifatida ko'riladi; shahar devorlari, rabot va arkning nisbati, tashqi manzilgohlar va karvon yo'llari bilan bog'lanish darajasi tahlil qilinadi. Natijada vohaning shaharlar xaritasi bir martalik "poytaxtlar ro'yxati" ko'rinishida emas, balki o'zgaruvchan markazlar tizimi sifatida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, Amudaryoning o'zan almashuvi, suv taqsimoti va tuproq-sho'rlanish jarayonlari shaharlarning ko'chishi, ayrim markazlarning so'nishi yoki qayta tiklanishini izohlashda asosiy omil sifatida ilgari suriladi [2, 352]. Bunday yondashuv Anushteginiylar davrini ham vohaning uzoq muddatli ekologik-tarixiy dinamikasi bilan bog'lash imkonini beradi, biroq siyosiy qarorlar va savdo kon'yunkturasining ta'siri ba'zan ikkinchi planga tushib qolishi mumkin.

Xorijiy tadqiqotchilar, xususan, islomiy dunyo shaharlarining umumiy modeli bilan ishlaydigan olimlar Xorazmni ko'pincha "chegara va ko'pri" hududi sifatida ko'radilar: u dasht-chorvador dunyo bilan o'troq dehqonchilik madaniyati tutashgan, Eroniy va turkiy siyosiy an'analar bir-biriga ta'sir ko'rsatgan makon. Bu qarashda shaharlarning ahamiyati nafaqat ichki sug'orish tizimida, balki tashqi aloqalar, boj va tranzit, sultonlik saroyi bilan shahar elitalari o'rtasidagi muvozanatda izohlanadi. Anushteginiylar davrida harbiy-siyosiy ekspansiya, diplomatiya va karvon savdosining jadallashuvi shaharlarning ijtimoiy tarkibini murakkablashtirgan: hunarmandlar, savdogarlar, ulamolar, harbiylar hamda ma'muriy qatlam manfaatlari bir makonda kesishgan. Bu yondashuv Gurganj, Xiva atrofidagi markazlar va voha ichki shaharlarining "funktional ixtisoslashuvi"ni ko'rsatishga urinadi, ya'ni ayrim shaharlar ma'muriy markaz, boshqalari savdo-hunarmandchilik yoki qishloq xo'jaligi mahsulotlari qayta ishlash tuguni sifatida talqin qilinadi [3, 603].

Shu bilan birga, tarixshunoslik tahlili shuni ko'rsatadiki, "shahar" tushunchasi olimlarda bir xil mezon bilan belgilanmaydi. Ba'zi tadqiqotlarda

shaharni devor bilan o'ralgan markaz sifatida aniqlash ustun bo'lsa, boshqalarida bozor, jome masjid, ma'muriy idoralar va hunarmandchilik mahallalarining mavjudligi hal qiluvchi belgiga aylanadi. Xorazm sharoitida esa shahar va yirik manzilgohlar orasidagi farq ko'pincha mavsumiy aholi ko'chishi, suv rejimi va rabotlarning ko'payishi bilan "xiralashadi". Demak, Anushteginiylar davri shaharlarini o'rganishda terminologik aniqlik, manba matnlaridagi atamalarni kontekstda talqin qilish va arxeologik tipologiya bilan moslashtirish zarur. Mahalliy tarixshunoslikda bu masala, ayniqsa, poytaxtlik funksiyasi qaysi davrda qaysi markazda kuchaygani, Gurganjning o'sishi qaysi infratuzilmaviy omillar bilan izohlanishi, shuningdek, Xivanning keyingi davrlardagi markazlashuv jarayonlariga qanday "tarixiy poydevor" bo'lib xizmat qilgani yuzasidan bahslarda ko'zga tashlanadi [4, 248].

Dunyo olimlari nigohida Xorazm shaharlarini tadqiq etishning yana bir muhim qatlami bu manbalar korpusining o'ziga xosligidir. Anushteginiylar davriga doir xabarlar ko'pincha turli janrdagi matnlarda uchraydi: tarixiy rivoyat, geografik tavsif, sayohatnoma, biografik to'plamlar va ma'muriy yozishmalar an'analari shahar haqidagi ma'lumotlarni har xil kesimda beradi. Masalan, ayrim matnlarda shahar boyligi va bozorlari ko'proq ta'kidlanadi, boshqalarida esa siyosiy voqealar, qamal, diplomatik elchiliklar yoki saroy intrigalari fonida shahar ko'rinadi. Shuning uchun ham, biror shaharning "yirikligi" yoki "tanazzuli" haqidagi ilmiy xulosa manbaning maqsadi va auditoriyasi bilan bog'liq ravishda qayta tekshirilishi lozim. Metodik jihatdan, manbalarni bir-biriga qarshi qo'yish emas, balki ularni turli ijtimoiy funksiyalarni yorituvchi qatlamlar sifatida birlashtirish samaraliroqdir. Bu yerda Islom olamining umumiy tarixiy dinamikasini yoritgan tadqiqotlar ham Xorazm shaharlarining mintaqaviy o'rni va iqtisodiy motivlarini tushuntirishda muhim fon beradi [5, 560].

Anushteginiylar davri shaharlarining ilmiy talqinida "markazlashuv" g'oyasi ko'p ishlatiladi, ammo uni faqat ma'muriy buyruqbozlik bilan cheklash biryozlama natija beradi. Markazlashuv shaharlarning soliq bazasi, qo'shin ta'minoti, bojxona nazorati va karvon xavfsizligi bilan bog'liq institutlar mustahkamlanishini ham anglatadi; bu institutlar esa, o'z navbatida, shahar makonining ichki tuzilishiga ta'sir ko'rsatadi. Bozor hududlarining kengayishi, omborlar, ustaxonalar va rabotlarning ko'payishi, suv inshootlarini ta'mirlash va kengaytirish kabi jarayonlar siyosiy qudratning "moddiy izlari" sifatida ko'rilishi mumkin. Shuningdek, shaharlarning madaniy hayoti ham faqat "ilm-fan gullashi" tarzida umumiy baholanmasdan, ta'lim muassasalari, kitobat va qog'oz savdosi, ulamolar tarmog'i hamda homiylik institutlari bilan bog'liq aniq mexanizmlar orqali tahlil etilganda tarixiy haqiqatga yaqinlashadi. Xorazmning yirik shaharlarida ilmiy muhitning shakllanishi, albatta, tranzit yo'llar va iqtisodiy ortiqcha mahsulot bilan uzviy bog'liq bo'lgan, lekin buning qaysi davriy bosqichlarda kuchaygani masalasi hamon dalillarga tayanib aniqlashtirilishi kerak [6, 212].

Shaharlar tarixini "yuksalish va qulash"ning soddalashtirilgan sxemasida talqin qilish ham tarixshunoslikdagi muammolardan biridir. Anushteginiylar davri

oxirlaridagi keskin siljishlar, harbiy to'qnashuvlar va tashqi bosimlar shahar hayotiga zarba bergani e'tirof etilsa-da, arxeologik va numizmatik dalillar ayrim markazlarda xo'jalik faoliyati ma'lum darajada davom etganini ham ko'rsatadi; demak, "tanazzul" tushunchasi fazoviy va funksional tafovutlar bilan ishlatilishi kerak. Bir shahar siyosiy markaz sifatida ahamiyatini yo'qotib, biroq hunarmandchilik yoki mahalliy bozorchilik markazi sifatida yashab qolishi mumkin; yoki aksincha, aholining bir qismi ko'chgan bo'lsa-da, strategik nuqtadagi qal'a va rabotlar tizimi saqlanib qolishi ehtimol. Shuning uchun dunyo olimlari tomonidan taklif qilingan yondashuvlarni muvofiqlashtirgan holda, "shahar funksiyalarining transformatsiyasi" tushunchasi Xorazm vohasiga nisbatan ancha izohliroq ko'rinadi [2; 3, 233-345].

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Anushteginiylar davri Xorazm vohasi shaharlarini dunyo olimlari nigohida o'rganish faqat ma'lumotlarni jamlash emas, balki ilmiy qarashlarning shakllanish sharoitini ochish, manbalar tabiatini to'g'ri anglash va arxeologik hamda matniy dalillarni yagona izohlash modelida birlashtirishni talab etadi. Tadqiqot natijasi shuni ko'rsatadiki, shaharlarning tarixiy qiyofasi sug'orish-ekologik omillar, siyosiy institutlar va transmintaqaviy savdo tarmoqlari birgalikda ta'sir etgan murakkab tizim sifatida tiklanganda aniqroq namoyon bo'ladi. Shuningdek, "poytaxt" va "viloyat markazi", "shahar" va "yirik manzilgoh" kabi tushunchalarni kontekstual aniqlashtirish Xorazm urbanizatsiyasi bo'yicha bahslarni yangi daliliy bosqichga olib chiqadi, hamda voha shaharlarining Markaziy Osiyo tarixidagi o'rnini qiyosiy urbanistika doirasida qayta baholash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ibn al-Asir. Al-Kamil fi at-tarix. Bayrut, Dar Sader, 1965. 12 jild. J. 12. 512 b.
2. Tolstov S. P. Drevniy Khorezm. Opyt istoriko-arkheologicheskogo issledovaniya. Moskva, Izdatelstvo Moskovskogo universiteta, 1948. 352 s.
3. Bosworth C. E. The History of the Saffarids of Sistan and the Maliks of Nimruz (247/861–949/1542). Costa Mesa, Mazda Publishers, 1994. 603 p.
4. Matboboev B. Xorazm tarixshunosligi va manbashunosligi masalalari. Toshkent, Fan, 2011. 248 b.
5. Hodgson M. G. S. The Venture of Islam. Conscience and History in a World Civilization. Chicago, The University of Chicago Press, 1974. Vol. 2. 560 p.
6. Yakubovskiy A. Yu. Xorezm i ego svyazi s Vostochnoi Evropoi v X–XIII vv. Leningrad, Izdatelstvo Akademii nauk SSSR, 1939. 212 s.

MARKAZIY OSIYO SAVDO TIZIMIDA XORAZM SAVDO
MARKAZLARINING TUTGAN O'RNI

Abdirimov Razzokberdi

Urganch innovatsion universiteti professori

Shomuratova Nargiza Kuralovna

Urganch innovatsion universiteti magistri

Annotasiya: Ushbu maqolada Markaziy Osiyo savdo munosabatlarida Xorazm savdo markazlarining tutgan ahamiyati haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: Markaziy Osiyo, Xorazm, Buyuk ipak yo'li, karvon yo'llari, Xorazm shaharlari, Gurganj, Urganch, Kat, karvonsaroy, savdo.

Аннотация: В этой статье представлена информация о значении торговых центров Хорезма в торговых отношениях Центральной Азии.

Ключевые слова: Центральная Азия, Хорезм, Великий Шелковый путь, караванные пути, города Хорезма, Гургандж, Ургенч, Кат, караван-сарай, торговля.

Annotation: This article provides information about the importance of Khorezm Trade Centers in Central Asian trade relations.

Key words: Central Asia, Khorezm, Great Silk Road, caravan routes, Khorezm cities, Gurganj, Urgench, Kat, caravanserai, trade.

Xorazm savdo markazlarining vujudga kelishi va rivojlanishi shart-sharoitlari hamda siyosiy vaziyat to'g'risida fikr yuritadigan bo'lsak, Xorazmni Markaziy Osiyoning bir bo'lagi sifatidagi faoliyati, xo'jalik hayoti va savdosidagi o'rni to'g'risida so'z yuritiladi. Buning uchun eng avvalo, Movarounnahr xo'jalik hayoti xususida tushunchaga ega bo'lish kerak. Somoniylar sulolasi hukmronligi davrida (IX-X asrlar) Movarounnahrda xo'jalik taraqqiyoti faqat Markaziy Osiyoninggina emas, balki Old Osiyoning ham yetuk hududlaridan biri hisoblanardi. Shahar bilan qishloq, o'troq dehqonchilik hududlari bilan ko'chmanchi qabilalar o'rtasidagi mahsulot ayriboshlashning kuchayib borishi karvon savdosini o'sishi o'lkaning qishloq xo'jaligi, kon ishlari va hunarmandchilikning rivojlanishi binobarin keyingi sohalarning rivoji, savdo-sotiqning taraqqiy etishining omili bo'ldi. Bu davrda Movarounnahr va Xorazm iqtisodiy jihatdan musulmon mamlakatlari orasida yetakchi o'rinlardan birini egallar edi. Mamlakatda dehqonchilik ham, hunarmandchilik ham yuksak darajada taraqqiy qilgan bo'lib o'z ehtiyojini qondiribgina qolmasdan, chetga ham juda ko'p miqdorda mahsulot chiqarishga imkoniyat yaratgan edi[1.295]. Butun dunyoda mashhur bo'lgan Movarounnahr mahsulotlarining turi ko'p edi. Buni yozma manbalar to'la tasdiqlaydi.

Al-Istaxriyning ta'kidlashicha, Movarounnahrning o'zida ishlab chiqariladigan moddiy boyliklar shunchalik mo'ltki, bu yerning aholisi, boshqa mamlakatlardan mahsulotlar olmasdan ham o'z ehtiyojlarini qondira olardilar. Yozma manbalarning bergan ma'lumotlariga qaraganda, Zarafshon, Qashqadaryo vohalari, Farg'ona, Eloq,

Shosh va Xorazmda IX-XV asrlarda dehqonchilik va bog'dorchilikda ma'lum bo'lgan barcha mahsulotlar yetishtirilgan, hunarmandchilikda ham barcha mahsulotlar ishlab chiqilgan. Al-Istaxriy Zarafshon vodiysini tasvirlar ekan, uning unumdorligiga qoyil qolib, Buxoro vohasini moviy osmon gumbazi ostiga to'shalgan va qasrlar bilan naqshlangan yam-yashil gilamga o'xshatsa, Zakariyo Qazviniy esa Gurganjda hunarmandchilikning barcha turlarining nihoyatda rivojlanganini ko'rib, hayratda qolgan edi[2.135].

Xususan Xorazmning Markaziy Osiyo shaharlari xo'jalik va savdo hayotidagi o'rni to'g'risida aytadigan bo'lsak, X asr arab manbalari (Maqdisiy, Is-taxriy, Ibn Rusta, Ibn Fadlan) ma'lumotiga ko'ra, bu sohada Xorazmning o'rni beqiyos bo'lganligini ko'ramiz. Bu manbalarning barchasi Xorazmning Markaziy Osiyo tashqi savdosida juda katta rol o'ynaganligini, ayniqsa, Sharqiy Yevropa, Volgabo'yi va Sibir xalqlari bilan bo'ladigan tranzit savdoda Xorazm asosiy bog'lovchi xalqa bo'lganligini tasdiqlaydi.

Maqdisiy asarlarida keltirib o'tilgan chetga chiqarilgan va keltirilgan tovarlar ro'yxatida, Xorazm orqali bulg'orlardan keltirilgan juda ko'plagan turdagi mahsulotlarni ham ko'rsatib o'tadi.

X asr manbalarida keltirilgan ma'lumotlar nafaqat X asrga, balki keyingi asrlarga ham xos bo'lib, Xorazmning Volgabo'yi, Sharqiy Yevropa, ko'chmanchilar dunyosi, Xuroson, Eron, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari, Hindiston, Xitoy va, ayniqsa, Markaziy Osiyoning boshqa hududlari bilan bo'lgan savdo aloqalari yillar o'tib, kengaysa-kengayganki, aslo to'xtab qolmagan. Xorazmning Markaziy Osiyo shaharlari bilan olib borgan savdosi haqida X-XV asr manbalarida turli-tuman ma'lumotlar mavjud bo'lsada, ular bu mavzuni to'laligicha o'rganish imkonini bermaydi.

Bir asr davomida, hozirgi Markaziy Osiyo hududida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar yordamidagina, bu sohada ko'pgina muvaffaqiyatlarga erishildi. Ammo bu bilan ham hali savdo yo'llari xususidagi bilimlarimizni yetarlicha deb bo'lmaydi.

Ammo shu o'rinda, tarixiy manbalarda (Istaxriy, Maqdisiy) keltiriladigan savdo yo'llari xususidagi ma'lumotlar bilan arxeologik tadqiqotlar natijasida olingan ma'lumotlarni taqqoslab o'rganishdan oldin, dastavval, Istaxriy va Maqdisiy asarlarida keltirilgan Xorazmning ichki va Markaziy Osiyo shaharlari bilan bog'lovchi savdo yo'llari to'g'risidagi ma'lumotlarni umumiy holatga keltirib o'tish maqsadga muvofiq bo'lsa kerak deb o'ylaymiz.

Istaxriy asarida Hazoraspdan Katgacha bo'lgan yo'l ko'rsatilgan: Hazorasp-Kardaranxos – 3 farsax; Kardaranxos-Xiva – 5 farsax; Xiva-Safardiz – 5 farsax; Safardiz-Kat – 3 farsax[3.287]. Agar Kardaronxosning hozirgi kundagi Bog'ot tumanidagi Qal'ajiq yodgorligi o'rniga, Safardizni hozirgi Xonqa o'rniga, Katni hozirgi Beruniy o'rniga to'g'ri kelishini hisobga oladigan bo'lsak, Istaxriy keltirib o'tgan manzillar orasidagi masofa (1 farsax – 6-8 km) aynan shu manzillar o'rnida hozirgi kundagi shahar va manzillar orasidagi masofaga to'g'ri kelib boradi.

Xorazm savdo markazlarining Movarounnahr savdo markazlari bilan bo'ladigan aloqasida, ayniqsa, Amudaryo muhim rol o'ynaganligini, Amudaryo orqali yuk ortilgan kemalar Movarounnahrning ko'pgina shaharlariga borib yetgan. Yozma manbalar ham Amudaryoda kemalar qatnaganligi va asosiy savdo yo'llaridan biri bo'lganligini tasdiqlaydi. Ibn Fadlan o'z sayohatnomasida Buxoro bilan Xorazm o'rtasidagi savdo ishlari asosan, kemalar orqali amalga oshirilganligini yozib qoldirgan.

Somoniylar davrida ulkan mintaqadagi siyosiy barqarorlik natijasidagina Xorazm yuqorida ko'rsatib o'tilgan xo'jalik muvaffaqiyatlariga erishgan deyishimizga to'liq asos bor. Hatto numizmatik materiallarga tayanadigan bo'lsak, Xorazm savdogarlari so'g'd savdogarlaridan keyin, ba'zi hollarda esa teng mavqeda ish yuritib, asta-sekin Movarounnahr savdosida o'z mavqelarini oshirib borganligini ko'rish mumkin. Chunonchi IX-X asrlarga oid So'g'd shaharlarining faqat uchtaida – Varaxsha, Poykent, Qumsovgandan topilgan tangalarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, bu tangalar orasida Xorazm mayda ayirboshlov tangasi, faqat Samarqand So'g'di tangalaridan keyin ikkinchi o'rinni egallaydi. Shu o'rinda mashhur tarixchi Narshaxiyning ma'lumoti qiziqish uyg'otadiki, u o'zining «Buxoro tarixi» asarida arablar istilosi davrida va undan oldin (VII-VIII asrlar) Buxoro ichki savdosida Xorazm tangalari hukmronlik qilganligini yozib o'tgan edi[4.14]. Ammo keyinchalik vaziyat bora-bora Xorazm savdogarlari foydasiga o'zgarganligini ko'ramiz. Chunki keyingi, X-XV asrlarda ro'y bergan siyosiy voqealar ham bunga kuchli ta'sir o'tkazgan. Buning sabablari quyidagilardir: Osiyoda vujudga kelgan va birining o'rini ikkinchisi egallab turgan Qoraxoniylar, G'aznaviylar va Saljuqiylar davlatlari o'rtasida o'zaro kurash va urushlardan, Movarounnahrning boshqa hududlariga nisbatan chetda bo'lgan hamda ular tarkibida ham mustaqil davlat sifatida faoliyat ko'rsatgan. Bu esa Xorazmning iqtisodiy rivojiga, savdo shaharlarining o'sishiga unchalik ta'sir qilmadi.

X-XII asrlar davomida ham Xorazm Sharqiy Yevropa, Volgabo'yi va Rus bilan bo'lgan savdoda tranzit savdo markazi rolini o'ynashi bilan birga, o'zida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning yildan-yilga ko'payib borganligini nafaqat manbalar, balki arxeologik tadqiqotlar natijasida topilgan buyumlar ham tasdiqlaydi.

XII-XIII asrlarda vujudga kelgan Xorazmshoh-anushteginlar davlatining markazi sifatida ham Xorazm savdo markazlarining roli shu darajada oshdiki, Xorazm savdogarlari bu davrda Buyuk Ipak yo'lidagi asosiy savdo ishlarini to'laligicha o'z qo'llariga olganlar.

Bu yuqorida Xorazm savdo shaharlarining vujudga kelishi va rivojlanish jarayonini tahlil qilganda ham ta'kidlab o'tilgan edi.

Mo'g'ullar bosqini arafasidagi Xorazm haqidagi Yoqut Hamaviy fikrini eslab o'tish joiz deb o'ylaymiz: "...hech qaerda bunday gavjum va yashnagan joyni ko'rmaganman... Xorazmning deyarli hamma shaharlarida mol-tovar

hamda do'kon-rastalarga boy bozorlar bor, bozori bo'lmagan qishloq kamdan-kamdir".

Mo'g'ul bosqini Movarounnahr shaharlari kabi, Xorazm shaharlariga ham katta vayronagarchiliklar keltirdi. Ammo mo'g'ul bosqini oqibatlaridan tezda o'zini o'nglab olgan Xorazm, ayniqsa, uning Oltin O'rdaga bo'ysunuvchi qismi, oldingidek, hatto oldingidan ham rivojlanib, Movarounnahr va Oltin O'rdaning eng muhim savdo markaziga aylanadi. Gurganch esa butun Movarounnahr va Oltin O'rdada ishlab chiqarilgan barcha tur mahsulotlar to'planuvchi savdo markazlaridan biri hisoblanardi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. с.295.
2. Buniyodov Z. Anushtegin Xorazmshohlar davlati. 135-bet.
3. Mavlanov O'.M. Markaziy Osiyoning qadimgi yo'llari: shakllanishi va rivojlanish bosqichlari. Monografiya.-T.:Akademiya,2008.y.287-bet.
4. Narshaxiy. Buxoro tarixi. //«Meros» to'plamida. –T.: «Kamalak», 1991, 14-bet.

N.N. MURAVYOV ASARLARIDA XIVALIK O'ZBEKLARNING AXLOQ-
ODOBI, TURMUSH TARZI VA MADANIY HAYOTI:
MANBASHUNOSLIK TAHLILI

Sobirova Nilufar

Urganch innovatsion universiteti magistranti

nilufarsabirova771@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada N.N. Muravyov asarlari asosida o'zbek xalqi-ning axloq-odobi, diniy e'tiqodi, urf-odatlar hamda maorif masalalari tahlil qilinadi. Muallif o'z kuzatuvlari va etnografik ma'lumotlarga tayanib, o'zbek jamiyatida axloqiy me'yorlar, islom dinining kundalik hayotda tutgan o'rni, an'anaviy marosimlar va turmush tarzi xususiyatlarini yoritadi. Shuningdek, maqolada ta'lim va ma'rifatga bo'lgan munosabat, madrasa va an'anaviy ta'lim tizimining jamiyatdagi ahamiyati ko'rsatib beriladi. N.N. Muravyov qarashlari orqali XIX asrdagi o'zbek jamiyatining ijtimoiy-madaniy qiyofasi ochib berilib, uning tarixiy-etnografik ahamiyati asoslanadi.

Kalit so'zlar: N.N. Muravyov, o'zbeklar, axloq-odob, diniy e'tiqod, urf-odatlar, maorif, islom, etnografiya, an'anaviy ta'lim, XIX asr.

Аннотация: В данной статье на основе трудов Н. Н. Муравьева анализируются нравственные устои, религиозные верования, обычаи и традиции, а также вопросы просвещения узбекского народа. Опираясь на собственные наблюдения и этнографические материалы, автор раскрывает моральные нормы узбекского общества, роль ислама в повседневной жизни, особенности традиционных обрядов и уклада жизни. Кроме того, в статье освещается отношение к образованию и просвещению, а также значение медресе и традиционной системы обучения в жизни общества. Через взгляды Н. Н. Муравьева раскрывается социально-культурный облик узбекского общества XIX века и обосновывается его историко-этнографическая значимость.

Ключевые слова: Н. Н. Муравьев, узбеки, нравственность, религиозные верования, обычаи и традиции, просвещение, ислам, этнография, традиционное образование, XIX век.

Abstract: This article analyzes the moral values, religious beliefs, customs and traditions, as well as educational issues of the Uzbek people based on the works of N. N. Muravyov. Relying on his personal observations and ethnographic data, the author highlights moral norms within Uzbek society, the role of Islam in everyday life, and the characteristics of traditional rituals and lifestyles. In addition, the article examines attitudes toward education and enlightenment, emphasizing the significance of madrasas and the traditional educational system in society. Through the views of N. N. Muravyov, the socio-cultural image of Uzbek society in the nineteenth century is revealed, and its historical and ethnographic importance is substantiated.

Keywords: N. N. Muravyov, Uzbeks, morality, religious beliefs, customs and traditions, education, Islam, ethnography, traditional education, nineteenth century.

XIX asrning birinchi yarmida Markaziy Osiyo, xususan Xiva xonligi haqida yozilgan rus manbalari [1] mintaqaning ijtimoiy, madaniy va etnografik tarixini o'rganishda muhim o'rin tutadi. Ana shunday mualliflardan biri N.N. Muravyov bo'lib, uning asarlarida Xiva xonligi hududida yashagan o'zbeklarning turmush tarzi, axloqiy qarashlari, urf-odatlar, diniy hayoti va kundalik madaniy amaliyotlari batafsil tasvirlangan. Ushbu maqolada Muravyov ma'lumotlari manbashunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilinib, ularning ilmiy qiymati, cheklangan jihatlari va tarixiy ahamiyati yoritiladi.

N.N. Muravyov asarlari [2] sayohat va kuzatuvlarga asoslangan tasviriy-etnografik manbalar turkumiga kiradi. U Xiva xonligiga tashrifi davomida ko'rgan-kechirganlarini, shuningdek mahalliy aholining kundalik hayotini tashqi kuzatuvchi sifatida qayd etadi. Shu bois Muravyov ma'lumotlari bir tomondan noyob empirik material bersa, ikkinchi tomondan muallifning shaxsiy qarashlari, davr stereotiplari va Yevropa markazchi (evrotsentrik) yondashuvi bilan cheklangan.

Muravyov o'zbeklarni avvalo harbiylashgan jamiyat vakillari sifatida tasvirlaydi. Uning fikricha, o'zbeklar tinch hayotdan ko'ra harbiy faoliyatga moyil bo'lib, o'zlarini jangchi sifatida ko'rganlar. Bu holat tarixiy jihatdan Xiva xonligining siyosiy tuzilmasi, ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi an'analar bilan bog'liq bo'lsa-da, muallif uni ko'pincha mutlaqlashtiradi.

Muravyov o'zbeklarning axloq-odobi haqida qarama-qarshi baholar beradi. Bir tomondan, u ularni qonunga sodiq, yolg'on va firibgarlikni yomon ko'ruvchi xalq sifatida ta'riflaydi. Boshqa tomondan esa, ularning dangasalik, beparvolik va haddan tashqari ziqlanlikka moyilligini ta'kidlaydi. Manbashunoslik nuqtayi nazaridan bu qarama-qarshilik muallifning mahalliy jamiyatni chuqur ichki ijtimoiy munosabatlar doirasida emas, balki tashqi kuzatuvchi sifatida baholaganidan dalolat beradi.

Alohida e'tibor oilaviy munosabatlarga qaratiladi. Muravyov ayollarning haramlarda yashashi, ularning jamiyatdan yakkalanishi va kanizaklik institutini keskin tanqidiy ruhda tasvirlaydi. Bunda muallif musulmon jamiyatiga xos ijtimoiy institutlarni Yevropa axloqiy me'yorlari bilan qiyoslab baholaydi. Shu sababli bu ma'lumotlar mutlaq tarixiy haqiqat sifatida emas, balki subyektiv qarashlar mahsuli sifatida ehtiyotkorlik bilan talqin qilinishi lozim.

Muravyov asarlarida bolalar tarbiyasi va ma'rifat masalasi alohida tanqid ostiga olinadi. U o'zbek jamiyatida tarbiya asosan jismoniy jazoga asoslanganini, bolalarga axloqiy ta'lim kam berilganini qayd etadi [3]. Savodxonlik esa faqat diniy marosimlar bilan cheklangan holda tasvirlanadi.

Manbashunoslik jihatidan bu ma'lumotlar muhim bo'lsa-da, ularni umumlashtirishda ehtiyotkorlik zarur. Chunki Muravyov asosan ko'chmanchi yoki yarim ko'chmanchi qatlamni kuzatgan bo'lib, shahar muhitidagi madrasalar, ulamolar va ma'rifiy an'analar uning tasvirlarida yetarli aks etmagan. Demak, uning xulosalari o'zbek jamiyatining barcha qatlamlarini to'liq qamrab olmaydi.

Muravyov o'zbeklarning kiyim-kechaklari, ovqatlanish odatlari va uy-joylariga katta e'tibor beradi. U bir necha qavat xalat kiyish, qurolni doimiy olib yurish, sodda va kamtarona ovqatlanish kabi holatlarni batafsil tasvirlaydi. Bu

ma'lumotlar moddiy madaniyatni o'rganishda qimmatli etnografik manba hisoblanadi.

Ayniqsa, choy ichish madaniyatiga doir qaydlar e'tiborlidir. Muravyov choyni o'zbeklar hayotining ajralmas qismi sifatida ko'rsatadi [4]. Qalmiq choyi haqida bergan tasvirlari esa mintaqalararo madaniy aloqalarning mavjudligini ko'rsatadi.

Uy-joy masalasida u o'zbeklarning ko'chmanchi turmush tarziga urg'u beradi. Loydan qurilgan sodda uylar, kigiz kulbalar va minimal qulayliklar muallif tomonidan qoloqlik belgisi sifatida talqin qilinadi. Holbuki, zamonaviy tarixiy-etnologik yondashuv buni ekologik moslashuv va iqtisodiy sharoit mahsuli sifatida izohlaydi.

Muravyov o'zbeklarning musiqaga munosabatini salbiy ohangda yoritadi. Uning fikricha, o'zbeklar musiqani shovqin sifatida qabul qilib, musiqachilikni past kasb deb bilganlar. Bu baho ham muallifning estetik mezonlari bilan bog'liq bo'lib, xalq og'zaki ijodi, baxshichilik va maqom an'analari kabi murakkab musiqiy madaniyat uning asarlarida deyarli aks etmagan.

Shu jihatdan Muravyov manbalari madaniyat tarixini o'rganishda qisman biryoqlama ekanini ko'rsatadi. Ular real holatni emas, balki tashqi kuzatuvchining taassurotlarini ifodalaydi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, N.N. Muravyov asarlari Xiva xonligi davridagi o'zbeklar hayoti haqida muhim tarixiy-etnografik ma'lumotlar beradi. Ularning asosiy manbaviy qiymati bevosita kuzatuvlarga tayanishidadir. Biroq ushbu ma'lumotlar muallifning subyektiv qarashlari, davr mafkurasi va evrotsentrik yondashuvi bilan cheklangan. Shu sababli Muravyov qarashlarini mutlaq haqiqat sifatida emas, balki XIX asr rus sayyohlik-adabiy an'anasining mahsuli sifatida baholash lozim. Ularning ilmiy ahamiyati boshqa mahalliy va xorijiy manbalar bilan qiyosiy tahlil qilingandagina to'liq ochiladi. Aynan shu yondashuv Muravyov asarlarini Markaziy Osiyo tarixini o'rganishda muhim, ammo ehtiyotkorlik bilan foydalaniladigan manba sifatida belgilaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Поездка из Орска в Хиву и обратно, совершенная в 1740-1741 годах Гладышевым и Муравиным издана с приобщением современной карты миллерова пути от орска до зюнгорских владений и обратно, Я. В. Ханыковым, Действ. Чл. Имп. Русск. Геогр. Общества. С.-ПЕТЕРБУРГ. Типография Министерства Внутренних дел. 1851
2. Сборник материалов для Туркестанского края. Том III. 1841 год. Миссия капитана Никифорова в Хиву и действия отрядов, высылаемых в Киргизскую степь с Сибирской и Оренбургской линий для усмирения Кенисары Касымова и других мятежников. Составил полковник А. Г. Серебренников Ташкент. Тип. штаба Туркестанскаго воен. округа. 1912 г.
3. Путешествие в Туркмению и Хиву в 1819-1820 годах, гвардейского генерального штаба капитана Н.Муравьева, посланного в сии странк для переговоров. ч.1.-М.: в типографии Августа Семена. 1822. –С.17-18
4. Туркестанский край. С-Петербург. Издание А.Ф.Девриена. 1913

“ЎЗБЕКИСТАН И ТУРЦИЯ: СРАВНИТЕЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ”

Курбанова Дилрабо Шерипбоевна

Доцент Ургенчского Инновационного Университета

Тиллаева Юлдуз Бахрамовна

Магистрант Ургенчского Инновационного Университета

E-mail: kamiljanyasmina@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada O'zbekiston va Turkiya umumiy o'rta ta'lim tizimlarining qiyosiy tahlili keltirilgan. Tadqiqotda maktab ta'limining huquqiy-me'yoriy asoslari, tuzilmasi va majburiy ta'lim davomiyligi, o'quv jarayonining xususiyatlari hamda ta'lim muassasalarini boshqarish masalalari yoritilgan. Shuningdek, ikki davlat ta'lim tizimlarining o'xshash va farqli jihatlari hamda ta'lim sohasida xususiy sektorning tutgan o'rni tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, turli yondashuvlarga qaramay, har ikkala mamlakat ham ta'lim sifatini oshirish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga intilmoqda.

Kalit so'zlar: maktab ta'limi, O'zbekiston, Turkiya, qiyosiy tahlil, ta'lim tizimi, xususiy maktablar.

Аннотация: В статье представлен сравнительный анализ системы школьного общего образования Узбекистана и Турции. Рассматриваются нормативно-правовые основы, структура и продолжительность школьного обучения, особенности учебного процесса и управления образовательными учреждениями. Особое внимание уделяется сходствам и различиям моделей школьного образования двух стран, а также роли и значению частного сектора в развитии системы образования. На основе проведённого анализа показано, что, несмотря на различия в организации обучения, обе страны стремятся к повышению качества образования и формированию конкурентоспособного человеческого капитала.

Ключевые слова: школьное образование, Узбекистан, Турция, сравнительный анализ, система образования, частные школы.

Abstract: The article presents a comparative analysis of the general secondary school education systems of Uzbekistan and Turkey. The study examines the legal framework, structure and duration of compulsory schooling, characteristics of the educational process, and governance of educational institutions. Special attention is paid to the similarities and differences between the two national education models, as well as to the role of the private sector in the development of education. The analysis shows that despite different approaches, both countries aim to improve the quality of education and develop a competitive human capital.

Key words: school education, Uzbekistan, Turkey, comparative analysis, education system, private schools.

Образование – ключ к развитию общества и будущему каждой нации. Как сказал, Президент Узбекистана Шавката Мирзиёев:

“Качество образования -фундамент сильного государство” [1]. Развитие любой страны зависит от здорового и образованного поколения. Именно поэтому в рамках построения Нового Узбекистана создаются условия для воспитания образованной, думающей и патриотичной молодежи. Государственная политика предусматривает масштабное расширение школьных мест, повышения качества обучения и поддержку педагогов, поскольку качественное образование напрямую связано с будущим экономикой страны. Школьное образование, являясь базовым уровнем формирования личности и человеческого капитала, играет определяющую роль в дальнейшем образовательном и профессиональном развитии индивида. В этой связи сравнительное изучение национальных систем школьного образования приобретает особую научную и практическую значимость. Нужно подчеркивать, что развитие системы образования и обмен опытом с другими государствами крайне важен для повышения качества образования.

Узбекистан и Турция — государства, обладающие общими историко-культурными корнями и схожими стратегическими целями в сфере образования. Вместе с тем, каждая из стран сформировала собственную модель школьного образования, обусловленную национальными особенностями, социальными запросами и государственными приоритетами. Оба государства демонстрируют интересные подходы к реформированию системы образования, сочетая традиции и современные стандарты.

Целью данной статьи является сравнительный анализ школьного общего образования Узбекистана и Турции с выявлением их сходств и различий, также рассмотреть роль частного сектора в сфере образования Узбекистана.

Система образования в Узбекистане регулируется Законом Республики Узбекистан «Об образовании» (ЗРУ-637), принятым 23 сентября 2020 года [2]. Этот документ, пришедший на смену закону 1997 года, закрепляет правовые основы, виды и формы образования, гарантируя непрерывность и преемственность обучения. Конституция Республики Узбекистан (статья 50) гарантирует право каждого на образование, обязывая государство обеспечивать функционирование всей системы от дошкольного до высшего. Закон устанавливает, что образование в Узбекистане является единым и непрерывным, включая дошкольное, общее среднее, профессиональное, высшее, послевузовское, а также повышение квалификации и внешкольное обучение.

Система образования в Турции регулируется Основным законом о национальном образовании № 1739 (Milli Eğitim Temel Kanunu), который определяет структуру, принципы и цели образования. Дополнительно высшее образование регулируется Законом № 2547, а деятельность частных учреждений — Законом № 625 [3]. Вся система находится под

управлением Министерства национального образования (МЕВ). Законодательство базируется на принципах светского, научного образования и реформах Ататюрка. Образование в государственных школах является бесплатным, как и в Узбекистане, а законодательство обеспечивает равный доступ к обучению для всех граждан.

В Узбекистане обязательное школьное обучение составляет 11 лет и реализуется в рамках модели 4+5+2, включающей начальное образование (1–4 классы), общее среднее образование (5–9 классы) и старшую школу (10–11 классы) [2]. А в Турции обязательное обучение в отличие от нашего длится 12 лет и организовано по модели 4+4+4, включающей начальную школу (1–4 классы), среднюю школу (5–8 классы) и старшую школу — лицей (9–12 классы)[3]

В Узбекистане возраст обучающихся в системе школьного образования, как правило, охватывает период с 7 до 18 лет. Учебный год в общеобразовательных школах делится на четыре четверти, между которыми предусмотрены каникулярные периоды. Учебные планы включают в среднем от 12 до 15 обязательных предметов, среди которых родной язык и литература, математика, история, география, физика, химия, биология, иностранный язык, информатика и физическая культура. Возрастной диапазон школьного обучения в Турции составляет примерно от 6 до 18 лет. Учебный год делится на два семестра [4]. В старшей школе учащиеся осваивают в среднем от 10 до 12 предметов, включая турецкий язык и литературу, математику, естественные науки, общественные дисциплины, иностранный язык и физическую культуру. Ниже приведены различия и сходства школьного образования двух стран в виде таблицы.

Параметр	Узбекистан	Турция
Общая обязательная продолжительность обучения	11 лет	12 лет
Модель школьного образования	4 + 5 + 2	4 + 4 + 4
Начальная школа	1–4 классы (7–10 лет)	1–4 классы (6–10 лет) (İlkokul)
Средняя школа (общее среднее)	5–9 классы (11–15 лет)	5–8 классы (10–14 лет) (Ortaokul)
Старшая школа / лицей	10–11 классы (16–18 лет)	9–12 классы (14–18 лет) (Lise)
Продолжительность старшей школы	2 года	4 года
Деление учебного года	4 четверти	2 семестра

Среднее количество предметов	12–15 предметов	10–12 предметов
Основные обязательные предметы	родной язык и литература, математика, история, география, физика, химия, биология, иностранный язык, информатика, физкультура	турецкий язык и литература, математика, физика, химия, биология, история, география, иностранный язык, физкультура
Типы школ	общеобразовательные, специализированные	общеобразовательные лицеи, научные (Fen Liseleri), профессионально-технические, имам-хатип
Форма управления	централизованная	централизованная + автономия школ
Частные школы	есть, развиваются	широко распространены
Оценивание	текущие оценки + итоговые	текущие оценки + национальные экзамены

Сравнение школьного образования Узбекистана и Турции

Сравнительный анализ показывает, что системы школьного образования Узбекистана и Турции обладают рядом общих черт. К ним относятся обязательный характер школьного обучения, ступенчатая структура системы и наличие государственного контроля за качеством образования.

В то же время между системами существуют принципиальные различия. В Турции старшая школа длится четыре года, а в Узбекистане — два года. Турецкая модель «4+4+4» обеспечивает более ранний переход к профильному обучению и высокую автономию образовательных учреждений, в то время как узбекская система сохраняет более централизованный характер управления и сокращённый период старшей школы, а также семестровую организацию учебного года, в отличие от четвертной системы в Узбекистане. Характерной особенностью турецкой системы является развитая система профильных лицеев, включая общеобразовательные, научные, профессионально-технические и религиозные учебные заведения. При этом значительная роль отводится частному сектору и автономии образовательных учреждений [5]. Следует отметить, в Турции частный сектор образования существует давно и является важным элементом системы. И это показало свои положительные результаты: частные школы способствуют внедрению современных методик, развитию двуязычных и международных программ, а также подготовке конкурентноспособных выпускников. Опыт Турции демонстрирует, как частный сектор может эффективно дополнять государственное образование, повышая общий уровень качества и открывая дополнительные возможности для учеников.

В последние годы в Узбекистане тоже, опираясь на опыт развитых государств, были созданы благоприятные условия для открытия и развития частных образовательных учреждений. Особенно активный рост данного сектора наблюдается после 2017 года, когда начались системные реформы в сфере образования [6]. Существенную роль в развитии частного образования сыграли указы и постановления Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева, направленные на расширение участия негосударственного сектора в системе образования. Были значительно упрощены процедуры лицензирования частных школ и дошкольных образовательных организаций. Например, в 22 ноября 2024 году Президентом Республики Узбекистан был подписан указ, согласно которому частные школы и детские сады освобождаются от большинства налогов и обязательных платежей до 1 января 2030 года, за исключением социального налога [7]. Данная мера направлена на снижение финансовой нагрузки и стимулирование предпринимательской активности в сфере образования. Также, Постановление № ПП – 49 от 31 января 2024 года направлено на развитие сети негосударственных школ через предоставление компенсации и льготных условий для инвесторов [8]. Это гарантирует государством предусмотренные льготные кредитные программы для открытия частных школ, а также компенсация части коммунальных расходов для новых образовательных учреждений. Для обеспечения современных условий обучения были отменены таможенные пошлины на ввоз учебного оборудования, компьютерной техники и образовательных материалов. В результате принятых мер количество частных школ в стране значительно увеличилось. Помимо этого, развитие частных образовательных учреждений в Узбекистане является результатом последовательной государственной политики, направленной на модернизацию системы образования, повышение её качества и формирование конкурентной образовательной среды. Также, сравнивая системы образования Узбекистана и Турции, мы видим, что несмотря на разные подходы, обе страны стремятся к одной цели – воспитать поколение, готовое к вызовам современного мира изучение этих практик помогает нам не только понимать развитие других стран, но и находить идеи для улучшения собственной образовательной системы.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Мирзиёев Ш. М. Выступления и обращения по вопросам развития образования в Республике Узбекистан // Официальный сайт Президента Республики Узбекистан. — URL: <https://president.uz>
2. Закон Республики Узбекистан «Об образовании» № ЗРУ-637 от 23 сентября 2020 г. — Ташкент, 2020.
3. Milli Eğitim Temel Kanunu (Основной закон о национальном образовании Турции) № 1739. — Ankara.

4. Republic of Türkiye. Ministry of National Education (MEB). National Education System in Turkey. — Ankara, 2021.
5. OECD. Education at a Glance: Turkey. — Paris: OECD Publishing, 2019.
6. Министерство дошкольного и школьного образования Республики Узбекистан. Официальные учебные планы и структура общего среднего образования.
7. Указ Президента Республики Узбекистан от 22 ноября 2024 г. «О дополнительных мерах по повышению участия частного сектора в сфере образования»
8. Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-49 от 31 января 2024 г. «О мерах по развитию сети негосударственных образовательных учреждений».

O'RTA OSIYO HUDUDIDA BRONZA DAVRI HARBIY XAVF VA MUDOFAA ME'MORCHILIGINING VUJUDGA KELISHI

Tilovboyeva Mardona

Urganch innovatsion universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada bronza davrida harbiy xavfning kuchayishi va uning mudofaa me'morchiligi shakllanishiga ta'siri keng qamrovda tahlil qilinadi. Aholi sonining ortishi, xo'jalik faoliyatining rivojlanishi hamda hududiy raqobat qurolli to'qnashuvlar ehtimolini oshirgan. Tadqiqotda arxeologik manbalar asosida bronza davri mudofaa inshootlarining turlari, me'moriy xususiyatlari va ijtimoiy-siyosiy ahamiyati yoritiladi.

Kalit so'zlar: Bronza davri, harbiy xavf, mudofaa me'morchiligi, mudofaa inshootlari, ilk shaharlar, davlatlashuv jarayoni, O'rta Osiyo, arxeologiya.

Аннотация: В данной статье всесторонне анализируется влияние усиления военной угрозы на формирование оборонной архитектуры в бронзовом веке. Увеличение численности населения, развитие хозяйственной деятельности и территориальная конкуренция способствовали повышению вероятности вооружённых столкновений. В исследовании на основе археологических источников рассматриваются типы оборонительных сооружений бронзового века, их архитектурные особенности и социально-политическое значение.

Ключевые слова: Бронзовый век, военная угроза, оборонная архитектура, оборонительные сооружения, первые города, процесс государственности, Центральная Азия, археология.

Annotation: This article provides a comprehensive analysis of the impact of increased military threat on the formation of defensive architecture during the Bronze Age. Population growth, economic development, and territorial competition contributed to a higher likelihood of armed conflicts. Based on archaeological sources, the study examines the types of Bronze Age defensive structures, their architectural characteristics, and socio-political significance.

Keywords: Bronze Age, military threat, defensive architecture, defensive structures, early cities, state formation process, Central Asia, archaeology.

Osiyo materigi markazida joylashgan O'rta Osiyo geografik joylashish jihatdan odamzotning eng qadimgi davrdan e'tiboran joylashib, tabiiy manbalardan uddaburon va unumli foydalanib, xo'jalik sohalarini kashf qilib, ularni rivojlantirish barobarida yuksak moddiy va ma'naviy madaniyat yaratganlar, bu holat ilmiy markazlar tomonidan turli nomdagi arxeologik ekspeditsiya va guruhlarining tashkil qilinishiga zamin bo'lgan. Shunday ekspeditsiyalar Quyi Amudaryo hududi Xorazm ekspeditsiyasi, Zarafshon quyi havzasida Mahondaryo, Surxon vohasida Sherobod, Farg'ona vodiysida shu atamada, Turkmaniston Respublikasi Janubiy Turkmaniston kompleks ekspeditsiyasi tashkil qilingan. Ushbu mavzusida O'rta Osiyoda bronza davri turar-joylarida loy me'morchiligi bilimini tahlil qilish belgilanligi munosabati

bilan Turkmaniston Respublikasi Kopetdog' va Murg' ob daryosi havzasida o'rnatilgan o'troq hayot asosida taqir yerlarda ilk ziroatchilik bilimini rivojlantirishga asos bo'lgan me'morchilik bilimi Joytun manzilgohi misolida o'rganish zarurati mavjud. V.M.Masson Joytun manzilgohida qazishma ishlari natijasida 30 ta uy xonasi paxsa va guvaladan qurilgan bo'lib, ziroatchilik madaniyati bilan shug'ullanganlar. [1-C.156]. Turkmanistonning Kopetdog' oldi etaklarida Namozgohtepa, Oltindepa, Murg'ob vohasida Kellegi, Gonur yodgorliklari paxsa va xom g'isht yordamida mudofaa devor, ibodatxona, saroy va uy-xonalari qurilgan. [2-B 78-79], [3-C 116-117].

A.Asqarov Surxondaryo viloyati Sherobod tumani Muzrabod dashtida Sherobod daryosi Ulanbuloqsoy irmog'i quyi havzasida Sopollitepa hamda ushbu daryoning Bo'stonsoy vohasida balandlikda paxsa va to'g'riburchak xom g'ishtdan qurilgan Jarqo'ton mudofaa inshootini arxeologik jihatidan o'rgangan Bronza davrida harbiy to'qnashuvlar uchun shart-sharoitlar mavjud bo'lib, resurslar, unumdor yerlar va savdo yo'llari ustidan nazorat o'rnatish muhim ahamiyat kasb etdi. Shu sababli manzilgohlarni himoyalashga qaratilgan me'moriy yechimlar jamiyat taraqqiyotining ajralmas qismiga aylandi. [4-C 139], [5-C 55].

Bronza davrida harbiy xavfning kuchayishiga bir qator ijtimoiy-iqtisodiy omillar sabab bo'lgan. Avvalo, dehqonchilik va chorvachilikning rivojlanishi natijasida ortiqcha mahsulot paydo bo'ldi. Bu esa qo'shni jamoalar o'rtasida talon-taroj va hududiy raqobatni kuchaytirdi. Metall qurollarning, xususan, bronzadan yasalgan pichoqlar, nayza va boltalarning keng tarqalishi qurolli to'qnashuvlarni yanada xavfli va halokatli qildi. [6-B 198]

Shuningdek, ijtimoiy tabaqalanish jarayonining chuqurlashuvi jamiyat ichida ham nizolarni keltirib chiqardi. Qabila va urug'lar o'rtasidagi raqobat, migratsiya jarayonlari va savdo yo'llari ustidan nazorat qilish istagi harbiy xavfni kuchaytirgan asosiy omillardan bo'ldi.

Harbiy xavfning ortishi mudofaa me'morchiligining vujudga kelishiga turtki bo'ldi. Dastlab aholi tabiiy himoya imkoniyatlariga ega hududlarda — balandliklar, daryo bo'ylari va cho'l hududlarida manzilgohlar barpo etgan. Vaqt o'tishi bilan sun'iy mudofaa inshootlari qurila boshlandi. Xandaklar, tuproq valiklar, xom g'ishtdan tiklangan devorlar va burjlar bronza davri mudofaa me'morchiligining asosiy elementlariga aylandi.

Mudofaa devorlarining qalinligi va balandligi harbiy tahdid darajasiga mos ravishda oshirib borilgan. Ayrim manzilgohlarda bir necha qatlamli himoya tizimi — tashqi xandak, ichki devor va burjlar majmuasi mavjud bo'lgan. Bu holat mudofaa masalasiga alohida e'tibor qaratilganini ko'rsatadi.

Bronza davri mudofaa inshootlari asosan mahalliy qurilish materiallaridan — xom g'isht, tuproq va toshdan bunyod etilgan. Devorlar ko'pincha to'g'ri yoki oval shaklda qurilib, burjlar orqali mustahkamlangan. Darvozalar esa eng zaif nuqta bo'lganligi sababli maxsus himoya tizimlari bilan ta'minlangan. [7-B 180]

Me'moriy rejalashtirishda strategik yondashuv ustun bo'lgan. Burjlar va kuzatuv nuqtalari atrof hududni nazorat qilish imkonini bergan. Ayrim yodgorliklarda mudofaa inshootlari bilan birga ichki ko'chalar va jamoat binolari rejalashtirilgani kuzatiladi.

O'rta Osiyo bronza davri madaniyatlari mudofaa me'morchiligining rivojlanganligi bilan ajralib turadi. Sopollitepa, Jarqo'ton, Dashli, Gonur kabi yodgorliklar buning yaqqol dalilidir. Ushbu manzilgohlarda aniqlangan qalin devorlar, burjlar va xandaklar harbiy xavf doimiy bo'lganini ko'rsatadi.

Ayniqsa, Jarqo'ton yodgorligida aniqlangan murakkab mudofaa tizimi bronza davrida shaharsozlik va harbiy me'morchilik yuqori darajada rivojlanganini tasdiqlaydi. Bu inshootlar markazlashgan boshqaruv va jamoaviy mehnat mavjud bo'lganidan dalolat beradi. [8-B 150]

Mudofaa inshootlari bronza davrida faqat harbiy vazifani bajarmagan, balki ijtimoiy va siyosiy ahamiyatga ham ega bo'lgan. Qalin devorlar va baland burjlar hokimiyat ramzi sifatida namoyon bo'lgan, aholini bir markazga birlashtirishga xizmat qilgan.

Bunday inshootlarning qurilishi jamiyatda mehnat taqsimoti, boshqaruv tizimi va harbiy tashkilot mavjudligini ko'rsatadi. Shu bois mudofaa me'morchiligi davlatlashuv jarayonlarining muhim belgilaridan biri hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, bronza davrida harbiy xavfning kuchayishi mudofaa me'morchiligining vujudga kelishiga bevosita turtki bo'lgan. Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning murakkablashuvi, hududiy raqobat va metall qurollarning paydo bo'lishi aholi manzilgohlarini ishonchli himoyalashni taqozo etgan. Natijada mudofaa inshootlari oddiy tabiiy to'siqlardan tortib, murakkab sun'iy me'moriy tizimlarga rivojlangan.

Bronza davrida barpo etilgan mudofaa inshootlari nafaqat harbiy ehtiyojlarni qondirgan, balki jamiyatning ijtimoiy tuzilmasi, boshqaruv shakllari va davlatlashuv jarayonlarini aks ettirgan muhim tarixiy manba hisoblanadi. Ushbu inshootlar keyingi temir davri va ilk antik davr harbiy me'morchiligi uchun asos bo'lib xizmat qilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Массон В.М. Поселение Джэйтун // Материалы и исследования по археологии. – Москва: Наука, 1975-N180
2. Boqiyev A., Shaydullayev A., Yo'ldosheva Z., Oks sivilizatsiyasi – Tashkent: "Yanginashr" 2015.
3. Мамедов М. Древняя архитектура Бактрии и Маргианы. – Ашхабад, 2003.
4. Asqarov A. Sapallitepa. – Tashkent, – Fan, 1973
5. Аскарлов А., Абдуллаев Б. Джаркутан. – Ташкент: Фан, 1983.
6. Mirzoyev B., Rashidov J. O'rta Osiyo bronza davri arkeologiyasi. — Toshkent: O'zbekiston Fanlar Akademiyasi, 2002. — 198 bet.
7. Ergashev R. Bronza davrida O'rta Osiyo shaharsozligi. — Toshkent: Fan, 2011. — 180 bet.
8. Abdullayev M. Bronza davri me'morchiligi va uning rivojlanish xususiyatlari. — Samarqand: Samarqand universiteti nashri, 2015. — 150 bet.

XORAZM VOHASIDA XIVA XONLIGI DAVRIDA SAVDO-SOTIQ MUNOSABATLARI: TARIXIY-IQTISODIY TAHLIL

Tajiyeva Gulnoza Saporbayevna

Urganch innovatsion universiteti magistranti

E-mail: taziyevagulnoza24@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xorazm vohasida Xiva xonligi davrida shakllangan savdo-sotiq munosabatlari tarixiy-iqtisodiy jihatdan tahlil qilinadi. Ichki va tashqi savdo, karvon yo'llari, bozorlar faoliyati, pul muomalasi hamda ularning xonlik iqtisodiy rivojida o'rni yozma manbalar asosida yoritiladi hamda mintaqaning Markaziy Osiyo savdo tizimidagi o'rni, aloqalari va tarixiy ahamiyati kompleks tarzda ilmiy asosda ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Xiva xonligi, Xorazm vohasi, savdo-sotiq, karvon yo'llari, bozorlar, iqtisodiy munosabatlar.

Аннотация: В статье рассматриваются торгово-экономические отношения Хорезмского оазиса в период Хивинского ханства. Анализируются внутренняя и внешняя торговля, караванные пути, рынки, денежное обращение, их влияние на хозяйственное развитие государства и место региона в системе среднеазиатских торговых связей с учетом письменных источников, исторического опыта, социально-экономических факторов, динамики обмена, региональной специализации, международных контактов эпохи.

Ключевые слова: Хивинское ханство, Хорезмский оазис, торговля, караванные пути, рынки, экономические отношения.

Abstract: This article examines trade relations in the Khorezm oasis during the Khiva Khanate. It analyzes internal and external trade, caravan routes, markets, and monetary circulation, emphasizing their impact on economic development, regional integration, and the role of Khorezm within Central Asian commercial networks based on historical sources and archival evidence.

Keywords: Khiva Khanate, Khorezm oasis, trade, caravan routes, markets, economic relations.

Xiva xonligi Markaziy Osiyo tarixida muhim siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazlardan biri bo'lib, uning hududi asosan Xorazm vohasini o'z ichiga olgan. Geografik jihatdan Amudaryo quyi oqimida joylashgan ushbu hudud qadimdan savdo-sotiq uchun qulay sharoitga ega bo'lgan. Xiva xonligi davrida (XVI asr oxiri – XX asr boshlarigacha) savdo munosabatlari xonlik iqtisodiy hayotining asosiy tayanchlaridan biri sifatida shakllandi. XVI- XIX asrlar O'rta Osiyoda murakkab siyosiy jarayonlar kechgan davr hisoblanadi. Mustaqil davlat sifatida tashkil topgan Buxoro, Xiv va Qo'qon xonliklari bu jarayonlarda muhim rol o'ynagan. Ular o'rtasidagi qarama-qarshi harakterga ega munosabatlar, O'rta Osiyoning geosiyosiy holati xonliklarning tashqi diplomatik va savdo aloqalarida ham o'z aksini topgan. Bu davlatlar mintaqada kechgan murakkab siyosiy vaziyatni turli yo'llar, xususan, tashqi aloqalarni mustahkamlash orqali hal etishga harakat qilganlar.[1].

XVI asrlarga kelib Xiva xonligining Rossiya bilan qadimgi davrlardan buyon davom etib kelayotgan diplomatik va savdo aloqalarining to'xtab qolishi xonlik manfaatlariga kata ziyon yetkazmoqda edi [1.]

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, Xiva xonligida savdo-sotiq tizimi nafaqat iqtisodiy taraqqiyotga, balki ijtimoiy tabaqalanish, shaharsozlik, xalqaro munosabatlar va madaniy almashinuv jarayonlariga ham bevosita ta'sir ko'rsatgan. Shu bois, savdo munosabatlarini tarixiy-iqtisodiy jihatdan kompleks o'rganish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning manbashunoslik asoslari: Xiva xonligida savdo-sotiq masalalarini o'rganishda yozma tarixiy manbalar muhim o'rin tutadi. Jumladan, Abulg'ozzi Bahodirxonning *"Shajarayi turk"* va *"Shajarayi tarokima"* asarlari, Munis va Ogahiyning tarixiy bitiklari, shuningdek, rus sayyohlari va elchilarining xotiralari muhim manbalar hisoblanadi. XIX asrda Rossiya imperiyasi tomonidan olib borilgan statistik va diplomatik hisobotlar ham savdo hajmi va yo'nalishlari haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. Jumladan Abulg'ozzi Bahodirxon 1644-yilda xonlik taxtini egallab, uni odilona boshqarib, xonlikda qat'iy va mustahkam tartib o'rnatishga erishgan. Uning hukumdorlik davrida Xivaning ahamiyati yanada oshdi, hususan savdo sotiq va iqtisodiy munosabatlar rivojlandi.

Xiva xonligi iqtisodiy tizimida savdoning o'rni: Xiva xonligi iqtisodiyoti asosan qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik va savdo tarmoqlariga tayangan. Savdo ushbu tarmoqlarni o'zaro bog'lovchi muhim mexanizm bo'lib xizmat qilgan. Hunarmandlar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar ichki bozorlarda sotilgan, ortiqcha mahsulotlar esa tashqi bozorlarga chiqarilgan. Savdo munosabatlarining rivojlanishi xonlikning moliyaviy tizimini mustahkamlab, davlat xazinasiga boj va soliq tushumlarini ta'minlagan. Ayniqsa, bojxona to'lovlari (tamg'a, boj) davlat daromadlarining muhim qismini tashkil etgan.

Ichki savdo va bozor tizimi: Xiva xonligida ichki savdo rivojlangan bo'lib, u asosan shaharlardagi bozorlarda amalga oshirilgan. Xiva shahri bosh savdo markazi hisoblangan. Bundan tashqari, Urganch, Hazorasp, Xonqa va Qo'ng'iro't shaharlari ham muhim savdo nuqtalari bo'lgan. Bozorlarda quyidagi mahsulotlar keng savdo qilingan: qishloq xo'jaligi mahsulotlari (bug'doy, arpa, sholi); paxta va ipak mahsulotlari; chorvachilik mahsulotlari (jun, teri, yog'); hunarmandchilik buyumlari (kulolchilik, gilam, zargarlik) buyumlari haridorgir bo'lgan.

Xiva xonligida yirik ichki, tashqi va tranzit savdo markazlari sifatida Xiva, Xonqa, Xozarasp, Yangi Urganch, Gurlan kabi shaharlarni kiritishimiz mumkin. Bu shaharlardagi bozorlar ko'p asrlar davomida rivojlanib kelgan. Xonlikdagi ijtimoiy-iqtisodiy hayotning bir qancha o'ziga xos xususiyatlari bor. Bunda bozor munosabatlari alohida ahamiyatga molik. Aholi ehtiyoji uchun zaruriy bo'lgan barcha turdagi mahsulotlarni bozorlarda mavjud bo'lgan. Xonlikda bojxona faoliyati ham yaxshi yo'lga qo'yilgan bo'lib, uning vaziyafalari aniq belgilab berilgan. Manbalarga ko'ra, Xiva xoni Muhammad Rahimhon I hukmronligi davri-da Xo'ja Mahram ismli saroy amaldori bojxona idorasi boshlig'i etib tayinlangan. Xonlikdagi bozorlarga to'xtaladigan bo'lsak, A.Abdurasulov turli

manbalarga tayanib Xiva shahridagi Polvon darvozasi ichkarisida yopiq bozor joylashgan bo'lib, 1835 yilda Ollaqulixon tomonidan maxsus karvonsaroy qurilmasdan oldin ham bu yerda savdo rastalari joylashganligi va ular karvonsaroy vazifasini o'taganligi ma'lum qiladi [5]. Shaharning mavqeyi XVIII asrda yanada ortgan. 1753- yili Xiva xonligida bo'lgan rus savdogari D. Rukavkinning ta'kidlashicha, ham qirg'iz-qaysoqlarga(qozoqlarga), ham Orenburg yaqin joylashganligi bois katta savdo asosan Urganch shahrida bo'lgan. M. Otajonovning esdaliklari orqali Xiva xonligida faoliyat yuritgan turli darajadagi savdogarlar va ularning qaysi davlatlar bilan savdo aloqalari olib borganliklari haqida ma'lumotga ega bo'lish mumkin. Shu tariqa bozor munosabatlari mustahkamlanib borgan.

Xorazmda XVI-XVIII asr o'rtalarida hunarmandchilik markazlarida doimiy do'konga ega bo'lgan hunarmandlardan tashqari bozorda do'konga ega bo'lmasada, unga o'z mahsulotini yetkazib bergan kulollar, tandirchilar, chitgarlar, duradgorlar, qurilish sohasi ustalari kabi boshqa vturli hunarmandlar ham faoliyat yuritganlar.

Ichki savdo xonlik aholisi ehtiyojlarini qondirish bilan birga, hunarmandchilikning rivojlanishiga turtki bergan.

Tashqi savdo va xalqaro iqtisodiy aloqalar: Xiva xonligining tashqi savdosi Markaziy Osiyo, Yaqin Sharq va Rossiya hududlari bilan bog'liq bo'lgan. Xonlik Buyuk Ipak yo'lining so'nggi davr tarmoqlaridan foydalanib, karvon savdosini faol olib borgan.

Rossiya bilan savdo aloqalari: XVIII–XIX asrlarda Xiva xonligining Rossiya bilan savdo aloqalari kuchaygan davr hisoblanadi. Xiva savdogarlari Orenburg, Astraxan va Qozon bozorlariga chiqish imkoniga ega bo'lgan. Rossiyadan sanoat mahsulotlari, metall buyumlar va shakar olib kelingan bo'lsa, Xivadan paxta, ipak, teri va jun mahsulotlari eksport qilingan. XVI asr boshlaridan XIX asrning birinchi yarmigacha bo'lgan davrlarda Xiva xonligining Rossiya davlati bilan olib borgan diplomatik va savdo munosabatlari qizg'in tus olganligini bilish mumkin [1]. Elchilar Rossiya bilan savdo aloqalarini o'rnatilishi va rivojlanishi muhim o'rinni egallaganlar. Bu vaqtlarda Xiva elchilari nihoyatda uzoq va tabiiy sharoiti og'ir karvon yo'llarini bosib, Astraxan orqali Moskva va Sankt-Peterburgga qatnab, ikki davlat uchun o'zaro manfaatli bitim va savdo shartnomalarini imzoloshga harakat qilganlar. O'zbek diplomatiyasining ko'p asrlik tarixida Rossiya davlati bilan elchilik va savdo aloqalari shu darajada keng quloch yoyganki, bunaqa munosabatlar boshqa qo'shni mamlakatlar misolida bo'lmagan.

Sharq mamlakatlari bilan savdo: Eron, Afg'oniston va Buxoro amirligi bilan savdo aloqalari ham muhim ahamiyat kasb etgan. Ushbu savdo munosabatlari orqali Xiva xonligi mintaqaviy iqtisodiy tizimning ajralmas qismi sifatida shakllangan. 1510-yil Marv yaqinida Muhammad Shayboniyxonni qamal qilib turgan shoh Ismoil I bilan Urganch hokimi Elbarsxon o'rtasidagi elchilik aloqalari, ularning Shayboniyxonga qarshi yashirin muzokaralari va harbiy ittifoqchiligiga oid boshqa manbalarda uchramaydigan qiziqarli ma'lumotlar noma'lum muallifning „Olamoro-yi Safaviy“ asarida keltirilgan [3]. Asarda keltirilishicha,

Eron shohi bilan ittifoqchilik qilishga intilgan Elbarsxon Xiv ava Urganchda Ismoil I nomiga xutba o'qitgan. Mustaqil davlat sifatida tashkil topgan Xiva xonligi va Eron o'rtasidagi o'zaro aloqalar keying davrda ham davom etgan. XVIII asrning 20-30- yillarida ikki davlatning chegaradosh hududlarida tez-tez to'qnashuvlar bo'lib turgan bo'lsada, fors manbalarida keltirilgan ma'lumotlar Nodirshoh bilan Xiva xoni Sherg'ozixon (1715-1728) o'rtasidagi diplomatik aloqalar haqida tushuncha beradi [4]. Xiva xonligi va Eron o'rtasidagi siyosiy aloqalarning diplomatik, harbiy ittifoqchilik, o'zaro nikoh munosabatlari, hukumdorlarning shaxsiy tashriflari orqali amalga oshirilganligin, pirovard natijada XVI- XVIII asrlarda Xiva xonligininmg Eron davlati bilan o'zaro siyosiy, iqtisodiy aloqalari ikki davlat diplomatik,savdo va etno-madaniy hayotiga ta'siri kata bo'lgan deb xulosa chiqarish mumkin.

Xonlar tomonidan boj va soliq tizimining joriy etilishi, savdo yo'llarining xavfsizligini ta'minlash, karvonlarni qo'riqlash kabi chora-tadbirlar savdoning barqaror rivojlanishiga xizmat qilgan. Shu bilan birga, ayrim davrlarda siyosiy beqarorlik, ichki nizolar va tashqi bosimlar savdo aloqalarining susayishiga olib kelgani ham tarixiy manbalar asosida isbotlandi.

Xulosa qilib aytganda Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, savdo-sotiq Xiva xonligining ijtimoiy tuzilmasiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Savdogarlar tabaqasining shakllanishi, ularning iqtisodiy va ijtimoiy mavqeining ortishi jamiyatda yangi munosabatlarni yuzaga keltirgan. Savdo orqali madaniy almashinuvlar kuchayib, turli xalqlar o'rtasidagi aloqalar mustahkamlangan. Xiva xonligi davrida savdo-sotiqning taraqqiy etishi xonlik iqtisodiy hayotining muhim tayanchlaridan biri bo'lib, u davlatning siyosiy barqarorligi, shaharlarning rivoji va aholi farovonligiga bevosita ta'sir ko'rsatgan. Tadqiqot natijalari Xiva xonligi tarixini yanada chuqurroq anglash, Markaziy Osiyo savdo tizimining umumiy rivojlanish qonuniyatlarini o'rganishda muhim ilmiy ahamiyatga ega. Ushbu dissertatsiyada ilgari surilgan xulosalar kelgusida mavzuga oid yangi tadqiqotlar olib borishda nazariy va metodologik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Matyaqubov Shonazar, Jumaniyozova Firuza. Xiva xonligi tarixnavisligi. monografiya. „Durdona“ nashriyoti, Buxoro, 2024.
2. Allayeva N.A. Xiva xonligi diplomatiyasi (XVI-XIX asrlar) Toshkent Adabiyot uchqunlari, 2018. B 272.
3. Эркаев О. Туркменистаны Туркмены в конце XV первой половине XVI в. - 6 45
4. Мухаммад Казим Наме-йи аламара-йи Надири –Т I С 85
5. A. Abdurasulov. Xiva tarixiy etnografik ocherklar - Toshkent, 1997. B-29.
6. Xiva xonligi – O'zbek Vikipediyasi https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Xiva_xonligi
7. Xorazm tarixi – O'zbek Vikipediyasi <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Xorazm>
8. Bartold V.V. Turkiston tarixidan ma'ruzalar https://ru.m.wikipedia.org/wiki/Бартольд,_Василий_Владимирович

XIVA XONLIGINING SHARQ DAVLATLARI BILAN SAVDO VA ELCHILIK ALOQALARI

Xudoyberganova Jumagul Qahramon qizi

Urganch innovatsion universiteti magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada Xiva xonligining sharq davlatlari bilan savdo va elchilik aloqalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda xonlikning iqtisodiy hayoti, hunarmandchilik mahsulotlari, ipakchilik va paxta sanoati, shuningdek, elchilik missiyalari va savdo karvonlari faoliyati asosida mintaqaviy va xalqaro savdodagi o'rni yoritiladi. Arxiv hujjatlar, yozma manbalar va tarixiy tadqiqotlar asosida Xiva xonligining iqtisodiy, diplomatik va madaniy salohiyati o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Xiva xonligi, savdo aloqalari, elchilik missiyalari, hunarmandchilik, ipakchilik, paxta mahsulotlari, kirakashlar, xalqaro savdo, Sharq davlatlari, diplomatik aloqalar.

Аннотация: В данной статье анализируются торговые и дипломатические связи Хивинского ханства с восточными государствами. Исследование охватывает экономическую жизнь ханства, производство ремесленных изделий, шелководство и хлопчатобумажную промышленность, а также деятельность дипломатических миссий и торговых караванов, что отражает роль ханства в региональной и международной торговле. На основе архивных документов, письменных источников и исторических исследований изучены экономический, дипломатический и культурный потенциал Хивинского ханства.

Ключевые слова: Хивинское ханство, торговые связи, дипломатические миссии, ремесленничество, шелководство, хлопчатобумажная продукция, караванщики, международная торговля, восточные государства, дипломатические отношения.

Abstract: This article analyzes the trade and diplomatic relations of the Khiva Khanate with Eastern states. The study examines the khanate's economic life, handicraft production, sericulture, and cotton industry, as well as the activities of diplomatic missions and trade caravans, highlighting the khanate's role in regional and international trade. Based on archival documents, written sources, and historical research, the economic, diplomatic, and cultural potential of the Khiva Khanate is explored.

Keywords: Khiva Khanate, trade relations, diplomatic missions, handicrafts, sericulture, cotton products, caravan guides, international trade, Eastern states, diplomatic relations.

Xiva xonligi sharq davlatlari bilan savdo aloqalarini ikki asosiy yo'nalishda olib borgan: birinchisi, xonlik hududida ishlab chiqarilgan hunarmandchilik buyumlari, badiiy metall buyumlar, paxta va chorvachilik mahsulotlarini eksport qilish; ikkinchisi, Sharq mamlakatlaridan noyob buyumlar, kiyim-kechak, metall buyumlar va boshqa tovarlarni import qilish.

Bu aloqalar xonlikning iqtisodiy salohiyatini oshirish bilan birga, xalqaro savdo tizimiga faol integratsiyalashuvini ta'minlagan.

Xonlik o'z manfaatlarini himoya qilish va mustahkamlash maqsadida diplomatik elchilik aloqalarini ham yo'lga qo'ygan. Sharq davlatlariga yuborilgan elchilar savdo kelishuvlarini imzolash, nizolarni hal etish va siyosiy hamkorlikni mustahkamlash vazifasini bajargan. Shu bilan birga, elchilik aloqalari orqali ilmiy, madaniy va texnologik tajriba almashinuvi ham amalga oshgan.

XVI asr o'rtalaridan boshlab Buxoro va Xiva xonliklarining Moskva knyazligi bilan elchilik aloqalari shakllana boshlangach, O'rta Osiyoga tashrif buyurgan rus elchilik missiyalari a'zolariga muhim vazifalar topshirilganligiga shubha yo'q. Bu rus diplomatiyasi tarixi bilan shug'ullangan tadqiqotchilar asarlarida ham ko'rsatib o'tilgan [1]. XVI asr o'rtalarida Buxoro, Balx va Urganchdan Moskvaga yuborilgan elchilik missiyalari[2], xususan, Ivan IV Grozniy tomonidan Xiva va Buxoroga jo'natilgan Antoni Jenkinson boshchiligidagi rus elchilari [3] faoliyatida ham bu narsani ko'rish mumkin.

Savdo yo'llari bo'ylab yuborilgan elchilik missiyalari va karvonlar uchun oziq-ovqat, yuk tashish vositalari bilan ta'minlash tizimi yo'lga qo'yilgan. Shu bilan birga, uzoq masofalarga yuborilgan elchilik missiyalari va savdo karvonlarini himoya qilish uchun maxsus qurolli bo'linmalar tashkil etilgan, yo'l boshlovchi xizmatlar joriy qilingan. Bu tartib elchilik aloqalarini samarali yuritish va xavfsizligini ta'minlashga xizmat qilgan. Mazkur davrda karvon yo'llarida elchilar, elchilik missiyalari a'zolari, turli darajadagi amaldorlar, davlat xizmatchilari, choparlar va maxsus belgilangan savdogarlar xavfsizligi yuqori darajada nazorat qilinib, ularga zarur xizmatlar ko'rsatilgan[4].

Xizmat ko'rsatish tizimining rivojlanishi savdo karvonlariga ulov vositalari bilan yordam beradigan maxsus kishilar — kirakashlar toifasining shakllanishiga sabab bo'lgan. Kirakashlar asosan savdo yo'llari bo'ylab yashovchi mahalliy aholi vakillari edi. O'rta asrlarda kirakashlik ayrim ijtimoiy qatlamlar va hatto ko'chmanchi turkman hamda qozoq qabilalari uchun asosiy daromad manbai bo'lgan. Ayniqsa, so'nggi o'rta asrlarda O'rta Osiyo savdogarlari Rossiya shaharlari va Kaspiybo'yidagi Eron shaharlari bilan savdo aloqalarida yirik karvonlarni yo'l boshlash va kirakashlik vazifalarini bajarish uchun qozoq va turkmanlar keng jalb qilingan[5]. Bu holatni 1842-yilda Erondan kelgan Muhammad Alixon G'ofur hamda 1851-yilda Erondan Xivaga elchi bo'lib kelgan Rizoqulixon Hidoyat boshchiligidagi elchilarning mahalliy yavmut turkman qabilalaridan kirakash tuyakashlarni yollaganligi misolida ham ko'ramiz[6].

Shu kabi elchilik va diplomatik aloqalar Xiva xonligiga keng hududlar bo'ylab savdo aloqalarini olib borish imkonini taqdim qilish bilan birga, xonlik aholisi uchun zarur bo'lgan tovarlarning ham kirib kelishini ta'minlagan.

Xiva xonligining iqtisodiy hayotida ipakchilik muhim o'rin egallagan. Ingliz savdogari Roman Gokning qaydlariga ko'ra, Xivada tayyorlanadigan

hunarmandchilik mahsulotlari va ustaxonalari haqida atroflicha ma'lumot berilgan. U yerda ipak yetarli darajada ishlab chiqarilib, sifati Eron ipagidan ham yuqori bo'lgan[7]. Shuningdek, R. Gok ta'kidlaganidek, Xorazmda ipak buyumlarini tayyorlaydigan ustaxonalar (fabrikalar) mavjud bo'lmagani sababli, ipak asosan xomashyo ko'rinishida sotilgan, biroq paxta matosidan turli-tuman kiyimlar tikilishi va ularning katta hajmda savdoga chiqarilishi amalga oshirilgan. Shu nuqtai nazardan, Xiva xonligi ipakchilik mahsulotlarini tashqi bozorlarga yetkazish imkoniyatlariga ega bo'lib, bu esa uning mintaqaviy va xalqaro savdo aloqalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynagan. Savdo karvonlari va elchilik missiyalari orqali olib chiqilgan ipak va tayyor kiyimlar Xivaning iqtisodiy salohiyatini oshirish bilan birga, uning Sharq davlatlari bilan iqtisodiy va madaniy aloqalarini mustahkamlashga xizmat qilgan.

Xorazmlik ustalar tomonidan tayyorlangan ipak matolar Eronga ham chiqarilgan[8]. Eronlik savdogarlarning o'zlari ham Xivaga turli mollarni keltirar ekanlar, ularning evaziga Xiva ipagini olib ketishgan[9].

1823-yilda chop etilgan «Sibirskiy Vestnik» nashrida Xivada tayyorlanadigan to'nlik ipak, yarim ipak va ip gazlamalar, kanavislar, baxmal, bo'z va boshqa matolar haqida ma'lumot berilgan. Nashrda ayniqsa ipak gazlamalarning narxi nisbatan yuqori bo'lmaganligi ta'kidlangan, bu esa Xiva mahsulotlarining ichki va tashqi bozorlarda keng tarqalishiga imkon yaratgan[10].

Hujjatlarda Xivadan o'rtacha sifatli ipak va paxta matolarni sotish maqsadida Orenburg shahriga olib borilganligi haqida ma'lumotlar keltirilgan[11].

XVIII asrning 70-yillarida Qo'qon xonligida bo'lgan F. Yefremovning ma'lumotlariga ko'ra, Qo'qon bozorlariga tijorat maqsadida kelgan Xiva savdogarlari soni oz bo'lsa-da, ular chopon, bo'z, po'stin, ot, tuya va ho'kiz terilari, yarim ipak matolar, gilamlar bilan bir qatorda ingliz chitini ham olib kelganlar[12].

XIX asrning 60-yillarida Qo'qon xonligida bo'lgan M. Mixaylovning qaydlariga ko'ra, Namangan bozorlarida Xivada tayyorlangan qo'y terisidan yasalgan telpaklarga katta talab bo'lgan va ular bozorlarda nisbatan yuqori narxlarda sotilgan[13].

Xorazmdan qo'shni hududlarga chiqarilgan mahsulotlar orasida tranzit tovarlar yoki turli mamlakatlardan Xorazm bozorlariga sotish maqsadida keltirilgan mollar ham mavjud edi. Arxiv hujjatlariga tayangan muallif shuni qayd etadiki, xivalik savdogarlar Eronga savdo qilishdan katta foyda ko'rgan; shuning uchun ular bu yo'lda faol qatnashgan, va faqat bir haftaning o'zida Xiva va Urganch savdogarlari Rossiyadan olingan movut va charm, qozoq qo'ylari hamda o'z ip gazlamalari bilan Eronga jo'nab ketganlar[14].

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, Xiva xonligining sharq davlatlari bilan savdo va elchilik aloqalari mintaqaviy va xalqaro iqtisodiy tizimda muhim rol o'ynagan. Xonlik hunarmandchilik mahsulotlari, badiiy metall buyumlar,

paxta va chorvachilik mahsulotlarini eksport qilgan, shuningdek, Sharq mamlakatlaridan noyob tovarlar va metall buyumlarni import qilgan. Bu aloqalar xonlikning iqtisodiy salohiyatini oshirish bilan birga, xalqaro savdo tizimiga faol integratsiyalashuvini ta'minlagan.

Elchilik missiyalari va savdo karvonlari uchun oziq-ovqat, ulov vositalari va maxsus qurolli himoya tashkil etilishi karvon yo'llarida xavfsizlikni ta'minlagan va savdo faoliyatini barqarorlashtirgan. Shu tariqa, kirakashlar kabi maxsus xizmat ko'rsatuvchi qatlamlar shakllanishi ham xonlik iqtisodiy tizimining samarali ishlashini ta'minlagan. Xiva xonligida ipakchilik va hunarmandchilikning rivojlanishi ichki bozorni qondirish bilan birga, Eronga va qo'shni hududlarga mahsulotlarni eksport qilish imkonini yaratgan. Arxiv va tarixiy manbalar shuni ko'rsatadiki, xonlikning ipak, paxta, gilam va boshqa hunarmandlik buyumlari ichki va tashqi bozorlarda keng qabul qilingan, bu esa uning iqtisodiy va savdo salohiyatini mustahkamlashga xizmat qilgan.

Shu tariqa, Xiva xonligining savdo va elchilik aloqalari nafaqat iqtisodiy barqarorlikni, balki mintaqaviy va xalqaro madaniy-iqtisodiy integratsiyani ta'minlagan. Hunarmandchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish va savdo yo'llari orqali eksport qilish xonlikning mintaqaviy va xalqaro mavqeini oshirishga yordam bergan, diplomatik elchilik aloqalari esa siyosiy va madaniy almashinuvni rivojlantirishga xizmat qilgan.

Xulosa qilib aytganda, Xiva xonligi iqtisodiy va diplomatik strategiyasini hunarmandchilik va savdo faoliyati bilan uyg'unlashtirib, mintaqaviy va xalqaro savdoda mustahkam o'rin egallagan. Bu esa xonlikning iqtisodiy, madaniy va diplomatik salohiyatini yanada oshirishga hissa qo'shgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Лошков В. О древней русской дипломатии. – М., 1957. – С. 21.
2. Юлдошев М.К. К истории торговых и посольских связей Средней Азии с Россией в XVI-XVII вв. – Ташкент, Фан, 1964. – С. 21.
3. Дженкинсон А. Путешествие в Среднюю Азию. 1558-1560 гг. // В кн: Английские путешественники в Московском государстве в XVI в. / Перевод с английского Ю.В. Готье. – Л.: Полиграфкнига, 1937. – С. 167-192.
4. Мавлонов Ў. Марказий Осиёнинг қадимги йўллари. – Тошкент: Академия, 2008. – Б.
5. Агзамова Г.А.. Среднеазиатские ханства и Россия: к истории караванной торговли (XVI – первая половина XIX вв.) Россия – Узбекистан. История и современность. Спецвыпуск. – М., 2008. – С. 15, 22-23.
6. Муҳаммад Алихон Ғофур. Хоразм сафари кундалиги (Муҳаммадшоҳ Қожор ва Оллоҳқулихон ўртасидаги дипломатик алоқалар тарихидан. 1842 йил) / Форс тилидан И. Бекжонов таржимаси. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2009. – Б. 13–52; Ризоқулихон Ҳидоят. Сафоратномаи Хоразм. Носириддиншоҳ ва Муҳаммад Аминхон ўртасидаги дипломатик алоқалар тарихидан. 1851 йил. Форс тилидан И. Бекжонов таржимаси. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2009. – Б. 93, 152-153.
7. Возвратный из Хивы в Оренбург приезд английского купца Романа Гока. АВПРИ Ф. 125/1, д. 2.
8. Файзиев А. Хорезм в начале XVI – первой половине XIX в. / История Узбекистана. – Ташкент, 1993. Т. III. – С. 269.
9. История Узбекистана. – Ташкент, 1947. Т. 1. – С. 149.

SAK QABILALARINING IJTIMOY HAYOT TUZUMI

Xudayberganova Lolajon Aminboyevna

Urganch innovatsion universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Orolbo'yi sak qabilalarining ijtimoiy hayoti va ularning ijtimoiy tuzumi haqidagi ma'lumotlar ochib berilgan. Shuningdek Sak qabilalari ijtimoiy hayotini yoritishda I.Markvart, A.German, S.P.Tolstov kabi birqancha arxeologlarning tadqiqotlariga tayanildi.

Kalit so'zlar: Sak, S.P.Tolstov, Araks, Gerodot, Avesto, Sirdaryoda, Inkardaryo, I.V. Pyankov, Uygarak, Sakarchaga.

Аннотация: В данной статье раскрываются сведения о социальной жизни сакских племён Приаралья и их общественном устройстве. Также при освещении социальной жизни сакских племён были использованы исследования ряда археологов, таких как И. Маркварт, А. Герман, С. П. Толстов.

Ключевые слова: Саки, С. П. Толстов, Аракс, Геродот, Авеста, Сырдарья, Инкардаря, И. В. Пьянков, Уйгарак, Сакарчага.

Annotation: This article reveals information about the social life of the Aral Sea region Saka tribes and their social structure. In addition, the studies of several archaeologists such as I. Markwart, A. German, and S. P. Tolstov were used in describing the social life of the Saka tribes.

Keywords: Saka, S. P. Tolstov, Araxes, Herodotus, Avesta, Syr Darya, Inkardarya, I. V. Pyankov, Uygarak, Sakarchaga.

Sak qabilalari ijtimoiy tuzumining o'rganilishi XIX asrning oxirlari – XX asr boshlarida nemis olimlari I.Markvart va A.Germanndan boshlab, yozma manbalarga asoslangan[1] Arxeologik materiallarning qo'lga kiritilishi natijasida tadqiqotlar jarayonida yozma va ashyoviy dalillarni qiyoslash imkoni paydo bo'ldi. Orolbo'yi saklari tarixi va madaniyatini o'rganishda ushbu usul dastlab S.P.Tolstovning ishlarida qo'llanildi[14], shuningdek, mavzuga oid vazifalar yechimida ko'proq manbashunoslik jihatlarini[11] yoki aksincha, arxeologik ma'lumotlarni[4] inobatga olish kuzatildi.

Bizningcha, yozma va arxeologik ma'lumotlar bir-birini to'ldiruvchi axborot vositalari bo'lib, ularning qiyosiy tahlili natijalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Misol uchun, I.V. Pyankovning massagetlarga doir maqolasida manbalar mazmuni batafsil yoritilgan[10]. Lekin ko'rib chiqilgan manbalarning tarixiy voqelikka, hayot haqiqatiga mos kelishi masalasi muallif tomonidan ochib berilmagan.

Bunday muammoning paydo bo'lish ehtimolini go'yo bilgan Gerodot o'z hikoyalarining boshlanishida "aytishlaricha", "ba'zilarining hikoyalariga ko'ra" kabi izohlarni keltirgan. Misol uchun, Araks orollarida yashagan massagetlar haqida qadimgi yunon tarixchisi shunday yozgan: "Araksda, aytishlaricha, kattaligi Lesbos singari orollar ko'p. Ularda yashaydigan odamlar yerdan kavlab olingan ildizlarni iste'mol qiladilar, yozda esa ular daraxtlardan pishgan mevalarni terib olib, so'ngra zahirada saqlaydilar"[5]. Buni o'qib, massagetlarni ibtidoiy jamoa

tuzumi davrida yashagan termachilar sifatida ta'riflash mumkin. Lekin bu tarixiy haqiqatga to'g'ri kelmaydi. Gerodot davridan ko'p vaqt o'tganidan keyin, yuqorida keltirilgan ma'lumotlarni tanqidiy ko'rib chiqmagan Strabon, ularni deyarli takrorlagan: "Ekin yerlarga ega bo'lmagan orollarda yashovchilar ildizlar bilan ovqatlanadi, yovvoyi mevalarni iste'mol qiladilar, mevalardan siqib chiqarilgan sharbatni ichadilar"[13].

Yozma va arxeologik ma'lumotlarning qiyosiy tahlili, jumladan, yangi tadqiqotlar natijalari asosida, Orolbo'yi ilk sak qabilalarining ijtimoiy tuzumi tarixi yetarli darajada yoritilmagan. Mavzuning ayrim jihatlarini XXI asr boshlari nashrlarida ko'rib chiqilgan[12]. Mavjud ilmiy axborot doirasi masalaning manbaviy asosini tashkil etadi. Ma'lumotlarni umumlashtirilgan holda talqin qilish dolzarb ahamiyatga ega.

Mil. avv. IX-VIII asrlarda Yevroosiyo dasht chorvador qabilalari jamiyatining xo'jalik shakllari, turmush tarzi va madaniyatida tub o'zgarishlar yuz berdi. Aynan shu davrda yil davomida ko'chib yurish, chorva podalarini boqish uchun yaylovlar va suv manbalarini mavsumiy taqsimlash tizimi shakllandi[3].

Mis, qalay va qo'rg'oshin konlarini o'zlashtirgan chorvadorlar metallurgiya ishlari va qurol-yarog'ni rivojlantirish sohasida katta yutuqlarga erishadilar. Manzilgohlar va mozor qo'rg'onlardan topilgan buyumlar ichida kamon va nayza uchlari, bronzadan ishlangan xanjar va dami uzun pichoqlar sonining ortib borishi e'tiborga molik. Qurol-yarog'larni ko'paytirish va ularni takomillashtirish sababi, birinchidan, turli chorvador jamoalarning xususiy mulki, turarjoylari va yaylovlarini himoya qilish zaruriyatidan kelib chiqqan. Ikkinchidan, yangi yaylovlar va o'tloqlarni egallash, qo'shni hududlarga bosqinlar uyushtirish, bironing mol-mulkini qo'lga kiritish, ya'ni o'zaro kurashlar paytida shu yarog'-aslahalardan foydalanishning ehtimoli yuqori[15].

Qabilalar o'rtasidagi raqobatlar, "tinimsiz bosqinlar", "jangovar saflar", "qonxo'r dushmanlar" harakatlari va harbiy manfaatlar ustunlik qilgan davrlar voqealari "Avesto" da yoritilgan. Manbada turli xil qurollar (nayza, xanjar, qalqon, dubulg'a va boshqalar) hamda jangovar aravalar va "chaqqon otlarga ega" suvoriy o'qchilar to'g'risida ma'lumotlar mavjud[2].

Quyi Sirdaryoning Inkardaryo qirg'og'ida joylashgan Shimoliy Tagisken maqbaralari materiallari (yirik dafn inshootlari, maydoni 15-50 kvadrat metrdan iborat katta xilxonalar, ayrim qabrlarda 40-60 ta sopol idishlarning mavjudligi, bronza va oltindan ishlangan buyumlar) ancha taraqqiy topgan ijtimoiy tabaqalanishdan darak beradi. Bu davr chorvadorlarining urug'-qabila ijtimoiy tizimida, urug' yo'lboshchilari va qabila sardorlari o'zlarining yuqori mavqei va jamiyatda egallagan o'rni bilan ajralib chiqqan[7].

Mil. avv. VII-VI asrlarga oid bunday katta dafn inshootlari topilmagan. Quyi Sirdaryoda Inkardaryo sohillari bo'ylab joylashgan Janubiy Tagisken va Uygarak mozor qo'rg'onlari hamda so'l sohil Amudaryo hududidagi Sakarchaga mozor qo'rg'onlari ilk saklarning alohida urug' jamoalarining qabristonlari bo'lgan.

Usti xoda va qamish bilan yopilgan, devorlari yog'ochband qabrlar saklarning turarjoylari – yerto'lalar va ustunli sinch kulbalarining tuzilishiga o'xshaydi, ya'ni chorvadorlarning “marhumlar uyi”, ularning hayotidagi uy-joylari ko'rinishini takrorlaydi. Tarixiy etnografiya ma'lumotlariga ko'ra, ibtidoiy davrlardan boshlab, o'lim hayotning oxiri, yakuni sifatida emas, balki hayot yo'lidagi bir holatdan boshqasiga o'tish hodisasi sifatida baholangan[9]. Shu bois marhumning yoshi, jinsi va jamoada tutgan o'rniga ko'ra dafn marosimi amalga oshirilgan. Bunda dafn jihozlari qadimgi Orolbo'yi aholisining xo'jalik tarmoqlari, kasb-hunarlari, turmush tarzi va ijtimoiy tuzumini qayta tiklashda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Uygarak va Sakarchaga mozor qo'rg'onlarida marhumlar qabrlar ichiga poyabzal va kiyim-kechakda qo'yilgan. Har bir qabrdagi dafn jihozlarining soni (mehnat qurollari,) sopol idishlar, ro'zg'or buyumlari, yarog'-aslahalar, zargarlik buyumlari) marhumning ijtimoiy hayotdagi tutgan o'rnini bilan bog'liq bo'lgan. Shu belgilarga ko'ra, Orolbo'yida ilk temir davriga oid Shimoliy Tagisken maqbaralari singari, urug'-qabila yo'lboshchilari, ya'ni harbiy zodagonlarning dafn yodgorliklari aniqlanmagan. Bu masalaga tegishli shuni aytib o'tish joizki, mil. avv. VIII asr oxirlari – VII asrda quyi Dnepr, Qora dengizning shimoliy sohillaridan tortib, Janubiy Sibirga qadar Yevroosiyo dashtlarida yarim ko'chmanchi chorvador qabilalari tarqalgan. Shuningdek, ular dehqonchilik, ovchilik va baliqchilik bilan shug'ullanganlar. Turli hududlarda (Qora dengizning shimoliy sohillari, Oltoy, Tuva) dafn jihozlariga boy, “podsho” mozor qo'rg'onlari topilgan.

Ular haqida ilk bor Gerodot ma'lumot bergan. Yunon tarixchisining yozishicha, skif podsholari yirik to'rtburchak qabrlarga dafn etilgan. Qabrda marhum podsho bilan bo'g'ib o'ldirilgan kanizak, sharobchi, oshpaz, otboqar, xabarchi va qo'riqchi jasadlari hamda oltin idishlar ko'milgan[5]. Bunday dafn marosimlari arxeologik tadqiqotlar natijasida tasdiqlangan. Misol tariqasida, Tuvadagi Arjan mozor qo'rg'onida 84 ta ot dafn etilgan. Miqdor jihatdan bu ko'rsatkich bir uyur sonini tashkil etadi[8]. Yuqorida tilga olingan dafn marosimlari qabilalar uyushmalarining harbiy yo'lboshchilarini dafn etish odatlariga tegishli bo'lsa kerak.

Sharqiy Orolbo'yidagi ilk saklarning mozor qo'rg'onlarida otlarning suyaklari topilmagan. Sariqamishbo'yi qabrlarida ular bor, shuningdek, barcha qabrlarda ot abzali mavjud. Ot anjomlari, suvluq va yuganchalarni bezatgan bronza qubbalari erkaklar va ayollar qabrlarida ham aniqlangan. Shu belgilar va boshqa ashyoviy dalillarga ko'ra, saklar, tarix fanida “skif-sibir” olami deb atalgan dasht chorvador madaniyatlari doirasiga kirgan. Ularning turmush tarzi, xo'jalik tarmoqlari va urf-odatlarini umumiy xususiyatlarga ega bo'lgan. Bundan ko'p jihatdan o'xshash dafn jihozlari ham guvohlik beradi.

Umuman olganda ilk sak qabilalarining hayotida urug'-qabila an'analari asoslangan ijtimoiy tuzum shakllanganligi va uning tuzilishida katta oila va urug'

boshlig'i, qabila yo'l boshchisi, oqsoqollar kengashi va jamoa yig'ilishi katta ahamiyatga ega bo'lib, "harbiy demokratiya" tamoyillari bilan belgilangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Marquart I. Untersuchungen zur Geschichte von Eran. – Gottingen, 1896. – S. 76-78; Herrmann A. Alte Geographie des unteren Oxusgebiets. – Berlin, 1914. – S. 13-20.
2. Авесто. Яшт китоби /М.Исҳоқов таржимаси. – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 67-68.
3. Акишев К.А. Конные номады древнего Казахстана //Взаимодействие кочевых культур и древних цивилизаций. –Алма-Ата, 1987. – С. 11-12.
4. Вишневская О.А. Культура сакских племен низовьев Сырдарьи в VII-V вв. до.н.э. – М.: Наука, 1973. – С. 129-131.
5. Геродот. I, 202.
6. Грязнов М.П. Восточное Приаралье. Тагискен-усыпальница вождей // Средняя Азия в эпоху камня и бронзы. – М. – Л.: Наука, 1966. – С. 233-236.
7. Грязнов М.П. К хронологии древнейших памятников эпохи ранних кочевников // Успехи среднеазиатской археологии. Вып 3. – Л.: Наука, 1975. – С. 9-12.
8. Грязнов М.П., Маннай-оол М.Х. Аржан-царский курган раннескифского времени в Туве //АО 1971. – М.: Наука, 1972. – С. 243-245.
9. Массон В.М. Экономика и социальный строй древних обществ. – Л.: Наука, 1976. – С. 149.
10. Пьянков И.В. Массагеты Геродота //ВДИ. – М., 1975. – №2. – С. 46-70.
11. Пьянков И.В. Общественный строй ранних кочевников по данным античных авторов //Ранние кочевники Средней Азии и Казахстана. – Л.: Наука, 1975. – С. 84-93.
12. Сагдуллаев А.С., Матякубов Х.Х. К вопросу о ранних формах государственности в Восточном Приаралье //От Тюркского эля к Казахскому ханству. – М., 2015. – С. 95-98.
13. Страбон. XI, 8, 7.
14. Толстов С.П. Приаральские скифы и Хорезм // СЭ. – М., 1961. – №4. – С. 114-146.
15. Хазанов А.М. «Военная демократия» и эпоха классообразования // Вопросы истории. – М., 1968. – №12. – С. 87-98.

FUQAROLIK JAMIYATI BO'YICHA DASTLABKI TA'LIMOTLAR

G'affarov Maqsadbek Qadamboyevich

O'zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar Vazirligining
Xorazm akademik litseyi katta o'qituvchisi, PhD.

Yakubova Oygul Kenjayevna

Urganch innovatsion universiteti magistranti

Annotatsiya; Mazkur maqolada fuqarolik jamiyati tushunchasining shakllanishi va rivojlanishining dastlabki bosqichlari tarixiy-falsafiy jihatdan tahlil etilgan. Qadimgi Sharq va G'arb mutafakkirlarining — xususan, Konfusi, Suqrot, Aflotun va Arastuning davlat, jamiyat, adolat, qonun ustuvorligi hamda erkinlikka oid qarashlari o'rganilgan. Shuningdek, Sharq uyg'onish davri allomalari Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Nizomulmulk, Amir Temur va Alisher Navoiy g'oyalarida fuqarolik jamiyatiga xos unsurlar ochib berilgan. Mualliflar adolatli va fozil jamiyat barpo etishda ma'naviyat, axloq va ma'rifatning hal qiluvchi ahamiyatini asoslab beradi hamda ushbu qarashlarning hozirgi davr fuqarolik jamiyatini rivojlantirishdagi ahamiyatini yoritadi.

Kalit so'zlar: fuqarolik jamiyati, adolatli jamiyat, ma'naviyat, ma'rifat, qonun ustuvorligi, erkinlik, Sharq va G'arb mutafakkirlari, fozil jamiyat.

Аннотация: В статье проводится историко-философский анализ становления и развития ранних представлений о гражданском обществе. Рассматриваются взгляды древневосточных и античных мыслителей, в частности Конфуция, Сократа, Платона и Аристотеля, на проблемы государства, общества, справедливости, верховенства закона и свободы. Особое внимание уделено идеям представителей восточного Возрождения — Абу Насра Фараби, Ибн Сины, Низамульмулка, Амира Темура и Алишера Навои, в трудах которых нашли отражение ключевые элементы гражданского общества. В статье обосновывается решающая роль нравственности, духовности и просвещения в построении справедливого и добродетельного общества, а также раскрывается их значение для развития современного гражданского общества.

Ключевые слова: гражданское общество, справедливое общество, духовность, просвещение, верховенство закона, свобода, восточные и западные мыслители, добродетельное общество.

Abstract: This article provides a historical and philosophical analysis of the early formation and development of the concept of civil society. The views of ancient Eastern and Western thinkers, including Confucius, Socrates, Plato, and Aristotle, on the state, society, justice, rule of law, and freedom are examined. Particular attention is paid to the ideas of scholars of the Eastern Renaissance such as Abu Nasr al-Farabi, Ibn Sina, Nizam al-Mulk, Amir Temur, and Alisher Navoi, whose works reflect key elements of civil society. The authors emphasize the crucial role of morality, spirituality, and enlightenment in building a just and virtuous society and highlight the significance of these ideas for the development of modern civil society.

Keywords: civil society, just society, spirituality, enlightenment, rule of law, freedom, Eastern and Western thinkers, virtuous society.

Hozirgi davrdagi fuqarolik jamiyatining tarixi bir necha ming yillik rivojlanish bosqichlaridan iborat. Qadimgi antik davrda fuqarolik jamiyatining ba'zi-bir unsurlari shakllandi. O'rta asrlardagi Sharq uyg'onish davri mutafakkirlari esa fozil va adolatli jamiyat qurishga doir o'z nazariy qarashlarida fuqarolik jamiyatining qator unsurlarini nazariy jihatdan ifodalab berdilar. Hozirgi davr fuqarolik jamiyatiga doir dastlabki nazariy qarashlar esa yangi davrda Yevropada shakllandi. Umuman olganda, fuqarolik jamiyati nazariyasi va amaliyoti insoniyat yaratgan sivilizasiyalarning eng so'nggi hosilasi sifatida shakllandi.

Fuqarolik jamiyatining dastlabki unsurlari qadimgi Sharqda - Xitoyda shakllandi. Insonparvar adolatli jamiyatga doir dastlabki izlanishlar mutafakkir Konfusiy (Kun-szi, er. av. 551-479 yy.) tomonidan amalga oshirildi. Jamiyat inqirozi paytida yashagan olim o'z davrida keng yoyilayotgan urushlar, hokimiyat uchun kurashlar, ilgari shakllangan axloqiy va ma'naviy qadriyatlar qo'porilishining guvohi bo'ldi. Bundan qattik iztirobga tushgan Konfusiy insoniy qadriyatlar me'yorlarini qayta tiklash uchun yaxshi zamonlardagi Xitoy tarixiga murojaat qiladi. Inqirozga yuz tutgan o'z jamiyatini qaytadan tiklash, avvalambor, hukmdorlar va mansabdorlarning davlatni boshqarishda adolat qadriyatlariga amal qilishlariga bog'liq ekanligini yaxshi anglaydi. Oliy axloq me'yorlari namunasi va ma'naviyatni shakllantirish, komil inson idealini yaratishni o'zining eng asosiy maqsadi deb biladi.

Konfusiy "hukmdor hukmdor bo'lishi lozim, fuqaro-fuqaro, ota-ota, o'g'il esa o'g'il bo'lib qolishi lozim" qoidasini ilgari surib, u jamiyatdagi ierarxiyaviy tizilmani aniq ijtimoiy chegaralanishlar vositasida barqarorlashtirishga harakat qilgan. Uning asosiy siyosiy dunyoqarashi xalq farovonligini ta'minlashga qaratilgan edi[1,167].

Konfusiy adolatli va xalqparvar jamiyatni tashkil etishning kafolati sifatida davlat boshqaruvidagi mansabdorlarning ma'naviy va axloqiy yetukligining ahamiyatini ochib beradi. "Agar (davlat va jamiyat) qonunlar yordamida boshqarilsa va tartibot jazolashlar vositasida ta'minlansa, odamlar jazolashlardan o'zlarini olib qochishga intiladi, lekin ular o'zlarida or-nomusni xis qilmaydilar; agar jamiyat ma'naviy-axloqiy yordamida boshqarilsa, tartibot qadriyatlar yordamida ta'minlansa, odamlar or-nomusni his qiladilar, halol va sofdil bo'lishga intiladilar" degandi faylasuf [2,170].

Konfusiyning adolatli jamiyat qurish uchun avvalambor hukmdorlar va mansabdorlarning ma'naviy va axloqiy fazilatlarga ega bo'lishi to'g'risidagi ta'limoti hozirga qadar o'z ahamiyatini yo'qotmay kelmoqda. Davlat dini darajasiga chiqqan konfusiychilikka amal qilish - barqaror davlat va jamiyat tizimlariga ega bo'lish demakdir. Fuqarolik jamiyati yashashi uchun insonlarning ma'naviy jihatdan yetuk bo'lishi lozimligi ilk bor Konfusiy tomonidan aytilgani uchun ham u hozirga qadar qadrlanadi. Fuqarolik jamiyati unsurlaridan ba'zilarini kashf etgan mashhur yunon mutafakkiri Suqrotidir (Sokrat, er. av. 469-399 yy.). U birinchilardan bo'lib jamiyatni

qonunlar asosida tashkil etish mumkinligini aytgan mutafakkir edi. Allomaning fikricha, “qonunlarsiz polis hayotini axloqiy tashkil etib bo‘lmasligini va polisdan tashqarida qonunlar bo‘lmaydi; qonunlarning o‘zi polisning poydevori”dir.

Suqrotning fikricha, faqat bilimli odamlargina qonun ishlab chiqarish va boshqaruv faoliyati bilan shug‘ullanishlari lozim. “Xalq irodasi va davlat qonunlariga asoslanuvchi hokimiyat podsholikdir, - deb yozgandi Suqrot. - Xalq irodasiga qarshi, qonunlarga emas, balki, hukmdorning o‘zboshimchaligiga asoslangan hokimiyat tiraniyadir. Agar idora etish qonunlarning ijrosini ta'minlovchilar tomonidan amalga oshirilsa, bu aristokratiyadir; agar idora etish boylikdan kelib chiqsa, unda plutokratiya, xalq ommasi irodasidan kelib chiqsa demokratiya deyiladi” [3,236],.

Suqrot individning davlat va jamiyat oldida o‘z burchlariga ega bo‘lishlarini talab sifatida ilgari suradi. Uning fikricha, o‘z burchiga sadoqatli erkinlik - “inson uchun ham, davlat uchun ham ajoyib va ulug‘vor boylikdir” . Inson erkinligini ta'minlashga doir g‘oyalar fuqarolik jamiyatining muhim unsurlaridan biri hisoblanadi.

Fuqarolik jamiyati belgilarini aniqlashtirishda Aflotunning (Platon, er. av. 427-347 yy.) xizmatlari katta edi. Mazkur faylasuf Suqrotning shogirdi bo‘lib, fuqarolik jamiyatiga doir qarashlarini “Qonunlar” asarida bayon qilgan. Unda bir-biri bilan keskin farqlanuvchi ikki xil davlat tuzumi bir-biriga qiyoslanadi: “Men halokatga yaqin davlatni shunday ko‘ramanki, u yerda qonun kuchga ega bo‘lmaydi, va u kimningdir hokimiyati ostida bo‘ladi. Agar qaysi yerda qonun hukmdorlar ustidan hukmron bo‘lsa, ular esa uning qullari bo‘lsa, men davlatni qutqarilishini, barcha farovonliklarni ko‘raman. Bu kabi davlatni faqat xudolar tortiq qilishi mumkin” [4,122].

Mutafakkir mansabdor va hukmdorlarni qonunlarga bo‘ysundirish yo‘li bilan davlatni fuqarolarga xizmat qildirishga intildi. Uning fikricha, faqat qonunlarga amal qilgan jamiyat barqaror bo‘lishi mumkin, bu jamiyatda farovonlikka va tinchlikka erishish imkoniyatlari tug‘iladi. Shuningdek, jamiyatning barqaror yashashi uchun eng muhim bo‘lgan asosiy unsurlardan biri - erkinlik qadriyati ahamiyatini yuksakka ko‘tardi. Bu, albatta, fuqarolik jamiyatining asosiy maqsadlaridan biridir [5,95].

Fuqarolik jamiyati unsurlariga doir ilk tasavvurlar Arastu (Aristotel, er. av. 384-322 yy.) tomonidan shakllantirilgan edi. Mutafakkir jamiyatda barqarorlikni saqlash uchun siyosiy adolatni o‘rnatish lozimligi, haqiqiy siyosiy adolat esa - faqat erkin va o‘zaro teng odamlar o‘rtasidagina yashashi mumkinligi g‘oyasini ilgari surdi.

Arastu davlat tuzumining politiya shakliga ko‘proq moyil bo‘lib, unda ko‘pchilikning umumiy foydasi va manfaatlaridan kelib chiqib idora etilishini ijobiy baholaydi. Politiya tuzumi o‘zida oligarxiya va demokratiyaning eng yaxshi tomonlarini uyg‘unlashtiradi, ularning har ikkalasining kamchiliklari va zaif tomonlaridan voz kechilib, o‘zaro uyg‘unlashtiriladi. Davlat va fuqarolik jamiyatining nazariy asoslari va belgilari olimning “Politika”, “Demokratiya” nomli shoh asarlarida mujassamlashgan. Arastu fuqarolik jamiyatining eng asosiy shartlaridan biri bo‘lgan demokratiyaning mohiyatini quyidagicha ta'riflaydi:

“Demokratiyaning ilk ko‘rinishi va belgisi bu - tenglikdir. Bu kabi tenglik shundan iboratki, mulksizlar ham, mulkdorlar ham biron-bir imtiyozlarga ega bo‘lmaydilar; oliy hokimiyat unisiga yoki bunisiga ham tegishli emas. Shuningdek, ularning har ikkalasi ham o‘zaro tengdirlar. Erkinlik va tenglik demokratiyaning muhim belgilari sifatida o‘z amaliyotini asosan hammaning davlat boshqaruvida ishtirok etishini ifodalaydi. Demokratiyada xalq ko‘pchilikni tashkil etishi sababli ham ko‘pchilikning qarori hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Bunday davlat tuzumi demokratik, deb ataladi” [6,496].

Ko‘rinib turibdiki, Qadimgi Xitoy mutafakkiri Konfusiylar, yunon mutafakkirlari Suqrot, Aflotun, Arastu davlat tuzumi, jamiyat, siyosiy munosabatlarga doir o‘z ta’limotlarida fuqarolik jamiyatining dastlabki kategoriyalarini kashf etgan va nazariy qarashlarning rivojlanishi uchun poydevor qurib ketganlar.

Fuqarolik jamiyati unsurlariga doir navbatdagi nazariy rivojlanish bosqichi namoyondalari qatorida Sharq uyg‘onish davri mutafakkirlari, faylasuflar Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino, iste’dodli vazir Nizomulmuluk, sohibqiron Amir Temur, gumanist ijodkor Mir Alisher Navoiylar turadi. Ularning g‘oyalardagi umumiy xususiyatlardan biri shuki, adolatli va fozil jamiyat qurish insonning axloqiy va ma’naviy yetuklik darajasini shakllantirish negizida amalga oshiriladi. Komil insonni ma’naviy yetuk etish vositasi esa ma’rifatdir.

Ma’lumki, har qanday jamiyatning shakllanishida ma’rifatning o‘rni beqiyosdir. O‘z davrida buyuk faylasuf Arastu “ma’rifatsiz jamiyat halokatga mahkumdur” - degan edi. Suqrot: “Barcha ezguliklar faqat ma’rifat vositasida paydo bo‘ladi” deya ifodalagan “Kitob as-sa’d” asarida [7,168].

Sharq mutafakkirlari “ma’rifat” tushunchasining mazmunini keng ma’noda anglaganlar. Ilk islom allomalari ma’rifat so‘zini “a’rafa”, “ma’rifatun”, ya’ni “bilim”, “bilish”, “bildirish” ma’nolarida qo‘llaganlar [8,169].

Hozirgi davrda kuchli jamiyat qurish uchun o‘zbek xalqining milliy ma’rifiy qarashlarimizni yanada chuqurlashtirishga ehtiyojlar sezilmoqda. Chunki, biz qurmoqchi bo‘lgan jamiyat g‘arbdan yoki sharqdan ko‘r-ko‘rona ko‘chirib olinmaydi, balki bir necha ming yillik tarixiy tajribalarimizga asoslanadi.

Sharq va G‘arb mutafakkirlarining adolatli jamiyat qurishga doir g‘oyalari, nazariya va amaliy xulosalarini chuqur o‘rganish, tahlil qilish hozirgi islohotlarga tatbiq etishga harakat qilish – biz qurmoqchi bo‘lgan fuqarolik jamiyatida milliy ruhiyatimizni mustahkamlaydi va uning o‘ziga xos milliylik asosida rivojlanishini belgilab beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. История политических и правовых учений. Древний мир. – М.: “Наука”, 1985. – С.167.
2. История политических и правовых учений. Древний мир. – М.: “Наука”, 1985. – С.170.
3. История политических и правовых учений: Древний мир. – М.: “Наука”, 1985. – С. 236.
4. Афлотун. Қонунлар // Русчадан Урфон Отажон таржимаси – Тошкент: “Янги аср авлоди”, 2008. – Б. 122.
5. Афлотун. Қонунлар. – Б. 95.
6. Аристотель Политика. Соч. в 4-х томах. Т. 4. – М.: “Мысль”, 1984. – С. 496.
7. Роузентал Ф. Торжество знания. – М.: “Наука”, 1978. – С. 168.
8. Роузентал Ф. Торжество знания. – М.: “Наука”, 1978. – С. 169.

YANGI O'ZBEKISTONDA ERKIN VA OCHIQ FUQAROLIK JAMIYATINING RIVOJLANISHI

Axmedov G'ulomjon Jumanazarovich

Urganch shahar 1-son ixtisoslashgan
maktab-internati direktori, PhD.

Yaqubov Qodirxon Isaxonovich

Urganch innovatsion universiteti magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada mustaqillik yillarida O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini qurish va rivojlantirishda olib borilayotgan samarali ishlar va bu boradagi islohotlarning mohiyati va samarasi aniq ma'lumotlar asosida yoritib berilgan.

Mamlakatda davlat boshqaruvini erkinlashtirish va nomarkazlashtirish tamoyillarini rivojlantirish maqsadlari fuqarolik jamiyati institutlari – siyosiy partiyalar, nodavlat notijorat tashkilotlar, o'zini o'zi boshqarish organlari kabi jamiyatning tarkibini tashkil etilishi ta'kidlangan. "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontsepsiyasi" da fuqarolik jamiyatining eng muhim tamoyillaridan biri - davlat organlari va siyosiy, ijtimoiy, fuqarolik institutlarining o'zaro hamjihatligini ta'minlash asnosida jamiyatdagi turli ijtimoiy kelishmovchiliklarning oldini olish, mamlakatning izchil va barqaror rivojlanishini ta'minlash vazifasini qo'ydi.

Kalit so'zlar: Fuqarolik jamiyati, nodavlat notijorat tashkilotlar, kontsepsiya, jamoatchilik nazorati, demakratiya, fuqarolik jamiyati institutlari, ekologik nazorat.

Аннотация. В статье на основе точных материалов освещается строительство и развитие гражданского общества, о сущности и эффективности преобразований в этой области.

Отмечается институт гражданского общества-политических партий, негосударственных некоммерческих организаций, органов самоуправления граждан как цели развития принципов либерализации и децентрализации государственного управления в стране.

В "Концепция углубления демократических реформ и развития гражданского общества в стране" поставила задачу взаимодействия государственных органов, политических социологов и гражданских институтов, профилактика социальных разногласий, обеспечении последовательного стабильного развития.

Ключевые слова: Гражданское общество, негосударственные, некоммерческие организации, общественный контроль, институты гражданского общества, экологическое контроль.

Abstract. Efficient measurements that are being carried out in building and developing during civil society independent years in Uzbekistan and the efficiency and effectiveness of measurements in respect to it is highlighted based on detailed information. According to the law about "are supplied the authorities of the Republic of Uzbekistan". In this article is analyzed to develop institutes of citizen society, political parties, nongovernmental-noncommercial organization, to organize

structure of society democracy liberalization of government in the country. The most important principles and tasks are supplied on the for example to strengthen state authorities, political, social and citizen institutes, to successive development of the country.

Key words. civil society, nongovernmental-noncommercial organizations, public control, democracy, institution of civil society, ecological control.

Fuqarolik jamiyati eng avvalo ijtimoiy munosabatlar jarayonida o'z aksini topib, mamlakatda demokratiya, huquqiy davlat va shaxs erkinliklarini ta'minlashning muhim kafolati bo'lib xizmat qiladi. Fuqarolik jamiyatida ijtimoiy hayotga va uning doimo taraqqiy etib borishiga juda katta ahamiyat beriladi. Uning asosiy maqsadi insonning munosib hayot kechirishini, barcha hayotiy orzu-maqсадlari shu jamiyatdagi siyosiy tashkilotlar, ijtimoiy institut, guruh, oila va boshqa jamoat birlashmalari orqali amalga oshirilishini ta'minlashdir. Bu siyosiy tashkilotlar, ijtimoiy institutlar va guruhlar har bir insonga o'zi yashayotgan jamiyatda hokimiyatning manbai ekanligini, huquq va erkinliklari, qobiliyati va harakati, obro'si yuksak qadriyat ekanligini tushuntirishga yordam beradilar. Insonlar ushbu tashkilot va birlashmalar orqali o'zlarining siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy, madaniy va boshqa maqsadlarini amalga oshiradilar.

Fuqarolik jamiyati bozor iqtisodiyoti va demokratik huquqiy davlat sharoitidagina davlat tasarrufida bo'lmagan tashkilotlar, uyushmalar, erkin va teng huquqli individlarning o'zaro plyuralizmiga asoslangan munosabatlar uyg'unligidan tashkil topadi [1,247].

Fuqarolik jamiyatining birlamchi asosi bu eng avvalo shaxs bo'lib, va undan keyin uning tomonidan asos solingan ijtimoiy institutlar hisoblanadi. Har bir shaxs oila a'zosi, jamoat birlashmasi ishtirokchisi yoki ijtimoiy institut faoli sifatida fuqarolik jamiyati ichidagi huquqiy munosabatlar jarayonida ishtirok etadi. Shuning bilan birga, insonlar umumiy muammolarini birgalikda hal qilishi, jamiyatning barcha sohalarida o'zlarining talab va manfaatlarini himoya qilishida fuqarolik jamiyatining muhim va ajralmas elementi hisoblangan fuqarolik jamiyati institutlari asosiy rol o'ynaydi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga ko'ra «O'zbekiston Respublikasida qonunda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, olimlarning jamiyatlari, xotin-qizlar, faxriylar va yoshlar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, ommaviy harakatlar va fuqarolarning boshqa uyushmalari jamoat birlashmalari sifatida e'tirof etiladi» [2].

“2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning besh ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi” doirasida “uchinchi sektor”ni yanada rivojlantirish va har tomonlama ko'mak ko'rsatish masalasida, bir qator fuqarolik jamiyati institutlarining faoliyatini takomillashtirish borasida choralar ko'rildi. “Harakatlar strategiyasi”da belgilangan vazifalarni samarali amalga oshirish maqsadida jamoat tashkilotlarining bir qator yangi nodavlat notijorat tashkilotlarini tashkil etish va qayta ko'rib chiqish to'g'risidagi takliflari davlat tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Fuqarolik jamiyati shakllanishini monitoring qilish

mustaqil instituti(FJShMQMI),“Mahalla”, “Nuroni” jamg‘armalari, O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasi, “O‘zbekiston yoshlar ittifoqi”, O‘zbekiston fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi, “Taraqqiyot strategiyasi” markazi, “Ezgu maqsad” jamg‘armasi, Madaniyat vazirligi qoshidagi “Madaniyat va san’atni rivojlantirish jamg‘armasi” shular jumlasidandir [3,34].

Davlat dasturiga 23 NNT jalb etilgan. Ular soni Oliy Majlis huzuridagi Jamoat fondining davlat granti tanlovlari g‘oliblari

hisobiga ham ko‘paymoqda. Xususan, 2017-2021 yillarda

51 NNT g‘oliblikni qo‘lga kiritdi. Qolaversa, Assotsiatsiya 575 nodavlat notijorat tashkiloti sa’y-harakatlarini birlashtiruvchi yirik fuqarolik jamiyati instituti ekanligining o‘zi Davlat dasturiga jalb etilgan NNTlar doirasi kengayishiga katta turtki berdi. Assotsiatsiya faollari Davlat dasturining birgina 236-bandi ijrosini ta’minlash yuzasidan “Farovon yurt” NNT bilan hamkorlikda tashkil etilgan “Fidoyimiz senga, O‘zbekiston!” shiori ostidagi xayriya kontserti bilan 4,5 ming nafar kishini qamrab oldi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 2021 — 2025 yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida So‘nggi yillarda nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash, davlat organlari va ular o‘rtasida ijtimoiy sheriklikni kuchaytirish, ta’sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish, shuningdek, ushbu sohani tartibga soluvchi huquqiy bazani takomillashtirish borasida izchil ishlar olib borildi.

Xususan, oxirgi to‘rt yilda nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining 1 270 dan ortiq loyihalarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida Davlat byudjetidan 117 milliard so‘m miqdordagi mablag‘lar ajratildi.

Amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqiy kafolatlarini ta’minlaydigan, zamonaviy demokratik talablarga va xalqaro standartlarga javob beradigan normativ-huquqiy baza yanada takomillashtirildi. Buning natijasida 20 ga yaqin qonun, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlari va Hukumatning qarorlari qabul qilindi.

Nodavlat notijorat tashkilotlari manfaatlarini ifoda etish, davlat bilan ular o‘rtasidagi ko‘prik vazifasini bajarishga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Jamoatchilik palatasi tashkil qilindi, shuningdek, aholi bilan ochiq muloqot olib borishning yangi samarali vositalarini joriy etish maqsadida davlat organlari huzurida jamoatchilik kengashlari faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Mamlakatimizda erkin fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirish, inson huquqlarini, qonuniy manfaatlarini, demokratik qadriyatlarni himoya qilish, aholining siyosiy madaniyati va huquqiy ongini oshirishga munosib hissa qo‘shgan nodavlat notijorat tashkilotlari vakillarini rag‘batlantirish maqsadida «Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga qo‘shgan hissasi uchun» ko‘krak nishoni ta’sis etildi hamda sohaning 126 nafar faollari ushbu yuksak mukofot bilan taqdirlandi.

Ko‘rilayotgan choralar natijasida so‘nggi to‘rt yilda fuqarolik jamiyatining eng asosiy instituti hisoblanadigan nodavlat notijorat tashkilotlari soni 20,7 foizga

oshdi, shu jumladan 187 ta yirik respublika nodavlat notijorat tashkilotlari o'z faoliyatini boshladi [4].

Shu bilan birga, ushbu ishlarni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish hamda mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning yaqin va o'rta muddatli istiqbollari belgilab olish zarur.

Bu jarayonda yangi tashkil etilayotgan markaz tomonidan fuqarolik jamiyati rivojlanishining normativ-huquqiy tartibga solinishi holatini hamda ushbu sohada huquqni qo'llash amaliyoti, ijtimoiy sheriklik va jamoatchilik nazoratini amalga oshirishni o'rganish, davlat organlarining fuqarolik jamiyati institutlari bilan samarali hamkorligini yo'lga qo'yish, ularning faoliyatini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish yuzasidan takliflar ishlab chiqiladi. Bundan tashqari, jamiyatda siyosiy partiyalar rolini oshirish, raqobatdosh ko'p partiyali tizimning rivojlanish darajasini tahlil qilish va siyosiy partiyalar tomonidan o'tkaziladigan tadbirlarning elektorat manfaatiga xizmat qilishini ta'minlovchi loyihalar joriy etiladi. Mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda nodavlat notijorat tashkilotlari ishtirokining muammolarini tizimli o'rgangan holda fuqarolik jamiyatini tashvishga solayotgan dolzarb masalalar bo'yicha ilmiy-amaliy konferentsiyalar, seminarlar va jamoatchilik eshituvlari o'tkaziladi. E'tiborlisi, rivojlangan demokratik davlatlar tajribasi asosida davlat va jamiyat o'rtasida ochiq muloqotni tashkil etib, fuqarolarning dolzarb muammolarini hal etishning optimal yondashuvlarini ishlab chiqish ham Markazning asosiy vazifalaridan biri etib belgilandi.

Markazga fuqarolik jamiyati rivojlanishini, uning institutlarining davlat organlari va tashkilotlari bilan o'zaro hamkorlik darajasini, ularning mamlakatni sotsial-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy jihatdan rivojlantirishga, shu jumladan, 2030 yilgacha bo'lgan davrda BMTning Barqaror taraqqiyot maqsadlarini amalga oshirish doirasida qo'shgan hissasini baholash indikatorlarini ishlab chiqish va tasdiqlash tavsiya etilgan. Bu esa islohotlarning ilmiy va tahliliy jihatdan puxta ishlab chiqilishi va natijada mamlakatimizning kelajakda har tomonlama rivojlanishida muhim poydevor vazifasini o'taydi.

Mamlakatimiz tub o'zgarishlarga yuz tutgan hozirgi paytda mazkur vazifalarni bajarishda davlat organlari rahbarlari Markazga har tomonlama ko'maklashadi, so'ralgan ma'lumotlarni o'z vaqtida taqdim etadi, undan olingan materiallar va tavsiyalarni ko'rib chiqadi. Markaz o'z vazifalarini bajarishi uchun shartnoma asosida yetakchi, shu jumladan, xorijiy muassasalar ekspertlarini jalb etish huquqiga egadir. Aynan qarorda ilg'or xalqaro tajribalarni o'rganib, O'zbekiston sharoitida uni joriy etish uchun 2020-2022 yillarda Markaz xodimlarini fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga ixtisoslashgan yetakchi xorijiy tadqiqot va tahliliy institutlariga ish o'rganish uchun yuborish bo'yicha Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritish zarurligi alohida belgilab qo'yildi.

Bugungi axborot asrida har bir ish ko'lam, uning sifati hamda samaradorligi oshib borishi targ'ibot-tashviqot ishlariga bog'liq. Shu boisdan hujjatda fuqarolik

jamiyati rivojlanishini o'rganish va tahlil qilish natijalari ommaviy axborot vositalarida, markaziy davlat telekanallarida, matbuot nashrlarida doimiy yoritilishi belgilab qo'yildi. Bundan ko'zlangan maqsad jamiyatdagi islohotlarda fuqarolarning faolligini oshirishdir.

O'zbekiston dunyoga yangi shaxdam odimlar bilan yangi qiyofada bo'y ko'rsatayotgan bir paytda ustuvor bu vazifalarni amalga oshirishda biz faol fuqarolar, eng avvalo, yoshi ulug', katta hayotiy tajribaga ega nuroniy oqsoqollar, yoshlar hamda nodavlat notijorat tashkilotlari maslahati, takliflari va ko'magiga tayanib, faoliyat yuritamiz.

Fuqarolik jamiyatining muhim belgilaridan biri – bu jamoatchilik fikrining davlat siyosatiga amalda ta'sir ko'rsata olishida namoyon bo'ladi. Rivojlangan fuqarolik jamiyatida urf-odatlar, huquq va jamoatchilik fikri ham ijtimoiy institutga aylanadi. Parlament va hukumat, siyosiy partiyalar va nodavlat notijorat tashkilotlari jamoatchilik fikri asosida faoliyat yuritadi, jamiyatdagi ijtimoiy qatlamlar va guruhlarning manfaatlarini ifoda etadi va ularni himoya qiladi. Jamoatchilik fikri fuqarolik jamiyati sharoitida baholash funktsiyasini bajarishi bilan bir qatorda ijtimoiy aloqalar va munosabatlarni tartibga solish(regulyativ) funktsiyasini ham bajaradi. Jamoatchilik fikri fuqarolik jamiyatining instituti sifatida mamlakatda va jahonda kechayotgan jarayonlarga nisbatan, shuningdek, turli tuzilmalar xatti-harakatlariga faol ta'sir ko'rsata olish qobiliyatiga erishuvi uchun jamiyatda inson huquqlari va axborot erkinligi har tomonlama kafolatlangan bo'lishi zarur bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qirg'izboyev M. Fuqarolik jamiyati: genezisi, shakllanishi va rivojlanishi. T., O'zbekiston, 2010. B.247.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. XIII bob, 56-modda. T., 2016 y.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mrziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. 22 dekabr. 2017 y – T.: O'zbekiston. 2018. B. 34.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvar, PF-60-son “ 2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi farmoni

MUZEY SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO MUNOSABATLARNING O'RNI

Abdirimov Razzokberdi

Urganch innovatsion universiteti professori

Yaxshimuratov San'atbek Yaxshimuratovich

Urganch innovatsion universiteti magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada muzey sohasini rivojlantirishda xalqaro munosabatlarning o'rni va ahamiyati tahlil etilgan. Globallashuv sharoitida muzeylarning nafaqat madaniy merosni saqlash, balki jamiyatda tarixiy ong va madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishdagi funksiyalari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: muzeylar, xalqaro hamkorlik, YUNESKO, IKOM, madaniy meros, raqamlashtirish, inklyuzivlik, muzey ta'limi

Аннотация: В статье рассматривается роль международных отношений в развитии музейной сферы в условиях глобализации. Раскрывается значение музеев как социальных институтов, способствующих сохранению культурного наследия, формированию исторического сознания и развитию межкультурного диалога.

Ключевые слова: музеи, международное сотрудничество, ЮНЕСКО, ИКОМ, культурное наследие, цифровизация, инклюзивность, музейное образование

Abstract: This article examines the role and significance of international relations in the development of the museum sector in the context of globalization. It highlights the functions of museums not only as institutions preserving tangible and intangible cultural heritage, but also as key actors in fostering historical awareness and intercultural dialogue.

Keywords: museums, international cooperation, UNESCO, ICOM, cultural heritage, digitization, inclusivity, museum education

Bugungi kunda globallashuv jarayonlarining jadallashuvi madaniyat, ta'lim va fan sohalarida xalqaro hamkorlikning ahamiyatini yanada oshirmoqda. Ayniqsa, insoniyatning tarixiy xotirasi va madaniy o'zligini o'zida mujassam etgan muzeylar faoliyatini rivojlantirish masalasi jahon miqyosida dolzarb vazifalardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Muzeylar nafaqat moddiy va nomoddiy madaniy merosni saqlash va namoyish etish bilan cheklanib qolmay, balki jamiyatda tarixiy ongni shakllantirish, madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish, yosh avlodni vatanparvarlik va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda muhim ijtimoiy institut sifatida faoliyat yuritmoqda.

Zamonaviy sharoitda muzeylar oldida turgan vazifalar tobora murakkablashib bormoqda. Madaniy boyliklarni asrash, ularni ilmiy asosda tadqiq etish, restavratsiya qilish, raqamlashtirish, shuningdek, madaniy meros obyektlarining noqonuniy aylanishiga qarshi kurashish kabi masalalar alohida e'tibor talab etadi. Bu vazifalarni faqat milliy darajada hal etish ko'pincha yetarli bo'lmay, xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yishni taqozo etadi. Shu bois muzey

sohasida xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro munosabatlarni rivojlantirish strategik ahamiyat kasb etadi.

Muzey ishini rivojlantirishda YUNESKO va Muzeylar Xalqaro Kengashi (IKOM) kabi nufuzli xalqaro tashkilotlarning roli beqiyosdir. Ushbu tashkilotlar madaniy va tabiiy merosni muhofaza qilish, muzey faoliyatini muvofiqlashtirish, professional standartlarni joriy etish hamda muzey xodimlarining malakasini oshirish borasida muhim tashabbuslarni amalga oshirib kelmoqda. Ularning faoliyati natijasida muzeylar xalqaro tajribaga tayangan holda rivojlanib, jahon madaniy makoniga integratsiyalashmoqda.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, xalqaro hamjamiyat bilan teng huquqli munosabatlar o'rnatish imkoniyatiga ega bo'ldi. YUNESKO va IKOM bilan hamkorlik[1] mamlakatimizda muzey sohasini tubdan rivojlantirish, milliy madaniy merosni jahon miqyosida targ'ib etish hamda tarixiy obidalarni asrab-avaylashda muhim omilga aylandi. Ushbu hamkorlik doirasida amalga oshirilayotgan loyihalar, xalqaro konferensiyalar, seminar-treninglar va ko'rgazmalar muzey ishining sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilishiga xizmat qilmoqda.

Muzeylar Xalqaro Kengashi — IKOM 1946-yilda tashkil etilib, YUNESKO bilan hamkorlikda faoliyat yurituvchi nodavlat, notijorat xalqaro tashkilotdir. IKOM YUNESKOning muzeylar va madaniy meros masalalari bo'yicha asosiy maslahatchisi sifatida e'tirof etilgan. Ushbu maqom IKOMga muzey sohasida global siyosatni shakllantirishda faol ishtirok etish imkonini beradi. Tashkilot dunyoning yuzlab davlatlaridagi muzey muassasalari va mutaxassislarini birlashtirib, ular o'rtasida tajriba almashish, ilmiy va amaliy hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

IKOM faoliyatining muhim yo'nalishlaridan biri muzeylar uchun professional standartlar va axloqiy me'yorlarni ishlab chiqishdan iborat. Xususan, "Muzeylar Xalqaro Kengashining Muzey odob-axloqi kodeksi"[3] muzey faoliyatida shaffoflik, halollik va mas'uliyat tamoyillarini belgilab beradi. Ushbu hujjat muzey kolleksiyalarini shakllantirish, saqlash, restavratsiya qilish va namoyish etishda xalqaro axloqiy mezonlarga rioya etilishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

YUNESKO va IKOM muzeylar faoliyatida zamonaviy yondashuvlarni joriy etishga alohida e'tibor qaratadi. Jumladan, muzeylarni raqamlashtirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, muzeylarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish, shuningdek, imkoniyati cheklangan shaxslar uchun inklyuziv muhit yaratish masalalari ushbu tashkilotlar faoliyatining ustuvor yo'nalishlariga kiradi. Bu esa muzeylarni keng jamoatchilik uchun ochiq va qulay madaniy makonga aylantirishga xizmat qiladi.

Madaniy boyliklarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurashish YUNESKO va IKOM faoliyatining yana bir muhim jihatidir. IKOM tomonidan ishlab chiqiladigan "Qizil ro'yxatlar" va "Yo'qolgan madaniy ashyolar"[3] bazalari noqonuniy savdoga qarshi xalqaro hamkorlikni kuchaytirib, muzey

kolleksiyalarining xavfsizligini ta'minlashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Bu tashabbuslar madaniy merosni himoya qilish borasida davlatlar va muzey muassasalari o'rtasida mas'uliyatni yanada oshiradi.

XXI asrda muzeylar faoliyati an'anaviy ko'rgazma va eksponatlarni namoyish etish bilan cheklanib qolmay, jamiyatning ijtimoiy, madaniy va ta'limiy ehtiyojlariga moslashgan holda tubdan yangilanib bormoqda. Bu jarayonda xalqaro hamkorlik muzey ishining zamonaviy yo'nalishlarini shakllantirishda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. YUNESKO, IKOM va boshqa xalqaro tashkilotlar tashabbuslari asosida muzeylar faoliyatida innovatsion yondashuvlar, zamonaviy texnologiyalar va ijtimoiy yo'naltirilgan dasturlar joriy etilmoqda.

Zamonaviy muzey ishining asosiy yo'nalishlaridan biri — muzeylarning ta'limiy funksiyasini kuchaytirishdir. Bugungi kunda muzeylar norasmiy ta'lim markazlari sifatida faoliyat yuritib, maktab, kollej va oliy ta'lim muassasalari bilan uzviy hamkorlik qilmoqda. Xalqaro tajriba asosida ishlab chiqilgan interaktiv ekskursiyalar, tematik darslar, mahorat mashg'ulotlari va ochiq muhokamalar yosh avlodda tarixiy tafakkur va madaniy ongni shakllantirishga xizmat qilmoqda. Bu borada YUNESKO tomonidan ilgari surilayotgan "ta'lim orqali madaniyatlararo muloqot" konsepsiyasi[4] muhim ahamiyat kasb etadi.

Raqamlashtirish va axborot texnologiyalarini joriy etish zamonaviy muzey ishining eng muhim yo'nalishlaridan biridir. Xalqaro hamkorlik doirasida muzey kolleksiyalarini raqamli formatga o'tkazish, virtual ko'rgazmalar yaratish, onlayn kataloglar va mobil ilovalarni ishlab chiqish bo'yicha keng ko'lamli loyihalar amalga oshirilmoqda. Bu jarayon muzeylarga jismoniy jihatdan tashrif buyura olmaydigan auditoriya uchun ham madaniy merosdan foydalanish imkonini yaratadi hamda muzeylar faoliyatining ochiqligi va ommabopligini oshiradi.

Muzey ishining zamonaviy yo'nalishlaridan yana biri — inklyuzivlik va ijtimoiy moslashuv masalasidir. IKOM tashabbuslari asosida imkoniyati cheklangan shaxslar uchun qulay infratuzilma yaratish, Brayl yozuvidagi axborot materiallari, audio gidlar, maxsus tayyorgarlikdan o'tgan xodimlar tomonidan olib boriladigan ekskursiyalar yo'lga qo'yilmoqda. Xalqaro hamkorlik bu yo'nalishda ilg'or tajribalarni o'rganish va ularni milliy muzey amaliyotiga joriy etish imkonini bermoqda.

Shuningdek, madaniy boyliklarni muhofaza qilish va xavfsizlikni ta'minlash masalalari ham zamonaviy muzey ishining muhim yo'nalishlaridan hisoblanadi. Tabiiy ofatlar, qurolli mojarolar va texnogen falokatlar sharoitida muzey kolleksiyalarini himoya qilish bo'yicha xalqaro dasturlar ishlab chiqilmoqda. IKOM tomonidan tayyorlanadigan favqulodda vaziyatlar bo'yicha tavsiyalar, shuningdek, noqonuniy savdoga qarshi kurashishga qaratilgan "Qizil ro'yxatlar" muzey xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy muzey ishida madaniyatlararo muloqot va ko'chma ko'rgazmalar alohida o'rin tutadi. Xalqaro hamkorlik asosida tashkil etilayotgan ko'chma va

qo'shma ko'rgazmalar turli xalqlarning tarixiy va madaniy merosini bir-biriga yaqinlashtiradi, o'zaro tushunish va bag'rikenglikni kuchaytiradi. Bunday tadbirlar muzeylarning xalqaro nufuzini oshirish bilan birga, madaniy diplomatiyaning samarali vositasiga aylanmoqda.

Bundan tashqari, muzey boshqaruvi va kadrlar salohiyatini oshirish zamonaviy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Xalqaro seminarlar, treninglar va malaka oshirish dasturlari orqali muzey xodimlarining boshqaruv, kuratorlik, restavratsiya va ilmiy-tadqiqot sohalaridagi bilimlari boyitilmoqda. Bu jarayon muzey faoliyatida samaradorlik va innovatsion yondashuvlarni ta'minlashga xizmat qiladi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, xalqaro hamkorlik muzey ishining zamonaviy yo'nalishlarini shakllantirishda muhim harakatlantiruvchi kuch bo'lib, u muzeylarni an'anaviy madaniyat maskanidan zamonaviy, ochiq va ijtimoiy faol institutga aylantirmoqda. Bu esa muzeylarning jamiyat taraqqiyotidagi rolini yanada mustahkamlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining YUNESKO (UNESCO) tashkiloti bilan hamkorligi 1993-yil 26-oktabrda O'zbekiston ushbu tashkilotga a'zo bo'lganidan so'ng rasman yo'lga qo'yilgan. <https://www.google.com/search?q=YUNESKO+va+IKOM+>.
2. 2008-yilda BMT Rivojlanish Dasturining "Parlamentning qonun ijodkorligi va institutsional salohiyatini takomillashtirish" loyihasi doirasida "Muzeylar Xalqaro Kengashining muzey odob-axloqi kodeksi" o'zbek tiliga tarjima qilindi.
3. XX-asr 90-yillari o'rtalaridan IKOM madaniy boyliklarni noqonuniy aylanishiga qarshi kurashish maqsadida muntazam ravishda "Yo'qolgan madaniy ashyolar" va "Qizil ro'yxatlar" ro'yxatlarini tayyorlab kelmoqda.
4. <https://www.google.com/search?q=2016-yili+%E2%80%9CMuzey.>

TURIZM VA OMMAVIY MADANIYATDA ETNOSPORTNING O'RNI

Yo'ldashev Behzod Furqat o'g'li

Urganch innovatsion universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada etnosportning turizm va ommaviy madaniyatdagi o'rni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. O'zbekistonda milliy sport turlari va xalq o'yinlarini rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati, huquqiy-me'yoriy asoslar hamda ularning amaliy natijalari yoritiladi. Xalq o'yinlarining tarixiy ildizlari, tarbiyaviy va ijtimoiy ahamiyati, ayniqsa ko'pkari kabi etnosport turlarining yoshlar ma'naviy kamolotidagi roli ochib beriladi. Shuningdek, etnosportning madaniy turizmni rivojlantirish, milliy merosni targ'ib qilish va mamlakatning xalqaro imijini mustahkamlashdagi ahamiyati asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: etnosport, milliy sport turlari, xalq o'yinlari, turizm, ommaviy madaniyat, ko'pkari, madaniy meros, yoshlar tarbiyasi.

Аннотация: В данной статье с научно-теоретической точки зрения анализируется роль этноспорта в туризме и массовой культуре. Освещаются государственная политика Республики Узбекистан, нормативно-правовые основы и практические результаты, направленные на развитие национальных видов спорта и народных игр. Раскрываются исторические корни народных игр, их воспитательное и социальное значение, а также роль этноспортивных видов, в частности купкари, в духовно-нравственном становлении молодежи. Кроме того, обосновывается значение этноспорта в развитии культурного туризма, популяризации национального наследия и укреплении международного имиджа страны.

Ключевые слова: этносport, национальные виды спорта, народные игры, туризм, массовая культура, купкари, культурное наследие, воспитание молодежи.

Abstract: This article provides a scientific and theoretical analysis of the role of ethnosport in tourism and popular culture. It examines the state policy of Uzbekistan, the legal and regulatory framework, and the practical outcomes aimed at developing national sports and traditional folk games. The historical roots of folk games, their educational and social significance, and particularly the role of ethnosport disciplines such as *kupkari* in the spiritual and moral development of youth are highlighted. In addition, the importance of ethnosport in promoting cultural tourism, popularizing national heritage, and strengthening the country's international image is substantiated.

Keywords: ethnosport, national sports, folk games, tourism, popular culture, *kupkari*, cultural heritage, youth education.

Globalashuv jarayonlari jadallashib borayotgan bugungi davrda milliy o'zlikni saqlab qolish, madaniy merosni asrash va uni zamonaviy shakllarda targ'ib qilish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, etnosport — milliy sport turlari va xalq o'yinlari jamiyatning tarixiy xotirasi, madaniy qadriyatlari hamda tarbiyaviy an'alarini o'zida mujassam etgan noyob

hodisadir. Etnosport nafaqat jismoniy faollikni ta'minlaydi, balki ommaviy madaniyat va turizm rivojiga ham sezilarli hissa qo'shadi.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda etnosportni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Bu jarayon milliy sport turlarini qayta tiklash, ularni zamonaviy sport tizimiga moslashtirish va xalqaro miqyosda targ'ib etishga xizmat qilmoqda.

Mamlakatimizda milliy sport turlari va xalq o'yinlarini ommalashtirish maqsadida muhim normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 17 iyundagi PQ-5149-son qarori[1] bilan Etnosport turlarini 2025 yilgacha ommalashtirish va rivojlantirish dasturi tasdiqlandi. Mazkur dastur etnosportni tizimli rivojlantirish, sport infratuzilmasini mustahkamlash hamda yoshlarni milliy sport turlariga jalb etishga qaratilgan.

Shuningdek, Prezidentning 2022 yil 11 apreldagi PQ-201-son qarori asosida mahallalarda yoshlarni ommaviy sportga jalb qilish bo'yicha yangi mexanizmlar joriy etildi.[2] Ushbu qarorga muvofiq, 2023 yil 1 martdan boshlab milliy sport turlari bo'yicha uch bosqichli umumrespublika musobaqalari tizimi yo'lga qo'yildi. Bu esa etnosportning hududiy va ijtimoiy qamrovini kengaytirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda etnosport turizm industriyasining muhim tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Xususan, har yili Toshkent shahrida o'tkaziladigan "Uzbekistan Ethno Games" respublika festivali hamda Xiva shahrida tashkil etiladigan xalqaro etnosport festivali milliy sport turlarini keng jamoatchilikka namoyish etish imkonini bermoqda. Tarixiy obidalar fonida tashkil etiladigan bu kabi tadbirlar xorijiy sayyohlar uchun o'ziga xos madaniy tomosha bo'lib, mamlakat turistik salohiyatini oshiradi.

"Ichan qal'a" majmuasida o'tkaziladigan etnosport festivallari tarixiy muhit va zamonaviy ommaviy madaniyat uyg'unligini yaqqol namoyon etadi. Bu jarayon etnosportni nafaqat sport musobaqasi, balki madaniy hodisa sifatida shakllantiradi.[3]

Tarixiy manbalarga ko'ra, xalq o'yinlari qadimdan Markaziy Osiyo xalqlarining urf-odatlar, marosimlari va bayramlarining ajralmas qismi bo'lib kelgan. Chavgon, ko'pkari, ot va tuya poygalari kabi o'yinlar yosh avlodda jasorat, epchillik, chidamlilik va tezkor qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirgan.[4]

Xalq o'yinlari haqidagi ma'lumotlar qo'lyozma manbalar, arxeologik topilmalar va etnografik tadqiqotlarda keng yoritilgan. Ularni ilmiy asosda qayta tiklash va zamonaviy sharoitga moslashtirish milliy an'analarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Buyuk alloma Abu Ali ibn Sino xalq o'yinlari va badantarbiyaning inson salomatligidagi rolga alohida e'tibor qaratgan. U badantarbiyani bir necha turlarga ajratib, ot minish, sayr qilish, chavgon va poyga kabi o'yinlarning jismoniy hamda ruhiy sog'lomlikka foydasini ilmiy asoslab bergan. Ibn Sino ta'limotida xalq o'yinlari inson kamolotiga xizmat qiluvchi muhim vosita sifatida talqin etiladi.[5]

Ko'pkari o'zbek xalqining eng qadimiy va ommaviy etnosport turlaridan biri bo'lib, jasorat, mardlik va oriyat timsolidir. Ushbu o'yin yoshlarni botirlik, chaqqonlik, jamoaviylik va mas'uliyat ruhida tarbiyalaydi. Ko'pkari nafaqat sport musobaqasi, balki yuksak badiiy saviyadagi xalq tomoshasi sifatida ham ommaviy madaniyatda muhim o'rin tutadi.

Ko'pkari Markaziy Osiyo va unga qo'shni hududlarda turli nomlar ostida o'tkazilib, mintaqaviy madaniy aloqalarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Turistik tadbirlar doirasida ko'pkarini namoyish etish xorijiy mehmonlar uchun milliy madaniyatni chuqurroq anglash imkonini yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, etnosport bugungi kunda turizm va ommaviy madaniyatning muhim tarkibiy qismiga aylanib, milliy merosni asrash, yoshlarni sog'lom turmush tarziga jalb etish va mamlakatning xalqaro nufuzini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Etnosportni ilmiy asosda rivojlantirish, uni zamonaviy madaniy va turistik jarayonlarga uyg'unlashtirish kelajak avlodlar uchun boy va barqaror madaniy meros yaratishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. <https://president.uz/oz/lists/view/5219>
2. <https://lex.uz/uz/docs/-5950242?ONDATE=11.04.2022%2000>
3. Jahon sivilizatsiyasida Boysun hududining moddiy va ma'naviy madaniyati. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Toshkent: “Yosh avlod matbaa”, 2022.
4. Tursunov S. N. Surxondaryo – etnografik makon. – Toshkent: Akademnashr, 2012. – 232 b.
5. Jabborov I. M. O'zbeklar: turmush tarzi va madaniyati (etnotarixiy lavhalar). – Toshkent: O'qituvchi, 2003. – 208 b.

**MUSTAQILLIK DAVRIDA O'ZBEKISTONDA FUQAROLARNING
O'ZINI O'ZI BOSHQARISH INSTITUTLARINING
TRANSFORMATSIYASI (1991–2020)**

Matyakubov Nurbek

Urganch innovatsion universiteti dotsenti

Yuldashova Manzura

Urganch innovatsion universiteti magistranti

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada 1991–2020 yillarda O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, xususan mahalla instituti va fuqarolar yig'inlarining shakllanishi hamda rivojlanish jarayoni tahlil qilinadi. Tadqiqot Konstitutsiyaviy me'yorlar, maxsus qonunlar va Prezident farmonlari asosida olib borilgan bo'lib, mahallaning an'anaviy ijtimoiy tuzilmadan davlat va jamiyat o'rtasidagi muhim institutsional bo'g'inga aylanish bosqichlari yoritiladi. Muallif milliy an'analar va zamonaviy demokratik tamoyillar uyg'unligi asosida o'ziga xos "o'zbek modeli" shakllanganini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Kalit so'zlar: o'zini o'zi boshqarish organlari, mahalla instituti, fuqarolar yig'ini, mahalliy boshqaruv, mustaqillik, demokratlashtirish.

АННОТАЦИЯ: В данной статье анализируется процесс формирования и развития органов самоуправления граждан в Республике Узбекистан в 1991–2020 годах, в частности института махалли и собраний граждан. Исследование проведено на основе конституционных норм, специальных законов и указов Президента, и в нём рассматриваются этапы, в ходе которых махалла превратилась из традиционной социальной структуры в важное институциональное звено между государством и обществом. Автор научно обосновывает формирование особой «узбекской модели» на основе сочетания национальных традиций и современных демократических принципов.

Ключевые слова: органы самоуправления граждан, институт махалли, собрания граждан, местное самоуправление, независимость, демократизация.

ABSTRACT: This thesis analyzes the transformation of citizens' self-government institutions in the Republic of Uzbekistan during the independence period from 1991 to 2020. Particular attention is paid to the development of the *mahalla* institution and citizens' assemblies as fundamental forms of local self-governance. Based on the analysis of constitutional provisions, special laws, and presidential decrees, the study examines the main stages of institutional formation and modernization of the *mahalla*, highlighting its evolution from a traditional community-based structure into a key link between the state and society. The research argues that a distinctive national model of self-government has emerged in Uzbekistan, combining historical traditions with modern democratic principles and mechanisms of civic participation.

Keywords: citizens' self-government, *mahalla* institution, citizens' assembly, local governance, independence period, democratization, Uzbekistan

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari masalasi O'zbekiston Respublikasida mustaqil davlat qurilishi jarayonida alohida ahamiyat kasb etadi. 1991-yilda mustaqillikka erishilgach, jamiyatni boshqarishda aholining bevosita ishtirokini ta'minlovchi samarali mexanizmlarni shakllantirish zarurati yuzaga keldi.

Shu nuqtai nazardan, tarixan shakllangan mahalla instituti yangi siyosiy-huquqiy sharoitda qayta talqin qilindi va institutsional asosda mustahkamlandi [1, s. 45].

1992-yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 105-moddasida fuqarolar yig'inlari o'zini o'zi boshqarish organlari sifatida e'tirof etilishi demokratik boshqaruv tamoyillarini joriy etish yo'lidagi muhim qadam bo'ldi [2, s. 112].

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari rivojlanish bosqichlari
Dastlabki shakllanish bosqichi (1991–1993 yillar)

Mustaqillikning ilk yillarida mahalla asosan ijtimoiy yordam va o'zaro hamkorlikka asoslangan an'anaviy tuzilma sifatida faoliyat yuritdi. 1993-yilda "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi mahalla va fuqarolar yig'inlari faoliyatining huquqiy asoslarini belgilab berdi [3, s. 27]. Ushbu bosqichda mahalla aholining kundalik ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi muhim ijtimoiy institut sifatida shakllandi.

Huquqiy va institutsional mustahkamlash bosqichi (1994–2009 yillar)

1990-yillarning oxiri va 2000-yillar boshlarida mahalla institutining vakolatlari sezilarli darajada kengaydi. 1999-yilda Qonunning yangi tahriri qabul qilinib, fuqarolar yig'ini raislari (oqsoqollar)ni saylash tartibi, jamoatchilik komissiyalarini tashkil etish va davlat organlari bilan hamkorlik mexanizmlari aniq belgilandi [3, s. 64]. Hatijada mahalla nafaqat ijtimoiy, balki tarbiyaviy va ma'naviy vazifalarni ham bajaruvchi barqaror institutga aylandi [4, s. 89].

Modernizatsiya va islohotlar bosqichi (2010–2020 yillar)

2017-yildan boshlab mahalla instituti mamlakatni rivojlantirish strategiyalarida "birlamchi bo'g'in" sifatida belgilandi. Prezident farmonlari va qarorlari asosida mahallalarning bandlikni ta'minlash, ijtimoiy himoya va huquqbuzarliklarning oldini olishdagi roli kuchaytirildi [5, s. 14]. Bu davrda mahalla davlat va jamiyat o'rtasidagi samarali aloqa mexanizmi sifatida yangi bosqichga ko'tarildi.

Mahalla institutining jamiyatdagi o'rni

Bugungi kunda mahalla O'zbekistonda fuqarolarning manfaatlarini ifodalovchi, ijtimoiy adolatni ta'minlashga xizmat qiluvchi va davlat siyosatini joylarda amalga oshiruvchi muhim institutga aylandi. Mahalla orqali ijtimoiy dasturlar amalga oshiriladi, jamoatchilik nazorati yo'lga qo'yiladi hamda fuqarolarning boshqaruv jarayonlaridagi faolligi oshiriladi [6, s. 203].

Xulosa qilib aytganda, 1991–2020 yillarda O'zbekistonda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, ayniqsa mahalla instituti chuqur transformatsiya jarayonini boshdan kechirdi. An'anaviy ijtimoiy tuzilma sifatida shakllangan mahalla zamonaviy demokratik boshqaruv tizimining ajralmas qismiga aylandi. Milliy qadriyatlar va huquqiy islohotlar uyg'unligi asosida shakllangan ushbu model davlat va jamiyat o'rtasidagi barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. — Toshkent, 1992 (keyingi tahrirlari bilan).
2. Karimov I. A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida. — Toshkent: O'zbekiston, 1997.
3. "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonun (1993, 1999, 2013).
4. Abdullayev A. M. Mahalla instituti va mahalliy boshqaruv. — Toshkent: Fan, 2008.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari (2017–2020).
6. lex.uz va rasmiy hujjatlar materiallari.

ILK O'RTA ASRLARDA SIRDARYO QUYI HAVZASIDA MADANIY SINTEZ: KO'CHMANCHI VA O'TROQ AN'ANALAR UYG'UNLIGI

Sobirov Kuranboy

Urganch davlat universiteti professori

E-mail: k.sobirov@gmail.com

Yuldosheva Nilufar Davronbekovna

Urganch innovatsion universiteti magistranti

E-mail: nilufar7909360@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada VI–IX asrlarda Sirdaryoning quyi oqimidagi (Jetiasar madaniyati va unga tutash hududlar) o'troq va ko'chmanchi aholi o'rtasidagi madaniy aloqalar tahlil qilinadi. Arxeologik topilmalar asosida sug'orish dehqonchiligi, shaharsozlik va chorvachilik madaniyatlarining o'zaro ta'siri, shuningdek, turk va sug'diy an'analarning sintezi ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Sirdaryo quyi havzasi, Jetiasar madaniyati, madaniy sintez, ilk o'rta asrlar, urbanizatsiya, ko'chmanchi-o'troq simbiozi, tirkash.

Аннотация: В данной статье анализируются культурные контакты между оседлым и кочевым населением нижнего течения Сырдарьи (Джетиасарская культура и прилегающие территории) в VI–IX веках. На основе археологических находок исследуется взаимодействие орошаемого земледелия, градостроительства и животноводства, а также синтез тюркских и согдийских традиций.

Ключевые слова: Нижнее течение реки Сырдарья, Джетиасарская культура, культурный синтез, раннее Средневековье, урбанизация, симбиоз кочевников и поселенцев, Тиркаш.

Abstract: This article analyzes the cultural contacts between the settled and nomadic populations of the lower Syr Darya (Jetiasar culture and adjacent areas) in the 6th–9th centuries. Based on archaeological findings, the interaction of irrigation agriculture, urban planning, and animal husbandry cultures, as well as the synthesis of Turkic and Sogdian traditions, is examined.

Key words: Lower reaches basin of the Syr Daryo, Jetiasar culture, cultural synthesis, early Middle Ages, urbanization, nomadic-settler symbiosis, Tirkash.

Kirish. Ilk o'rta asrlar Markaziy Osiyo tarixida etnomadaniy jarayonlarning eng faol bosqichi hisoblanadi. Sirdaryoning quyi oqimi o'zining geografik joylashuviga ko'ra, Buyuk Ipak yo'lining shimoliy tarmog'ida joylashgan bo'lib, ko'chmanchi turkiy qabilalar va o'troq dehqonchilik vohalari o'rtasidagi "muloqot zonasi" vazifasini o'tagan. Bu hududdagi madaniy sintez nafaqat iqtisodiy almashinuvda, balki moddiy va ma'naviy madaniyatning yangi namunalarini shakllanishida ham namoyon bo'ladi [1, 45-b]

1. Sirdaryo quyi havzasidagi arxeologik madaniyatlar xususiyati

Sirdaryo quyi oqimidagi madaniy jarayonlarning o'zagini Jetiasar madaniyati (mil.avv. I mingtallik oxiri – milodiy VIII-IX asrlar) tashkil etadi. Bu madaniyat o'zida ham o'troq ziroatchilik, ham ko'chmanchi chorvachilik elementlarini birlashtirgan.

Quyi Sirdaryo shaharlarining (masalan, Altiasar, Bedik, Qo'shasar) o'ziga xosligi ularning "qal'a-turar joy" shaklida bo'lganligidir. Bu shaharlar ko'chmanchilarning hujumidan himoyalaniish uchun emas, balki ko'chmanchi elitani o'troqlashtirish va ularning iqtisodiy ehtiyojlarini qondirish uchun xizmat qilgan.[2,112-b.] Arxeologik qazishmalar natijasida topilgan don omborlari va shu bilan birga chorva mollarining suyak qoldiqlari bu yerda "aralash xo'jalik" tipi hukmron bo'lganini ko'rsatadi.

2. Moddiy madaniyatda sintez: Kulolchilik va me'morchilik

Madaniy uyg'unlik birinchi navbatda kulolchilik buyumlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Sirdaryo bo'yi aholisi tomonidan tayyorlangan sopol idishlarda ham o'troq Sug'd madaniyatiga xos bo'lgan charxda ishlov berish, ham ko'chmanchi dasht xalqlariga xos bo'lgan qo'lda yasash va geometrik naqshlar bilan bezash an'analari birlashgan.

Me'morchilikda: Jetiasar uylarining ichki tuzilishida markaziy o'choqning saqlanib qolishi ko'chmanchi o'tov (yurta) arxitektonikasining o'troq xom g'ishtli binolarga ko'chishini anglatadi. Tadqiqotchi L.Levina ta'kidlaganidek, bu uylar ko'chmanchilarning turg'un hayotga moslashuv davridagi "psixologik o'tish" bosqichi natijasidir. [3, 89-b.]

3. Savdo-iqtisodiy aloqalar va "Tirkash" tizimi

Ilk o'rta asrlarda Sirdaryo quyi havzasida o'ziga xos "simbioz" (o'zaro manfaatli hamkorlik) shakllangan. Ko'chmanchilar o'troq aholini chorva mahsulotlari (go'sht, teri, jun) va jangovar otlar bilan ta'minlagan bo'lsa, o'troq vohalar ularga g'alla, hunarmandchilik buyumlari va ipak yetkazib bergan. Bu aloqalar natijasida Yangikent, Juyev, Huvara kabi shaharlar vujudga keldiki, ular ham dasht, ham voha madaniyatining chorrahasi hisoblangan. Arab manbalarida (al-Idrisiy, Ibn Havqal) Sirdaryo bo'yi shaharlari o'g'uzlarning qishloqlari va savdo markazlari sifatida tilga olinadi. [4,67-b] Bu hududda topilgan Vizantiya oltin tangalari va Xitoy oynalari xalqaro savdo ushbu sintezni yanada tezlashtirganidan dalolat beradi.

4. Ma'naviy va diniy qarashlarning uyg'unligi

Sirdaryoning quyi havzasida zardushtiylik, shomanizm va keyinchalik islom dini elementlarining aralashuvi kuzatiladi. Masalan, qabrlarga oziq-ovqat va qurol-yarog' qo'yish (ko'chmanchilar an'anasi) bilan bir qatorda, o'troq aholiga xos bo'lgan ossuariylarda (suyakdonlarda) dafn etish odatlari parallel ravishda uchraydi. Bu "sinkretik e'tiqod" jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi muhim omil bo'lgan. [5,134-b]

Xulosa shuki, ilk o'rta asrlarda Sirdaryo quyi havzasi o'ziga xos "madaniy laboratoriya" vazifasini o'tagan. Ko'chmanchi va o'troq an'analarning sintezi natijasida:

- Iqtisodiy barqarorlik: Chorvachilik va dehqonchilikning birlashishi qurg'oqchil iqlim sharoitida yashab qolish imkonini bergan.
- Etnik integratsiya: Turk-o'g'uz qabilalarining o'troqlashishi natijasida yangi shahar madaniyati shakllangan.

- Siyosiy ahamiyat: Bu sintez keyinchalik O'g'uzlar davlatining qudratli poydevoriga aylangan.

Mazkur madaniy uyg'unlik Markaziy Osiyo xalqlarining umumiy sivilizatsiyasi rivojiga qo'shilgan ulkan hissadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Gulyamov Ya.G. Xorazmning sug'orilish tarixi. – Toshkent: Fan, 1957.
2. Levina L.M. Ethnocultural history of the eastern Aral Sea region. Jetiasar culture. – Moscow: Nauka, 1996.
3. Tolstov S.P. Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab. – Toshkent, 1964.
4. Rtveladze E.V. The Great Silk Road: Encyclopedic handbook. – Tashkent, 1999.
5. Ibn Havqal. Kitob surat al-arz (Yer surati). – Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar fondi.

O'ZBEKISTONDA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARI HUQUQIY ASOSLARINING SHAKLLANISH TARIXI

Jumaniyozov Bekzod Ochilovich

Urganch innovatsion universiteti dotsenti

Yusupov Bekzod Rustamovich

Urganch innovatsion universiteti magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasining "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi Qonunining mazmun-mohiyati yoritilgan. Unda siyosiy partiyalarning tashkil etilishi, faoliyati, huquq va majburiyatlari, davlat va jamiyat hayotidagi o'rni hamda siyosiy tizimdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, siyosiy partiyalarning demokratik jarayonlardagi ishtiroki va ularning huquqiy asoslari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: siyosiy partiya, qonun, demokratik jamiyat, siyosiy tizim, fuqarolik jamiyati, O'zbekiston Respublikasi.

Аннотация: В статье рассматривается содержание и значение Закона Республики Узбекистан «О политических партиях». Анализируются правовые основы создания и деятельности политических партий, их права и обязанности, а также роль в политической системе и демократическом развитии государства. Особое внимание уделяется участию политических партий в общественно-политической жизни страны.

Ключевые слова: политическая партия, закон, демократия, политическая система, гражданское общество, Республика Узбекистан.

Annotation: This article examines the essence and significance of the Law of the Republic of Uzbekistan "On Political Parties." It analyzes the legal foundations for the establishment and functioning of political parties, their rights and obligations, and their role in the political system and democratic development of the state. The participation of political parties in socio-political processes is also highlighted.

Keywords: political party, law, democracy, political system, civil society, Republic of Uzbekistan.

O'zbekiston davlat rahbariyati 1988 yildan boshlab mustaqillikka erishish yo'lini tutgan. 1991 yil 15 fevralda "Jamoat birlashmalari to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi. "O'z huquqlari, erkinliklarini hamda siyosat, iqtisodiyot, ijtimoiy rivojlanish, fan, madaniyat, ekologiya va hayotning boshqa sohalaridagi qonuniy manfaatlarini birgalikda ro'yobga chiqarish uchun birlashgan fuqarolarning xohish-irodalarini erkin bildirishlari natijasida vujudga kelgan ixtiyoriy tuzilma jamoat birlashmasidir, — deyiladi qonunning 1-moddasida. — Siyosiy partiyalar, ommaviy harakatlar, kasaba uyushmalari, xotin-qizlar, yoshlar va bolalar tashkilotlari, veteranlar va nogironlar tashkilotlari, ilmiy-texnikaviy, madaniy-ma'rifiy, jismoniy tarbiya-sport va boshqa ko'ngilli jamiyatlar, ijodiy uyushmalar, yurtdoshlar uyushmalari, assotsiatsiyalar va fuqarolarning boshqa birlashmalari jamoat

birlashmalari deb e'tirof etiladi"[1,363]. Albatta, jamoat birlashmasining mazkur huquqiy ta'rifi BMT me'yoriy hujjatlari va rivojlangan davlatlar tajribasi, shuningdek, milliy an'analarda shakllangan huquqiy asoslarni e'tiborga olgan holda shakllantirildi.

Davlat mustaqilligini qo'lga kiritgan O'zbekistonda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirish vazifasi qo'yildi. "Bizning asosiy uzoq muddatli va strategik vazifamiz avvalgicha qoladi – bu demokratik davlat, fuqarolik jamiyati qurish jarayonlari va bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish, odamlar ongida demokratik qadriyatlarni mustahkamlash yo'lidan og'ishmay, izchil va qat'iyat bilan borishdir" degandi birinchi Prezident I.A.Karimov. Jahon tajribasi va mamlakatimiz milliy manfaatlaridan kelib chiqib, davlat hokimiyati organlari vakolatlarining

bir qismini nodavlat tashkilotlari va o'z o'zini boshqarish organlari ixtiyoriga o'tkazilishi ko'zlandi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitiga o'ta boshlagan mamlakatda davlat organlariga qarashli bo'lmagan ishlab chiqarish va taqsimot sharoitida erkin va o'zaro teng huquqli shaxslarning xususiy manfaatlari va individualizm munosabatlari saqlanib qoldi. Fuqarolik jamiyatining rivojlanishi individlarning erkinlik uchun harakat qilishi, davlatga tobelikdan asta-sekin mulkdor shaxsga aylanib borishi, hayotdagi iqtisodiy va siyosiy mas'ullikni qabul qilishi sharoitida shakllandi.

Jahon mamlakatlari tajribasida huquqiy davlatning shakllanishi, uning vakolatlari va funksiyalarining demokratik talablar asosida qisqarishi yangidan-yangi funksiyalarni vujudga keltiradi. Ular quyidagi holatlarda namoyon bo'ldi: fuqarolik jamiyati institutlari davlatga nisbatan mustaqil va nisbatan erkinligi; davlatning total boshqaruvchilik funksiyalari va vakolatlarining qonunlar bilan qisqartirilishi; barcha huquqiy teng bo'lishi; shaxs erkinligi va uning o'z hayoti farovonligini ta'minlashida mas'uliyatni o'z zimmasiga olishi; qonunlarning barcha uchun umumiyliigi va hokimiyatning birdan-bir manbai xalq bo'lishi; qonun chiqaruvchi, ijroiya va sud hokimiyatlarining amalda teng bo'lishi va hokazo[2]. O'zbekistonda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurish asosiy strategik maqsad deb e'lon qilindi. Yangi jamiyatni esa qonunchilik asosida shakllantirish, huquqiy talablar asosida milliy davlatchilikni rivojlantirish mumkin edi.

Mamlakatda fuqarolik jamiyati qurishda asosan davlatning bosh islohotchilik roli asosida ko'ppartiyaviylik tizimini shakllantirish islohotlari boshlandi. O'zbekiston "Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi"ni tan oldi.

Mustaqil davlat yangi qonunlar asosida qurilishi kerak edi Shuning uchun ham tashkil qilingan maxsus komissiya 8 oy davomida Asosiy qonun — Konstitutsiya loyihasini ishlab chiqdi va xalq muhokamasiga qo'ydi. Nihoyat 1992 yilning 8 dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining birinchi Konstitutsiyasi asosiy me'riy hujjat sifatida ishlay boshladi.

Konstitutsiyaning 2-moddasida: “Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas’uldirlar” deyiladi. 7-moddasida esa: “Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir. O‘zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko‘zlab va O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat bergan idoralar tomonidagina amalga oshiraladi” deb yozib qo‘yilgan.

Tarixdan ma’lumki, sobiq sho‘rolar davrida barcha nodavlat tashkilotlari kabi kasaba uyushmalari “kommunizm maktabi” deb e’lon qilinib, komsomol tashkiloti kabi partiyaning “ko‘z-qulog‘i” va yordamchisi edi[3,10]. Ana shu holatga barham berish, fuqarolik jamiyatiga xos kasaba uyushmalarini shakllantirish maqsadida 1992 yil 2 iyulda O‘zbekiston Respublikasining “Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilindi. Ushbu qabul qilingan mazkur Qonunda kasaba uyushmasi ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalaridagi faoliyat turiga ko‘ra o‘z a‘zolarining mehnat huquqlari va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishda mushtarak manfaatlar bilan bog‘langan fuqarolarning jamoat birlashmasi ekanligi, xodimlar, oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarida ta’lim olayotgan shaxslar hamda ish bilan ta’minlangan boshqa shaxslar hech qanday tafovutsiz va oldindan ruxsat olmay turib, ixtiyoriy ravishda kasaba uyushmalarini tuzish huquqiga, shuningdek, kasaba uyushmalariga ularning ustavlariga rioya etish sharti bilan kirish huquqiga egaligi huquqiy jihatdan mustahkamlab qo‘yildi.

1996 yil 26 dekabrda O‘zbekiston Respublikasining “Siyosiy partiyalar to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilindi[4,1]. Mamlakat tarixida birinchi marta xalqaro tashkilotlar talablaridan kelib chiqib qonunning 1-moddasida “siyosiy partiya” tushunchasiga ta’rif berildi: “Siyosiy partiya O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining qarashlar, manfaatlar va maqsadlar mushtarakligi asosida tuzilgan, davlat hokimiyati organlarini shakllantirishda jamiyat muayyan qismining siyosiy irodasini ro‘yobga chiqarishga intiluvchi hamda o‘z vakillari orqali davlat va jamoat ishlarini idora etishda qatnashuvchi ko‘ngilli birlashmasidir”[5,10].

Ko‘rinib turibdiki, mamlakat tarixida ilk bor jamiyatda siyosiy muxolifatning shakllanishi, siyosiy partiyalarning jamiyatda o‘zaro muxoliflik va o‘zaro raqobatga kirishishining huquqiy asoslari yaratildi.

Shuningdek, Qonunda mahallalarning fuqarolik jamiyati instituti sifatidagi maqomini shakllantirish maqsadida ularga aholi manfaatlari va ehtiyojlarini qondirishda ko‘maklashishga doir qator vakolatlar berildi. Chunki qonunda mahalla oqsoqoli va uning maslahatchilarini mahalla fuqarolarni boshqarishdagi vakolatlari, ularning mahalla hududini rivojlantirishdagi o‘rni, o‘zini o‘zi boshqarish organlarining tuman va shahar hokimliklari bilan o‘zaro munosabatlarining huquqiy asoslari ham mujassamlashdi.

1999 yil 14 aprelda O'zbekiston Respublikasining "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi. Ma'lumki, NNT fuqarolik jamiyatining eng asosiy va muhim instituti hisoblanadi. Ular inson huquqlarini himoya qilish va ta'minlash, fuqarolar siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy manfaatlarini ifodalash va himoyalash funksiyalarini bajarib, jamiyat bilan davlat o'rtasida vositachilik vazifalarini bajaradi.

Mazkur qonun 1991 yil 15 fevralda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Jamoat birlashmalari to'g'risida"gi Qonunni yanada takomillashtirib va rivojlantirib, NNTning huquqiy va ijtimoiy maqomi, davlat organlari bilan o'zaro munosabatlari, moliyaviy asoslari kabi jihatlarni muvofiqlashtirish yo'l-yo'riqlari mujassamlashtirdi.

Mamlakatda fuqarolik jamiyati institutlarining huquqiy asoslarini yaratilishi, davlatning bosh islohotchi sifatida bu institutlarning faoliyat yuritishi uchun ijtimoiy-siyosiy shart-sharoitlarni yaratib berishi natijasida fuqarolik jamiyatining unsurlari shakllana boshladi. Lekin, xalqaro tashkilotlar talablari va rivojlangan davlatlar tajribasi asosida fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning huquqiy asoslari yaratilgani bilan ular hayotda o'z aksini topmadi. Bu sohadagi tub burilish faqat 2017 yildan boshlandi.

Xulosa qilinadigan bo'lsa, 1991-2016 yillarda mamlakatda fuqarolik jamiyatining unsurlari – halq manfaatlarini va siyosiy irodasini erkin bildirish va ularni erkin ifoda etish uchun huquqiy asoslar yaratilishi bilan hamohang tarzda siyosiy partiyalar va boshqa NNTni shakllantirish va rivojlantirish islohotlari o'z nihoyasiga yetmadi. Lekin, shunga qaramay, mamlakatda fuqarolik jamiyatining rasmiy jihatlari – uning qonunchilik asoslari rivojlandi. Bu davrda fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatiga davlat organlarining aralashuvi, NNT rahbar organlarini shakllantirishda mahalliy hokimiyat organlarining ta'siri kuchli bo'ldi. Davlat boshqaruvi va islohotlar jarayoniga davlat bosh islohotchi prinsipini qo'llash natijasida fuqarolik jamiyati institutlari davlat organlari boshqaruvi ostida faoliyat yuritishi bu sohadagi rivojlanishning sustlashuviga sabab bo'ldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1991, 4-сон, 76-модда; 1992, 9-сон, 363-модда.
2. Правовое государство: понятие, признаки // <https://jurkom74.ru/ucheba/pravovoe-gosudarstvo-ponyatie-priznaki>.
3. Ўзбекистон Республикаси Касаба уюшмалари федерацияси // Ўзбекистон Миллий архиви (ЎЗР. МА), 737-фонд, 5-рўйхат, 42449 иш. 10-варақ.
4. Ўзбекистон Республикаси Касаба уюшмалари федерацияси // Ўзбекистон Миллий архиви (ЎЗР. МА), 106-фонд, 1-рўйхат, 4-иш. 1-варақ.
5. Ўзбекистон Республикасининг "Сиёсий партиялар тўғрисида" ги Қонуни. // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, №2 (1250), 10 б.

YOZMA MANBALARDA XORAZM AHOLISI HARBIY SAN'ATI
MASALASINING AKS ETISHI

Satimov Bahodir Mangliboy o'g'li

Urganch innovatsion universiteti dotsenti

Iskandarova Fotimajon Muhammadovna

Urganch innovatsion universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada IX-XIII asrlarda Xorazm vohasi aholisining harbiy san'ati sohasining yozma manbalarda aks etishi masalalariga to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Egishe, Lazar Parbskiy, Movses Xorenatsi, Orolbo'yi ko'chmanchi, Al-Maqdisiy, Al-Fatx bin Hoqon, Abu Usmon al-Jahizning, Nizomulmulk, Siyosatnoma.

Аннотация: В данной статье анализируется отражение военного искусства населения Хорезмского оазиса в письменных источниках IX–XIII веков.

Ключевые слова: Егисхе, Лазар Парпеци, Мовсес Хоренаци, приаральские кочевые племена, хорезмийский лук, Аль-Макдиси, Абу Усман аль-Джахиз, Низам аль-Мульк, «Сиясатнаме», военное искусство.

Abstract: This article analyzes the reflection of the military art of the population of the Khorezm oasis in written sources of the 9th–13th centuries.

Keywords: Egishe, Lazar Parpetsi, Movses Khorenatsi, Aral Sea nomadic tribes, Khorezm bow, Al-Maqdisi, Abu Uthman al-Jahiz, Nizam al-Mulk, Siyasatnama, military art.

Egishe, Lazar Parbskiy, Movses Xorenatsi (Moisey Xorenskiy) kabi tarixchilar asarlarida Orolbo'yi ko'chmanchi qabilalarining qurol – aslahalari hamda O'rta Osiyodagi davlatlar So'g'diyona, Toxariston, Xorazm, Choch va Farg'ona davlatlari harbiy san'ati va ularning harbiy qurol – aslahalari xususidagi ma'lumotlar berib o'tilgan. Bu tarixchilar Orolbo'yida bosqichma – bosqich shakllangan xioniy, kidariy, eftaliylar va turk xoqonligi davlatlari jangavor salohiyati, bu qabilalar uyushmalari armiyasi jangchilarining qurollanish darajasi haqida qisman, ammo, aniq ma'lumotlar keltirib o'tadilar. Jumladan, Egishe va Lazar Parbskiylar o'z asarlarida xioniylar va keyinchalik kirib kelgan eftaliylar qabilalari bilan sosoniylar Eron davlati o'rtasidagi janglarda bu qabilalar qo'llagan jang usullari, ularning janglarda qo'llagan harbiy qurol-aslahalari haqida qimmatli ma'lumotlar keltirib o'tadilar[5].

VIII asrda yashagan arman tarixchisi Movses Xorenatsi o'z asarida eftaliylarni va turkiy qabilalarni nihoyatda jangavor bo'lganliklarini yozgani holda Balx – Toxariston o'zining sovutlari, Xorazm o'zining kamonlari bilan Sharqda mashhur bo'lganliklarini yozadi[6].

Eng asosiysi esa bu tarixchilar ko'chmanchi qabilalarni O'rta Osiyo xalqlari bilan doimo bir harbiy – siyosiy doirada aks ettiradilarki, Orolbo'yi ko'chmanchi qabilalarining ilk o'rta asrlarda ham qo'shni davlatlar harbiy san'ati taraqqiyotiga

ulkan ta'sir ko'rsatganliklarini tasavvur qilish mumkin. Bu fikrni arxeologik tadqiqotlar ma'lumotlari to'liq tasdiqlaydi.

Jumladan, Movses Xorenatsi o'zining tarixiy asarida[6], X asr arab geografi va tarixchisi al Maqdisiy asarida hamda muallifi noma'lum "Hudud – al – Olam" asarida Xorazmdan tashqi savdoga ajoyib kamonlar chiqarilganini ko'rsatadi.

Orolbo'yi ko'chmanchi qabilalari bilan o'rta asrlar O'rta Osiyo (Movarounnahr va Xuroson) aholisi o'rtasidagi harbiy sohadagi aloqalar va bu boradagi o'zaro ta'sir borasidagi ma'lumotlarni aks ettirgan eng asosiy manbalar jumlasiga arab – fors manbalari kiradi. Ammo, o'rta asrlar arab-fors manbalari juda ko'pchilikni tashkil qilgani uchun tadqiqotda ularning eng asosiylariga to'xtalib o'tildi.

Orolbo'yi hudulariga IX asrdan o'g'uz qabilalari, keyinchalik qipchoq qabilalari kirib kelgan va O'rta Osiyoda kechgan harbiy – siyosiy, etnik va ijtimoiy – iqtisodiy jarayonlarda muhim rol o'ynaganlar.

O'rta asrlarda mashhur bo'lgan Xorazm kamoni haqida ma'lumot berar ekan Al-Maqdisiy "Xorazm kamonlarini faqat eng kuchli kishilargina torta olishi mumkin" bo'lgan hamda bu kamonlar butun Yevroosiy o mintaqalariga chiqarilganligini ta'kidlaydi[3].

Al-Maqdisiy o'zining "Axsan at-takasim fi-ma'rifat..." asarida muallif xorazmliklarni: "...jasur va janglarda botir", elat sifatida tasvirlaydi[3].

"Hudud al-Olam" asari muallifi: "Urganch aholisi botir jangchilar va mohir kamonchilar sifatida ulug'lanadi", – deb ta'kidlagan holda Kat aholisini esa jangavor xalq sifatida ta'riflagan[9]. O'rta asrlarlarda Xorazm davlati qo'shni dasht qabilalari bilan urush holatlarida bo'ldi.

"Kitab masolik al-mamolik" asarlari muallifi Al-Istaxriyning (930-933) xorazmliklarni "qo'rqmas va botir jangchilar, qo'shni o'g'iz qabilalari bilan muvaffaqiyatli urush olib boradilar", deb ta'rifaydilar[2].

O'rta Osiyoning o'rta asrlar davlatlari harbiy san'ati tarixi aks etgan ma'lumotlarni buyuk vatandoshimiz Abu Rayhon al – Beruniy asarlarida ham uchratishimiz mumkin. U o'zining "Mineralogiya" asarida: "Sovut jangchi tanasini dushman qurolidan asraydi, uning keskir zarbasidan himoya qiladi", – deb, O'rta Osiyoda shu davrda mashhur bo'lgan turli harbiy qurollarga ta'rif beradi. Jumladan, u hind qilichi - muhannad, arab qilichi – mashraf va suraj, yaman qilichi – firind va xuroson qilichi – javxar va hokazo qilich turlariga juda yaxshi ta'rif berib, ularning qanday tayyorlanishigacha keltirib o'tadi[1].

Ammo, ularning Xorazm vohasida ham mahalliy ustalar tomonidan tayyorlanishini yozmagan. Zero, arxeologik tadqiqotlar davrida voha yodgorliklaridan topilgan qilichlar chetdan keltirilmasdan mahalliy ustalar tomonidan tayyorlanganligi ta'kidlanadi. Bundan ko'rinib turibdiki, Beruniy zamonida voha aholisi harbiy sohada qurol – aslahalarning juda ko'p turidan foydalanganlar. Bular esa Xorazm vohasi aholisiga yuqoridagi manbalarda jangavor xalq bo'lgan degan ta'rif bejiz berilmaganligini ko'rsatadi.

XI asrdan tortib, to XIX asr oxirigacha bo'lgan davrlarda yaratilgan asarlarda aynan O'rta Osiyo davlatlarining harbiy salohiyati, qo'shin tuzilishi, harbiy mansablar hamda harbiy san'at haqida batafsil ma'lumotlar berilmagan bo'lsada, ammo bu davlatlar asosiy raqiblari hamda asosiy yollanma qo'shini sifatida xizmat qilgan ko'chmanchi qabilalar harbiy san'ati va qurollanish darajasi, janglarda qo'llagan jang usullari to'g'risida tafsilotlar keltirilgan. Ushbu asarlar mualliflari sifatida Al-Jaxiz, Ibn Xassul, Nizomulmulk, Sharif Muhammad Mansur Muborakshoh, Shahobiddin an – Nasaviy, Otamalik Juvayniy, Ibn al – Asir, Rashiddin, Juzjoni, Mirzo Ulug'bek, Hamdallah Kazvini, Mirxond, Abulg'azi Bahodirxonlarni hamda arman va gruzin (Kirakos Gandzaketsi, yepiskop Stepanos, Bagrationi David va "Kartlis Tsoxovreba" gruzin tarixiy yilnomasi) manbalarini keltirish mumkin[4].

Mazkur manbalar ichida Orolbo'yi turkiy qabilalari harbiy san'atiga bag'ishlangan maxsus asarlar jumlasiga, arab mualliflari Al-Jahiz, Ibn al-Xassul, Nizomulmulk va Mansur Muborakshoh asarlari kiradi.

Abu Usmon al-Jahizning (vafoti 869 yil) – "Turkiylarning boshqa xalifa qo'shinlaridan afzalliklari haqida Al-Fatx bin Hoqonga xabar" nomli kichik asarida aynan Orolbo'yi turkiy qabilalarining, xususan o'g'uzlarning jangavorlik salohiyati, qurollanish darajasi, jang usullari haqida ma'lumotlar keltirilgan bo'lsa, Abu al-A'lo Muhammad ibn Ali ibn al-Xassulning "Turkiy jangchilarning boshqa jangchilardan ustunligi haqida" nomli asarida ham aynan o'g'uzlarning istilolari, ularning Movarounnahr va Xurosondagi davlatlar bilan harbiy munosabatlari masalasi bayon qilinib, ularning harbiy san'ati, jangchilarning qurollanishi va qo'shinning harbiy bo'linmalari xususida so'z yuritilgan[4].

Saljuqiylar davlatida bosh vazir bo'lgan mashhur Nizomulmulkning "Siyosatnoma" asarida ham o'g'uz qabilalarining ilk davrlarda Xuroson va Movarounnahrdagi istilolari va ularning g'alabalarining omili sifatida qo'shinning harbiy tuzilishi, ular qo'llagan jangavor qurol – aslahalar turlari, harbiy taktika qoidalari, qo'shin ta'minoti va askarlarga beriladigan mukofot yoki jazo turlari bayon qilingan[8].

Sharif Muhammad Mansur Muborakshohning (Faxri Mudabbir nomi bilan mashhur, XII asr oxiri - XIII asr boshlari) "Adab al-harb va-sh-shujoat" ("Urush olib borish qoidalari va shijoat") kitobi mazkur tadqiqot uchun g'oyat muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu kitobda aynan X – XIII asrlar musulmon Sharqi davlatlari, Orolbo'yi ko'chmanchi qabilalari qo'shin turlari, harbiy qurol – aslahalar, qo'shinni safga tuzish, harbiy – qurol – aslahalar turlari va umuman harbiy san'at tarixiga bag'ishlangan[7].

Xulosa qilib shuni ta'kidlash joizki, Xorazmning IX-XIII asrlar harbiy sohasiga oid ma'lumotlar asosan arab va fors yozma manbalarida juda ko'p keltiriladi. Ushbu manbalar orqali Xorazm qo'shinining tuzilishi, qurollanish darajasi hamda harbiy boshqaruv tizimi haqida muhim ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin. Ayniqsa, harbiy yurishlar, mudofaa inshootlari va sarkardalarning faoliyati batafsil tasvirlab berilgan. Bu ma'lumotlar Xorazm davlatining o'sha

davrdagi siyosiy qudrati va mintaqadagi o'rnini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois mazkur yozma manbalar Xorazmning harbiy tarixini o'rganishda asosiy tarixiy manba vazifasini bajaradi.

FODALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Абу-р-Райхан Мухаммед ибн Ахмед Ал-Бируни. Собрание сведений для познания драгоценностей (минералогия). // Пер. с араб. А.М. Беленицкого. – 2-е изд., доп. и испр. – СПб.: Петербургское лингвистическое общество, 2011. – с. 280, 285-287
2. Ал-Истахри. Китаб месалик ал-мемалик. //МИТТ, т.1. -М. -Л., 1939. – С.180
3. Ал-Макдиси. Ахсан ат-такасим фи маърифат ал-акалим. //Материалы по истории туркмен и Туркмении(далее МИТТ). Том 1, VII-XV вв.: арабские и персидские источники / под редакцией С. Л. Волина, А. А. Ромаскевича и А. Ю. Якубовского. – М.-Л.: Издательство Академия Наук СССР, 1939. – С. 202.
4. Асадов Ф.М. Арабские источники о тюрках в раннее средневековье. Баку: Элм, 1993. – 204 с¹ Bu haqda qarang: Асадов Ф.М. Арабские источники о тюрках в раннее средневековье. Баку: Элм, 1993. – 204. с.
5. История Армении Фавстоса Бузанда. Перевод и комм. М. А. Геворгияна, под ред. С. Г. Еремяна. Предисловие Л. С. Хачикяна. Ереван, 1953. – 239 с.
6. Моисей Хоренский. История Армении / Новый пер. Н. О. Эмина. М.: Тип. В. А. Гатцук, 1893. – 363 с.
7. Мубаракшах Шариф Мухаммад Мансур. Адаб ал-харб ва-ш-шуджаат. Правила ведения войны и мужество // Пер. Дж. Наджмутдиновой и С. Шохуморова. — Душанбе: Мин. обороны Республики Таджикистан. Таджикский высший военный колледж, 1997. – 128 с.
8. Худуд ул-алем. //МИТТ, т.1. -М. -Л., 1939. -С.216: Толстов С.П. Древний Хоразм.- М.,1948.-С.244.

MAHALLIY TARIXNAVISLARNING ASARLARIDA XIVA XONLIGINING TASHQI ALOQALAR MASALALARI

Maxmudov Umrbek Baxtiyorovich

Urganch innovatsion universiteti dotsenti

Erkinov Kamron Baxtiyor o'g'li

Urganch innovatsion universiteti

2- bosqich magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada mahalliy tarixnavislarning asarlarida Xiva xonligining tashqi aloqalari masalalarining yoritilishi tahlil qilinadi. Unda xonlikning qo'shni davlatlar bilan olib borgan siyosiy, diplomatik va savdo-iqtisodiy munosabatlari tarixiy manbalar asosida o'rganiladi. Shuningdek, elchilik almashinuvlari, harbiy-siyosiy kelishuvlar va xalqaro savdo yo'llarining ahamiyati yoritiladi. Tadqiqot natijalari Xiva xonligining tashqi siyosiy faoliyatini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar. Xiva xonligi, tashqi aloqalar, mahalliy tarixnavislar, diplomatik munosabatlar, elchilik, savdo aloqalari, siyosiy tarix.

Аннотация. В данной статье анализируется освещение вопросов внешних связей Хивинского ханства в трудах местных историков. Рассматриваются политические, дипломатические и торгово-экономические отношения ханства с соседними государствами на основе исторических источников. Особое внимание уделяется обмену посольствами, военно-политическим соглашениям и роли международных торговых путей. Результаты исследования способствуют более глубокому пониманию внешней политики Хивинского ханства.

Ключевые слова. Хивинское ханство, внешние связи, местные историки, дипломатические отношения, посольства, торговля, политическая история.

Annotation. This article analyzes the issues of foreign relations of the Khiva Khanate as reflected in the works of local historians. It examines political, diplomatic, and trade-economic relations between the khanate and neighboring states based on historical sources. Particular attention is paid to diplomatic missions, military-political agreements, and the importance of international trade routes. The findings contribute to a deeper understanding of the foreign policy activities of the Khiva Khanate.

Keywords. Khiva Khanate, foreign relations, local historians, diplomatic relations, embassies, trade relations, political history.

Xiva xonligi hududiy jihatdan Orol-Kaspiy pasttekisligining shimoliy-sharqiy qismini, shu jumladan, uning chegaralari doirasida xonlikning yadrosini tashkil etgan Amudaryoning quyi oqimidagi yerlarni, Kaspiy va Orol dengizlari orasidagi Ustyurt platosini egallagan. G'arbida Qoraqumning shimoliy qismi, Sirdaryo deltasigacha bo'lgan Qizilqum cho'li – shimoli-sharqda. Xiva xonligining strategik ahamiyati, shuningdek, iqtisodiy imkoniyatlari tashqi dunyo bilan turli xil

tashqi aloqalarni rivojlantirishga xizmat qildi. Shu munosabat bilan Xiva xonligining tashqi aloqalari masalasi uning Markaziy Osiyo xalqaro maydonidagi roli va o'rnini ko'rsatuvchi qimmatli materiallarni taqdim etish imkonini beradi.

Saroy tarixchilari asarlarida Xiva xonligining ichki siyosiy ahvoli va tashqi diplomatiyasi haqida keng qamrovli ma'lumotlar berilgan. Asarlar, odatda, hukmdorlarning obro'sini oshirishga qaratilgan bo'lib, ular orqali elchilik aloqalarining strategik ahamiyatini anglash mumkin. Xiva xonligi tarixiga oid dastlabki manbalardan hisoblanuvchi Abulg'oziy Bahodirxon [1; B.192]. asarlari elchilik missiyalarining tarixiy manzarasini yoritadi. U turkiy xalqlarning genealogiyasini o'rgangan, ammo unda Xiva xonligining tashqi aloqalari haqida ham ma'lumotlar uchraydi.

Munis va Ogahiyning "Firdavs ul-iqbol", Ogahiyning "Riyozi ud-davla", "Zubdat ut tavorix", "Jome ul-voqeoti sultoniy", "Gulshani davlat", "Shohidu-l-iqbol" va Bayoniyning "Shajarai Xorazmshohiy" kabi tarixiy asarlarida XVII–XVIII asr diplomatik munosabatlar tarixiga oid ba'zi ma'lumotlar keltirilsa-da, Xivada qo'ng'irotlar sulolasi hukmronlik qilgan davrdan boshlab bo'lgan tarixiy voqealar, o'zgarishlar, siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayot batafsil bayon etilgan [3; B.143-150].

Shu kabi manbalar tahlili bu davrda Xiva xonligining tashqi siyosati murakkab kechganini ko'rsatib, ayniqsa Buxoro bilan diplomatik aloqalari ziddiyatli holatda kechganini tushuntiradi.

Shu bilan birga Xorazm tarixiy manbalaridan farqli o'laroq Buxoro va Qo'qon xonliklari tarixiga bag'ishlangan asarlarda Buxoro xoni Abdullaxon II faoliyatining boshlarida Xorazm sultonlari bilan ittifoqchilik harakatlari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Xususan, "Abdullanoma" asarida Abdullaxon II ning Balxdagi fitnachi kuchlarga bosh bo'lib chiqqan Faqir sulton va Dinmuhammad sultonga qarshi yurishi hikoya qilinar ekan, Samarqand va Hisor bilan birga Xorazmga ham chopar yo'llab yordam uchun qo'shin so'raganligi qayd etilgan [2; B.60].

Asarda ma'lum qilinishicha, 1573-yil qishida turli viloyatlardan kelgan kuchlar qatorida Xorazm sultonlaridan "Xorazmga tobe bo'lgan yerlarning voliysi Hojixonning o'g'li Suyunch Muhammad sulton katta o'rdu bilan kelgan va jamshid martabali hazrat uning borasdia menihoyat inoyatlar ko'rsatgan" edi [4; B.131-141]. Shunga o'xshash jarayonlardan birini Muhammadyor ibn Arab Qatag'an [5; B.149]. ma'lumotlarida uchratish mumkin. Unga ko'ra, Abdullaxon Balx yurishida qo'shin to'plashga buyruq berganida Xorazm hukmdorlaridan Sevinch Muhammad Sulton yordamga kelganligini ko'rish mumkin. Bu esa o'z navbatida shu davrda Xorazm va Buxoro o'rtasidagi diplomatik aloqaning o'ziga xosligini izohlaydi.

Xiva xonligi tarixnavisligida muhim o'rin tutgan Shermuhammad Munis va Muhammad Rizo Ogahiy asarlarida ham Xiva-Eron diplomatiyasi haqida ma'lumotlar mavjud. Ammo, "Firdavsul-iqbol" asarida hamda Ogahiyning tarixiy asarlarida aynan eronlik qullarga nisbatan ham ishlatilgan qul ma'nosini

anglatuvchi tug'ma (do'g'ma) va xonozod yoki cho'ri atamalari juda kam uchraydi. Uning o'rniga asirlar yoki "usaro" atamalari juda ko'p bora qo'llanilgan. Shu o'rinda, bu usarolarning hammasi qul qilinganmi yoki bir qismigina qul qilinganmi degan savol tug'iladiki, hali uning aniq javobini berish mushkul. Agar mazkur asirlar sunniy mazhabiga mansub bo'lsa, ular qul qilinmaganligi aniq. Jumladan, "Firdavsu-l-iqbol" asarida (ikkinchi jild, ikkinchi kitobida ham) qoraqalpoqlar va qo'ng'irotlar urug'lari, turkman qabilalari ustiga yurishlar voqealariga bag'ishlangan bo'limlarida, talonchilik yurishlari davrida qo'lga olingan asirlarning qul qilinishi borasida birorta ma'lumot yo'q. Aksincha, "qatli asir" yoki "asirlar qatlgaga yetkazildi" jummalari ko'p uchraydi, asirlarning faqat ayollar va bolalardan iborat qismi qul qilingan. Chunki, musulmon sunniylarda o'z dindoshini qul qilish mutlaqo taqiqlangan bo'lsa-da, ayrim hollarda ushbu taqiqqa amal qilinavermagan [6; B.8].

"Firdavsu-l-iqbol" asari ikkinchi jild birinchi kitobida Sherg'ozixonning 1726-1727 yillarda eronlik qullari tomonidan o'ldirilganligi voqeasi qisqa tarzda keltirilib o'tilgan [7; B.155].

Xiva xonligi Eron bilan bog'liq munosabatlar Shermuhammad Munis Xorazmiyning asarida ham keltirib o'tilgan. "1228 (1813-1814) yili" Umarshayx va Amirxonkim Xuroson bilodining xonlariga elchi qilib yubormish erdi oston bo'sliqg'a yetib, barcha xonlarning arizadosht va ixlosnomalarin yetkurdilar Rabi'-al-avval oyining avoyilida Hasan Murod otaliq Buxoro elchisi Boymuhammad jarchi boshi bilan Muhammad Rahimxon mulozimatiga foyiz bo'ldi. Mohi mazkurning avohirida Berdi inoqni elchiyi mazburga qo'shub, Buxoroga irsol qildi Mazkur oyning 27 da yakshanba kuni Berdi inoq Amir Haydaring elchisi Podshohoja sadr bila Buxorodin kelib, oston bo'sliq sharafiga ixlos topdilar Buxoro elchisi Podshoho'jaga yana Berdi inoqni masjub qilib Buxoroga yubordi Jumod-ul-avval oyining o'nida juma kuni Kurdistondin elchilar kelib tansuqoti mutakosira peshkash chiqdilar Jumadiy-as-soniy oyining sakkizida juma kuni Xuroson elchilari ixsoni podshohona va in'omi begarona bila bahra-mand qilib, o'z Yurtlariga ruxsat berdi. Badirxonbek va Muhammad Husayn bekni Sattor Quli oqo bila mazkur bo'lg'on elchilarga qo'shub yubordi. Bu mazmun bilakim: "Agar ellig va itoat izxorida sodiq bo'lsalar, kuz faslida inshoollo ul tarafig'a azm yetkumizdir. Agar el muxolif bo'lsalar, alar samtig'a nuhzat qilg'umizdur. Agar el bo'lsalar, Saodat Qulixon yanglig' akobir va mo'tabar kishilardan ko'p kishi mulozimatga irsol qilib, zakot va xirojni kamo hak ahu yuborsinlar. Alar Seshanba kuni Xuroson azimati bila, yo'lga tushib ravon bo'ldilar.

Muhammad Yusuf Munshiy [8; B.68] Xiva xonligida shayboniylar sulolasi davrida Buxoro xonligi va Xiva o'rtasidagi qisqa muddatli ittifoqchilik aloqalari mavjud bo'lganligini ko'rsatadi. Unga ko'ra Buxoro xonligi qo'shinlari Eron hududiga yurushi chog'ida xorazmliklar qo'shini ularga qo'shilganligi qayd qilinadi. Bu davrda Xiva xonligi Buxoro shayboniylaridan Abdullaxon II ta'siriga tushib qolganligi ikkala davlat o'rtasida dushmanlik kayfiyati bo'lishiga

mutajovuz (ortiq) erdi va to'rt ming nafar dorussaltana Xivaqdin erdi, alarni Xurosong'a ravona qilib, Obivardning to'rt farsaxlig'ida bir hisor barpo qildurub, Xivaqobodg'a mavsum qilib, ul asirlarni anda o'lturg'uzdi" [7; B.159].

"Firdavs ul Iqbol" asarida ma'lumotlariga ko'ra, Muhammad Rahimxon I va Amir Xaydar o'rtasidagi elchilik aloqalari o'n yillar davomida deyarli muntazam elchilik aloqalari olib borilgan.

Xiva xonligida shayboniylar davrida Buxoro xonlari bilan qarindoshlik aloqalari mavjudligiga qarmasdan sulolaviy nizolar natijasida pilomatik aloqalar ziddiyatli ko'rinishda bo'lib, davlatlar o'rtasida notinch vaziyat hukmronlik qilgan. Buni yuqorida ko'rsatilgan bir necha tarixiy asarlar va hujjatlarda ko'rsatilgan ma'lumotlar orqali bilib olishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda, mahalliy tarixnavislarning asarlarida Xiva xonligining tashqi aloqalari masalasi keng va izchil yoritilgan bo'lib, unda siyosiy, savdo-iqtisodiy hamda diplomatik munosabatlar muhim o'rin egallaydi. Ushbu manbalarda xonlikning qo'shni davlatlar bilan olib borgan muzokaralari, elchilik almashinuvlari va harbiy-siyosiy ittifoqlari haqida qimmatli ma'lumotlar uchraydi. Mahalliy tarixiy manbalar Xiva xonligining xalqaro munosabatlardagi o'rni va diplomatik faoliyatini tadqiq etishda beqiyos ilmiy ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Абулғозий. Шажарайи турк. – Тошкент: "Чўлпон", 1992.
2. Аллаева Н. Хива хонлигининг дипломатияси ва савдо алоқалари (XVI-XIX асрлар) [Матн]: /Н.Аллаева. – Тошкент: "Академнашр", 2019.
3. Polvonov J. Xiva xonligi va Buxoro amirligi o'rtasidagi siyosiy va diplomatik aloqalar tarixi. Общество и инновации. 4. 143-150. 10.47689/2181-1415-vol4-iss5/S-p.
4. Ҳофиз Таниш ал-Бухорий. Абдулланом. – Тошкент: "Шарқ", 1999.
5. Муҳаммадёр ибн Араб Қатағон. Мусаххир ал-билод. Форс тилидан, изоҳ ва кўрсаткичлар таржима муаллифлар: Исмоил Бекжонов, Дилором Сангирова. – Тошкент: "Янги аср", 2009.
6. Таджиева, Ф. Хива хонлигида қулчилик муносабатларининг моҳияти ва ижтимоий оқибатлари [Матн] / Ф.Ж. Таджиева. – Бухоро: "Sadriddin Salim Buxoriy" Durdona, 2022.
7. Фирдавсу-л-иқбол (Бахт-саодат жаннати) // Шермуҳаммад Авазбий мироб ўғли Мунис Муҳаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Асарлар. 2-жилд, 1-китоб // нашрга тайёрловчи, кириш ва изоҳлар муаллифлари: И. Бекчонов ва Н. Полвонов. – Тошкент: "Шарқ", 2019.
8. Мухаммед Юсуф мунши. Муким-ханская история [Текст] / Пер. с тадж., предисл., примеч. и указатели проф. А. А. Семенова. –Т.: Акад. наук Узбек. ССР.

MUNDARIJA TABLE OF CONTENTS СОДЕРЖАНИЕ		
1	KIRISH	3
2	ANTIK DAVRDA XORAZMDA URBANIZATSION JARAYONLAR Abdullayev Utkir Ismailovich Abdiyazova Mexrinoz Shuxratovna	4
3	O'ZBEK MILLIY KURASHI: SULOLAVIY POLVONLAR TARIXI Maxmudov Umrbek Baxtiyorovich Ruzimova Mahliyo Sayilxon qizi	8
4	SHAPING A SUSTAINABLE FUTURE: ECOLOGICAL AWARENESS AND STATE POLICY IN UZBEKISTAN Egamberganova Matluba Jobborgonovna	12
5	O'RTA OSIYO XONLIKLARINING O'ZARO ICHKI SAVDO ALOQALARIDAGI YO'LLAR Anyozov Ruslan Botirovich Saidova Dilmira Maxsudovna	16
6	TOPLUM VE KADIN: TARİHSEL ADALETSİZLİKTE HUKUKİ EŞİTLİĞE DOĞRU Ahmedova Nilufar Allayorovna	20
7	ТРАНСФОРМАЦИЯ ТРАДИЦИОННЫХ СЕМЕЙНЫХ ИНСТИТУТОВ В УСЛОВИЯХ МИГРАЦИИ И ОАЗИСНОЙ ОСЕДЛОСТИ (НА ПРИМЕРЕ СИБИРСКИХ БУХАРЦЕВ И ХОРЕЗМИЙЦЕВ) Сабирова Саодатжон Руслановна	24
8	IX–XII ASRLARDA MARKAZIY OSIYO OLIMLARINING JAHON ILM-FANI TARAQQIYOTIGA QO'SHGAN HISSASI Sapayeva Mehribon Atabekovna	27
9	O'ZBEKISTON HUDUDIDA TEMIR DAVRI TARIXIY-MADANIY HUDUDLARI, AHOLI TURARJOYLARINING TOPOGRAFIK JOYLASHUVI XUSUSIYATLARI Karimov Zafar Bekturdiyevich Yangiboyev Bozorboy Alisher o'g'li	30
10	XORAZM VOHASIDA ETNOLOGIK TADQIQOTLARNING USTUVOR YO'NALISHLARI Abdalniyazova Moxira Davronbekovna	34
11	KARVON YO'LLARIDA XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH XIZMATI VA UNI TASHKIL ETISHNING ASOSIY JIHATLARI (Xorazm XII-XIX asrlar) Anyozov Ruslan Botirovich Abdirimov Feruzjon Razzokberdiyevich	37
12	Markaziy osiyo va unga qo'shni hududlarda karvon yo'llarida xizmat ko'rsatish tizimi (xii-xv- asrlar) Anyozov Ruslan Botirovich Abdirimov Feruzjon Razzokberdiyevich	41
13	O'zbekiston SSR davrida Xorazm viloyatining ijtimoiy – iqtisodiy va siyosiy ahvoli (1925-1941) Ashirov Umrbek	44

14	AFG'ONISTONDAGI TINCHLIK JARAYONLARI VA MARKAZIY OSIYO XAVFSIZLIGI — YANGI O'ZBEKISTON TASHQI SIYOSATINING USTUVOR YO'NALISHI SIFATIDA (2017–2021-yillar) Shixov Otabek, Atamuratova Salomat	48
15	FUQAROLIK JAMIYATINING ZAMONAVIY MODELLARI Jumaniyazov Bekzod Ochilovich Babadjanov Ilg'orbek Yuldashevich	50
16	O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIDA OLIB BORILAYOTGAN ISLOHOTLAR Baxtiyarov Ravshanbek Baxtiyarovich	55
17	ZAMONAVIY ARXITEKTURA VA MILLIY USLUBLARNING UYG'UNLIGI Matyakubov Nurbek, Bekchanova Guzal	58
18	ETNIK TURIZM TUSHUNCHASI VA UNING HUDUDIY RIVOJLANISHDAGI O'RNI Egamberganov Otamurot Anvar o'g'li	60
19	XORAZM VOHASIDA HARBIY SAN'AT SOHASI RIVOJLANISHI TARIXINING O'RGANILISHI (S.P.Tolstov ekspeditsiyasi misolida) Satimov Bahodir, Hayitboyeva Go'zal	63
20	BUYUK IPAK YO'LI BO'YLAB JOYLASHGAN O'RTA OSIYO SHAHARLARINING SAVDO MUNOSABATLARI VA ULARNING TARIXIY AHAMIYATI (X–XV ASRLAR) Jumanazarova Sadoqat Zafarbek qizi	66
21	CHIG'ATOY ULUSINING IJTIMOIIY-IQTISODIY VA SIYOSIY HAYOTI Nurmetov Ismoil Alimbayevich, Jumanov Behzod Tursunbayevich	68
22	XORAZMDA IKKINCHI JAHON URUSHIDAN KEYINGI DAVRDA TARIXCHILARNING SIYOSIY-IDEOLOGIK TA'LIMI Kenjayev Bunyod Baxtiyor o'g'li Kenjayeva Onajon Islom qizi	73
23	1924–1991-YILLAR XORAZM VILOYATIDA TARIX TA'LIMI RIVOJLANISHIDA ARXIV MATERIALLARINING BOSHQA MANBALAR ORASIDAGI O'RNI Kenjayev Bunyod Baxtiyor o'g'li Kenjayeva Onajon Islom qizi	76
24	BUXORO AMIRLIGIDA HARBIY ISH VA QO'SHIN TUZILISHI: AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR Quronboyeva Maylixol Yaqubboy qizi	79
25	XIII-XV ASRLARDA OLTIN O'RDA XONLIGINING NUMIZMATIKASI Madirimov Behzod Hamro o'g'li	82
26	FARG'ONA VODIYSI HUDUDIDAGI ZIYORATGOHLAR Kucharov Jamshid Kulnazarovich Masharipova Lobarxon Raxim qizi	86
27	XIVA XONLIGI IQTISODIY RIVOJIDA HUNARMANDCHILIK SOHASINING O'RNI Matkarimova Barno Bekberganovna	91

28	URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI TUZILMASIDAGI QATAG'ON QURBONLARI XOTIRASI MUZEYI FONDINING SHAKLLANISHI VA AHAMIYATI Niyozmetova Go'zal Baxtiyorovna	94
29	TURKISTONDA NEFT – KON SANOATI TARIXIDAN MA'LUMOTLAR (XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARI) Kucharov Jamshid Kulnazarovich Nurllayev Mansurbek Atabayevich	98
30	XORAZMDA BESHIK TO'YI: MAROSIM MADANIYATI VA DINIY QARASHLAR TALQINI Otaboyeva Ro'za Qahramon qizi	103
31	BUXORO VA XIVA XONLIKLARINING ROSSIYA IMPERIYASI BILAN DIPLOMATIK MUNOSABATLARI: TARIXIY TAHLIL VA MANBALAR (XIX ASRNING BIRINCHI YARMIGACHA) Otajonova Aziza Jumaboyevna	106
32	G'ARBIY TURK XOQONLIGIDA TOVAR-PUL MUNOSABATLARI Nurmetov Ismoil Alimbayevich Qalandarova Muazzam Sodullayevna	109
33	FARG'ONA VODIYSI GEOGRAFIK O'RNI, PALEOGEOGRAFIYASI XUSUSIDA Sabirov Kurbonboy Qurbanov Sanjarbek Xudoyberganovich	112
34	O'ZBEK XALQ MADANIYATIDA NON ETNOGRAFIYASI VA UNGA OID AN'ANALAR Rajapboyeva Adolat Rasul qizi	115
35	AYOLLAR TARIXI VA JAMIYATDAGI ROLIGA DOIR BA'ZI MASALALAR Nurullayeva Kuvonch Xudayberdiyevna Raxmonova Surayyo Sadullayevna	118
36	XVI–XVII ASRLARDA BUXORO XONLIGIDA IQTISODIY HAYOT Reyimbayeva Onaxon	123
37	IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA XORAZM VILOYATI SANOATINING HARBIY ASOSDA QAYTA QURILISHI Ro'zmetov Shuhratbek Quronboevich	126
38	O'ZBEKISTON HUDUDIDA BRONZA VA ILK TEMIR DAVRI QISHLOQ JAMOALARI: TRANSFORMATSIYA JARAYONLARI VA HUDUDIY XUSUSIYATLAR Nurmetov Sardor Baxtiyarovich. Ruslanov Murod Mansurovich	128
39	BRONZA VA TEMIR DAVRIDA O'ZBEKISTON HUDUDIDA MIKROVOHALARNING TARIXIY TARAQQIYOTI Nurmetov Sardor Baxtiyorovich Ruslanov Murod Mansurovich	131
40	QUYI SIRDARYO HUDUDLARINING PALEOGEOGRAFIK HOLATI VA MADANIY-XO'JALIK MIKROVOHALARINING VUJUDGA KELISHI Maxmudov Umrbek Baxtiyorovich Sabirova Dildora Palvannazirovna	135

41	YUNON-BAQTRIYA DAVLATI TANGALARI Anyozov Ruslan Botirovich Safarboyev Sanjarbek Shonazar o'g'li	138
42	XORAZMSHOH-ANUSHTEGINIYLAR DAVRI XORAZM VOHASI SHAHARLARI HAQIDA ILMIY QARASHLAR Shomuratov Otojon Xamidovich, Ibrahimova Mehriniso	142
43	MARKAZIY OSIYO SAVDO TIZIMIDA XORAZM SAVDO MARKAZLARINING TUTGAN O'RNI Abdirimov Razzokberdi, Shomuratova Nargiza Kuralovna	146
44	N.N.MURAVYOV ASARLARIDA XIVALIK O'ZBEKLARNING AXLOQ-ODOBI, TURMUSH TARZI VA MADANIY HAYOTI: MANBASHUNOSLIK TAHLILI Sobirova Nilufar	150
45	“ЎЗБЕКИСТАН И ТУРЦИЯ: СРАВНИТЕЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ” Курбанова Дилрабо Шерипбоевна Тиллаева Юлдуз Бахрамовна	153
46	O'RTA OSIYO HUDUDIDA BRONZA DAVRI HARBIY XAVF VA MUDOFAA ME'MORCHILIGINING VUJUDGA KELISHI Tilovboyeva Mardona	159
47	XORAZM VOHASIDA XIVA XONLIGI DAVRIDA SAVDO-SOTIQ MUNOSABATLARI: TARIXIY-IQTISODIY TAHLIL Tajiyeva Gulnoza Saporbayevna	162
48	XIVA XONLIGINING SHARQ DAVLATLARI BILAN SAVDO VA ELCHILIK ALOQALARI Xudoyberganova Jumagul Qahramon qizi	166
49	SAK QABILALARINING IJTIMOIIY HAYOT TUZUMI Xudayberganova Lolajon Aminboyevna	170
50	FUQAROLIK JAMIYATI BO'YICHA DASTLABKI TA'LIMOTLAR G'affarov Maqsadbek Qadamboyevich Yakubova Oygul Kenjayevna	174
51	YANGI O'ZBEKISTONDA ERKIN VA OCHIQ FUQAROLIK JAMIYATINING RIVOJLANISHI Axmedov G'ulomjon Jumanazarovich Yaqubov Qodirxon Isaxonovich	178
52	MUZEY SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO MUNOSABATLARNING O'RNI Abdirimov Razzokberdi Yaxshimuratov San'atbek Yaxshimuratovich	183
53	TURIZM VA OMMAVIIY MADANIYATDA ETNOSPORTNING O'RNI Yo'ldashev Behzod Furqat o'g'li	187
54	MUSTAQILLIK DAVRIDA O'ZBEKISTONDA FUQAROLARNING O'ZINI O'ZI BOSHQARISH INSTITUTLARINING TRANSFORMATSIYASI Matyakubov Nurbek, Yuldashova Manzura	190
55	Ilk o'rta asrlarda sirdaryo quyi havzasida madaniy sintez: ko'chmanchi va o'troq an'analar uyg'unligi Sobirov Kuranboy, Yuldosheva Nilufar Davronbekovna	192

56	O'ZBEKISTONDA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARI HUQUQIY ASOSLARINING SHAKLLANISH TARIXI Jumaniyozov Bekzod Ochilovich Yusupov Bekzod Rustamovich	195
57	YOZMA MANBALARDA XORAZM AHOLISI HARBIY SAN'ATI MASALASINING AKS ETISHI Satimov Bahodir Mangliboy o'g'li Iskandarova Fotimajon Muhammadovna	199
58	MAHALLIY TARIXNAVISLARNING ASARLARIDA XIVA XONLIGINING TASHQI ALOQALAR MASALALARI Maxmudov Umrbek Baxtiyorovich Erkinov Kamron Baxtiyor o'g'li	203